популярность. Советское руководство считало, что Афганистан в такой ситуации может попасть как в сферу влияния США (Амина подозревали в связях с ЦРУ), так и оказаться под властью радикальных исламистов. Тогда руководство СССР приняло судьбоносное для себя решения. В результате чего 12 декабря 1979 года Политбюро ЦК КПСС приняло секретное решение устранить Амина от власти.³ Он был убит в ходе штурма дворца советским спецназом 29 декабря 1979, что привело к советско-афганской войне (1979—1989). И так, уже поздно вечером 27 декабря 1979 года афганский народ узнал, что отныне у него появился новый руководитель - Бабрак Кармаль. А учитывая, что этот человек взошел на «трон» под грохот советских танков, въезжающих в Кабул, имя нового вождя на Западе обычно употребляли в обидном сочетании, с приставкой «марионетка Кремля». Однако в присутствии советских войск, окружённый всесильными, но очень далёкими от понимания афганской ситуации советскими советниками, он был не в силах направлять ход событий в нужное русло что ещё больше усугубляло ситуацию. 30 марта 1986 г. Б. Кармаль был доставлен специальным самолётом в Москву, где ему предложили добровольно уйти в отставку «во имя высших интересов страны», передав свои полномочия доктору Мухаммеду Наджибулле, руководителю службы безопасности ДРА.⁴

С приходом Мухаммеда Наджибуллы к власти, начался период политики национального примирения, призванный положить конец братоубийственной войне и принято решения по созданию коалиционного правительства. М.Наджибулла оставлял за собой пост президента и Верховного Главнокомандующего. Посты премьер-министра, председателей верховного суда и народного совета, половина должностей министров, а также посты губернаторов ряда провинций предоставлялись оппозиции. В ходе неофициальных контактов с Ахмад Шахом Масудом одному из авторитетнейших главарей оппозиции была предложена должность заместителя министра обороны, однако он это предложение отклонил. Эта довольно перспективная для тех условий программа не устраивала радикальных руководителей оппозиции в Пакистане. Наиболее непримиримым из них был исламский фундаменталист Гульбеддин Хекматияр. Положение правительства Президента М.Наджибуллы в Кабуле стало ухудшаться по мере нарастания политического кризиса в Советском Союзе, который в 1991 году прекратил поставки кабульскому

³ Штурм советским спецназом дворца Амина в Афганистане «К 35-летию спецоперации Советской Армии и КГБ 27 декабря» <https://tass.ru/info/1674760>

⁴ В.Н.Пластун «Бабрак Кармаль до последнего вздоха верил в правоту избранного им пути» <http://afghanistan.ru/doc/19052.html>

режиму горячего и продовольствия из-за того что распался СССР. Новое правительство России в 1991 году для переговоров об объявлении мира пригласили некоторых лидеров «моджахедов», в частности, Бурхануддина Раббани в Москву. В апреле 1992 года режим Президента М. Наджибуллы пал. По некоторым данным, последний просоветский руководитель Афганистана был свергнут бывшим командующим правительственной Северной армией генералом Адбулом Рашидом Дустумом и лидером «моджахедов» Ахмад Шахом Масудом. С 1992 года, после прихода к власти в афганской столице «моджахедов» М. Наджибулла, проживал на территории миссии ООН. М. Наджибулла, вместе со своим братом Шахпуром Ахмадзаем, бывшим руководителем службы безопасности Президента. Братья были насильно увезены оттуда радикалами и повешены в центре Кабула недалеко от президентского дворца «Арг». Ответственность за смерть президента взяла на себя новообразовавшаяся группировка «Талибан».

24 апреля 1992 года лидеры сопротивления встретились в Пешаваре и пришли к соглашению о формировании Исламского Совета Джихада, который возглавил Сегбатулла Моджадедди (пост министра обороны занял Ахмад Шах Масуд). Однако Г. Хекматьяр, принимавший участие в штурме Кабула под началом А. Масуда, отказался принять участие в разделе власти и попытался сам захватить власть и создать собственное правительство. Его попытки не увенчались успехом, вооружённое сопротивление было подавлено войсками Ахмад Шаха Масуда, и 28 апреля 1992 года, новое правительство провозгласило Афганистан, Независимой Исламской Республикой. Остатки сил Г.Хекматьяра продолжили антиправительственную деятельность. Кроме того, ситуация значительно осложнилась благодаря внутреннему конфликту в стане правительства между суннитами и шиитами (шииты потребовали 8 министерских постов в правительстве Моджадедди). В июне 1992 года Моджадедди уступил свой пост Б. Раббани (лидеру движения фундаменталистов, позднее, в 1993 году, продлившему срок своих полномочий на два года), пост премьер-министра и министра обороны заняли Устад Фарид и Ахмад Шах Масуд (все назначения были поддержаны сторонниками Г.Хекматьяра). Однако через несколько месяцев в Кабуле произошло столкновение между силами Б.Раббани и его противниками с последовавшим артиллерийским обстрелом столицы войсками Г.Хекматьяра. Урегулировать кризис удалось только в 1994 году после разгрома войск повстанцев и мирного договора между тремя наиболее влиятельными партиями. Следующая вспышка насилия произошла после продления президентского срока Б. Раббани (на 6

месяцев) без соответствующего мандата премьер-министра Г.Хекматъяра. В результате силы Г.Хекматъяра при активном содействии пакистанской разведки нанесли несколько бомбовых ударов по Кабулу. Последствия военных столкновений между двумя основными блоками правительства моджахедов довели уже находившуюся в сильном упадке экономику страны до состояния тотального коллапса. Страна за пределами столицы фактически управлялась отдельными полевыми командирами, за проезд по стратегически важным дорогам взималась дань, крестьяне перешли на выращивание мака (для поставок героина), а массовое похищение людей стало обыденной реальностью.

Подобное положение дел в стране явилось одним из основных факторов, способствующих приходу к власти движения «Талибан» («учеников ислама»). Которое просуществовало у власти до 2001 года, когда США и их союзники начали военные действия на территории Афганистана. Операция «Несокрушимая свобода» привела к власти в Афганистане Хамида Карзая. Политическое превосходство Хамида Карзая в Афганистане можно считать прямым следствием террористической атаки США 11 сентября в США, поскольку именно эти события послужили предлогом для начала военных действий с терроризмом. Хамида Карзая буквально «привели» с собой в Афганистан американские войска как в свое время Бабрака Кармаля советские войска для того, чтобы он в качестве главы временного правительства основал новую власть на руинах режима «Талибана».

Наибольшей проблемой, с которой столкнулся Афганистан в период правления Хамида Карзая, стала продолжающаяся война. Международная коалиция под руководством США намеревалась решить проблему военными средствами, но не преуспела в этом. Афганская сторона все эти годы утверждала, что ответственность за продолжение войны в Афганистане лежит на Пакистане, поскольку именно там находится руководство ряда террористических организаций, включая «Талибан» и группировку Хаккани. Однако США не хотят принимать эти заявления Афганистана и продолжают относиться к Пакистану как к союзнику, специально закрывая глаза на очевидные факты. В период правления Хамида Карзая, Афганистан, попавший в замкнутый круг коррупции, производства и контрабанды наркотиков, оценивался на международной арене как страна с крайне неэффективным управлением. Хамид Карзай никогда не отрицал этих обвинений, хотя в основном винил в этой проблеме иностранных советников, которые намеренно создали Афганистану проблемы, приведшие к таким результатам.

Афганистан после Х.Карзая представляет собой страну, у которой закончился «медовый месяц» отношений с Западом. В 2014 г. к власти в Афганистане путем «демократических выборов» пришел Ашраф Гани, выставив свою кандидатуру на президентских выборах, на которых по итогам второго тура одержал победу. Однако его конкурент, бывший министр иностранных дел, доктор Абдулла Абдулла (и ближайший друг героя Афганистана Ахмад Шаха Масуда), признал результаты голосования и потребовал их пересчета. Тогда Гани и Абдулла договорились о разделении властных полномочий, согласно которому победитель пересчета голосов станет президентом, а проигравший займет пост премьер-министра. Независимая избирательная комиссия Афганистана объявила о победе Ашрафа Гани (55,27%). Он вступил в должность 29 сентября 2014 г. после чего, на следующий день подписал двухстороннее соглашение о сотрудничестве в сфере безопасности между Вашингтоном и Кабулом, в соответствии с которым, после полного вывода иностранных войск, в стране остался ограниченный американский контингент. После подписания 29 февраля 2020 года мирного договора между правительством США и официальным руководством «Талибан» военные действия между ними были прекращены, но конфликт талибов с афганским правительством продолжается до сих пор.

Список используемой литературы:

- 1) Конституция Исламской Республики Афганистан, 2004.
- 2) “Abdul Salam Zaeef. My Life With the Taliban (ed. and tran. Alex Strick van Linschoten and Felix Kuehn).” New York, NY: Columbia University Press, 2010. 360 pp., ISBN: 978-1-8490-4026-6. Reviewed by Ryan Shaffer Pages 664-666 | Published online: 08 Sep 2010.
- 3) Р.Т.Ахрамович. Афганистан после 2 мировой войны: очерк истории. Академия наук СССР –Москва: Ин-т народов Азий, 1968.
- 4) Г.Л.Бондарев. Политика Англий на Ближнем и Среднем востоке (1945-1965) -Москва: 1966.
- 5) Ю.П.Лалетин. Этнополитические процессы в истории Афганистана 18-20 веков- Москва: 2000.
- 6) В.Г. Коргун . История Афганистана 20 век- Москва : «Крафт», 2004.
- 7) В.М. Массон. В.А. Ромадин. История Афганистана- Москва: НАУКА, 1964.
- 8) Рашидов Р. Р Афғон давлатчилиги шаклланишига халқаро ва минтақавий жараёнларнинг таъсири. 2018.

9) Институт изучения Израиля и ближнего востока Институт Востоковедия. Афганистан в начале 21 века – Москва: РАН, 2004.

O‘ZBEKISTON VA AFG‘ONISTON ALOQARI JAHON MATBUOTI NIGOHIDA

Fayzullayev Aziz Husan o‘g‘li –
Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi
yo‘nalishi 2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: **t.f.n. Abdullayev U.A.**

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganidan keyin o‘tgan tarixan qisqa davr ichida dunyo hamjamiyatida munosib o‘rin egalladi. Ko‘plab davlatlar va nufuzli tashkilotlar bilan yaqin hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘ydi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi o‘zining yaqin qo‘shnilari bilan munosabatlarda ochiq, do‘stona va pragmatik siyosat yuritish tarafdori bo‘lib kelmoqda. Mintaqaviy hamda milliy xavfsizlikni ta‘minlash, xususan, Afg‘onistondagi ziddiyatlarga barham berish O‘zbekistonning ham ichki, ham tashqi siyosatida ustuvor yo‘lishlardan biri sifatida ko‘rilmoqda. O‘zbekiston Afg‘oniston muammosini hal qilishda o‘zining maqsad va prinsipial pozitsiyasida qolmoqda. O‘zbekiston Afg‘oniston vaziyatni barqarorlashtirishga ko‘mak berishda tinchliksevar loyihalarni amalga oshirish, qo‘shni davlatning uzoq muddatli urushdan vayron bo‘lgan iqtisodiyotni tiklashda ishtirok etish orqali o‘z qat‘iyatini doimiy va izchil namoyish qilishda davom etadi. Xo‘sh, zamonaviy davrda yangi bosqichga ko‘tarilgan Afg‘oniston va O‘zbekiston aloqalari, O‘zbek tomonining afg‘on masalasini hal qilishda tashabbus va yangi yangi loyihalar bilan chiqishi, ikki tomonlama aloqalar vektori kengayib borayotganligi xorijiy axborot vositalarida, jumladan, Afg‘oniston davlati mediayalarida qanday yoritilmoqda?

Ta‘kidlash joizki, dunyoning ko‘plab yetakchi mamlakatlari hamda BMT axborot markazi 2018-yil mart oyida Toshkentda bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiya jarayonlarini yuqori baholashdi.

Jahonga mahshur TOP-5 ga kiruvchi eng zo‘r online xabar berish tarmog‘laridan biri bo‘lmish The DIPLOMAT nashri *“Afg‘oniston yarashuvida O‘zbekistonning roli” (Uzbekistan’s Role in Afghan Reconciliation)* nomli maqolasida O‘zbekiston hukumatining tashabbuslarini sanab o‘tgan. Jurnalda Markaziy Osiyo davlatlaridan Tojikiston va Qirg‘iziston zaif iqtisodiyotga ega ekanligi, Turkmaniston odatda betaraf va yakkalanib turish siyosati borligini aytib, ular yetarlicha ta‘sirga ega bo‘lmasligi mumkinligini takidlagan. Ammo O‘zbekiston joylashuvi bo‘yicha eng yaxshi

mintaqaning eng yirik iqtisodiyotiga ega Qozog‘iston bilan hamkorlik qilishda yetakchi davlat ekanligini hisobga olib, uning salohiyatini yuqori baholaydi. “Afg‘onistonning qo‘shnilari bo‘lmish O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari Afg‘onistonga qo‘shnichilik yordami va toliblarga yangi mas’uliyat va majburiyatlarini aniq tushunishni taklif qilishlari mumkin. Shu sababdan 1992 yildagidan farqli o‘laroq, Afg‘onistonning Markaziy Osiyodagi qo‘shnilari endi Afg‘onistonni mintaqa iqtisodiyotiga qo‘shilish va hukumatning yana bir qulashi va fuqarolar urushiga qarshi kurashda faol rol o‘ynashlari mumkinligini ta’kidlab o‘tganlar⁵.

O‘zbekiston nima qilishi mumkin degan savolga Surxondaryoda Afg‘on yoshlarini o‘qitishga mo‘ljallangan ta’lim markazi faoliyati alohida ta’kidlanib, “O‘zbekiston Termizdagi Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish bo‘yicha ta’lim markazi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Yevropa Ittifoqi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi hamkorligida Afg‘onistonlik yoshlarni o‘qitish va ta’limga yo‘naltirish uchun bir eshikdir. Termiz markazidagi bu kabi markazlar afg‘onistonliklarning yarashishini osonlashtiradi, yosh afg‘onlarga o‘z mamlakatlarida bo‘lmagan sharoitni yaratgan holda uchrashish va bir-birlaridan o‘rganish imkoniyatini beradi. Shuningdek, ushbu yoshlar mehnat standartlari, moliyaviy shaffoflik va halol davlat tenderlari kabi dunyoning biznes yuritish usullari bilan tanishishadi”, deb ta’kidaydi The Diplomat nashriyoti⁶.

Afg‘oniston vektori bo‘yicha tashqi siyosatni amalga oshirish jarayonida O‘zbekiston o‘zining siyosati samaradorligini jiddiy cheklashi mumkin bo‘lgan bir qator tashqi va ichki xatarlarga duch kelishi mumkin. Afg‘oniston inqirozi juda murakkab va ko‘p qirrali. Bunga o‘zlarining kun tartibiga ega bo‘lgan juda ko‘p sonli ochiq va yashirin aktyorlar kiradi. Shu sababli, O‘zbekiston uchun global miqyosda biror narsani o‘zgartirish juda qiyin bo‘lishi mumkin. Lekin shunga qaramay qo‘shni hukumat juda nozik va samarali loyihalarni jadal davom ettirmoqda. Shuningdek, unda aytilishicha, Afg‘oniston bo‘yicha maxsus vakil vakolatining yanada kengaytirilishi va uning Tashqi ishlar vazirligida favqulotda vakolatlarga ega bo‘lishi yana bir mantiqiy qadam bo‘lishi mumkinligini aytadi. Maxsus vakilga ko‘proq mustaqillik berish afg‘on siyosatini amalga oshirishda yanada moslashuvchan va samarali bo‘lishiga imkon beradi, deb ta’kidlanadi. Ayni paytda Maxsus vakilning faoliyati markazlashgan boshqaruv tizimiga kiritilgan bo‘lib, uni tashqi ishlar vazirligining Afg‘oniston siyosati bo‘yicha o‘ziga xos matbuot xizmatini yaratish

⁵ <https://thediplomat.com/2020/08/uzbekistans-role-in-afghan-reconciliation/>

⁶ <https://thediplomat.com/2020/08/uzbekistans-role-in-afghan-reconciliation/>

bo'yicha harakatlar olib borilmoqda. Maxsus vakil bir paytning o'zida O'zbekiston tashqi ishlar vazirining o'rinbosari hisoblanadi.⁷

Bularga qo'shimcha Omar Nessar "Evroasia Dailiy" nashriyotiga bergan intervyusida, O'zbekistonga Afg'oniston prezidentining tashrifi haqida o'z fikrlarini bayon qildi. Shavkat Mirziyoyev va Ashraf G'ani uzoq muddatli istiqbolda o'zbek-afg'on munosabatlari va ustuvor hamkorlik yo'nalishlarini muhokama qildilar. EADaily bilan suhbatda Zamonaviy afg'on tadqiqotlari markazining (CISA) direktori Omar Nessar Afg'oniston prezidentining Toshkentga tashrifi O'zbekistonning qo'shnilarga, shu jumladan Afg'onistonga nisbatan siyosatini o'zgartirish borasidagi sa'y-harakatlari sharoitida amalga oshirilganligi sababli muhim ahamiyatga ega ekanligini aytdi. «O'zbekistonning siyosati Turkmanistonning so'nggi yillardagi siyosatiga o'xshaydi. Markaziy Osiyo mamlakatlari Afg'onistonni tahdid, beqarorlik manbai deb bilishadi. Darhaqiqat, ba'zi bir xatarlar mavjud, ammo ular Turkmanistonni Afg'oniston bilan yaxshi qo'shnilik aloqalarini o'rnatishga to'sqinlik qilmaydi. Ashxobod hatto juda qimmat loyihalarni amalga oshirishga kirishdi, ammo hozircha bu borada jiddiy muvaffaqiyatga erishilmagan, - deydi Omar Nessar».⁸

Jahon media tarmoqlarida aytilgan ushbu fikrlar ikki tomon o'rtasidagi aloqalarning haqiqatda global tus olayotganligini ko'rsatadi. Ayniqsa bu xabarlar va O'zbekiston hukumatining Afg'oniston bo'yicha privintiv diplomatiyaning bir bo'lagi sifatida ko'hna shahar Samarqandda Afg'onlararo suhbatlar o'tkazilishi va unda Tolibon kuchlari yetakchilarining ishtirokchilari qatnashishi va Dohadagi (Qatar) tolibon rahbariyati bilan uchrashuvdan keyin jahon matbuoti nigohini yana o'zbekistonga qaratdi.

12 sentyabr kuni Tolibon va Afg'oniston hukumati o'rtasida tinchlik muzokaralarining boshlanishi o'zbek rasmiylari o'rtasida misli ko'rilmagan g'ayratni qo'zg'atdi. Oxir-oqibat tinchlik o'rnatilishi O'zbekiston uchun iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarining yangi davrini anglatishi kundek ravshan va afg'on diyorlarida tinchlik ta'minlashi suv va havodek zarur. The Diplomat nashriyoti o'zining ***“O'zbekiston afg'onlararo uchrashuvlarda porloq kelajak ko'rmoqda” (Beyond the Intra-Afghan Talks, Uzbekistan Sees a Bright Future)*** nomli maqolasida keltirilishicha yuqoridagi muzokaralar boshlanganidan atigi ikki kun o'tgach, Tolibonning bosh siyosiy rahbari Afg'onistonda O'zbekistonga tahdidlar paydo bo'lishiga yo'l qo'ymasliklariga ishontirish bilan bayonot berdi. Shuningdek, u O'zbekistonning Afg'onistondagi iqtisodiy loyihalarini qo'llab-quvvatlashni kafolatladi.⁹

⁷ O'sha manba.

⁸ <https://eadaily.com/uz/news/2017/12/05/afghan-presidents-visit-to-uzbekistan-problems-are-more-than-projects>

⁹ <https://thediplomat.com/2020/09/beyond-the-intra-afghan-talks-uzbekistan-sees-a-bright-future/>

Tolibon harakatining Qatardagi siyosiy idorasi rahbari **mulla Abdul G'ani Barodar** toliblar va Afg'oniston hukumati o'rtasidagi muzokaralar doirasida o'zbekistonlik ommaviy axborot vositasi vakili bilan suhbatlashdi¹⁰. Suhbatda u Afg'onistondagi infratuzilma loyihalarida ishlayotgan O'zbekiston xodimlarining xavsizligiga va'da berdi.

Baradar bayonotining ikkinchi qismi O'zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo davlatlarining xavfsizligiga tahdid solmaslik kafolati edi. Ushbu bayonot Tolibon harakati va undan keyingi zo'ravonlik Markaziy Osiyoga tarqalib ketishidan yashirin qo'rquvni hisobga olgan holda mintaqa uchun misli ko'rilmagan geosiyosiy ta'sirga ega. Amalga oshirilmagan bunday qo'rquvlar mintaqaning Afg'onistonga nisbatan nuqtai nazarini shakllantirgan edi. Natijada esa Markaziy Osiyo davlatlari o'zlarini Afg'onistondan bir necha o'n yillar davomida ajratib, Afg'onistonning istilosiga qarshi turish uchun o'zlarining harbiy kuchlarini qurishga e'tibor berishdi. Bir ma'noda, Baradarning bayonoti ushbu qo'rquvni zararsizlantirish va xavfsizlik qo'rquvlarini yumshatish orqali mintaqa davlatlarini kooperativ rejimiga o'tkazishga qaratilgan yirik qadam hisoblanadi.¹¹

Ozarbayjondagi eng nufuzli nashriyotlardan biri Azarnewsning 8 Noyabr 2017 yilgi *Afg'oniston va O'zbekiston savdo-iqtisodiy hamkorligining istiqboli (Afghanistan, Uzbekistan eye trade and economic cooperation)* nomli maqolasida ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy HUB yaratilayotgabliligi ta'kidlab o'tilgan.

O'zbekiston-Afg'oniston munosabatlari deyarli hamkorlikning barcha muhim sohalarini - savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, siyosiy va boshqalarni qamrab oladi. O'zbekistonda Afg'oniston kapitali ishtirokidagi 70 ta korxonalar, shu jumladan 100% xorijiy kapital ishtirokidagi 20 ta korxonalar faoliyat yuritmoqda. O'zbekistonda xizmat ko'rsatish, savdo operatsiyalari, qurilish materiallari ishlab chiqarish bo'yicha Afg'onistonning 12 kompaniyasi va kompaniyalari faoliyat yuritmoqda. Afg'oniston hududida oltita qo'shma o'zbek-afg'on korxonalari tashkil etildi.¹²

Yetakchi nashriyotlar xabarlariga qo'shimcha ravishda Afg'onistonning o'zidagi medialar ham ikki qo'shni davlat o'rtasidagi aloqalar va iqtisodiy loyihalar haqida o'z xalqiga pushtu, dari va ingliz tillarida xabarlarni yetkazib bormoqda. Jumladan eng ommabop nashr hisoblanmish TOLONews quyidagilarni yozadi. O'zbekiston bosh vazirining o'rinbosari va investitsiyalar va tashqi savdo vaziri Sardor Umurzoqov seshanba kuni Kobulga keldi va

¹⁰ Intervyu O'zbekiston 24 kanali jurnalisti tomonidan yozib olingan (Taxrir izohi)

¹¹ <https://thediplomat.com/2020/09/beyond-the-intra-afghan-talks-uzbekistan-sees-a-bright-future/>

¹² <https://thediplomat.com/2020/09/beyond-the-intra-afghan-talks-uzbekistan-sees-a-bright-future/>

prezident Ashraf G'ani va boshqa afg'on rasmiylari bilan uchrashdi. G'ani bilan uchrashuvda Umurzoqov mamlakatining tinchlik jarayoni va Afg'oniston hukumatining rejalarini qo'llab-quvvatlashini aytdi, deyiladi Saroy bayonotida.¹³

O'zbekiston delegatsiyasi seshanba kuni tushdan keyin Prezident saroyida Afg'onistonda o'zbek tilining milliy kunini nishonlaydigan marosimda qatnashdi. "100 yildan ziyod masofani bosib o'tganimizdan so'ng, bugun Afg'oniston va O'zbekiston o'rtasida uzilmas aloqalar mavjud", dedi prezidentimiz Ashraf G'ani tadbirda. Tashqi ishlar vazirligida O'zbekiston bosh vazirining o'rinbosari shuningdek tashqi ishlar vaziri vazifasini bajaruvchi Muhammad Hanif Atmar bilan ham uchrashdi.¹⁴

20-may kuni Toshkentda O'zbekiston tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov bilan uchrashgan Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT) raisi Miroslav Laychak O'zbekistonning mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni va Afg'onistonga ko'rsatayotgan doimiy yordamini alohida e'tirof etdi.

YXHT saytining yozishicha, tashrif davomida Laychak Termizda afg'onistonliklar uchun tashkil etilgan ta'lim markaziga 10 ming yevro (11,1 ming AQSH dollari) taqdim etgan. Ushbu markaz Surxondaryo viloyatida joylashgan.¹⁵

Shuningdek, CARAVANSARAY nashriyotida keltirilichicha "Shavkat Mirziyoyev va uning afg'onistonlik hamkasbi Ashraf G'ani COVID-19 tarqalishini to'xtatish uchun birgalikda ishlashga kelishib, Afg'onistonda tinchlik o'rnatish tarafdori ekanliklarini yana bir karra tasdiqladilar.¹⁶ 23-mart kuni Afg'onistonning Samangan viloyatida COVID-19 ni davolashga ixtisoslashgan shifoxona ochildi.¹⁷

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, O'zbekiston tashqi siyosatida o'z prinsipiga egaligi va afg'on mojarosini hal qilish bo'yicha qat'iy pozitsiyaga ega ekanligi jahon matbuotida ham ijobiy bahoab kelinmoqda. Bu esa o'z navbetda, O'zbekistonning tashqi siyosatdagi imidjni yanada kuchaytiradi.

¹³ <https://tolonews.com/index.php/afghanistan-167198>

¹⁴ O'sha manba

¹⁵ https://central.asia-news.com/uz-Latn/articles/cnmi_ca/features/2019/06/06/feature-01

¹⁶ https://central.asia-news.com/uz-Latn/articles/cnmi_ca/features/2020/04/02/feature-02

¹⁷ [Afg'oniston sog'liqni saqlash vazirligi]

POKISTONNING AFG‘ONISTONDAGI ICHKI SIYOSIY VAZIYATGA TA’SIRI

Abdullayev Jamshid –

*Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi
yo‘nalishi 2-kurs magistranti*

Ilmiy rahbar: **t.f.n. Abdullayev U.A.**

Bugungi kunda Afg‘onistondagi siyosiy vaziyat hukumat boshqaruviga ta’sir ko‘rsatuvchi tashqi va ichki omillar asosida shakllanmoqda. Tashqi omillar deganda mamlakat tashqarisidagi kuchlarning Afg‘oniston ichki siyosiy jarayonlarga ta’siri tushuniladi. XIX asrning ikkinchi yarmida “Great game” nomi asosida shakllanib, XX asrda davom etgan geosiyosiy jarayonlar XXI asr boshlarida mutlaqo boshqa maqsad va vazifalar asosida “New Great game” nomi bilan davom etmoqda.

Afg‘onistondagi jarayonlarga ta’sir etuvchi tashqi omillar faoliyatini tahlil qilishda Pokiston o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Pokiston va Hindiston o‘rtasidagi azaliy qarama-qarshilik Islomobodning e’tiborini shimoliy-g‘arbiydgagi Afg‘oniston va Markaziy Osiyo mamlakatlariga qaratishga majbur bo‘ldi. Pokiston hukumati mustaqillikdan so‘ng Afg‘oniston bilan do‘stona munosabatlar o‘rnatishga harakat qilib kelgan. Bu harakatlarning asosiy sababi Pokiston Afg‘oniston bilan eng katta chegaraga ega bo‘lib, mazkur chegara hududida esa bir xil millat, ya’ni pushtunlar, belujiylar istiqomat qiladi. Pokiston hukumati azaldan Afg‘onistondagi vaziyat beqaror bo‘lishidan manfaatdor bo‘lib kelgan. Chunki, Pokistonning Belujiston viloyatida taxminan 8,0 mln belujlar hamda Federal boshqaruvdagi qabilalar hududida 4 mln atrofida yashayotgan pushtunlarning separatistik harakatlari hozirgacha mavjuddir. Shuningdek, AIR hamda PIR munosabatlarida Federal boshqaruvdagi qabilalar hududi (FBQH) bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar saqlanib turibdi. Bu masalalarga pushtun omili, Afg‘oniston-Pokiston chegarasi statusi, afg‘on qochoqlari va transchegaraviy terrorizm kiradi.

Ta’kidlash joizki, FBQH yashovchi 4 mln aholining 90% ni pushtunlar tashkil etadi¹⁸. Pushtunlarning umumiy soni 38 mln atrofida bo‘lib, ulardan 12,5 mln. Afg‘oniston hududida, 25 mln Pokistonda istiqomat qiladi¹⁹. Ikki mamlakatda yashovchi pushtunlarni birlashtiruvchi mustaqil «Buyuk Pushtuniston» davlatini qurishga intilishlari FBQHda notinchlikni saqlanib

¹⁸ Силаев А. О террит ории племен федерального управления Пакистана. <http://www/iimes.ru/rus/stat/2008/23-10-08.html>

¹⁹ Паничкин Ю. Образование Пакистана и пуштунский вопрос. – М.: Научная книга, 2005. - С. 43.

qolishiga sabab bo'lmogda. Mazkur transchegaraviy muammolarning asosiy sababi 1893-yil 12 noyabr Qobul shahrida Afg'on amiri A.Rahmon va Britaniyaning Hindistondagi vakili M.Dyurand tomonidan imzolangan shartnomadir²⁰. Mazkur shartnoma tarixda «Dyurand chizig'i» nomini olgan. Shartnomaning qonuniylik masalasi ikki mamlakatning tortishuviga sabab bo'lib kelmoqda. Xususan, 1949 yilda afg'on Loyi Jirg'asi Dyurand chizig'ini noqonuniyligini e'lon qilib uni tan olmadi²¹. Afg'oniston hukumati «Pushtuniston kuni»ni milliy bayram kuni deb e'lon qilgan holda mazkur qarorni qo'llab quvvatladi. 2003 yil 31 avgustda bu bayramni nishonlanishi ikki tomonlama munosabatlarda pokiston-afg'on chegarasi muammosiga aylandi. 2003 yilning iyulida chegara tumanlarida Afg'oniston va Pokiston xavfsizlik kuchlari o'rtasida qurolli to'qnashuvlar bo'lib o'tdi. Bu ish Qobuldagi Pokiston elchixonasida tintuv o'tkazishgacha olib bordi²².

2007 yil may oyida Islomobodning Afg'oniston chegarasida to'siq tizimini o'rnatish va mina maydonini qurishga harakati ikki tomon chegara kuchlarining qurolli to'qnashuvlariga olib keldi. Mazkur tadbirni Pokiston hukumati transchegaraviy terrorizmni to'xtatish va "Toliblar" harakatini bartaraf etishga yordam beradi deb hisoblamogda. O'z navbatida afg'on hukumati birinchi o'rinda Afg'oniston va Pokiston chegarasida uzil-kesil demarkatsiya o'tkazishni talab qilgan.

Shuningdek, PIR hududida ko'plab afg'on qochoqlarining joylashganligi, mamlakat ichki xavfsizligiga, ayniqsa FBQHga jiddiy ta'sir ko'rsatyapdi. Qochoqlarning ishtiroki mintaqada jamoaviy munosabatlarning transformatsiyalashuviga va aholining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotida muammolarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Pokistonlik ekspertlar fikricha, Islomobod qochoqlarni saqlash uchun har kuni 500 ming AQSH dollar atrofida mablag' sarflaydi, 1986 yil 175000 pokistonlik fuqaro qochoqlar bilan ishlashda band bo'lgan (ta'lim sohasida 46, sog'liqni saqlash va b.)²³. Shu bilan birga, qochoqlar ishlari bo'yicha BMT Oliy Boshqaruv komissarligi va donor davlatlar Pokistonga asta-sekin yordamni qisqartirishmogda: 1980 yillar boshida 109 mln AQSH dollar tashkil qilgan bo'lsa, hozirda bu 4 mln dollarga teng²⁴.

2006-yil oktyabrdan 2007-yil apreligacha o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish natijalariga ko'ra, PIRda umumiy qochoqlar soni 2 mln. nafardan ziyod kishi, FBQHda esa ularning soni 1,5 mln.ga yaqin, ya'ni aholining 30%ga

²⁰ Mannonov A. M, Abdullayev N. A, Rashidov. R. Afg'oniston tarixi. O'quv qo'llanma, - T.: 2018. – B. 155.

²¹ Lambah S.K. The Durand Line / Policy Papers №4. - New Delhi. Aspen Institute India. 2011. - P. 4-6.

²² Mannonov A. M, Abdullayev N. A, Rashidov. R. Afg'oniston tarixi. O'quv qo'llanma, - T.: 2018. – B. 308.

²³ Хан Н. Пакистан и афганский кризис (1978-1988 гг.). Дис. на соискание уч. ст. канд. ист. наук. –Т.: 1997

²⁴ Mannonov A. M, Abdullayev N. A, Rashidov. R. Afg'oniston tarixi. O'quv qo'llanma, - T.: 2018. – B. 307.

yaqinini tashkil etgan. Bu esa hududdagi ichki vaziyatga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda²⁵.

Shuningdek, toza ichimlik suvining yetishmasligi, qo'y va chorva mollar uchun yaylov, shuningdek, taom tayyorlash uchun o'tin, uy-joylarni isitish, FBQH uchun doimo muammo bo'lib kelgan. Qochoqlarning qo'y va chorva mollar bilan ko'chishi vaziyatni yanada murakkablashtirmoqda. Ekspert Silayev A. ta'kidlashicha, Pokistondagi 80% dan ortiq afg'on qochoqlar o'z vatanlariga qaytishni xohlashmaydilar. Buning asosiy sababi ular o'zlari moslashgan joyni tashlab, yashash sharoiti qiyin bo'lgan tarixiy vatanlariga borishdan ko'ra PIRda qolishni ma'qul ko'radilar²⁶.

Terrorizm muammosi ham ikki mamlakat munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. 2006-yil sentyabrda davlat rahbarlarining Vashingtondagi uchrashuvida, Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash masalasini qabila liderlari bilan birgalikda muhokama qilish uchun, ikki davlat pushtun qabilalarining Katta jirg'asini hamkorlikda o'tkazish masalasi ilgari surilgandi. Ushbu kelishuvga muvofiq, 2007-yil 9-11-avgust kunlari Qobulda Afg'oniston-Pokiston jirg'asi bo'lib o'tdi. Lekin FBQH qabila vakillari, shuningdek Jamiyat Ulamoye-Islom (Jamiyat Ulema-e-Islam) diniy partiyasining nufuzli lideri F.Rahmonning unda qatnashish istagini bildirmaganligi, uning natijasiz xotima topishiga sabab bo'ldi. Shuningdek, Afg'oniston hukumatining terrorizmga qarshi kurashda Islomobod bilan hamkorlik masalasida ishonchsizlik bildirib, uni tez-tez terroristlarni qo'llab-quvvatlashda aybladi. Xususan, Afg'on hukumati FBQHdagi terroristik guruhlar va ekstremistlar bilan Pokiston o'rtasida tinchlik kelushuvi bo'lishiga hamisha qarshi edi. Jumladan, AIR tashqi ishlar vaziri R.Spanta 2008-yil 5-iyunda PIR tashqi ishlar vazirligi rahbari M. Kureyshiy bilan uchrashuvda Islomobodning toliblar bilan kelishuvini muhokama qildi. Uning so'zlariga ko'ra, tinchlik kelishuvlaridan so'ng, Afg'onistonda terroristlarning faolligi bir necha bor oshgan²⁷.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan muammolarga qaramay Pokiston Afg'oniston bilan diplomatik munosabatlarini davom ettirib kelmoqda. Xususan, AIR va PIR hamkorligi mintaqada tinchlik, xavfsizlik va rivojlanishni ta'minlash yuzasidan imzolangan "Yaxshi qo'shnichilik to'g'risida"gi Qobul deklaratsiyasi (2002-yil), "Pokiston Islom Respublikasi va Afg'oniston Islom Respublikasi o'rtasida tranzit qatnovi to'g'risida"gi kelishuv (2005-yil), "AIR va PIR terrorizmga qarshi kurashishda hamkorlik to'g'risida"gi memorandum, "Pokiston Islom Respublikasi va Afg'oniston Islom Respublikasi o'rtasida ishonchni

²⁵ Qarang: O'sha kitob. – B. 309

²⁶ Силаев А. Афганские беженцы в Пакистане. <http://www.iimes.ru/rus/stat/2007/20-07-07.html>

²⁷ Mannonov A. M, Abdullayev N. A, Rashidov. R. Afg'oniston tarixi. O'quv qo'llanma, - T.: 2018. – B. 311.

mustahkamlash choralarini amalga oshirish uchun ishchi guruhini tuzish to'g'risida"gi shartnoma (2007-yil), "Ikki tomonlama hamkorlik yo'nalishlari to'g'risida"gi qo'shma deklaratsiya (2009-yil), "Islomobod deklaratsiyasi" (2009- yil 13-14-may kunlari Islomobodda bo'lib o'tgan xalqaro konfere-nsiyasi yakunlari bo'yicha imzolangan), "Afg'oniston - Pokiston savdo-tranzit kelishuvi to'g'risida"gi shartnoma (2010-yil oktabr) shular jumlasidandir²⁸. Shuningdek, 2011-yilning 19-iyul kuni PIR Prezidenti A.A.Zardoriy Afg'onistonga rasmiy tashrif bilan keldi. Mazkur tashrif davomida tomonlar ikki o'rtadagi savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi- ga chegara hududlarida yuzaga kelayotgan beqaror vaziyat salbiy ta'sir ko'rsatayotganligini muhokama qildilar. 2012-yil 16-17-yanvar Islomobod shahrida Afg'oniston- Pokiston qo'shma iqtisodiy komissiyasining navbatdagi 8-yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda Pokiston Moliya vaziri Hafiz Shayx va Afg'oniston Moliya vaziri Hazrat Omar Zahelval boshchiligidagi ikki tomon vakillari o'zaro hamkorlik masalalarini muhokama qilib, 2015-yilgacha ikki davlat o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash miqdorini ikki barovar oshirishga kelishib oldilar²⁹.

2020-yil Pokiston va Afg'oniston rahbarlarining uchrashuvida Islomobod o'zining keying rejalari haqida o'rtoqlashdi. Islomobod AQShning Afg'onistondan o'z qo'shinlarini to'satdan olib chiqib ketishidan xavotirda ekanligini bildirib, Najibulloh hokimiyatining qulaganidan keyin Pokiston og'ir yukning ko'pini ko'tarib kelayotganini ta'kidladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki Afg'onistondagi notinjlilik global muammo darajasida namoyon bo'lib butun dunyo mamlakatlarini tashvishga solmoqda. Hududdagi notinchlikni bartaraf etishda Xalqaro tashkilotlar va iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlar o'z pozitsiyalari asosida harakat qilmoqdalar. Ming afsuski notinchlikni bartaraf etuvchi tarafdorlarining turli maqsadlarni ko'zlaganliklari sabab o'zining aks tasirini ko'rsatmoqda. Buni Pokiston misolida ham ko'rish mumkin. Dastlabki yillarda Pokiston Afg'onistondagi notinchlikdan manfaatdor bo'lib, o'ziga bo'ysunuvchi tarafdorlardir hukumat tepasiga olib kelishga harakat qildi. Bu harakat orqali transchegaraviy hamda etnik muammolardir bartaraf etib, Afg'oniston hududi orqali Pokiston-Markaziy Osiyo savdo karidori hamda Turkmaniston gazini Pokistonga olib kelish edi. Bir so'z bilan aytganda Pokistonning ko'zlagan geosiyosiy maqsadi Afg'onistondagi notinchlikni kuchaytirdi.

²⁸ Qarang: O'sha kitob. – B. 309

²⁹ Mannonov A. M, Abdullayev N. A, Rashidov. R. Afg'oniston tarixi. O'quv qo'llanma, - T.: 2018. – B. 310.

HIND JAMIYATIDAGI XOTIN-QIZLAR ROLI QADIMGI HIND EPOS VA DINLARIDA

Xayrullayeva Iroda Faxriddinovna -
Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi
yoʻnalishi 1-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: **t.f.d., prof. Shodmonava S.B.**

Annotatsiya: Ayollarga nisbatan koʻrsatib kelinayotgan nohaqliklar ildizi bugun yoki kecha paydo boʻlgan emas, u uzoq oʻtmishga borib taqaladi. Zero, hind jamiyatida ayollar qadimdan past mavqega ega boʻlgan. Ular oʻz hayotlarining barcha jabhalarida kamsitilgan, bu esa oʻz navbatida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tengsizlikka olib kelgan. Jinsiy kamsitilish ularni inson hayotining barcha sohalari, inson huquqlari, asosiy erkinliklaridan foydalanish, rohatlanishdan mahrum qildi. Bunday noxush holat uchun bir qator omillar, shu jumladan, hind eposlaridagi talqinlar va diniy sabablar ham bor. Hindistonda bu omillar ayollar mavqeyini aniqlashda juda muhim ahamiyatga ega, chunki u odamlar tafakkuri, madaniyati va xulq-atvoriga kuchli taʼsir koʻrsatadi. Bu ularning nafaqat shaxsiy va oilaviy hayotida, balki ijtimoiy hamda guruhlararo munosabatlarini ham tartibga soladi.

Kalit soʻzlar: Veda matnlari, hinduizm, jaynizm, sati, kasta, Manu qonunlari, Mahabharata, Ramayana.

Dunyoda istiqomat qilib kelayotgan aholining deyarli 50%ini ayollar tashkil qiladi. Gʻarb mamlakatlarida xotin-qizlar va erkaklar tengligiga amalda erishilgan boʻlsada, Hindistonda esa hozir ham ularning tengligi masalasi faqat amalda hujjatlarda oʻz aksini topgan. Bu vaziyat shubxasiz tarixiy ildizlarga borib taqaladi. Mamlakatda ayollar qadimdan shoh va rojalar huzurida raqs tushuvchi raqqosa yoxud erkakalarga tegishli boʻlgan bir buyum sifatida qarab kelingan. Ular omma oldida ovozlari koʻtarib gapirishi, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va shaxsiy huquqiy masalalarda erkin faoliyat yuritishiga ruxsat berilmagan. Bu yerda ayollarga faqat qogʻozda erkinlik beriladi, xolos. Madaniy jihatdan ayollarga Lakshmi, Sarasvati, Durga va boshqa maʼbudalar kabi munosabat aks etsa-da, ikkinchi tomondan ularga nisbatan zoʻrlash, jinsiy eksplutatsiya, odam oʻgʻirlash, odam savdosi, ularga nisbata ochiqdan ochiq yetkazib kelinayotgan maʼnaviy, jismoniy tan jarohatlar, koʻplab femistik jinoyatlar sodir etib kelinoqda. Boshqa tomondan oʻz kareyerasini yarata olgan ilgʻor xotin-qizlarga maoshsiz ishlaydigan qul singari munosabatda boʻlinadi. Bunga asos patriarxat jamiyatini qoʻllab-quvvatlovchi shaxslar hamda ular tomonidan ragʻbatlantirilib kelinayotgan tashviqotlar samarasidir. Qadimdan

ayollarga erkinlik va to'laqonli shaxs sifatida rivojlanish imkoniyati berilmadi. Ular turli xil madaniy, ijtimoiy va tarixiy omillar, ayollarning rivojlanishi nazorat qilib borilganligi sababli, ular ijtimoiy hamda iqtisodiy taraqqiyotga munosib hissa qo'shishdan bosh tortdilar.

Dunyo yaratilishi hindlar versiyasida hech qanday jinsga bo'linish yo'q edi - erkak va ayol go'yo bir butun bo'lib qurilgan. Bu xristianlik va islom dinidan tubdan farq qiladi. Unga ko'ra, Momo Havo Odam Atoning qovurg'asidan kelib chiqqan, bu dastlab ayolning nuqsonli ekanligini tasdiqlaydi. Ammo keyinchalik Hindistonda paydo bo'lgan urf-odatlar va an'analar oldingi yondashuv boshqa diniy falsafa va amaliyotga yo'l ochib berdi, bu esa ayol va erkaklarga oila va jamiyatda o'ziga xos joy ajratdi. Asta-sekin ayollarni erkaklarga bo'ysundirish va boshqarish uchun juda aniq mexanizm yaratildi. Ayollar hamda pastki sinf vakillari - shudralar bilan birga ijtimoiy zinapoyaning eng past pog'onalaridan joy oldilar. Ayollar qadimgi urf-odatlar aks etgan sanskrit tilidagi muqaddas matnlarni o'qishlari (shu sabab ular savodsiz qolib keta boshladi) va qurbonlik marosimlarida qatnashishga imkon bermagan, bu faqat yuqori tabaqa vakillarining huquqi edi.

Kastalar iyerarxiyasida ayollarning erkaklarga bo'ysunishi juda muhimdir. Bundan tashqari, uning holati kasta qanchalik yuqori bo'lsa, ayollar ko'proq cheklanishlarga duchor bo'ladilar, undagi gender nomutanosibligi - "gender assimetriyasi"³⁰ sezilarli bo'ladi. Quyi tabaqalar singari, ayol ham tug'ilishdan boshlab nopok hisoblangan. Qadimgi hind kitoblarida u ko'pincha yolg'onchi, fikrlashda nunoq, nomuvofiq, barcha yovuzlikning boshlang'ich nuqtasi sifatida tavsiflanadi. Manusmritining muqaddas ayolning qaram holatini tasdiqlaydi, unga ko'ra ayol bolaligida otasiga, turmush qurgandan keyin eriga, agar turmush o'rtog'i vafot etsa o'g'illariga bo'ysunishi kerak edi. Hindiston jamiyatida ayol iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'la olmaydi, degan tushuncha chuqur ildiz otgan. An'ana ayolni oila, bolalar tug'ilishi va tarbiyasi bilan bog'laydi. Hindistonda ideal ayol bu ona hisoblanadi. Katta yoki ajralmas oilada er onasini birinchi o'ringa qo'yadi. U shuningdek, oilaning bekasi sanaladi.

Xotinning obro'si har doim o'g'il tug'ish qobiliyatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq edi. O'g'ilga berilgan imtiyoz, shuningdek, qizga nisbatan salbiy munosabat an'anaga muvofiq belgilanadi. Hind oilasining ijtimoiy instituti aslida voyaga yetgan qizni chiqarib tashlagan. Erta bolalikda, qizning taqdirini otasi yoki uning vasiysi hal qilishi kerak edi. Qiz hindlarning xususiy qonunlariga ko'ra, boshqa oila guruhining ajralmas qismi bo'lganida, cheklangan bo'lsa ham, xotin rolida oz bo'lsa-da huquqlarga ega bo'ladi.

³⁰ Dube L. Caste and women/Caste:Its Twentieth century avtar. Ed. By M.N. Srinivas, New Delhi, 1997. P.21

Hindistonning tarixiy rivojlanishi, hindlarning son jihatdan ustunligi, hinduizmning deyarli barcha etnik guruhlar va diniy jamoalarda ijtimoiy hayotning ko'p jabhalariga kuchli ta'siri tufayli, ayollar muammolari o'xshash yoki yaqin xususiyatlarga ega. Ularning asosiylari ayollarning iqtisodiy qaramligi, erta turmush qurish, kelin uchun majburiy sovg'a(sep), katta oilalar, cheklanish (harakat erkinligini cheklash, tashqi dunyo bilan aloqa qilishdan mahrumlik), abadiy bevalik edi.³¹ Hinduizmga asoslangan kastatsiya instituti vaqt o'tishi bilan hind jamiyatining barcha mazhablariga xos bo'lib qoldi. Kasta hind islomi va hind nasroniyligida ham yashaydi. Bu o'z navbatida shuni anglatadiki, ushbu dinlar targ'ib qiladigan tenglik dagmasi kastani tarqatib yuborishga qodir emas edi³². Hind jamiyatining an'anaviy patriarxal tuzilishi ayollarni bo'ysundirdi va ularning jamoat hayotidagi ishtirokiga to'sqinlik qildi.³³

Diniy omil ularga nisbatan noxolislik va orqada qolishda muhim ahamiyat kasb etdi. Aksariyat hind diniy tizimlarida ayollar najotga olib keladigan diniy yo'lda to'siq sifatida ko'rilgan yoki diniy va muassasalar hayotida faqat ikkinchi darajali o'rin berilgan. Jaynizmning Digambara mazhabi, ayollar mokshaga erisha olmaydi, deb ta'kidlashadi. Ular Sidha bo'lolmaydilar. Xudo ularni ayollar sifatida yaratganligi haqiqatdir, ular jannatga kirishdan yoki najot topishdan mahrum bo'lishgan. Ular tug'ilish va o'lim siklidan xalos bo'lish uchun erkak sifatida qayta tug'ilishlari kerak. Shunday qilib, hatto Xudo ayollarga nisbatan kamsitishni amalga oshiradi, deb qaralgan.³⁴ Hinduizm dinida ayollar o'zni ancha quyi pog'onaga qo'yilgan. Hinduizm sanyasa g'oyasiga yuqori baho berilganligi sababli, ayollardan nafratlanib kelingan. Ular "do'zaxga boradigan yo'lni yorituvchi mash'ala" sifatida qabul qilingan.³⁵ Ularga juda past baho berishdi. Ular shahvat va ochko'zlikning jonli tasviri hisoblanar edi. Ular erkaklar uchun yomon ta'sir va ruhiy safarlarida ijobiy to'siq deb hisoblangan.³⁶

Hindistonda Brahman hukmronligi o'rnatilgani va Manu kodeksining ijro etilishidan boshlab, ayollar o'zni qul darajasiga tushib qoldi. Dastlabki Veda davrida ayollarga hurmat qilishni buyurishgan va biron bir diniy yoki ijtimoiy ish o'z xotining faol qo'llab-quvvatlashisiz tugallanmagan. Ayollar ta'lim va bilim olish huquqiga ega edilar. O'g'il va qizlar birgalikda ta'lim olishgan. "Vedalar" mualliflari orasida ham yigirma ikki ayol borligi aytilgan. Gargi va

³¹ Beenat.25

³² Caste: Its 20th century avtar. P XXXV.

³³ E.C.Юрлова. Индия: Гендерные проблемы на рубеже XXI века с.83-84

³⁴ S Radha Krishnan. Dharm aor samaaj. London, Jorj Allen aor Unvin Ltd., 1966

³⁵ S Radha Krishnan. Dharm aor samaaj. London, Jorj Allen aor Unvin Ltd., 1966

³⁶ S Radha Krishnan. Dharm aor samaaj. London, Jorj Allen aor Unvin Ltd., 1966

Mayrey singari ayollar hurmat qilingan. Ammo Brahmanlik uyg'onishining Vedasi bo'lgan Manusmriti ayolning abadiy bo'ysunishining asosiy va g'arazli ta'limotini yaratdi. Manu aytadi: "Bolalikda, ayol otasiga, yoshligida eriga, xo'jayini vafot etganida esa o'g'liga bo'ysunishi kerak, ayol hech qachon mustaqil bo'lmaydi".³⁷

Manu tomonidan o'rnatilgan qoidalarga binoan hind jamiyatida ayollar mavqeyi boshqarilgan. Manu dharm shastrasida ayollarning mavqeyini pasaytirishga qasddan urinishlar bo'lgan. Ayol har jihatdan erkakdan past hisoblanar edi. Ayol eridan qanday xatolari bo'lmasin, Xudoga topinish talab qilingan. Manu fikriga ko'ra, "fazilatsizlik yoki zavqlanishni xohlasa (boshqa joyda) yoki yaxshi fazilatlariga ega bo'lmagan holda (lekin) er sodiq xotin tomonidan doimo Xudoga sig'inishi kerak. "Er norozi bo'lmasligi yoki unga nisbatan biron bir hurmatsizlik ko'rsatmasligi kerak edi. Boshqa tomondan esa er xato qilgan xotiniga nisbatan chora ko'rish huquqiga ega edi. Ayollarning ayanchli ahvoli haqida izoh bergan R.C. Majumdarning aytishicha, "bechora eri o'lganida ham o'z jonini yoqib eriga ergashishi kerak edi, lekin er o'zidan oldin o'lgan xotinidan so'ng yana qayta uylanishi mumkin".³⁸ Shunday qilib, ayollar doimiy tanazzul va azob-uqubat hayotiga mahkum qilindi. Terida qat'iy poklikni kuzatish talab qilingan va umri esa uyning to'rtta devori bilan cheklangan. Ularning ishlashi taqiqlangan edi. Ularga ta'lim olish imkoniyati berilmadi va johillik jariga otildilar. Ayolning o'ziga xos jihati yo'q edi. Nikoh ayollar hayotidagi yagona martaba va maqsadiga aylandi. Bolalar nikohi amaliyotga joriy etildi. Ota-onalar o'z qizlarini balog'at yoshiga yetguniga qadar turmushga berishi shart edi. Eri vafot etganida, ayol qayta turmushga chiqa olmaydi, chunki Manu beva ayolni qayta turmushga chiqishini qat'iy taqiqlagan. Shunday qilib, yosh beva ayollar ko'payishi odatiy holga aylandi, ular hayot jahannamida yashashi va turli xil vahshiyliklarni boshidan kechirishi kerak edi. Hind oilasida bepushtlik gunoh hisoblangan. O'g'il tug'ilishi eng orzu qilingan narsa edi. Bu ayollarda tez-tez homila bo'lishi va ularning sog'lig'i yomonlashishiga olib keldi. Qiz bola tug'ilishi baxtsizlikning belgisi edi. Shunday qilib, qiz go'dakni o'ldirish jarayoni boshlandi. Dunyo bo'yicha qiz bolaga asosiy huquqlar berilmagan. Xuddi shunday, ayol erining o'limidan keyin yashashga haqli emas edi. Shunday qilib, sati marosimi³⁹ o'tkazildi. Faqatgina o'g'il bola tug'ilishi ayolning oilasi va jamiyatdagi mavqeyini yaxshilagan. Hind jamiyati tomonidan erkak va ayol o'rtasida ko'tarilgan nomaqbul to'siq ijtimoiy va maishiy hayotning mustahkamligiga putr yetkazdi.

³⁷ R.C. Majumdar, *Ancient India*. Delhi, Motilal Banarasisdass, 1960. p. 474.

³⁸ Ushbu kitob, p. 475.

³⁹ Ayolning vafot etgan turmush o'rtog'i bilan tiriklayin olovda yondirilishi

Noqulay muhit ayolning aqliy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga to'sqinlik qildi, uning umrini qisqartirdi va o'z navbatida ichki, milliy hayotning mustahkamligiga zarar yetkazdi.

Shuningdek, qadimgi hind eposlarida ham qadimda hind jamiyatidagi ayollarning roli, ahamiyati qay darajada bo'lganligi aks etadi. Ramayana va Mahabharatada ayollarning roli aks tarzda talqin etilgan. Mahabharatadagi asosiy ayol qahramon Draupadi besh Pandavning barchasiga turmushga chiqqan bo'lib, uning besh eri bor edi. U buyuk urushning qo'zg'atuvchisi Duryodhonni haqorat qiladi. Miloddan avvalgi bir ming yillikning ikkinchi yarmida yaratilgan Ramayanada Sita hurmat qilinadi va ajralmas sevgilisi sifatida ko'riladi, ammo Ram uchun uy bekasi, ideal xotin va sherik sifatida taqdim etiladi. Hindlarning urf-odatlarida Ramayana og'zaki nutqida aksariyat ayollar muxtoriyatni istisno emas, qoida sifatida tasvirlashadi, ammo Sugirtharajahning ta'kidlashicha, ushbu versiyalar yaqinda paydo bo'lgan.⁴⁰

Shuningdek, "Mahabharata"da ham ayollarga ko'rsatilishi kerak bo'lgan munosabatlar to'g'risida to'xtab o'tiladi: "Hech bir erkak, hatto g'azablangan taqdirda ham, xotiniga yoqmaydigan narsalarni qilmasligi kerak. Baxt, quvonch, fazilat hamma narsa ayolga bog'liq. Xotin bu yer, qayta tug'iladigan muqaddas tuproqdir, hattoki Rishis ham ayolsiz erkaklarni yarata olmaydi".⁴¹ Hind epikasining "Anushasana parvasi" Mahabxarata ayollarning burchlari va huquqlari to'g'risida munozaraga bag'ishlangan bir nechta bo'limlardan iborat. 11-bobda boylilik va farovonlik ma'budasi Lakshmi - u rostgo'y, samimiy, kamtarin, tartibli, eri va bolalariga sodiq, sog'lig'i yaxshi, sabrli va mehmonlarga mehribon bo'lgan ayollar ko'nglida yashaydi, deb ta'kidlaydi. Ma'budaning ta'kidlashicha, u gunohkor, nopok, har doim eri bilan kelishmaydigan, sabr-toqatli yoki qat'iyatli bo'lmagan, dangasa, qo'shnilari va qarindoshlari bilan janjallashadigan ayolda yashamaydi. 47-bobda, Yudhishtira Bxishmadan Dharma haqida rahbarlikni izlaganida, Anushasana Parva qizning qadrini o'g'il bilan taqqoslaydi.⁴²

Ayollarning vazifalari yana 146-bobda berilgan bo'lib, unda Shiva xudosi va uning rafiqasi Uma ma'budasi o'rtasida ayollarning vazifalari nimalardan iborat ekanligi haqidagi suhbat keltirib o'tilgan. Uma ta'kidlashicha, ayollarning vazifalariga xushmuomalalik, xushmuomala nutq, yoqimli xulq, odob va xususiyatlarga ega bo'lish kiradi. Shuningdek uning fikriga ko'ra, ayolning eri uning xudosi, eri uning do'sti va eri uning boshpanasidir. Ayolning vazifalari jismoniy va hissiy ovqatlanish, eri va bolalarining hurmatini o'z ichiga oladi.

⁴⁰ A.Parva, pustak Ramayana.

⁴¹ Adi Parva, Mahabharata kitobi, 1.74.50-51

⁴² Bxishma, Anushasana Parva, Mahabharata 13.47.26

Oila baxti - bu ayol baxtidir, u eri tomonidan aytilgan va'dalarga amal qiladi, eri yoki bolalari g'azablangan taqdirda ham quvnoq bo'lishi, qiyin vaziyatlarda yoki bemorligida ular bilan birga bo'lishi zarur deb hisoblanadi. Ayolning turmush o'rtog'i va oilasidan tashqari, yana qo'shimcha vazifasi bu uning do'st hamda qarindoshlari bilan xushchaqchaq, kamtar bo'lishi, do'st, mehmonlar uchun qo'lidan kelgunicha yordam qilishidir.⁴³

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hind xotin-qizlari mavqeyi qadimdan oq past o'ringa qo'yib kelingan. Bunga asosan hind jamiyatidagi erkaklarning ongidagi qadimdan mavjud bo'lgan din va eposlardagi talqinlar sabab edi. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, din, epos va an'analardagi xotin-qizlarga nisbatan past nazar bugungi hind jamiyatidagi xotin-qizlar bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina muammolarning asl ildizi hisobalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dube L. Caste and women/Caste:Its Twentieth century avtar. Ed. By M.N. Srinivas, New Delhi, 1997.
2. E.C.Юрлова. Индия: Гендерные проблемы на рубеже XXI века
3. S Radha Krishnan. Dharm aor samaaj. London, Jorj Allen aor Unvin Ltd., 1966
4. R.C. Majumdar, Ancient India. Delhi, Motilal Banarasidass, 1960.

ETNIK NIZOLARNI YUZAGA KELTIRUVCHI OMILLAR (POKISTON GIDROGENLIGI MISOLIDA)

*Abduvaxobova Dilnavoz - Sharq mamlakatlari tarixi
va antropologiyasi yo'nalishi I-kurs magistranti*
Ilmiy rahbar: **t.f.n., dots. Shamsiyeva I.M.**

Annotatsiya: Maqolaning mazmuni etniklik tushunchasi, uning turlari kelib chiqish omillari va Pokistondagi etnik holat masalalariga bag'ishlangan. Maqolada etnik-siyosiy ziddiyatlar tushunchasi tavsifi va uning tarixiy tadqiqotlarda tutgan o'rni masalasi hamda etnik-siyosiy ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni ko'p millatli mintaqalardagi ijtimoiy muammolar majmuasi sifatida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Etnik muammo, etniklik, pushtunlar, sindxilar, Muhajirlar, demografik omil, siyosiy omillar, tashqi omillar.

Janubga transport-kommunikatsiya aloqalarining yo'qligi tarixan Eron bilan iqtisodiy hamkorlik va integratsiyani yanada kuchaytirishning asosiy to'siqlaridan biri bo'lib kelgan. Bu holatni yaxshilashdagi asosiy ishlardan biri Tajang (Turkmaniston) ning 1996-yilda Mashhad (Eron) temir yo'l bog'lamasiga tugatilishi bo'ldi. Bu Markaziy Osiyoni Eron temir yo'l tarmog'i bilan bog'lab, Markaziy Osiyoga fors ko'rfaziga chiqish imkonini berdi. O'rta Osiyoga yanada kirib kelishda Eron uchun ham katta ahamiyatga ega bo'lgan, temir yo'l aloqasining rivojlanishi 1990-yillar davomida va yangi mingyillikda Eron va Turkmaniston o'rtasidagi yaxshi munosabatlar o'stirilganidan ham dalolat berdi.⁵⁶ Tajang-Saraxs-Mashhad tranzit yo'li Markaziy Osiyo davlatlariga Fors ko'rfazi portlariga va Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyo bozorlariga kirish imkoniyatini ochdi. Mintaqa davlatlari kommunikatsiyalar qurilishini transport yo'nalishlarini diversifikatsiya qilishning muhim elementi deb bilishadi. Shunday qilib, Eron Markaziy Osiyoda gidroelektr stantsiyalari va quvurlarni qurishda faol ishtirok etmoqda. Ma'lum sabablarga ko'ra Tojikiston Eron tashqi siyosatida alohida o'rin tutadi. Mustaqillik yillarida Eronning mintaqadagi eng yirik savdo sherigi asosan almashish asosida neft etkazib berish bilan shug'ullanadigan Qozog'iston bo'ldi. Turkmaniston bilan aloqalar umuman barqaror va dinamikdir.⁵⁷

Shunday qilib, Eronning Markaziy Osiyoning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotining turli jihatlariga umumiy ta'sirini sarhisob qilar ekanmiz, ta'sir o'tkazayotgan va ta'sirini oshirishni istagan tashqi kuchlarning yetarli ekanligini ta'kidlash lozim. Shu ma'noda Eron ular bilan raqobatlashadi va Markaziy Osiyoda o'z manfaatlarini ilgari surish uchun faol harakat qilmoqda. Ulardan asosiylari qatorida Yevropa Ittifoqi, AQSh, Turkiya va Xitoyni alohida ta'kidlash lozim.

⁵⁶ Vladimir Mesamed, "Iran: Ten years in post-Soviet Central Asia," *Central Asia and the Caucasus*, 2002, 1 (13): 27–35 (33).

⁵⁷ Кузьмина Е.М. Внешние экономические интересы как фактор экономического развития Центральной Азии. М.: Институт экономики РАН, 2013. С.33-38.

ISLOM HAMKORLIK TASHKILOTINING INSON HUQUQLARI BO'YICHA FAOLIYATINING IZCHILLASHUVI (QOHIRA DEKLARATSIYASI MISOLIDA)

Luhmonov Shahzod Sayfiddin o'g'li -
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola Islom hamkorlik tashkiloti tomonidan tashkil etilgan Qohira Deklaratsiyasida inson huquqlari borasida faoliyatining yutuq va kamchiliklari haqida so'z boradi. Bundan tashqari, tashkilot a'zolarining ushbu jarayondagi qarashlari qay yo'sinda olib borilayotganligi to'g'risidagi ma'lumotlar qiyosiy-tahliliy bayon qilingan. Masalaning ushbu jihati shu paytga qadar nashr etilgan ishlarga qo'shimcha manba sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Qohira Deklaratsiyasi, NNT, Shariat, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.

Dunyo miqyosida Islom hamkorlik tashkiloti xalqaro tashkilot sifatida o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, tashkilot faoliyatini o'rganish butun musulmon dunyosida integratsiyalashuv jarayonlarini rivojlantirish, shuningdek, ayrim a'zo davlatlar, xususan, arab davlatlari tashqi siyosatiga ta'sir etadigan omillarni aniqlash va tahlillar asosida ilmiy xulosalar ishlab chiqish imkonini beradi. Mamlakatimiz Islom hamkorlik tashkilotini musulmon davlatlarini birlashtiruvchi tashkilot sifatida e'tirof etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek: «A'zo davlatlarni musulmon olamida tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash va barqaror rivojlanish yo'lida birlashtirish, o'zaro hamkorlikning ishonchli mexanizmlarini, a'zo mamlakatlarning dolzarb masalalari yuzasidan muloqot qilish uchun o'ziga xos maydon yaratishga xizmat qiladigan Islom hamkorlik tashkilotining roli va mas'uliyati yanada ortmoqda»⁵⁸.

O'z pozitsiya va ta'sirini hisobga olgan holda, IHT musulmon dunyosida inson huquqlari tarafdori sifatida ish olib boradi. 1969-yilda tashkil topganidan beri, xalqaro tashkilotlardan farqli o'laroq inson huquqlari samarali mexanizmlarini IHT izchil yo'lga qo'yolmadi. Biroq, so'nggi o'n yillikda inson huquqlari IHTning kun tartibining markaziga ko'chib o'tdi. 2008-yilda tashkilotning ustavi "inson huquqlari va asosiy erkinliklarini" himoya qilish maqsadini o'z ichiga olish uchun qayta ko'rib chiqildi. Qayta ko'rib chiqilgan

⁵⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoevning Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasiprezidenti-vazifasini-bazharuvchi-sha-18-10-2016>

nizom, shuningdek, tashkilotning inson huquqlari bo'yicha hujjatlarida fuqarolik, ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarni targ'ib qilish uchun Inson huquqlari bo'yicha komissiyaga yo'l ochdi. Asosan 1990-yildagi Inson huquqlari bo'yicha Qohira deklaratsiyasi, 2005-yil Islomdagi bola huquqlari to'g'risidagi Kelishuv hamda 2011-yildagi Inson huquqlari bo'yicha doimiy komissiyani tashkil etilishi tashkilotning ushbu masalalarga ancha siljishlarni amalga oshirganligini dalili sifatida ko'rishimiz mumkin. Ushbu qismda men IHTning inson huquqlari bo'yicha tuzilmasini tushuntirib o'taman. Tashkilotning inson huquqlariga ta'siri ikki sababga ko'ra cheklanganligi haqida bahs ketadi. Birinchi sababi diniy: IHT Saudiya Arabistoni, Eron va Pokiston kabi IHTning yetakchi davlatlari o'rtasidagi inson huquqlari bo'yicha xalqaro normalar to'g'ri yo'lga qo'yilmagan. Ikkinchi sabab - bu tarkibiy: tashkilotning statsionar tabiati inson huquqlari mexanizmlarining ishlashini murakkablashtiradi. Davlatlar doirasida davlatlarga berilgan ustunlik tashkilotning obro'sini pasaytiradi va huquqlarni ilgari surishda nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) bilan ishlash qobiliyatini pasaytiradi, ayniqsa buni amalga oshirishda to'g'ridan-to'g'ri qiyinchilik sifatida ko'rilishi mumkin. Kamchiliklariga qaramay, tashkilot musulmon dunyosida inson huquqlarini himoya qilish uchun katta imkoniyatlarga ega. Afsuski, inson huquqlari bo'yicha hech qanday ma'lumotga ega bo'lmagan xalqaro inson huquqlari jamoatchiligi tomonidan IHTning istiqbolli roli e'tibordan chetda qolmoqda. Xalqaro inson huquq tashkilotlari IHTga din, jins va gey huquqlarini buzganlik kayfiyatida ko'proq e'tibor qaratadi. Bu masalalarni quyida ko'rib o'tamiz. 1990-yilda IHT Islomda inson huquqlari bo'yicha Qohira Deklaratsiyasini tasdiqladi. Ba'zi tanqidchilar Qohira Deklaratsiyasini 1993-yilgi Inson huquqlari butunjahon konferensiyasidan oldidan tayyorlanib, Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasini buzishga harakatda ayblashadi.⁵⁹ Boshqalar esa, uni inson huquqlari va Islomni yarashtirishga urinish sifatida qabul qilishdi. IHTning o'zi esa Qohira Deklaratsiyasini "Umumjahon Deklaratsiyasiga musulmon mamlakatlardagi diniy va madaniy asoslarning to'ldiruvchisi" sifatida qarashadi.⁶⁰ Ushbu Deklaratsiya Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida topilgan ko'plab huquqlarni kamaytirdi, shuningdek, ikki islomiy huquqlar: musulmon sifatida qolish huquqi (10-modda) va ribo taqiqlanishi (14-modda) qo'shildi. Qohira deklaratsiyasi tashkilotning mustaqilligi va musulmonlarga prozoletizmning taqiqlash orqali din va nutqni cheklanishi haqida hech narsa aytilmagan.

⁵⁹ Azin Tadjini, "The Organization of Islamic Cooperation and Regional Challenges to International Law and Security," *Amsterdam Law Forum* 4, no. 2 (2012): 36–48.

⁶⁰ The Ambassador of Pakistan addressing the Human Rights Council on behalf of the OIC on 10 December 2007. International Humanist and Ethical Union, "Islamic Law vs. Human Rights," 10 March 2008, www.ihcu.org/node/2949

Xalqaro inson huquqlari nuqtai nazaridan Qohira deklaratsiyasining qarama-qarshi xususiyati uning Islom qonunlariga rioya qilganligidadir. Hujjatning muqaddimasida "Asosiy huquqlar va umumbashariy erkinliklar Islomning ajralmas qismi" ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu huquq va erkinliklar payg'ambar Muhammad (s.a.v)ga Qur'onda vahiy qilingan. Shariat Deklaratsiyada ko'pchilikni umumjahon huquqlarini cheklab qo'ygan sifatida ko'rildi. 22-modda. "Har bir inson shariat tamoyillariga zid bo'lmagan tarzda o'z fikrini erkin ifoda etish huquqiga ega bo'lishi kerak", deb aytganda, 12-moddada "Har bir inson, shariat doirasida to'g'ri bo'lsa, erkin harakat qilishi mumkin." Deklaratsiyani tanqid qiluvchilar uchun umumjahon inson huquqlaridagi supurib tashlangan cheklovlarni tasdiqlashda Shariatdan foydalanganligiga to'rtta sabab keltiradi.⁶¹ Birinchidan, u hujjatni cheklaydi va tavsiflovchi huquqlarning universalligini buzadi. Ikkinchidan, deklaratsiya, shubhasiz shariatni aniq qanday tashkil etishini aniqlay olmayapti, bu shuni anglatadiki, aytilgan huquqlar bo'yicha aniq cheklovlar noaniq. Uchinchidan, tashkilot shariat vositalarini qo'llashda deklaratsiya shaxslar ustidan hukumatlarni ustun qilib qo'yadi. Ko'pgina hollarda, shariatning aksariyat musulmon davlatlarining ichki huquqiy tizimlariga qo'shilishi davlatga shariatning ta'rifi va qo'llanilishi ustidan nazoratni beradi.⁶² Masalan, Misr Oliy Konstitutsiyaviy sudi, Eron Konstitutsiya qo'riqchilari kengashi va Pokiston Oliy sudi shariat asoslari va ko'rsatmalariga binoan qaror chiqaradigan davlatga asoslangan hokimiyatdir. Saudiya Arabistonida ham, shariat "avtonom ta'lim muassasalarida o'qitilgan olimlar jamoasi bilan birlashtirilib" davom etmoqda.⁶³ Shariatni belgilaydigan xalqaro vakolat yo'q bo'lganda, Qohira Deklaratsiya inson huquqlarining umuminsoniyligini milliy hukumatlar talqiniga o'tkazib, samarali ravishda kamaytirdi. Deklaratsiya IHTga a'zo davlatlarning mahsulidir, islom qonunlarining markazlashganligi, konservativ talqinlari esa Eron va Saudiya Arabistoni sababidandir. Shunday qilib, deklaratsiyada shariat va inson huquqlari g'oyalari o'rtasidagi ziddiyatlarni murosaga keltira olmasligi ajablanarli emas.⁶⁴ Ushbu kamchiliklar Qohira deklaratsiyasini inson huquqlarini himoya qilishning samarasiz mexanizmiga aylantirdi. Darhaqiqat, musulmonlarning targ'ibot guruhlari, inson huquqlari bo'yicha musulmon

⁶¹ Mayer, Islam and Human Rights; Tadjdini, "The OIC and Regional Challenges to International Law and Security"; and International Ethical and Humanist Union, "Universality is Under Attack at the UN," 3 January 2008, www.iheu.org/node/2874.

⁶² For how and why this process occurred in the Ottoman Empire, see Turan Kayaoglu, *Legal Imperialism: Sovereignty and Extraterritoriality in Japan, the Ottoman Empire, and China* (Cambridge: Cambridge University Press, 2010), 104–49.

⁶³ Robert W. Hefner, "Introduction," in *Shari'a Politics: Islamic Law and Society in the Modern World*, ed. Robert W. Hefner (Bloomington: Indiana University Press, 2011), 21.

⁶⁴ Ann E. Mayer, "Review of 'International Human Rights and Islamic Law,'" *The American Journal of International Law* 99, no. 1 (January 2005): 305.

olimlar va IHTning aksariyat xodimlari Islom va inson huquqlari to'g'risidagi munozaralarida deklaratsiyani deyarli e'tiborsiz qoldirdilar. 2003-yilda inson huquqlari bo'yicha olim Mashood Baderin o'zining asarida " IHTda ijro etuvchi organning yetishmasligi Qohiraning Islomdagi inson huquqlari to'g'risidagi deklaratsiyasini uxlab yotgan hujjat deb qabul qildi, buni na musulmon davlatlari va na IHT rasmiy hujjat deb atashmaydi va ba'zi musulmon davlatlarida insonning asosiy inson huquq ko'rinishlarining ba'zi buzilishlari" sifatida baholagan.⁶⁵ IHT mustaqil inson huquqlari bo'yicha doimiy komissiyaning tashkil etilishi bilan bu muammo hal qilishga intildi. Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, IHT tomonidan tashkil etilgan Qohira Deklaratsiyasini inson huquqlari bilan bog'liq muammolarga yechim topishda nizomga asoslangan hujjat deb baholasak bo'ladi. Negaki uning Nizomi Islom shariatiga bog'langanligi xalqaro maydonda xalqaro hujjat sifatida e'tirof etilishiga to'sqinlik qildi. Umuman olganda, Islom hamkorlik tashkiloti tomonidan 2011-yil Inson huquqlari bo'yicha mustaqil doimiy komissiyaning tashkil etilguniga qadar Inson huquqlari doirasida birlamchi manba sifatida ko'rilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoevning Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasiprezidenti-vazifasini-bazharuvchi-sha-18-10-2016>

2. Azin Tadjini, "The Organization of Islamic Cooperation and Regional Challenges to International Law and Security," *Amsterdam Law Forum* 4, no. 2 (2012): 36–48.

3. The Ambassador of Pakistan addressing the Human Rights Council on behalf of the OIC on 10 December 2007. *International Humanist and Ethical Union*, "Islamic Law vs. Human Rights," 10 March 2008, www.iheu.org/node/2949

4. Mayer, Islam and Human Rights; Tadjini, "The OIC and Regional Challenges to International Law and Security"; and *International Ethical and Humanist Union*, "Universality is Under Attack at the UN," 3 January 2008, www.iheu.org/node/2874.

5. For how and why this process occurred in the Ottoman Empire, see Turan Kayaoglu, *Legal Imperialism: Sovereignty and Extraterritoriality in*

⁶⁵ Baderin, *International Human Rights and Islamic Law*, 228.

Japan, the Ottoman Empire, and China (Cambridge: Cambridge University Press, 2010), 104–49

6. Robert W. Hefner, “Introduction,” in *Shari’a Politics: Islamic Law and Society in the Modern World*, ed. Robert W. Hefner (Bloomington: Indiana University Press, 2011), 21

7. Ann E. Mayer, “Review of ‘International Human Rights and Islamic Law’,” *The American Journal of International Law* 99, no. 1 (January 2005): 305.

8. Baderin, *International Human Rights and Islamic Law*, 228.

O‘ZBEKISTON BILAN ISLOM HAMKORLIK TASHKILOTI MUNOSABATLARINING ISTIQBOLLARI

Donaboyeva Husnora G‘ulomali qizi -

Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi

yo‘nalishi I-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: **t.f.n., dots. Shamsiyeva I.M.**

So‘ngi yillarda O‘zbekiston IHT a‘zosi hisoblanib, o‘zaro manfaatli barcha muhim masalalar bo‘yicha uning strukturalari bilan uzoq samarali hamkorlikka asosiy e‘tiborini qaratmoqda. O‘zbekiston 2016-2017-yillarda IHT Tashqi ishlar vazirlar kengashiga raislik qildi.¹ Bu bilan O‘zbekiston xalqaro maydonda va islom dunyosida yuqori obro‘sinini namoyish qildi. Zamonaviy tahdidlar hamda dolzarb muammolarni hal qilishda puxta o‘ylangan tashqi siyosatni amalga oshirib, xalqaro huquqning faol va muhim subyekti sifatida mamlakatning mavqeyi mustahkamlandi.

O‘zbekiston va IHT o‘rtasidagi hamkorlik istiqbolda bir qator loyihalarni amalga oshirishi bilan muhim ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. IHTning 2017-yil 10-sentyabrdagi “Fan va texnologiyalar bo‘yicha sammiti” doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev bir qator tashabbuslarni ilgari surib, tashkilot bilan hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish borasida ishlar amalga oshirilayotganligini ta’kidlab o‘tgan edi. Bu borada, bir qator loyihalar amalga oshirilayotganligini kuzatishimiz mumkin. Xususan, IHTning Doimiy qo‘mitasi ko‘magida buyuk alloma al-Xorazmiyga bag‘ishlab yosh matematiklar xalqaro olimpiadasini tashkil etish;

- O‘zbekistonning maxsus ilmiy fondida saqlanayotgan qo‘lyozmalarni birgalikda o‘rganish;

- Samarqandda Imom Buxoriy ilmiy-tadqiqot markazini yaratish bo‘yicha loyihani amalga oshirishda IHT tuzilmalari va a‘zo-davlatlar ishtirokini ta‘minlash;

- Toshkent shahrida Islom sivilizatsiyasi markazini yaratish bo'yicha loyihani amalga oshirishda IHT tuzilmalari va a'zo-davlatlar ishtirokini ta'minlash;

- Fan va texnologiyalar sohasidagi hamkorlik bo'yicha IHTning Doimiy qo'mitasi (KOMSTEK) faoliyatida O'zbekistonning ishtirokini faollashtirish;

- IHTning super zamonaviy teleskopni Samarqand shahrida o'rnatish haqidagi tashabbuslarini amaliy jihatdan joriy qilish;

- Qishloq xo'jaligi ekinlarining muayyan muhit, tuproq, o'g'it, suv va biostimulyatorlarga nisbatan reaksiyasini inobatga olib, ularning aniq genotiplariga e'tibor qaratishni nazarda tutuvchi "personallashtirilgan qishloq xo'jaligi" konsepsiyasini ishlab chiqish;

- Yosh olimlarga bilim va tajriba almashish, birgalikda tadqiqotlar o'tkazish imkonini beradigan Musulmon olami yosh olimlari xalqaro markazini tashkil etish hamda IHT Doimiy qo'mitaning a'zo davlatlar hududida oltita yuqori samarali kompyuter markazini tashkil etish to'g'risidagi tavsiyasiga muvofiq, shunday markazlardan birini O'zbekistonda joylashtirish;

- muqobil energiya manbalarini keng miqyosda o'zlashtirish yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlari va tajriba-innovatsion loyihalarni birgalikda, xususan, investitsiyalar kiritish hisobidan amalga oshirish.

Fan va texnologiyalar bo'yicha ikkinchi sammitni 2020-yilda O'zbekistonda o'tkazish kabi tashabbuslar ilgari surilgan edi.² Bularni amalga oshirish 2018-2020-yillarga mo'ljallangan bo'lib, O'zbekiston ushbu loyihalarni amalga oshirish davomida IHT bilan samarali hamkorlikni rivojlantirib boradi.

Muqobil energiyadan foydalanish bo'yicha O'zbekistonda 2017-yil may oyida "2017-2021-yillarda iqtisodiy va siyosiy sohada energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanadigan energetika tizimini uzoq muddatli rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi" qabul qilingan edi. Bu dastur doirasida umumiy qiymati 5,3 mlrd dollar bo'lgan 810 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan. Bunday loyihalarni IHT doirasida amalga oshirish O'zbekiston uchun juda katta imkoniyatlar beradi.

Mamlakatimizda yosh olimlar uchun xalqaro islom markazini tashkil etish buyuk mutafakkir ajdodlarimiz tomonidan meros bo'lib qolgan qadimgi qo'lyozmalar va kitoblarni o'rganish va tadqiq etish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. 2017-yil Prezident Sh. Mirziyoyev "Qadimiy yozilgan manbalarni saqlash, tadqiq etish va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" qaror qabul qildi. Bu esa, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi A.R.Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondidagi 25,6 mingdan ortiq qo'lyozma jildli yig'ilgan manbalarni o'rganib chiqish imkonini berib, islom dunyosida mamlakatning obro'sini yanada oshirishga qaratilgan.

IHTning yordamchi tuzilmasi Islom tarixi, san'ati va madaniyati ilmiy-tadqiqot markazi (IRCICA) bilan hamkorlikda 2020-yilda Imom Buxoriy tavalludining 1250 yilligi bo'yicha xalqaro ilmiy konferensiya o'tkazish rejalashtirilgan. Bu borada, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida saqlanayotgan 535 ta qo'lyozma kataloglari tuzilib nashr qilindi. Bundan tashqari, internet orqali 744 ta qo'lyozmaning elektron nusxasi qabul qilindi. Shuningdek, 338 tasi turli davlatlardan olingan bo'lib, 130 tasi Imom Buxoriyga tegishli, 614 tasi Markaziy Osiyo olimlariga taalluqli elektron kitoblardan iborat. O'zbekistondagi Xalqaro islom akademiyasida IRCICAning "Tarix va islom manbashunosligi" kafedrasini ochildi. Bu kelajakda fondlarda saqlanayotgan ko'plab allomalar va mutafakkirlarimizning nodir asarlari hamda qo'lyozmalarini o'rganib, islom dunyosida mamlakatimizning nufuzini yanada oshirishga imkoniyatini yaratadi.

O'zbekiston Islom tarqiyot banki bilan ham istiqbolli loyihalarni amalga oshirish bo'yicha hamkorlikni rivojlantirib bormoqda. 2003-2019-yillarda jami 86 ta loyihalar ishlab chiqilgan bo'lib, ularni moliyalashtirish uchun umumiy qiymati 1,994,2 mln AQSh dollari ajratilgan. Shulardan umumiy qiymati 707,5 mln AQSh dollari bo'lgan 42 ta loyiha amalga oshirildi. Bundan tashqari, umumiy qiymati 1,286 mlrd AQSh dollari bo'lgan yana 44 ta loyihalarni amalga oshirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.³

Bugungi kunda O'zbekistonda ITBning moliyaviy va texnik qo'llab-quvvatlashi natijasida ikkita loyiha amalga oshirilmoqda. Bu qiymati 144,5 mln AQSh dollari bo'lgan Xorazm viloyatidagi Toshakin tizimidagi magistral sug'orish kanallarini reabilitatsiya qilish va Surxondaryo viloyatidagi suv resurslarini yaxshilash maqsadida qiymati 122,7 mln AQSh dollari bo'lgan Xazarbog'-Oqqapchig'ay kanallar tizimini rekonstruksiya qilish hamda Saudiya rivojlantirish fondi ishtiroki bilan qiymati 115,9 mln AQSh dollari bo'lgan Qarshi kaskadi nasos stansiyalarini reabilitatsiya qilish loyihalari amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston IHTning yordamchi va ixtisoslashgan tashkilotlari bilan ham munosabatlarni rivojlantirmoqda. 2018-yilda O'zbekiston Islom mamlakatlari standartlari va metrologiya instituti (SMIIC)ga a'zo bo'lib kirdi. Dunyoning eng nufuzli halol reytinglaridan biri "Master Card Crescent Rating" 2019-yilgi jahon musulmon sayyohlik indeksi hisobotini e'lon qildi. Unda O'zbekiston 55 ball bilan 22-o'rinni, IHTga a'zo mamlakatlari orasida esa 18-o'rinni egallagan. 2018-yilda bu ko'rsatkich 47,7 ball bilan 32-o'rin bo'lgan edi.⁴ O'zbekiston halol turizm iste'molchilarini qabul qiluvchi IHT mamlakatlari orasida birinchi o'nlikka kirgan. Bundan tashqari, O'zbekiston ziyorat turizmini rivojlantirish uchun ko'plab imkoniyatlarga ega. Xususan, O'zbekistonda islom olamida o'chmas iz qoldirgan buyuk shaxslar tomonidan bunyod etilgan 39 ta yodgorlik

Islom dunyosi madaniy merosi uchun taklif qilindi. Grant asosida ta'mirlanishi va tiklanishi kerak bo'lgan madaniy meros ob'ektlari soni 41 tani tashkil etadi. Bu borada, madaniy merosni asrab-avaylash uchun O'zbekiston IHTning Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha islom tashkiloti (AYSESKO) bilan ham munosabatlarni yanada rivojlantirish lozim ekanligini ko'rsatmoqda. AYSESKO bilan hamkorlikda O'zbekistonda kelajakda bir qator loyihalarni amalga oshirish imkoniyati mavjud.

Bundan tashqari, IHT ixtisoslashgan muassasasi Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha islom tashkiloti (OXIT)ning Nizomi 2018-yil 19-fevralda kuchga kirgan bo'lib, Tashkilot Sekretariati 2018-yil mart oyidan o'z ishini boshladi. So'nggi vaqtlarda O'zbekistonda ham oziq-ovqat xavfsizligi borasidagi muammolarni hal etish asosiy vazifa bo'lib qolmoqda.

Xususan, 2019-yil dekabr oyi natijasiga ko'ra Oziq-ovqat xavfsizligi global indeksi (GFSI) bo'yicha 113 ta mamlakat ichida O'zbekiston 71-o'rinni egallagan. GFSI uchta asosiy toifa (komponent)dan tashkil topdi. Bular oziq-ovqat mahsulotlarining maqbulligi va iste'moli, mavjudligi va yetarliligi hamda sifat va xavfsizlik darajalaridir.

Ushbu ko'rsatkichlar mamlakatda oziq-ovqat bilan bog'liq muammolarning sabablarini izchil o'rganish va ularni butun boshli zamonaviy kompleks darajasida hal qilinishga urinishlar yetarli bo'lmayotganligini ko'rsatadi. Xususan, O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligi quyidagi indikatorlar ko'rsatkichi bo'yicha past darajada ekanligini ko'rish mumkin. Jumladan, mamlakatimizda oziq-ovqat ta'minoti darajasi 55,6 % ni (dunyodagi o'rtacha ko'rsatkich - 62,9 %) tashkil etadi. Mavjud o'rtacha oziq-ovqat zaxirasi ko'rsatkichi so'nggi 3 yilda 117% ga (dunyodagi o'rtacha ko'rsatkich - 122,6 %), oziq-ovqat standartlari borasidagi ko'rsatkich esa 30,8%ga (dunyodagi o'rtacha ko'rsatkich - 62,9 %) etgan.

Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi infrastrukturasi rivojlanishi bo'yicha 37,2 %ni (dunyodagi o'rtacha ko'rsatkich - 62,9%), qishloq xo'jaligi mahsulotlari importi uchun eng maqbul tariflar ko'rsatkichi esa 19,1%ni (dunyodagi o'rtacha ko'rsatkich - 15,4 %) tashkil qilmoqda.⁵ Boshqa yo'nalishlarda ham holat qoniqarli emas. O'zbekistonning OXITga a'zo bo'lishi mavjud muammolarni bartaraf etish va don eksportini oshirish uchun ma'lum imkoniyatlar yaratishi mumkin.

Bundan tashqari, OXIT faoliyati a'zo mamlakatlarning donga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash va ushbu jarayonni muvofiqlashtirib borish orqali hozirgi vaqtda O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlaridagi mahsulotlarning eksport salohiyati o'sib borishiga to'sqinlik qiladigan transport va logistika muammolarini hal qilishga qaratilmoqda. Bu o'z navbatida, Markaziy Osiyo davlatlarining transport yo'llarini bir-biriga bog'lashga va integratsiya

jarayonining tezlashishiga turtki bo'lishi mumkin. Bu o'rinda O'zbekistonning OXITga a'zo mamlakatlar bilan o'zaro hamkorligi milliy va xususiy kompaniyalarning xalqaro darajada biznes yuritishi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratilishiga imkon beradi.

O'zbekistonning ilm-fan va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish uchun IHTning ixtisoslashgan tuzilmalaridan biri Fan, texnologiya va innovatsiyalar tashkiloti (STIO) bilan hamkorlik qilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

IHTning Islom birdamligi sport federatsiyasi (ISSF), Muloqot va hamkorlik bo'yicha yoshlar forumi islom konferensiyasi (ICYF-DC), Islom banklari va moliya institutlari Bosh kengashi (CIBAFI) hamda IHTda Kompyuter hodisalariga favqulodda vaziyatlarda javob berish guruhi (OIC-CERT) kabi tarmoqlashgan tuzilmalari bilan hamkorlik qilish O'zbekiston manfaatlariga mos kelishi bilan birga samarali hamkorlik uchun imkoniyat yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston va Islom hamkorlik tashkiloti o'rtasidagi munosabatlar mamlakatning xalqaro maydonda iqtisodiy va madaniy – gumanitar sohalarni rivojlantirish imkonini beradi. O'zbekiston IHT bilan hamkorlikni yanada rivojlantirishi uchun tashkilotning imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishi lozim. Xususan, Butun dunyo musulmonlarini ziyorat turizmiga jalb qilish uchun IHTning Ta'lim, fan va madaniyat bo'yicha islom tashkiloti (AYSESKO), Islom poytaxtlari va shaharlari tashkiloti bilan hamkorlikda ziyorat maskanlariga aylantirish bo'yicha puxta o'ylangan dasturlar ishlab chiqish, shuningdek, tez-tez innovatsion texnologiyalar bo'yicha tanlovlar e'lon qilib, yangi ilmiy g'oyalarni namoyish qilib borishi uchun IHTning Fan, texnologiya va innovatsiyalar tashkiloti bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish va ilmiy g'oyalarni ushbu tashkilot doirasida ilgari surish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mamatqulova D. OIS: novie initsiatiivi - novaya dinamika // Security and Development Strategic Issues. ISRS № 1. 2018 g. - S. 98.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Islom hamkorlik tashkilotining fan va texnologiyalar bo'yicha birinchi sammitidagi nutqi. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-islo-10-09-2017>. (murojaat qilingan sana: 2019 yil 24 dekabr).

3. Isdb Group in Brief 1975 - 2019. <https://www.isdb.org/sites/default/files/media/documents/2020-02/isdb-in-brief.pdf>. (murojaat qilingan sana: 2020 yil 7 fevral).

4. Global muslim travel index 2019 hisoboti.
<https://www.crescentrating.com/reports/global-muslim-travel-index-2019.html>.
(murojaat qilingan sana: 2020 yil 27 yanvar)

5. Globalniy indeks prodovolstvennoy bezopasnosti.
<https://foodsecurityindex.eiu.com/Country/Details#Uzbekistan>. (data
ob'rao'eniya: 06.03.2020).

ERON TASHQI SIYOSATIDA ROSSIYA FEDERATSIYASINING O'RNI VA ROLI

O'lmasov Sardorbek Sadirali o'g'li -
Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi
yo'nalishi 2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: **s.f.d., prof. Haydarov A.A.**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Eron tashqi siyosatida Rossiya Federatsiyaning o'rni va roli, o'zaro hamkorlik aloqalarining boshlanishi, hamda Rossiya uchun Eron qanday ahamiyatga egaligi va imkoniyatlari haqida so'z boradi. Bundan tashqari ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy munosabatlar va Rossiy tashqi savdosida Eron tutgan o'rni haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Eron, Rossiya, Ali Akbar Rafsanjoniy, Markaziy Osiyo, tashqi siyosat, o'zaro hamkorlik, yaxshi qo'shnichilik.

Rossiya uchun Eron bilan doimiy "yaxshi qo'shnichilik" aloqalarini olib borishni qo'llab-quvvatlash uning strategik qiziqishlariga muvofiq holda tashqi siyosiy yo'nalishining asosiy maqsadlari qatoriga kiradi. Eron Rossiyaning savdo hajmi doimiy o'sib turuvchi va ulkan iqtisodiy-savdo hamkori bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.⁶⁶ Rus-eron munosabatlari tarixi shuni ko'rsatadiki, mamlakatlarning ikki tomonlama munosabatlarida ijobiy jarayonlarni saqlab qolish va qo'llab-quvvatlash har ikki davlatning asosiy vazifasi hisoblanib kelingan. Shuningdek o'zaro hamkorlik asosidagi iqtisodiy-savdo va ko'p tomonlama diplomatik munosabatlardan orttirilgan qimmatbaho tajriba hisobiga yo'lga qo'yilayotgan aloqalar mustahkamligi bilan xarakterlanadi.

Eron o'zining geostrategik joylashuvi, iqtisodiy va harbiy potentsiali bilan to'laligicha Rossiyaning janubiy yo'nalishdagi ittifoqchisi hisoblanadi. Rossiya va Eronning mintaq va dunyodagi iqtisodiy-siyosiy masalalar yuzasidan

⁶⁶ Галбацов Шахрузат Сурхаевна. Российско – иранские отношения как фактор стабильности в прикаспийском регионе(1978-2011). – Владикавказ: 2012. – С. 28.

qarashlarida aniq o'xshashliklar mavjud. Bu borada professor V. I. Sajin shunday deydi: "Eron bilan aloqalarda pragmatik yondoshuvni ushlab turish lozim. Bu hududda AQSh va uning ittifoqchilari tomonidan o'tkazilayotgan "bosim"ga qaramasdan iqtisodiy-savdo, ilmiy, madaniy va boshqa turli sohalarda o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega."⁶⁷ L. E. Sklyarovning fikriga qaraganda, Rossiya uchun Eron bilan strategik hamkorlik qilish bir necha yo'nalishlarda namoyon bo'ladi, birinchidan, Eron integratsion jarayonlarda "yo'l ochuvchi" vazifasini bajaradi, ikkinchidan, mintaqadagi kuchlarni yangitdan shakllantirishda faol rol o'ynaydi.⁶⁸ Shuning uchun Rossiya Eron bilan nafaqat yaxshi qo'shnichilik aloqalarini davom ettiradi, balki bu munosabatlarni o'z chegarasidan janubga tomon muhim strategik yo'nalishning barqaror faktoriga aylantiradi.

Aynan shu maqsadda 1989-yilning fevral oyida Tehronda SSSR Tashqi ishlar vaziri E.A.Shevarnadzening va iyul oyida Eron Islom Respublikasi prezidenti Ali Akbar Rafsanjoniyning Moskvaga tashriflari bilan ikki davlat o'rtasidagi aloqalarning yangi davri boshlandi.⁶⁹

Rossiya AQSh boshchiligidagi butun g'arb davlatlari tomonidan bo'layotgan bosimga va bu paytga kelib xalqaro maydondagi "xavfli yov" sifatida baholanayotganligiga qaramasdan Eron Islom Respublikasi bilan yaqinlashish siyosatidan og'ishmay bordi⁷⁰. AQSh tomonidan agressiv va terroristik davlat sifatida baholanayotgan Eron Islom Respublikasi Rossiya uchun uning janubiy chegaralarida joylashgan mustaqil Markaziy Osiyo va Kavkazorti davlatlari uchun barqarorlik faktori sifatidagi hamkor bo'lib chiqdi. Rossiya Eron Islom Respublikasiga nisbatan o'z pozitsiyasini boshqa xalqaro muammolardan kelib chiqib belgilamaydi albatta. Bu o'rinda so'z NATONing Sharqda harakatlanishi, ya'ni Rossiya chegaralari, Markaziy Osiyo va Kavkazortidagi ichki mintaqaviy konfliktlarni tartibga solish aralashuvi, Afg'onistondagi ichki muammolarni tartibga solishdagi odillik, AQSh va uning g'arbiy ittifoqchilarini Markaziy Osiyo va Kavkazorti mintaqalarida doimiy harbiy bazalarni barpo etishga urinishini oldini olish va umuman olganda xalqaro muammolarni hal etishda BMTning rolini oshirish haqida ketmoqda. Rossiyalik mutaxassislarning fikriga ko'ra, Eron bilan munosabatlarni bu hududda yuzaga kelayotgan AQSh bilan manfaatlarni qarama-qarshi kelib qolishi hisobiga bo'lsa ham mustahkamlash lozim. Chunki shusiz ham Rossiya

⁶⁷ Сажин В. И. Россия и Иран: проблемы стратегической перспективы // Исламская республика Иран в 90-е годы (экономика, политика, культура). – Москва: 1998. – С. 30.

⁶⁸ Скляров Л. Е. Россия и Иран в 90-е годы: новый этап взаимоотношений // Исламская республика Иран в 90-е годы (экономика, политика, культура). – Москва: 1998. – С. 50.

⁶⁹ Россия и мусульманский мир. 2000. – №8. – С. 125.

⁷⁰ Сергей Дружиловский. Эволюция и перспективы развития российско-иранских отношений. – Москва: 2012. – С. 16.

allaqachon AQSh prezidenti davlat maslahatchilaridan biri Mitt Romni tomonidan tashqi siyosatdagi asosiy dushman sifatida e'lon qilib bo'lingan edi.⁷¹ Bunday to'siqlar bo'lishiga qaramasdan ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish borasidagi iqtisodiy, siyosiy va umummadaniy kelishuvlarni amalga oshirish shubhasiz har ikki davlat pozitsiyasidan kelib chiqib muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari Rossiya tashqi iqtisodiy siyosatida Eronning muhim ahamiyat kasb etish sabablaridan yana biri shundaki, u Rossiyaning O'rta Sharqdagi eng yirik savdo hamkori hisoblanadi va o'z mahsulotlari, shuningdek, mashina, ishlab chiqarish texnologiyalari, transport vositalari, metal va nometal mahsulotlarni qo'shni davlatga olib o'tish uchun muhim savdo yo'lagi bo'lish bilan bir qatorda, keng iste'mol bozori ham hisoblanadi. Tashqi siyosatda Eron neft-gaz, shu jumladan Rossiya iqtisodiyoti uchun muhim bo'lgan uglevodorod xom-ashyosini tashish bo'yicha "yo'lak"ni shakllantirish uning Markaziy va Janubiy Osiyoda hamda Yaqin va O'rta Sharqdagi tashqi siyosiy pozitsiyasini mustahkamlash va bu mintaqadagi energetika xavfsizligi borasidagi imkoniyatlarni kengaytirishga yordam beradi⁷².

Shundan kelib chiqib Rossiya tashqi siyosatida Eronning o'rnini yuqori ekanligini ularning mintaqaviy va xalqaro jarayonlarga nisbatan qarashlarida yagona pozitsiyaga ega ekanliklari, shuningdek, AQShning bir tomonlama siyosat olib borishdagi maqsadlari, uning Isroil va Turkiya yordamida amalga oshirgan so'ngi yillarda Yaqin va O'rta Sharqda, xususan Suriyada voqealar, Ozorbayjondagi harlashtirish jarayonlari, Markaziy Osiyo va Kaspiy dengizi mintaqasida xavfsizlik va ekotizimni saqlab qolish, ikki davlat o'rtasida transkaspiy quvurini G'arb yordamisiz tashkil etish, har ikki mamlakatning Armaniston bilan munosabatlarini yaxshilashda hamda Rossiyaning Janubiy Kavkaz mintaqasidagi rolini oshirishda Eron eng muhim strategik, iqtisodiy va siyosiy hamkor hisoblanadi. Aynan shu maqsadda Rossiya prezidenti Vladimir Putinning Eronga uyushtirgan rasmiy tashrifi oxirgi 60 yil ichida Rossiya davlat rahbarining Eronga nisbatan dastlabki tashrifi sifatida baholanadi va ahamiyatli hisoblanadi. Ushbu uchrashuvning bosh maqsadi "tinchlik dengizi" hisoblangan Kaspiy deklaratsiyasining imzolanishi bo'ldi. Bundan tashqari, Eron yadro dasturi har ikki tomon diqqat markazida bo'lishi bilan birga, uni rivojlantirish ishlarida Rossiya qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanligini ma'lum qildi.

2000-yildan keyin Eron yadro dasturi Rossiya tashqi siyosatida u bilan bog'liq asosiy muammoga aylandi. Ayni shu paytda Rossiya muammolarni tartibga solish uchun Eron masalasida 1995-yil tuzilgan ikki tomonlama

⁷¹ Севак Саруханян. Ядерная программа Ирана и российско-иранские отношения. – Москва: 2012. – С. 21.

⁷² Ивашенцов Г. Россия-Иран: горизонты партнерства // Международная жизнь. – Москва: 2004. – №10. – С. 124.

rossiya-amerika kelishuvi(Gor-Chernomordin nomi bilan mashhur shartnoma)dan chiqadi. Bu shartnomaga muvofiq Rossiya Eron yadro dasturini amalga oshirishda unga texnik va harbiy yordam berishni cheklashi lozim edi. Shartnomadan chiqish harakati bilan Rossiya president Boris Yelsin davrida “muzlatib” qo’yilgan Eron yadro dasturini amalga oshirish va Bushirdagi qurilish ishlarini butunlay yakunlash hamda harbiy-texnik hamkorlikni yanada rivojlantirish sari dadil qadam tashlagan edi. Bu bilan Rossiya hukumati Markaziy Osiyo, Yaqin va O’rta Sharqda XX asrning 90-yillarda yo’qotilgan siyosiy ta’sir va obrosini tiklab olishni mo’ljallagan edi. Bu mintaqada Rossiya ta’sir doirasining susayishi asosan ikkita Fors ko’rfazi urushlari (1990-1991, 2003) bilan bog’liqdir. Eronda mamlakat prezidentligiga Ahmadiy Najodning kelishi va Eronni AQSh bilan munosabatlarini yanada keskinlashuvi bilan Rossiya o’zining bu mintaqada va Eron uchun asosiy yetakchi davlat ekanligiga to’liq ishonch hosil qildi. 2006-yili Rossiya Eron bilan uning xususiy sun’iy yo’ldishini kosmosga chiqarishda yordam berish va zamonaviy havo hujumlari mudofaasi imkonini beruvchi «Tor M-1» i «Pechora-«2A» antiroketalarini sotish bo’yicha milliard dollarga teng bo’lgan shartnoma imzoladi.

2006-yil 31-avgustda BMT Xavfsizlik Kengashi Eron agar uranni to’yintirish ishlarini to’xtatmasa, unga qarshi yangi sanksiya e’lon qilishi haqida rezolyutsiya qabul qildi. Lekin Rossiya va Xitoy bu sanksiyani qo’yilishiga norozi ekanligini va Eron bilan munosabatlarni davom etirishlarini ma’lum qildi. 2007-yil 27-sentabrda esa, BMT Xavfsizlik Kengashi tomonidan №1835 sonli sanksiya e’lon qilindi. Bu borada ham Rossiya o’z qarashlarida qoldi, ya’ni sanksiya shartlari Eron uchun munosib emas⁷³.

Bu borada Vladimir Putinning 2007-yil Al-Jazira telekanali jurnalistlariga bergan intervyusi diqqatga sazovordir. Uning ta’kidlashicha:”Bizni Eron bilan olib borayotgan yadro borasidagi va harbiy-texnik hamkorligimiz xalqaro-huquqiy hujjatlarning hech biriga qarshi emas. Eron bilan aloqalarimizda xalqaro hujjatlarning buzulishigan zarracha yo’l qo’ymaymiz. Hamkorlikda amalga oshirayotgan Bushir AESni qurish borasidagi yadro dasturimiz tinchlik mqsadiga yo’naltirilgan bo’lib, MAGATE tomonidan to’laligicha nazoratga olingan. U yerda texnika bor, doimiy MAGATE kuzatuvchilari bor. Bizni atom elektr stansiyasini qurishimizga hech qanday norozilik yo’q. Biz kelajakda ham huddi shu tarzda harakat qilishni rejalashtiryapmiz. Olib borayotgan yadro borasidagi hamkorligimizdan kelib chiqib shuni aytishim mumkinki, biz yadro quroli tarqalishiga to’laligicha qarshi bo’lgan davlatlarmiz.”

2008-yili Eron yadro dasturi va uni Rossiya qo’llab-quvvatlashiga doir yangi rezolyutsiya qabul qilindi. Unda BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy

⁷³ Вашингтон обвинил Тегеран в намерении создать ядерное оружие/ на сайте www.iran.ru

olti nafar a'zosi manfaatlaridan kelib chiqqan holda rezolyutsani asosiy yo'nalishlari bayon etilgan edi. Bularning birinchisi Eronda MAGATE faoliyatini olib borilishi va uni qo'llab-quvvatlashni ko'zda tutardi, ikkinchisi, bu choralar real vaziyatdan kelib chiqib, unga mos bo'lishi, uchinchisi esa agar Eron MAGATE qo'yayotgan talablarga rozi bo'lsa, u bilan doimiy muzokaralar olib borishga har qaysi "oltilik" davlatlari tayyor ekanligi ma'lum qilindi⁷⁴.

Rossiya Tashqi ishlar vaziri Sergey Lavrov bu rezolyutsiyaga o'z munosabatini bildirib, jumladan shunday deydi: "Biz g'arblik hamkorlarimizning oldingisidan farq qiluvchi yangi talablari bayon etilgan rezolyutsiya matnini oldik. Ularni talablari MAGATE aniqlay olmagan Eronning sobiq yadro dasturi faoliyati bo'yicha emas, balki Eronni jazolashga qaratilgan. Endi bu rezolyutsiya biz hamkorlik qilayotgan BMT Xavfsizlik Kengashining yadro qurolini tarqatmaslik borasidagi barcha kriteriyalariga mos keladi, boshqa hech qanday siyosiy maqsad yo'q."

2008-yili Eron prezidenti BMT Xavfsizlik Kengashining olti a'zosi bilan har qanday munosabatlarga kirishishni to'xtashini e'lon qildi. O'z navbatida Rossiya "oltilik" davlatlari bilan yangitdan muzokaralarga kirishishni taklif etdi. Rossiya Xavfsizlik Kengashi sekretari Valentin Sobolev bu borada ITAR-TACC axborot agentligiga bergan ma'lumotida shunday deydi: "Biz Eronni "oltilik" davlatlari bilan muzokaralarda hamkorlikka chaqirdik. Eron bu muzokaralarda katta tashabbus bilan chiqishi kerak deb hisoblaymiz. Eron yadro qurolini tarqatmaslik bo'yich xalqaro kelishuvga amal qilgan holda yadro energiyasini rivojlantirish imkoniga ega." Lekin Jenevda bo'lib o'tgan muzokaralar chog'ida Rossiya nisbatan "oltilik" davlatlari tomonida ekanligi namoyon bo'lib qoldi. 2009-yilga kelib Eron va "oltilik" davlatlari o'rtasida yangitdan munosabatlar keskinlashuvi boshlandi. Rossiya har doimgidek yana Eronni muzokaralarga chaqirish bilan cheklandi⁷⁵.

2010-yining boshlariga kelib Rossiya tashqi siyosatida Eron bilan munosabatlarda bir qadar "sovuqchilik" kuzatiladi. Bu esa yuqorida aytib o'tilgan siyosiy hamkorlikda yuzaga kelgan muammolar bilan bog'liq edi. Bundan tashqari 2010-yili iyun oyida BMT Xavfsizlik Kengashining 12-majlisida Eronga nisbatan yangi sanksiya e'lon qilindi. Uning doimiyu a'zosi Rossiya Federatsiyasi Vitaliy Churkinni so'zlariga qaraganda, yangi sanksiya Eron tomonida kelishilgan shartlarni bajarmaganligi uchun qo'yilayotganini

⁷⁴ Федюкин, Е. В. Роль третьих стран в развитии ядерной программы Ирана // Вестник ННГУ. Серия Международные отношения, политология, регионоведение. 2006. – Вып.2. – С. 125.

⁷⁵ Саруханян С. Россия и Иран: 10 лет ядерного сотрудничества. – Ереван: 2006. – С. 90.

bayon qildi. Turli qarama-qarshiliklarga qaramasdan, Eron Rossiya uchun siyosiy va iqtisodiy hamkorlardan biri bo'lib qolmoqda⁷⁶.

Bugungi kunda xalqaro siyosiy maydonda yuz berayotgan voqealar va Eron atrofida yig'ilib qolgan turli siyosiy "o'yinlar" kuchaygan bir paytda Rossiya tomonidan ikki tomonlama iqtisodiy aloqlar bilan bog'liq hukumatlararo muloqotlarni yanada rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda faol qadam tashlash zarur ekanligini Rossiya tashqi savdo aylanmasida Eronning roli yuqori emasligini har ikki davlat savdo rivojlanishi potentsialiga muvofiq kelmasligi ko'rsatib turadi. 2010-yil natijalariga ko'ra Rossiya tashqi savdo hamkorlari orasida Eron 29-o'rinni egallaydi va shu jumladan eksportda 26 va importda 61-o'rinlarni band qilganligi so'zimizning yaqqol tasdig'idir. Rossiya tashqi savdo aylanmasida Eronning ulushi esa 0,6%ni tashkil etgan. 2000-yilda 2010-yilgacha ikki tomonlama rus-eron savdo aloqalari mahsulot ayirboshlash tendensiyalarini o'sishi bilan belgilanadi. 2010-yilda davlatlar o'rtasida savdo va mahsulot ayirboshlash hajmi o'tgan yil bilan taqqoslaganda 19,5%, eksport 19% va import 27%ga oshganligini ta'kidlab o'tish lozim. Eron bilan mahsulot ayirboshlashning katta qismi Rossiya eksporti(92,5%)ga to'g'ri keladi. 2011-yil yanvar oyini o'tgan yil shu oy bilan taqqoslaganda mahsulot ayirboshlashning o'sishi 32%(326,4 mln. AQSh dollorigacha), ekaport ham xuddi shu raqamda va import 38%(28,1 mln. AQSh dollari)gacha yetganligini kuzatish mumkin. Rossiya va Eron o'rtasidagi tovar ayirboshlashdagi mahsulotlar tizimi hamon o'zgarishsiz ya'ni 2000-yildagi holatda qolmoqda. 2010-yilga kelib Eronga nisbatan rus eksport tovarlari tizimini o'tgan yil kabi metal va uning tayyor mahsulotlar-64%, qimmatbaho toshlar va uning tayyor mahsulotlari 17,5%, yog'och, sellyuluza-qog'oz mahsulotlari 6,6%, boshhoqli o'simliklar 5,16%, mineral va yoqilg'i-energetika mahsulotlar 2,95% tashkil etgan. O'z navbatida Rossiyaning Erondan import qiluvchi mahsulotlari ilgarigidek oziq-ovqat va qishloq xo'jalik mahsulotlari 84,7%, shuningdek mashina va texnologiyalar 6,6%ni tashkil etgan⁷⁷.

Ikki davlat o'rtasidagi o'zaro jamg'armalar hajmining umumiy qiymati 2010-yilning dastlabki to'qqiz oyiga nisbatan 30,5 mln., shu jumladan Eronning Rossiyadagi investitsiyasi 27,4 mln. va Rossiyaning Erondagi investitsiyasi 3,1 mln. AQSh dollariga baholanmoqda. Eronning Rossiyaga to'g'ridan-to'g'ri olib kirayotgan investitsiyasi 2010-yilning o'rtalarigacha bo'lgan vaqt mobaynida 608 ming AQSh dollarini tashkil etganligini ko'rish mumkin. Har ikki davlat

⁷⁶ Военное сотрудничество с Ираном: Россия торгует смертью, <http://www.temadnya.ru/spravka/13mar2001/322.htm>

⁷⁷ <http://www.iran-daily.com/1388/3414/html/economy.htm#s38329>.

investorlarini iqtisodiy sohada chakana va ulgurji savdo ko'proq qiziqtirayotganini kiritilayotgan investitsiyalarning 90%dan ortig'i avtotransportga xizmat ko'rsatish va maishiy texnika sohalariga yo'naltirilayotganligidan bilib olish qiyin emas.

2007-yil 16-oktabrda Rossiya Federatsiyasi va Eron Islom Respublikasi Prezidentlari o'rtasida bo'lib o'tgan uchrashuvda tomonlar o'zaro savdo-iqtisodiy hamkorlik hajmini yanada kengaytirish chora-tadbirlari haqida kelishuvni imzoladi. Bu kelishuvni yuqori darajada bajarilishini ta'minlash maqsadida 2007-yil dekabr oyida Moskvada Rossiya-Eron iqtisodiy-savdo hamkorligi bo'yicha doimiy kengashning yettinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi va unda ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy-savdo, sanoat va ilmiy-texnik hamkorlikni rivojlantirishni uzoq muddatli chora-tadbirlari haqida hukumatlararo Memorandum imzolandi. Bundan tashqari shu yilning 13-dekabrida Eron Islom Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida turizm borasidagi hamkorlik haqida kelishuv imzolanadi. Bu Memorandum davlatlar o'rtasidagi kelishuv-huquqiy asosni kengaytirdi va o'zaro hamkorlik borasida standartlashtirish, metrologiya va sanoat tadqiqotlarini tartibga solish bo'yicha Federatsiya agentligi va Eron standartlashtirish instituti o'rtasidagi muvofiqlikka asos bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Rossiya uchun Eron nafaqat iqtisodiy-siyosiy hamkor, balki mintaqa nuqtai-nazarida, bu yerdagi xavfsizlik va uni ta'minlash borasida, shuningdek, xalqaro masalalarda umumiy pozitsiyaga ega bo'lgan qarashlar bilan ham muhim sherik hisoblanadi. Shuning uchun ham so'ngi ikki o'n yillikda Rossiyaning Eron bilan munosabatlari yuqori darajaga ko'tarilganini ko'rishimiz mumkin. Bu borada Rossiya prezidenti Vladimir Putinning Eronni Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'lish istagini bildirgani bilan tabriklagani muhim ahamiyatga egadir. Chunki xalqaro tashkilotlarda ham Rossiya-Eron manfaatlari doimo mushtarak bo'lib kelgan⁷⁸.

Lekin 2010-yil 9-iyunda BMT Xavfsizlik Kengashining Eronga qarshi e'lon qilgan sanksiyasini Rossiya tomonidan ma'qullanishi va president D.Medvedev ko'rsatmasi bilan 166 million dollarlik «S-300» rusumli antiraketa tizimini Eronga sotish haqidagi shartnomani to'xtatib qo'yilishi bilan ikki tomonlama munosabatlarda biroz uzilish yuz berdi. Albatta bu ish Rossiyaga nisbatan g'arb davlatlarini qattiq bosimi va bunday sharoitda Rossiya o'z manfaatlari doirasidan kelib chiqqan holda ushbu sanksiyani ma'qullagani uning yadro borasidagi Eron bilan faoliyatini ma'lum vaqt to'xtatish istagidan dalolat beradi. Chunki sanksiyani ma'qullash borasidagi Rossiya Tashqi ishlar vaziri Sergey Lavrovning so'zlariga qarganda, Eron ega bo'lishga intilayotgan

⁷⁸ Санаи М. Три подхода к оценке ирано-российских отношений. Выступление на специальном заседании ИРАС Иран и Россия в новых международных условиях-www.iraneurasia.ir. 27.01.2010.

yadro quroli keyinchalik Rossiya uchun ham butun g'arb davlatlari tomonidan yangi xavfni yuzaga keltirishi mumkinligi va bu harakatlar faqatgina tinchlik maqsadida bo'lsagina davom ettirilishini ta'kidlamoqda.

TRENDS AND PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF ECONOMIC COOPERATION BETWEEN THE COUNTRIES OF CENTRAL ASIA AND SAUDI ARABIA

Akbarali Mukhitdinov -
student of TSUOS

Saudi Arabia (SA) is geographically located in a strategically important part of the Arabian Peninsula, creating great opportunities for this country to develop trade and cooperation with many countries of the world, including Central Asian countries. The Kingdom of Saudi Arabia is the largest and most competitive economy in the Arab world, characterized by a high standard of living and stable economic growth and plays an important role in OPEC.

Despite the fact that the stability of economic growth in the SA largely depends on global demand and the change in world prices for oil, Saudi Arabia ranks 22nd in the ranking of countries of the world in terms of export volumes, and 29th in terms of the imposition of commodities⁷⁹. The main trading partners of SA are Japan, China, India, South Korea, USA, UAE, Singapore, Germany and others. SA remains a huge consumer market for global exporters. Geographically, the main supplies of SA products are made from China, the United States, the United Arab Emirates, Germany, Japan, as well as India, South Korea and the United Kingdom. However, in this list, the countries of Central Asia occupy very low places: Uzbekistan 89th place; Kazakhstan 88th place, Kyrgyzstan 136th place⁸⁰. Among the countries of Central Asia for the export of SA, Kazakhstan has the highest indicators, followed by Uzbekistan, then Kyrgyzstan and other countries. Over the past five years, foreign trade relations between Kazakhstan and the SA have shown unstable dynamics. Kazakhstan's the main export product of SA is metal (mainly zinc and copper), as well as black metal structures. Kazakhstan's export to SA is mainly represented by pharmaceutical products, equipment, paints, plastics and products. Kyrgyzstan's foreign trade relations with the SA are based on the export of food products. The main product exported by Kyrgyzstan to the SA is

⁷⁹ BP Statistical Review of World Energy, 2013. URL: <http://www.bp.com/en/global/corporate/about-bp/energy-economics/statistical-review-of-world-energy.html>.

⁸⁰ <https://review.uz/ru/post/tsentralnaya-aziya-i-saudovskaya-araviya-2>

natural honey, which in 2017 year accounted for almost half of the volume of exports. In addition, Kyrgyz exported to SA refined nuts, prefabricated structures, etc. The composition of Kyrgyzstan's import includes electric machinery and equipment, essential oils, pharmaceutical products, plastic products (polyethylene), carpets, etc. The basis of Uzbekistan's exports to the SA market is grapes, raisins, nuts, dried fruits and other types of fruits and vegetables, as well as transport and tourism services. Despite the fact that Uzbekistan has become a leader among the 15 countries in the world in terms of export of dried fruits to the world market, the supply of these products to the SA market is not always effective.

In order to expand trade and economic relations, it is worthwhile to thoroughly study the opportunities for increasing the supply of goods and services between the countries of Central Asia and the Kingdom of Saudi Arabia. In this regard, it is desirable to establish joint trade and economic commissions that will develop bilateral and multilateral relations and will constitute the joint work of expert groups consisting of representatives of government and business circles, customs services, standardization agencies and control over imported goods. It is very important to develop relations on the basis of cultural and religious community in order to expand foreign economic relations. In this regard, the relations of the countries of Central Asia, in particular, Uzbekistan with the SA, have not yet developed correctly. Therefore, attention should be paid to academic and cultural exchange as well as tourism development. SA occupies one of the leading places in the world in terms of tourism, taking into account the level of welfare of its population.

At the same time, SA itself is one of the Centers of religious tourism. As you know, most saudian tourists travel to countries such as Bahrain, UAE, Kuwait, Turkey, Jordan, Egypt, Great Britain, France, USA, Italy, Malaysia, India, Germany, Indonesia and China. According to experts, tourists from the SA prefer to visit Entertainment, which is associated with viewing the sights of cultural and historical attractions, recreation, hunting. The countries of Central Asia have enough entertainment and entertainment potential to meet the needs of saudian tourists. At the same time, the main advantages of saudian tourists, such as the absence of a visa or a simplified procedure for obtaining a visa, the availability of direct flights, 4-5-star hotels, security and stability in the receiving country, the availability of Arabic-language guides and translators, the provision of honest products is already considered as the priority tasks of developing tourism in Uzbekistan⁸¹.

⁸¹ Arafat Ibrakhim. Otnosheniya arabskogo mira so stranami Tsentral'noy Azii. 15.07.2007. URL: <http://www.aljazeera.net/specialfiles/pages/a2e8f771-1f1e-417f-a748-fc4e35040ad0>

The main problem for tourists from Central Asia is that the cost of a Saudi visa is very high. For example, one entry visa for citizens of Uzbekistan is 750 dollars. For the development of cooperation and tourism, the Uzbek side opened regular flights on the Tashkent-Jeddah-Tashkent route, introduced a simplified procedure for issuing tourist visas to SA citizens, which can formalize an electronic tourist visa worth 35 (double) and 50 dollars (multi-time). In the future, "Uzbektourism" plans to hold presentations in the major cities of SA⁸², to show advertising roles on Central TV channels, to publish articles in newspapers and magazines, to distribute video films on the tourism potential of Central Asian countries, in particular in the social networks of Uzbekistan. One of such projects can be the Tomb of Imam Al-Bukhari and other holy places for the Muslim world located on the territory of Uzbekistan.

In the bilateral relations of the states of Central Asia with the SA, a solid economic basis has not yet been created, which is provided by the relevant legal framework. This situation hinders the effective use of financial and technical cooperation opportunities through the Saudi Development Fund and the Islamic Development Bank. In order to significantly expand the trade and economic relations between CA countries and SA, It is proposed to implement a strong marketing policy on a mutual basis, to organize fairs of national and industrial products, to open the exhibition halls, to ensure the active participation of the companies of CA countries in the annual international exhibitions organized by SA in such as FoodExSaudi, SaudiTransTec, JITF In order to develop bilateral and multilateral trade and economic relations between CA countries and SA, It is necessary to make active efforts to create trading houses in major cities of CA and SA countries, conduct business forums in the format G2G and B2B, as well as to ensure the participation of representatives of business circles in expositions. Another important issue in this direction is the creation of logistics conditions for the transportation of exported goods. Direct cooperation of research institutes and "the centers of opinions" of SA and CA countries in the development of trade and economic relations is of no small importance. Their participation is necessary in order to inform relevant government agencies and business circles about the potential and comparative advantages of the economy, the current trade regime and the investment climate, the mutually beneficial partnership between the countries of CA and SA projects.

⁸² <http://www.mfa.uz/ru/cooperation/countries/59>

“ARAB BAHORI” INQILOBINING ARAB MAMLAKATLARI VA MISR ARAB RESPUBLIKASIDA TUTGAN ROLI VA UNING OQIBATLARI

Otajonova O‘g‘iloy Muhammadjon qizi -
Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi
yo‘nalishi 2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: **t.f.n. Abdullayev U.A.**

Tarixiy jarayonlarda inqiloblarning ro‘li juda katta hisoblanadi. Shunday inqiloblardan biri “Arab bahori” 2010-yil oxirida arab dunyosida boshlangan qator e‘tirozlarga berilgan nomdir. Ular Tunis, Misr, Yaman, Jazoir, Iordaniya, Mavritaniya, Saudiya Arabistoni, Ummon, Sudan, Suriya, Liviya hamda Marokash kabi mamlakatlarni qamrab oldi. “Arab bahori”ning Yaqin Sharqqa ta‘siri juda katta edi, hatto ko‘p joylarda uning yakuniy natijasi ko‘zga yaqqol tashlanadi. 2010-yilning oxirida va 2011-yil boshida butun mintaqada bo‘lib o‘tgan norozilik namoyishlari dastlabki bosqichlarida, birinchi navbatda, siyosiy beqarorlik, iqtisodiy qiyinchiliklar va hatto nizolar bilan ajralib turadigan uzoq muddatli siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlarni boshladi.

"Arab bahori"ning eng katta yutug‘i - bu arab davlatlari diktatorlarini ommaviy to‘ntarish orqali yo‘q qilish mumkinligini namoyish etish edi.⁸³ Bu harbiy to‘ntarish yoki tashqi aralashuv emas, balki avvalgi davrlarda bo‘lganidek. 2011-yil oxiriga kelib, Tunis, Misr, Liviya va Yamandagi hukumatlar xalq isyoni, xalqning misli ko‘rilmagan namoyishi natijasida yo‘q qilindi. Arab olamidagi noroziliklar 2010-yil 18-dekabrda Tunisda, Muhammad Buazizining o‘zini yoqib yuborishidan boshlanib ketdi.⁸⁴ Va bir necha kun ichida mamlakatni yigirma yil davomida boshqargan prezident Ben Ali rejimining qulashiga olib kelgan norozilik namoyishlari bilan boshlandi. Keyinchalik Misrda Husni Muborak rejimiga navbat keldi, u mamlakatni deyarli o‘ttiz yil davomida boshqargan, undan keyin esa g‘alayonlar Liviya, Yaman va Suriyada boshlanib ketdi.

Yaqin Sharqni qamrab olgan g‘alayonlar asosan arab dunyosi ketma-ket bir necha o‘n yillar davomida boshdan kechirayotgan inqirozning ifodasi edi. Mamlakatlardagi inqilobiy o‘zgarishlar yosh avlod tomonidan amalga oshirildi - bu yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida aholining tez o‘sishi natijasi edi. 1960-yillarning boshlarida arab mamlakatlarining aholisi 100 mln. 2011-yil

⁸³ Will the Arab revolutions spread? The Middle East Channel // http://mideast.foreignpolicy.com/posts/2011/01/26/will_the_arab_revolutions_spread – 11.11.2013.

⁸⁴ Slap to a Man’s Pride Set Off Tumult in Tunisia // http://www.nytimes.com/2011/01/22/world/africa/22sidi.html?pagewanted=1&_r=2&src=twrhp& – 17.12.2013.

boshida "Arab bahori" davrida arab davlatlarida 400 million kishi yashagan va 2050-yilga kelib ularning soni 700 millionga yetishi mumkin. Tez o'sib borayotgan aholi uchun munosib turmush tarzini ta'minlash uchun resurslar yo'q edi. Yaqin Sharq u yoki bu tarzda o'zgardi. Eski tartiblar ag'darildi. Eng yomoni, arab davlatlari va millatlari o'rnida butun arablarni yuz yillar orqaga qaytarish bilan tahdid qiladigan etnik guruhlar, urug', qabilalar va radikal islomiy harakatlar dunyosi paydo bo'ldi.

"Arab bahori" nima bilan bog'liqligini, qanday oqibatlarga olib kelganini eslaylik. Bundan tashqari, voqealar hanuzgacha mintaqadagi xalqlarning mavqeiga jiddiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Bir tomondan, ommaviy axborot vositalari buni bizga bir qator namoyishlar sifatida taqdim etdi, bu esa ba'zi hollarda hukumat to'ntarishiga olib keldi. Boshqa tomondan, u yerda ba'zi so'nggi texnologiyalar aniq ishlatilgan. Arab bahori mamlakatlari odamlarning katta guruhlariga ta'sir o'tkazish usullarini sinash maydoniga aylangan deb hisoblashadi. Umuman olganda, u 18 ta mamlakat xalqlariga ta'sir ko'rsatdi. Ular orasida Misr va Liviya, Suriya va Tunis kabi davlatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu davlatlar hanuzgacha "o'zlariga kela olmaydilar". Chunki, zararsiz ko'ringan namoyishlar davlat mexanizmining buzilishiga olib keldi. Ko'p hollarda siyosiy rejimda o'zgarishlar yuz berdi.

Misrdagi davlat to'ntarishida esa, Islomchilar bu mamlakatni 2013-yilgacha boshqargan. Va ular demokratik yo'l bilan tanlangan. Misrda aholi bir xil emas. Saylovchilarning aksariyati yarim savodli va shariat qonunlariga bo'ysunadi. Biroq, musulmon urf-odatlarini zo'rlik bilan davlat qonuni darajasiga ko'tarish bu mamlakatning o'qimishli qismiga yoqmad. ⁸⁵ 2013-yilda davlat to'ntarishi sodir bo'ldi. Hokimiyatni general As-Sisi boshchiligidagi harbiy elita qatlami vakillari egallab olishdi. 2014-yilning kuzida u umumiy saylov huquqi bilan mamlakat prezidenti etib saylandi. Ommaviy noroziliklar qamrab olgan boshqa mamlakatlar bilan taqqoslaganda Tunis va Misr "Arab bahori" voqealaridan eng kam yo'qotishlar bilan chiqdi. ⁸⁶ Bunga davlatning rivojlangan institutlari yordam berishdi. Ular ma'lum bir hukmdor yoki rejimga bog'lanmagan holda mustaqil ravishda ishlashga qodir bo'lib, jamiyatda konfessional yo'nalish bo'yicha bo'linishning yo'qligi va eng muhimi, o'zlarini siyosiy rejimlardan tashqarida vatanparvar kuch sifatida qurolli kuchlariga ega ekanligida edi.

⁸⁵ Associated Press. 2012. "Thousands in Egypt mark first anniversary of 'Friday of Rage'." New York Daily News, January 27. Available at http://articles.nydailynews.com/2012-01-27/news/306720531_egyptian-protesters-tahrir-square-muslim-brotherhood. Accessed 6/23/12.

⁸⁶ "Arab Spring in Tunisia and Egypt: The Impact of New Media on Contemporary Social Movements and Challenges for Social Movement Theory" Chapman University Digital Commons: http://digitalcommons.chapman.edu/sociology_articles/12/2014

Shunga qaramay, Misrda inqilobdan keyingi yillarda demokratik voqealar rivojlandi. Shunday qilib, 2011-yil oxiridagi birinchi demokratik parlament saylovlarida mandatlarining qariyb uchdan ikki qismi islom partiyalari - "Ozodlik va Adolat" ("Musulmon birodarlar" harakatining siyosiy qanoti) va salafiylar partiyasi "Nur" tomonidan qabul qilindi. Biroq 2012-yil iyun oyida sud qarori bilan parlament tarqatib yuborildi. Xuddi shu oyda "Musulmon birodarlar" ning a'zosi Muhammad Mursiy Misr prezidenti etib saylandi. Shunday qilib, Mursi mamlakatning harbiysi bo'lmagan birinchi prezidenti bo'ldi.

Shu bilan birga, Mursiga hokimiyatda uzoq vaqt qolish nasib etmagan.⁸⁷ Bir yil o'tgach, uni ommaviy namoyishlarda o'sha paytdagi mudofaa vaziri Abdel Fattoh as-Sisi quvib chiqardi. "Musulmon birodarlar" tarafdorlari bu hodisani harbiy to'ntarish deb hisoblashadi, keyinchalik prezident bo'lgan As-Sisi bir necha bor takrorlagan: armiya Mursiyga qarshi ommaviy namoyishlardan keyingina aralashgan. Al-Sisiyning hokimiyat tepasiga ko'tarilishi o'ziga xos aksilinqilob, Muborak xalqining kuch tuzilmalariga qaytishi, liberal siyosiy faollarning hibsga olinishi, terroristik deb e'lon qilingan "Musulmon birodarlar" harakati rahbariyati va tarafdorlariga o'lim jazosining berilishi bilan birga kechdi.

2013-yil aprelda Misr jamiyatida keng qamrovli ikkiga bo'linish xavfi vujudga kelib qoldi. Oppozisiya tarafdorlari M.Mursi va "Musulmon birodarlari"ni hokimiyatni mutloqlashtirishda ayblagan bo'lsa, prezident tarafdorlari aksincha oppozisiyani mamlakatda beqarorlikni keltirib chiqarishda ayblay boshladi. Mamlakatdagi yoqilg'i resurslarining yetishmasligi, elektr energiyasidagi yetishmovchiliklar M.Mursi hukumatining iqtisodiyotni boshqara olmasligi natijasi sifatida qabul qilindi. 2013-yil 3-iyulda M.Mursi prezidentlik lavozimidan chetlashtirilib, namoyishni bostirishda qurolli kuchlarni qo'llaganlikda ayblanib qamoqqa olindi. Natijada Misrning islomiy-boshqaruv shaklidagi hukumatiga qarshi millionlab norozilarning namoyishlari oqibatida ro'y bergan so'nggi harbiy davlat to'ntarishi dunyoviy (sekulyar) konstitusionalizmni saqlab qolish imkonini berdi⁸⁸. Hokimiyatga dunyoviy hokimiyat tarafdori bo'lgan Abdul Fatto As-Sisi keldi. Shundan so'ng mamlakatda barqarorlik tiklana boshlandi va hukumat tomonidan Mirsni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanitirish borasida harakatlar boshlandi.

⁸⁷ 7 Египет после Мурси // <http://novoteka.ru/seventexp/7207040> – 11.05.2014.

⁸⁸ James Sater. 'Egypt's Dilemma: Democracy Without Democrats//

<http://static.sdu.dk/mediafiles/3/D/6/7B3D64DFC7-8160-4183-B721-0F60092202F7%7DJS0113.pdf> - 9 July 2015

II БЎЛИМ.

МАРКАЗИЙ ОСИЁ ХАЛҚЛАРИ ТАРИХИ ВА ЭТНОЛОГИЯСИ

ЭТНОГРАФИК АНЪАНАЛАРНИНГ ТУРИЗМ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНИШДА ТУТГАН ЎРНИ (АНДИЖОН ВИЛОЯТИДА ЭТНОТУРИЗМГА МОСЛАШГАН УЙҒУР ВА ҚИРҒИЗ ҚИШЛОҚЛАР МИСОЛИДА)

Рўзикулов Шерзодбек Марибжонович -
«Этнография, этнология ва антропология»
мутахассислиги I-курс магистранти
Илмий раҳбар: **PhD Одилов Б.А.**

Аннотация: Мақолада Андижон вилояти худудида узоқ даврдан буён яшаб келган, ўзининг урф-одатлари, хўжалик - маданий анъналари, кадрятларини сақлаб қолган миллатлар яъни, уйғур ва қирғиз халқларининг этнотуризмга мослашган маҳаллалари ва уларнинг туристик салоҳияти ёритилади.

Калит сўзлар: Этнотуризм, хўжалик - маданий анъналари, уйғурлар, қирғизлар, Пахтабод туманидаги Гузар МФЙ, Хонобод шаҳар Истиқлол МФЙ.

Бугунги кунда замонавий шаҳарларда ўзига хос урф-одатлар, анъана ва баъзи қадриятлар тобора йўқолиб бормоқда ва мегаполис аҳолиси этник гуруҳнинг ушбу ноёб дунёсига, табиат ва уларнинг миллий илдизлари билан бирликни ҳис қилиш учун қизиқишмоқда. Бу жараён мамлакатимизда этнотуризм соҳасини ривожланишига олиб келмоқда.

Давлатимиз раҳбари томонидан юртимизда туризмни ривожлантириш орқали иқтисодий таракқий топтириш ва халқ фаровонлигини юксалтиришга алоҳида эътибор бермоқда. Шу мақсадда 2016 йил 2 декабрда “Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони⁸⁹ ҳамда 2018 йил 3 февраль да “Ўзбекистон Республикаси Туризмни ривожлантириш давлат кўмитаси фаолиятини янада

⁸⁹ 2016 йил 2 декабрь, ПФ-4861-сон <https://lex.uz/docs/3077025>

такомиллаштириш чора тадбирлари тўғрисида”ги қарори эълон қилинганди⁹⁰. Мазкур ҳужжатларда анъанавий маданий-тарихий туризм баробарида, унинг зиёрат, экологик, маърифий, этнографик, ва бошқа турларини кенг оммалаштириш, соҳани комплекс ривожлантиришга доир миллий ва ҳудудий дастурларни ишлаб чиқиш ҳамда амалга ошириш каби долзарб вазифалар кўзда тутилган бўлиб, ушбу йўналишда муайян чора-тадбирлар ҳаётга татбиқ этилмоқда.

Андижон вилоятига ҳам турли даврларида кўплаб миллат ва элатлар кўчиб келганлиги тарихдан маълум. Уларнинг айримлари ҳозирги кунда ҳам ўзининг асрий тарихий синовлар давридан ўтиб келган ўзига хос миллий хусусиятга эга бўлган аъанларини сақлаб қолган. Бу жараён ҳозирги кунда Андижонда этнотуризмни ривожланишига жуда катта таъсир қилмоқда. Натижада бу соҳани ривожланиши бевосита Андижон вилоятида ижтимоий-иқтисодий соҳани таррақиётига хисса қўшади.

Андижон вилояти туризм бошқармаси томонидан рўйхатга олинган этнотуризмга мослашган маҳаллалар ичида Андижон вилояти, Пахтаобод туманидаги Гузар МФЙ (Уйғур маданияти), Хонобод шаҳридаги Истиклол МФЙ (Қирғиз маданияти) мавжуд.⁹¹

Андижон вилоятида айни вақтда этнотуризмга мослашган маҳаллалардан бири Пахтаобод туманидаги Гузар МФЙ (Уйғур маданиятига мансуб) ҳисобланади. Ушбу МФЙда асосан уйғур миллатига мансуб аҳоли вакиллари истиқомат қилади.

Тарихдан маълумки, Уйғурлар Фарғона водийси ҳудудига кўчиб ўтар эканлар, иложи борича зич жойлашишга ҳаракат қилганлар. Шу мақсадда кўп ҳолларда улар кам ўзлаштирилган ёки умуман бўш ерларда ўзларининг қишлоқларини ташкил этганлар. Одатда, ушбу янги ташкил топган уйғур қишлоқлари Шарқий Туркистондаги ўзлари аввал яшаган шаҳар ва қишлоқ номлари билан аталган. Водийда Қашқарқишлоқ, Уйғурқишлоқ, Тоғлик, Пайоноб, Қовул, Тукё, Пушмон, Озох, Шаврук, Тахтакўприк, Ортиш, Тўққизоқ, Жанжал, Чангот, Гўзо, Пайдо, Олақанот, Қўрғонолди, Қўрғонтепа, Эшакчи, Товоқчи, Овот, Кирмачи, Қоракий, Годира, Кепакчи каби кўплаб уйғур қишлоқлари учрайди. Уйғур аҳоли Фарғона водийсига кўчиб келгандан кейин ўзаро бир-бирларини қўллаб-қувватлаб, биргаликда янги манзилларни барпо этган. Улар дастлаб

⁹⁰ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 6 февралдаги ПҚ-3510-сон қарори. <https://www.lex.uz/docs/3550279>

⁹¹ Андижон вилояти Туризм бошқармаси статистик материалларидан

водийнинг Қорадарё ва Тентаксой оралиғидаги ботқоқ ерларни ўзлаштириб, мавсумий уй-жойларини барпо этишган.⁹²

Андижон вилоятида уйғур қишлоқларининг пайдо бўлиши уйғур меъморий анъаналарини уйғунлаштирган. Хусусан, бу даврда маҳаллий аҳоли орасида уйғурларга хос “қашқарча айвон” оммалашди. Бундай кўринишдаги уйлар водий иқлимига мос бўлиб, қишда ҳам, ёзда ҳам қулайликни таъминлаган. Албатта, бу услубнинг машҳурлиги сабаби: хона олди томонининг симметрик бирлашуви ва айвон ён томонига супа (танча) қурилишидир. Бундан ташқари “қашқарча мўри-ўчоқ” ўзининг қулайлиги сабабли Фарғона водийсида кенг оммалашган. Водийга кўчиб келгандан сўнг маҳаллий анъаналарни ўзлаштира бошлаган. Жумладан, уйғурлар авваллари ўз уйларида сандалдан фойдаланмаган. Кейинроқ эса, меҳмонхона ва катта хоналарни иситишда сандалдан фойдаланишган. Шунингдек, ўзбеклар таъсирида улар ўз хонадонларини ичкари (ичкилик) ва ташқи (ташқилик) қисмга бўлишни ҳам ўзлаштиришган.⁹³

Уйғур миллий кийимларининг муҳим жиҳати – кийим бичимларида намоён бўлади. Бу даврда уйғур эркаклари орасида оммалашган кийим “яктак” (йэхтак) ҳисобланган. Фарғона водийсида яшаётган қашқар хўжалари қора тўн кийганлар, бу эса уларнинг жамиятдаги мавқеини ифодалаган. Уйғур аёлларининг ташқи кийимида чопон ва камзул қимматбаҳо қашқарча товар матосидан тикилган. Водий уйғурлари орасида дўппи барча ёш ва жинсдагилар учун асосий бош кийими ҳисобланган. Уйғурларнинг қишки иссиқ бош кийими бўрк анча қадимий ҳисобланади.⁹⁴

Маълумки, уйғурларни дунёга машҳур қилган маданият белгиларидан бири бу уларнинг миллий таомларидир. Миллий пазандачилик хусусиятини ифодаловчи иккита асосий омилга эътибор қаратиш муҳим. Бу масаллик тури ва тайёрланиш услубидир. Уйғурларнинг миллий таомномасида ҳамирдан тайёрланадиган овқатларнинг катта ўрин эгаллаши сир эмас. Бироқ, уйғур ошхонасига манти, лағмон, мампар, ютағза, санғза каби таомлар дунғонлар орқали кириб келиб оммалашган. Манти – асли хитойча “юмалоқ ҳамир”, лағмон – дунғонча чўзилган ёки совутилган “узун ҳамир” деган маъноларни

⁹² Губаева С.С. Населения Ферганской долины... С. 86; Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. Монография. Тошкент. 2005. Б.31-33. Донёров А.Х., Бўриев О., Аширов А. Марказий осий халқлари этнографияси этногенези ва этник тарихи. Ў.К. Тошкент. 2011.Б. 216-217;

⁹³ Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. Монография. Тошкент. 2005. Б.64-95.

Валихонова Г.К. Фарғона водийси уйғурлари: турмуш тарзи ва маданияти. - Т: Yangi nashr, 2013. Б.16-35

Дала ёзувлари. Пахтабод тумани Гузар МФЙ. 2021 йил. Андижон вилояти туризм бошқармаси бош мутахассиси Б.Юсупов.

⁹⁴ Валихонова Г.К. Фарғона водийси уйғурлари: турмуш тарзи ва маданияти. - Т: Yangi nashr, 2013.

англатади. Санғза эса – хамирли пиширик бўлиб, ўзбек таомномасига уйғурлардан кириб келган. Меҳмон кузатиш анъаналари ҳам ўзига хосдир. Масалан, палов – меҳмонларга тайёрланадиган таом бўлса, лағмон – меҳр-мухаббат, манти – (унинг 20дан ортиқ тури бор, гўшт, қовоқ, қуйруқ, бўлоқ, жувава, жусай, очик, гул, сув, чингиз ва хоказо.) эркаклар таоми, яна чучвара – бахт- синов таоми, угра – ҳордиқ вақтида тайёрланган.⁹⁵

Уйғурлар озиқ-овқат рационада чой алоҳида ўрин тутган. Уйғурлар орасида маросим номларининг чой билан аталиши учрайди ва ҳар бир маросим мақсади, моҳияти чой билан ифода этилган. Масалан, аҳлик (оқлик) чой, маслаҳат чой, селик (солик) чой, тотлик (рахмат) чой, ҳодуқ (ҳордиқ) чой, ҳам(ғам) чой, анили (оналар) чой, қорлуқ (биринчи қор ёққан кун) чой деб номланган маросимлар учрайди.⁹⁶ Уйғурларда ҳам анъанавий никоҳ тўй маросимлари уч босқичда ўтиб, мазкур маросимларни дастлабки кўриниши совчиликдир. Уйғур халқи миллий удумларига кўра, совчиликка аввал эркаклар, кейин аёллар борган. Совчиликдаги миллий анъаналардан бири қизни синаш бўлиб, “синов” одатига кўра, бўлғуси келин ўзи тугиб пиширган чучварани совчи аёлларга олиб келган. Таомни тановул қилган совчилар шу орқали қизнинг пазандалиги, рўзғорни уддалаб кетиши ва сабрига баҳо берган. Ўз навбатида бўлғуси келиндан сўнг куёв ҳам синовдан ўтказилган. Уйғур удумларига кўра, куёвга лағмон едириб синалган.⁹⁷

Андижон вилоятида айни вақтда этнотуризмга мослашган Хонобод шаҳридаги Қирғиз миллатига мансуб аҳоли истиқомат қилувчи Истиклол МФЙ ҳисобланади.

Хонобод шаҳридаги Истиклол МФЙ этник қирғизлар яшовчи ҳудуд ҳисобланади. Ушбу миллат вакиллари ўтмишига назар соладиган бўлсак бошқа чорвадор қабилалар сингари қирғизларда ҳам чорвадорлик билан боғлиқ касб-хунарлар тараққий этганини кўршимиз мумкин.⁹⁸ Масалан баҳорда ва кузда қирқилган қўй жунидан урчуқийлик ёрдамида аёллар уйида ип йигиришган яна гилам наMAT, кигиз, шолча тайёрлашган. Туя

⁹⁵ Донёров А.Х., Бўриев О., Аширов А. Марказий осие халқлари этнографияси этногенези ва этник тарихи. Ў.Қ. Тошкент. 2011.С. 241-242; Валихонова Г.К. Фарғона водийси уйғурлари: турмуш тарзи ва маданияти. - Т: Yangi nashr, 2013.

Дала ёзувлари. Пахтабод тумани Гузар МФЙ. 2021 йил. Андижон вилояти туризм бошқармаси бош мутахассиси Б.Юсупов.

⁹⁶ Валихонова Г.К. Фарғона водийси уйғурлари: турмуш тарзи ва маданияти. - Т: Yangi nashr, 2013.Б.70-71

⁹⁷ Ўша муаллиф.. Фарғона водийси уйғурлари: турмуш тарзи ва маданияти. - Т: Yangi nashr, 2013.Б.84-86

⁹⁸ Донёров А.Х., Бўриев О., Аширов А. Марказий осие халқлари этнографияси этногенези ва этник тарихи. Ў.Қ. Тошкент. 2011.С. 190;

Дала ёзувлари. Пахтабод тумани Гузар МФЙ. 2021 йил. Андижон вилояти туризм бошқармаси бош мутахассиси Б.Юсупов.

жунидан мато тикишган эчки қўтос жунидан арқон тўқилган. Ёғочсозлик, дурадгорлик ҳам кенг ёйилган хунарлардан ҳисобланган. Ўтов, эгар идиш-товоқ ясашган уларни жигач уста дейишган. Бундай усталар кирма, дукун деб аталган дастгоҳларда ишлашган.

Яқин-яқингача ушбу миллат вакиллари ўзларининг миллий ўтовларида яшашган. Ўтовни қирғизлар бўз уй, қора уй ёки қирғиз уй дейишади. Бийлар, манатларнинг ўтовлари билан камбағал аҳоли ниш ўтовлари орасида жуда катта фарқ бўлган. Бийлар ва монархлар ўзига тўқ бадавлат қирғиз хонадон ўтовлари анча катта ва баланд, чиройли бўлиб усти ва атрофи қалин сифатли намат билан ёпилган.⁹⁹

Қирғиз миллий кийимлари хилма-хил бўлиб, ўзига хос миллий жиҳатлари билан ажралиб туради. Эркакларни оқ телпагидан фарқлаш мумкин. Қирғиз миллатида ўзига хослик кўпроқ аёллар кийимларида сақланиб қолган. Анча калта, очик ёқали, баъзан тик ёқали, бурма, кўпроқ қизил ва пушти рангли газламалардан тикилади. Кўпинча қирғиз аёллари қулоқчин кийишади. Кўйлак устидан ҳар хил гул, безак солиниб тикилган унгур кийиб олишади. Қулоқчиннинг қулоқларни ёпиб турган икки томонга сочпопук тақилади. Шунингдек, қирғиз чеварлари томонидан тикилган пўстинлар Фарғона водийси ўтроқ аҳолиси орасида жуда қадрланган. Ушбу миллат вакиллари оёқ кийимлари орасида эчки тивитидан ишланган намат этик диққатга сазовордир.¹⁰⁰

Қирғиз ошхонасида асосан от ва қўзичоқ гўшти қадрланади. Ушбу маҳсулотлардан қуйидаги таомлар тайёрланади: Пилаф–маҳаллий палов, кулчетаи–кўкатлар билан қайнатилган қўзичоқ, асип-қўзичоқли колбаса ва маҳаллий ошхона кўплаб бульон ва шўрваларга бой. Қирғиз тилида айтганда мақсим билан жарма ичишади. Қирғиз ошхонасида ун маҳсулотларидан тайёрланган таомларга ҳам бой ҳисобланади. Комёч – (кўмирда пиширилган нон), Боорсок - (сариеғ ичида қовурилган нон), Жен момо – (Махсус усулда тайёрланган хамир) Қирғиз ошхонасининг ўзига хос ширин ликлари ҳам мавжуд.¹⁰¹

⁹⁹ Донёров А.Х., Бўриев О., Аширов А. Марказий осие халқлари этнографияси этногенези ва этник тарихи. Ў.Қ. Тошкент. 2011.С. 195;

¹⁰⁰ Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. Монография. Тошкент. 2005. С.128; .Донёров А.Х., Бўриев О., Аширов А. Марказий осие халқлари этнографияси этногенези ва этник тарихи. Ў.Қ. Тошкент. 2011.С. 198-199;

Дала ёзувлари. Хонобод шаҳри. Истиқлол МФЙ. 2021 йил. Андижон вилояти туризм бошқармаси бош мутахассиси Б.Юсупов.

¹⁰¹ Донёров А.Х., Бўриев О., Аширов А. Марказий осие халқлари этнографияси этногенези ва этник тарихи. Ў.Қ. Тошкент. 2011.С. 199;

Дала ёзувлари. Пахтабод тумани Гузар МФЙ. 2021 йил. Андижон вилояти туризм бошқармаси бош мутахассиси Б.Юсупов.

Хулоса қилиб айтганда, ҳар бир халқнинг ўзига хос бир неча тарихий асрлардан синовдан ўтган урф-одатлари, хўжалик - маданий анъанлари, турли маросим ва қадриятлари ҳар доим инсонни ўзлигини англашга ва тарихини унитмасликка хизмат қилади. Шунингдек, маълум бир манода иқтисодий ривожланишга ва ҳар бир инсонни келажакка умид билан қарашга сабаб бўлади дейиш ҳам мумкин.

РУС ДИПЛОМАТ ВАКИЛЛАРИ АСАРЛАРИДА ҚЎҚОН ХОНЛИГИ ИЧКИ СИЁСИЙ ТАРИХИНИНГ ЁРИТИЛИШИ

Усмонов Абдуллажон –
*Марказий Осиё халқлари тарихи ва
этнологияси йўналиши 2-курс магистранти*

Аннотация: Мақолада Қўқон хонлиги тарихининг рус дипломат вакиллари асарларида акс эттирилиши кўриб чиқилган. Мақолани ёзишда Н. И. Потанин, В. В. Веляминов-Зернов, А. Кун, А. Федченко ва бошқа рус муаллифларининг асарларидан фойдаланилди. Мақола манбашунослик нуқтаи-назаридан ёзилди.

Калит сўзлар: Қўқон хонлиги, рус дипломат вакиллари, мемуар асарлар, сиёсий кураш, ички ҳаёт.

Қўқон хонлигининг сиёсий тарихи, ижтимоий-иқтисодий ҳаёти ва кўчманчи ва ўтроқ аҳолининг ўрни узок вақт рус тарихшуносларининг эътиборини тортиб келган.

Қўқон хонлиги тўғрисидаги асарларнинг муаллифлари, биринчи навбатда, савдогарлар, подшо элчилари, подшо армияси вакиллари, рус ва чет эл саёҳатчилари ва шарқшунослар эди. Улар Қўқон хонлиги тўғрисида кундаликлар, хотиралар, мемуарлар, махсус мақолалар, очерклар ва алоҳида тарихий асарлар ёзиб қолдирган.

Қўқон хонлиги тўғрисидаги асарларнинг муаллифлари орасида рус дипломат вакиллари асарлари алоҳида ўрин тутади. Хонлик ҳудуди бўйлаб сафарлари давомида улар қисқача тарихий маълумотларни беришга ҳаракат қилганлар. Аввало, улар ўз диққат-эътиборини хонликнинг ички сиёсий ҳаётига бериб, бошқа масалалар (аҳоли, табиий-географик шароитлар, савдо алоқалари ва бошқалар) ҳақида ҳам тўхталиб ўтдилар.

XIX асрнинг 30-йилларида Қўқон хонлигига ташриф буюрган рус дипломат вакилларида бири Николай Потаниндир. Н. И. Потанин казак отряд камандирларидан бири бўлиб, махсус топшириқ билан Қўқон

хонлигига юборилган. Унга Қўқон хонлиги элчиларини кузатиш ва босиб ўтилган йўлларнинг топографик харитасини тузиш топшириғи берилган. Сафари давомида у “Қўқон хонлиги ҳақида қайдлар” асарини ёзди.

Муаллиф асарида хонликнинг ички ҳаётига катта ўрин беради. Н. И. Потанин шаҳар аҳолиси, хонликнинг бошқаруви ва солиқ сиёсатиغا эътибор қаратди. Жумладан, у “суд муҳокамаси ёзма равишда эмас, балки оғзаки бажарилади, хон автократик йўл тутди, мансабдор шахсларни жинойтнинг аҳамиятига қараб мансабдан олиб ташлайди ёки судсиз ижро этади”, деб ёзган¹⁰². Бундан ташқари, Н. И. Потанин мақолаларида шаҳарлар, масжидлар, шунингдек, қишлоқ хўжалиги ва савдонинг ривожланиши ҳақида турли маълумотлар беради.

Н. И. Потанин хонлик ҳудудида узоқ муддат бўлмагани сабабли хонлик ички ҳаётининг фақат маълум томонларини асарида келтириб ўтади. Шунини таъкидлаш лозимки, XIX асрнинг биринчи ярмига қадар Қўқон хонлигини ўрганиш тизимли эмас эди. XIX асрнинг 50-70-йилларида В. В. Веляминов-Зернов, Н. Энгелгардт, А. Хорошҳин, А. Кун, В. Наливкин, Н. Ф. Петровский, А. Федченко ва бошқаларнинг Қўқон хонлиги тарихи бўйича асарлари чоп этилган. Рус муаллифларининг асосий эътибори хонликнинг ички сиёсий ҳаётига, ўтроқ ва кўчманчи қабилаларнинг сиёсий курашига қаратилди.

XIX асрнинг иккинчи ярми рус олимлари орасида биринчи академик-шарқшунос В. В. Веляминов-Зернов Қўқон хонлиги ҳақида муҳим эсселар ёзган¹⁰³. “Қўқон хонлиги ҳақида маълумот” эссеси Қўқон хонлигига ташриф буюрган рус савдогарларини сўроқ қилиш асосида тузилган. Муаллиф хонлик ҳаётининг сиёсий томонига, айниқса, маъмурий бошқарув тизимиغا эътиборни қаратади. Ҳокимиятнинг ўзгариши, одатда, тартибсизлик ва қон тўқишларга олиб келганлигини муаллиф қайд этади. Унинг фикрича, хонликда қабилавий урушлар ва ҳокимиятни эгаллаш учун қўзғолонлар кўп бўлган. Бунинг натижасида 1852 ва 1853 йилларда деярли бутун Қипчоқ оилалари ўлдирилган¹⁰⁴.

Муаллифнинг иккинчи эссеси “Муҳаммад Алихондан Худоёрхонгача Қўқон хонлиги ҳақида тарихий янгиликлар” бўлиб, диққат

¹⁰² Потанин Н.И. Записки о Кокандском ханстве хорунжего Потанина (1830 годы) // Вестник РГО. 1856. Ч. 18. – С. 261. Туркестанский сборник. Том 384, стр. 54а

¹⁰³ Вельяминов-Зернов В.В. Сведения о Кокандском ханстве // Вестн. РГО. – СПб., 1856. – Ч. 18. – Кн. 5. – С. 107–152. Туркестанский сборник. Том 383, стр. 19-41

Вельяминов-Зернов В.В. Историческое сведение о Кокандском от Мухаммед-Али до Худояр хана//Тр. Вост. отд. Русск. археол. общ., Ч. 2., 1856. – С. 329–370. Туркестанский сборник. Том 372, стр. 153-172.

¹⁰⁴ Вельяминов-Зернов В.В. Сведения о Кокандском ханстве // Вестн. РГО. – СПб., 1856. – Ч. 18. – Кн. 5. – С. 113–114. Туркестанский сборник. Том 383, стр. 19-41.

билан тўпланган маълумотлар асосида 1840-йилдан 1850-йилларгача бўлган воқеаларни ёритган ҳолда хонликнинг ички сиёсий ҳаётини тавсифлашда давом этади. Маълумотлар рус ва Осиё савдогарларидан йиғилган¹⁰⁵. Асарда Мадалихон, Шералихон ва Худоёрхон хукмронлиги давридаги тахт учун курашлар ва “Қипчоқлар қирғини” воқеалари акс эттирилган. Муаллиф сиёсий вазиятни ёритишга ва Фарғона водийсининг муқим ва кўчманчи аҳолисининг икки жанговор гуруҳи ўртасидаги курашини очиқ беришга ҳаракат қилган. Унга кўра, кўрилаётган даврда Мадалихон ва Шералихонни ағдаришга қаратилган бир қанча сарой тўнтаришлари, шунингдек, Қипчоқлар етакчиси Мусулманқулга қарши фитна уюштирилди.

XIX асрнинг 70-йиллари Қўқон хонлиги ҳақидаги қизиқарли очерклар машҳур шарқшунос, Санкт-Петербург университетининг Шарқ тиллари факултети битирувчиси А. Л. Кунга тегишли¹⁰⁶. А. Л. Кун мақолалари Қўқон хонлигининг 1830 йилдан бошлаб тарихи ҳақида маълумот бериб, кўчманчи ва ўтроқ аҳолининг хон тахти учун кураши кўрсатилган. Бундан ташқари хонликдаги аҳолининг умумий сони ва солиқларга оид материаллар мавжуд.

А. Кун ҳокимият тепасидаги, хонликнинг бошқа халқларига қарши турли ҳаракатлар қилиб, ғайриинсоний йўл тутган қипчоқларнинг ҳаракатларига алоҳида эътибор қаратди. Жумладан, унинг ёзишича, “саводсиз Қипчоқ кўчманчилари ҳокимиятга ҳокимиятни эгаллаб, китобларни ёқиб, талабаларни тарқатиб, муқим ўзбекларнинг уй-жойларини тортиб олишга, дарахтларни кесишга, ўзбек аёлларини мажбуран қипчоқларга турмушга чиқишга мажбур қилганлар. Қипчоқлар ариқларга эгалик қилиб, деҳқонларга фақат пул учунгина сув бера бошладилар”¹⁰⁷. Кўриб турганингиздек, қипчоқларнинг ҳаракатлари туфайли кўчманчилар ва маҳаллий деҳқонлар ўртасидаги адоват янада кучли ва шиддатли тус олди. Бу ўз навбатида қипчоқларга бўлган нафрат ва умумий норозиликни кучайтириб юборди. Натижада, 1953-йил октябр ойида Тошкентдан чақирилган кўшин кўмагида қипчоқлар қирғини уюштирилди. Бунинг оқибатида 20 мингга яқин қипчоқлар ўлдирилган, Мусулмонқул эса Қўқонда дорга осилган. Шу йилдан Худоёрхон давлатни

¹⁰⁵ Вельяминов-Зернов В.В. Исторические сведения о Кокандском от Мухаммед-Али до Худояр хана//Тр. Вост. отд. Русск. археол. общ., Ч. 2., 1856. – С. 25. Туркестанский сборник. Том 372, стр. 153-172.

¹⁰⁶ Кун Л. Некоторые сведения о Ферганской долине// Военный сборник, 1876. – № 4. – С. 417–448. Туркестанский сборник. Том 117, стр. 149-180.

¹⁰⁷ Кун Л. Некоторые сведения о Ферганской долине// Военный сборник, 1876. – № 4. – С.40 Туркестанский сборник. Том 117, стр. 149-180.

мустақил идора қила бошлайди. “Туркистон тўплами”нинг 75-жилдидан ўрин олган “Қўқон хонлигидаги воқеалар” номли мақолада ҳам қипчоқлар қирғини тафсилотлари ёритилган бўлиб, мақола муаллифи Қўқон хонлигини Бухоро амирлигидан озод қилишда Мусулмонқул бошчилик қилган қипчоқлар муҳим рол ўйнагани ва қипчоқлар қирғини эса Худаёрхоннинг ўз қайнотасига нисбатан нонкўрлиги сифатида тасвирлайди¹⁰⁸. “Туркистон тўплами” саҳифаларида Қўқон хонлигидаги ишларнинг аҳволи ҳақида қисқача ҳисобот эълон қилган яна бир муаллиф Л. Собелев Худаёрхон “ер юзидан барча қипчоқларни ўчиринг” деган фамон берган деб қайд этади¹⁰⁹.

Н. А. Кун, Н. Петровскй, А. П. Хорошин таъкидлашича, кўп ҳолларда Мусулмонқул бошчилигидаги қипчоқлар хонликда сиёсий ҳокимиятни қўлга киритиш учун фитна ва сарой тўнтаришлари уюштирганлар. Ва ҳамма вақт хонлик ҳокимиятини эгаллаш учун қулай пайтдан фойдаланиб, маҳаллий аҳоли вакиллари хокимиятдан чиқариб ташлаб, айёрона ҳаракат қилдилар. Юқорида қайд этилган муаллифларнинг тўғри таъкидлашларича, “қипчоқларнинг такаббурлиги кўп йиллик нотинчлик ва қонли жанжалларнинг асосий манбаи бўлиб хизмат қилган. А. Куннинг қайд этишича, Шералихон икки душман гуруҳнинг қайси бири юқори поғонага кўтарилганига қараб, ё сартлар ёки қипчоқлар қўлида доимо ўйинчоқ бўлиб қолган¹¹⁰. Дарҳақиқат, Шералихон ва Худоёрхон ҳукмронлиги даврида хон ўрдаси сиёсий ғалаён майдонига айланади. Асосий ўйинчи қипчоқлар етакчиси Мусулмонқул бўлиб, у ўз қўлида тўла ҳокимиятни қўлга олишга интилди.

Шералихон ҳукмронлиги воқеаларини тасвирловчи Веляминов-Зернов 1845 йилда Қўқонда янги кулфатлар бошланганини, унинг айбдори Хивада яшаган Олимхоннинг ўғли Муродбек эканлигини таъкидлайди. Амир Насруллоҳ қулай пайтдан фойдаланиб, Муратбекни Шералини ағдариб, Қўқон тахтини егаллашга кўндирди. У рози бўлди ва 1845 йилнинг ёзида Бухоро сарбозларининг катта отряди бошлиғи бўлиб, Қўқонга кириб келди. Мусулмонқул (закот йиғиш билан банд эди) йўқлигидан фойдаланиб, тахтни эгаллаб, Шералихонни қатл эттиради. Кўпгина манбаларга кўра, қипчоқлар Муратбекнинг тахтга чиқишидан хурсанд бўлмаган. Мусулмонқулнинг ташаббуси билан Сирдарёнинг ўнг қирғоғида аскар йиғилиб, ёш Худоёрни хон деб эълон қилишга шошилди

¹⁰⁸ Происшествия в Кокандском ханстве // Туркестанский сборник. 75-том, 44-48-стр.

¹⁰⁹ Собелев Л. Краткий обзор положения дел в Коканде // Туркестанский сборник. – Т. 152.

¹¹⁰ Кун А.Л. Некоторые сведения о Ферганской долине // Военный сборник, 1876. – № 4. – С. 419.

ва Мусулманкул Худаярхон вояга етгунга қадар регент қилиб тайинланди¹¹¹.

Шералихон хукмронлиги даври аҳолидан солиқ ундириш кучайиши билан ажралиб туради. Бу ҳол меҳнаткаш аҳолининг норозилигини келтириб чиқарди. Бундан ташқари давлат ишларида муҳим лавозимларни эгаллаб олган қипчоқлар давлат ҳаётининг ҳар бир соҳасида ўз хукмронликларини ўтказишга, бошқа ўзбек қавмлари, қирғиз ва тожикларнинг мамлакат ҳаётидаги таъсирини камайитиришга уриндилар. Қипчоқларнинг Қўқонга кўчиб келиши янада кучайди. Улар маҳаллий аҳолининг уй-жойини, мол-мулкини зўравонлик билан эгаллаб ола бошладилар. Буларнинг бари хонликда қипчоқларга нисбатан норозиликни кучайтира борди. Шералихон бу вазиятни тушуниб етди ва Мусулмонкулдан қутилиш пайига тушди. Мусулмонкул хоннинг ниятини сезиб қолади ва унга қарши фитна уюштиради. Бу фитнани амалга ошириш учун қулай фурсат ҳам етган эди. Фитна режасига кўра, Мусулмонкул солиқларнинг ҳаддан ташқари оғирлигидан норози бўлиб кўзғолон кўтарган Ўш аҳолисининг кўзғолонини бостириш учун қўшин билан жўнаб кетиши, айрим сиёсий кучларнинг вазиятдан фойдаланиб Самарқандда яшаётган марҳум Қўқон хони Олимхоннинг ўғли Муродхонни олиб келиб Қўқон тахтига ўтказилиши назарда тутилади. Қипчоқлардан норози бўлган маҳаллий аҳолининг Муродхонни қўллаб-қувватлашига Мусулмонкул ишонар эди. Мусулмонкул Ўшдан қайтгач, “давлат тўнтаришида” иштирок этганларнинг барчасини жазолаши, шу йўл билан ўзининг барча рақибларидан қутулмоқчи, қипчоқларнинг тўла хукмронлигини ўрнатмоқчи эди. Амалда ҳам шундай бўлиб чиқди. Бу машъум ниятдан хабари йўқ Муродхон Исфара ҳокимининг таклифига кўра Қўқонга келади ва тахтга даъво қилади. Бу бўлаётган катта “сиёсий ўйин”нинг тагида нима ётганини тушуниб етган Шералихон Муродхон фойдасига тахтдан воз кечади. Тез орада Муродхон буйруғи билан Шералихон ўлдирилади. Мусулмонкулга эса ўз лавозимларида қолганлиги ҳақидаги фармон жўнатилади. Машъум нияти амалга оша бошлаган Мусулмонкул ўз қўшинлари билан Наманганга келади. Аввал ишни ўзининг 12 яшар қизини марҳум Шералихоннинг ўғли Худоёрхонга никоҳлаб беради. 13 ёшли Худоёрхон бу даврда Наманган ҳокими эди. Шундан сўнг Қўқонга келиб Муродхон ва уни қўллаб-қувватлаганларни фитначи сифатида айблаб, уларни қатл эттиради. Куёви Худоёрхонни

¹¹¹ Вельяминов-Зернов В.В. Исторические сведения о Кокандском от Мухаммед-Али до Худояр хана//Тр. Вост. отд. Русск. археол. общ., Ч. 2., 1856. – С. 81. Туркестанский сборник. Том 372, стр. 153-172.

тахтга ўтказди. Худоёрхон ёш бўлганлиги туфайли амалда хонликни қайнотаси Мусулмонқул бошқаради. Шундай қилиб, хонликда амалда қипчоқлар ҳукмронлиги даври бошланади¹¹².

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, Туркистон тўпламидан жой олган рус матбуот нашрларидаги мақолалар ва рус дипломат вакилларининг асарлари XIX асрнинг 40-70-йилларидаги хонликнинг ички сиёсий тарихини ёритишда муҳим аҳамият касб этади. Ўлкага ташриф буюрган рус дипломат вакиллари ўз навбатида шарқшунос тарихчилар ҳам бўлган. Улар хонликнинг бутун ҳаётини ёритишга ҳаракат қилсада, асосий эътиборини ички сиёсий жараёнларга қаратди.

ХИВА ХОНЛИГИ МАҲАЛЛИЙ ТАРИХНАВИСЛАРИ АСАРЛАРИДА СОЛИҚ МАСАЛАЛАРИНИНГ ЁРИТИЛИШИ

Абдухалилова Азиза Эркиновна -
*“Тарихишунослик, манбашунослик ва тарихий тадқиқот
усуллари” мутахассислиги 2-курс магистранти*

Аннотация. Ушбу мақолада Хива хонлигида мавжуд солиқ турлари, солиқ йиғувчилар ва солиқ имтиёзлари, Хива хонлигида яшовчи аҳоли тоифаси ва улардан йиғиб олинган солиқ, туркман ва қарақалпоқ халқларининг буйсўндирилиши ва солиққа тортилиши воқеалари уларни йиғиб олиш усуллари, солиқ йиғиб олиш учун қайси шаҳарларга кимлар тайин этилгани ва улар қандай лавозим эгаллаганлиги, қайси жойлардан қандай солиқ олингани, солиқ масаласида кўтарилган халқ норозиликлари, оммавий кўзғолонларнинг бостирилиши каби масалалар кўлэзма манбалар асосида ўрганилган.

Калит сўзлар. Мунис, Огаҳий, “Фирдавс ул иқбол”, солиқ, закот, Мухаммад Раҳим хон I, қушбеги, меҳтар.

Қўнғиротлар сулоласи (1763-1920) ҳукмронлик қилган даврда яратилган кўлэзма асарларда Хива хонлигининг иқтисодий ҳаёти, хусусан, солиқ тизимига оид айрим маълумотлар учрайди. Бу даврда хонликда ижод қилган сарой муаррихлари – Мунис, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарларида Хива хонлигининг уч асрлик ижтимоий-иқтисодий ҳаётига оид кўп қимматли, фактологик материаллар мавжуд. Улар ўз асарларида Хива

¹¹² Қўқон хонлигининг тугатилиши. Худоёрхон ва Россия тажовузига қарши халқ ҳаракатлари. Ҳамид Зиёев

хонлигининг Бухоро амирлиги, Қўқон хонлиги ва хонликка яқин жойлашган бошқа давлатлар билан бўлган савдо-иқтисодий алоқалари, Россия билан бўлган савдо-дипломатик муносабатлар каби масалаларни ёритиш билан бир қаторда, хонликдаги ер эгаллиги ва солиқ турлари, солиқ йиғувчилар ва солиқ имтиёзлари, Хива хонлигида яшовчи аҳоли тоифаси ва улардан йиғиб олинган солиқ, деҳқончилик ва суғоришишлари ҳамда бошқа кўпгина масалалар ҳақида ҳам ёзиб қолдирганлар¹¹³.

Хива хонлиги анча илгари вақтларданок кўшни туркман ва қарақалпоқ халқларидан ҳар хил солиқлар олганлар. Бу ҳақда Хива тарихчилари Абулғозий, Мунис, Огаҳий ва Баёний асарлари орқали анчагина маълумотга эгамиз.

Масалан, 1778-1829-йилларда яшаб ижод этган тарихчи Муниснинг ёзишича, Хоразмда Шохниёзхон ҳукмронлик қилган даврда “Тарихи ҳижрий 1110/1698-1699 йили “ Туркман саркашлари қадами тазарруъ била келиб, хирож қабул қилдилар¹¹⁴.” Ушбу маълумот орқали биз Шохниёзхон даврида туркманлар Хива хонлиги тобеълигига ўтиб солиқ тўлашни бошлаганликларини кўришимиз мумкин.

“Ул ҳазрат Муҳаммадниёз карчакни бир бўлак сипоҳ била Оймирзо элини кўчурмакка номзад қилиб, сўнгги куни ойнинг ўн тўққузиди давлат била якрон азиматин муовидат тариқиға сурди.... Шохниёз отолик ва Муҳаммадризо кўшбегини тўрт минг гўзида лашкар била ул элнинг ғалласин олдурмоқға юборди. Ва ғалла олинғондин сўнг кўшбеги ул ҳазратнинг ҳукми ҳумоюни била Кўкузшива Эшим канорида ва Оқёқишда ўлтурғон қароқалпоқиядин закот олмоқға қолди¹¹⁵.”

Муаррих томонидан келтирилган юқоридаги маълумотлар асосида Хива ҳукмдори Муҳаммад Раҳимхон I томонидан қорақалпоқларнинг буйсундирилиши, кўчириб келтирилиши, уларга янги солиқ турининг жорий этилиши ва мазкур масалага девонбегининг масъул этиб тайинланганлигини билишимиз мумкин. Бундан ташқари қорақалпоқлар хон омбори учун ғалла ҳам топшириши зарур бўлган. Ушбу маълумотни архив маълумотлари ҳам тасдиқлаб, маҳсулот кўринишида даҳяк солиғини тўлаганлар.

Муҳаммад Раҳимхон I ҳукмронлигининг олтинчи йили, яъни 1811 йилда Орол ҳудуди тўлиқ эгаллангач, хонликнинг бу ҳудудга нисбатан амалга оширган солиқ сиёсати “Фирдавс ул иқбол” асарида қуйидагича акс этади:

¹¹³Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик(XVII-XIX ва XXаср бошлари). Тошкент, 2002. Б. 118.

¹¹⁴ Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул иқбол. Тошкент «Янги аср авлоди» 2010

¹¹⁵Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол.Тошкент «Янги аср авлоди», 2010. Б. 289.

“Яна улким, суфаро ирсолидин фароғ топғондин сўнг шаввол ал-муаззамнинг авоиلى¹¹⁶ да умдат ал- умаро Қутлукмурод иноқ баъзи умури мулкия интизоми учун ва аморатпано Муҳаммадризо кўшбеги закот ва моли омон таҳсили учун Оролға маъмур бўлди¹¹⁷.”

1817 йилда Муҳаммад Раҳимхон I Дашти Қипчоққа уюштирилган ҳарбий юришдан пойтахтга қайтгач, куйида номлари келтирилган тоифа вакиллари Хивага элчи бўлиб келади, сўнгра уларга кўшиб ҳудудларга ўз вакилларини солиқ йиғиш учун жўнатади:

“Чун султони соҳибқирон, Дашти Қипчоқ тасхириға муваффақ бўлуб, шарафи нузулидин дор ас-салтанаи Хивакни равнақазои қасри хаварнақ қилди аввали воқеаким, судур топти, бу эрди: кавкабаи воло Дашти Қипчоқда эрканда атрофдин элчилар келиб эрди. Баъзи инқиёд ва фармонбардорлиғ изҳори била ва бархи иттиҳоду якжи- хатлик юзидин элчи чарбзабон била садоқатнома юбориб эрди. Ва Даргаз ҳокими Беглархон валади Лутфалихон Човушлуқим, ул ўлканинг волии билистиклолидур, ҳазрат хидеви комкорнинг тантанаи давлати рўзафзуни Эрон мамоликининг хавосу авомиға гушзад бўлуб эрди, ул ғойибона бу жаноби олийнинг мулозимларининг иттиҳодмандлиғиға ишқибоз бўлуб, яна Тажан такасиқим, сутуввати қаҳри хоқонийдин дағдағаандўзи таваҳҳм эрдилар, ҳаққи жавор риоясидин ул жамоанинг жароимин шафоат қилиб, мўътамиди алайҳ кишиларидин бировни Тажан аҳлининг элчилариға масхуб қилиб, даргоҳи олампаноҳға ирсол қилиб эрди. Ва бу тариқада соруқ улусиким, Марв навоисиди мутамаққиндурлар, ул жамоанинг ақобиридин Муродбек ва Нурхўжабек ўз ўғлонлари Маҳмудбек ва Ойдўғдибекни мустақарри жалолат утбабўслиқиға юбориб, куллуқ ва тоағгузорлиғ мазмуниға мушир аризадошт ирсол қилиб эрди. Ва Охол такасидин Берди отолиқ ва Омондавлат ва Холнафасқим, ул элнинг ақобиридиндурлар, итоат ва фармонбардорлиғ изҳори била келиб эрдилар. Ва Ўртаюз казакнинг ҳокими Омонбой бийинт иниси Қабонбойнинг келгани худ собиқан гузориш топиб эрди. Бу элчиларға уч кундин сўнг жума куни сафар ойининг йигирма бирида¹¹⁸ кўрунуш бериб, маросими навозишдин сўнг хилои гаронмоя била элчиларни мустағриқи тилло қилиб, хар қайсиға мўътамид кишилардин элчи ва омили закот кўшуб, закот аҳзи учун ирсол қилди. Андоққим, юмроли Нодир сардорни Машҳади муқаддасға шахзода Валиға сифорат расми била юборди. Ва Бегларбегихонға яна бировни расул қилди. Тажан суккониға қиёт

¹¹⁶1226 йил шавволнинг авоиلى/1811 йили шаввол 19 октябрда кирган.

¹¹⁷Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-икбол. Тошкент «Янги аср авлоди», 2010. Б. 379.

¹¹⁸1227 йил 21-сафар/1812 йил 29 феврал

Паҳлавонниёз бекни закотахзи учун ирсол қилди. Ва соруқ элиға қиёт қўнгротлиғ Хўжаш ноибни номзад этти. Ва Охол такасиға Абдол хўжаи Бекободий била Муҳаммадниёз бек Муғолчагийни омили закот қилди. Ва Дашти Қипчоқға Ўртаюз қазоқиға Оллоҳберди хўжани элчи қилиб юборди¹¹⁹.”

Баъзи ҳолларда хонликка бўйсунувчи халқларнинг солиқ тўлашдан бўйин товлаш каби ҳолатлари ҳам учраб турган. Бундай вазиятларда хон томонидан махсус қўшин жўнатилиб, солиқ ундирилган. Огаҳий Муҳаммад Раҳимхон I ҳукмронлигининг еттинчи йили воқеалари хақида баён қилар экан, қуйидагиларни қайд этади:

“Чун Янгидарё канорида ўлтурғон қароқалпоқиядин хитой жамоасиким, Бухоро волийси амир Ҳайдарга баиат қилиб, хазрат аълохоқонийнинг рибқай итотидин бўйин тўлаб, инод ва саркашлик маросимин зухурға еткурур эрдилар, ул хазрат аларнинг тааддиб ва гушмоли учун ягонаи офоқ Қутлуғмурод инокни ўз черики била номзад қилди. Ва ўз мулозимларидин баъзи кишиларни ва фақирни анинг мулозиматиға маъмур этти. Чун маъмурлар фармони қазожараён мавжиби била ражаб ойининг ўн саккиз-ланжи¹²⁰ куни дор ас-салтанаи Хивакдин чиқиб, сипоҳи мавфура ва афвожи мансура била қатъи манозил ва таййи мароҳил қилиб, Хўжаэли қалъасиға нузул эттилар. Анда етти кун ишрат ва комронлиғ била тавакқуф кўргузуб, шаъбон ойининг аввали¹²¹ да якшанба куни Хўжаэлидин роятафрозини наҳзат бўлуб, дарёи Омунинг қироғида Окёр кечувиға тушулди. Ул мавзеда беш-олти кун шикорандозлиқ била тавакқуф қилиб, панжшанба куни дарёдин убур этиб, Ёрти мавзеиға нузул этти. Ул ерда фақирни ва баъзи сипаҳдорни беш юз киши била қўюб, андин сипоҳи нусратпаноҳ била отланиб, Эшим сақосиғиға тушуб, атроф-жавонибдағи қароқалпоқ закотиға киши буюруб, закот олғунча ул мавзеда кўп муддат мутамаккин бўлди¹²².”

Манбаларда қайд этилишича, хонликда солиқ тизимида ҳам солиқ йиғиш билан боғлиқ муаммолар учраб турган. Баъзи ҳолларда хонликка тобеъ халқлар фитна чиқариб, давлат хазинасига солиқ тўлашдан бош тортишган ҳолатлар ҳам учрайди. Бундай вазиятда хон ушбу уруғ, қабила устига юриш қилиб, давлатнинг ҳарбий кучини кўрсатган. Жумладан, Сарахс атрофида яшаётган халқлар Хива хонига ўз вақтида закот тўламаган эдилар. У ерда яшаётган халқлардан Раҳмонқули тўра

¹¹⁹Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-икбол. Тошкент «Янги аср авлоди», 2010. Б.394.

¹²⁰1222 йил 18-ражаб/1807 йил 22 сентябр

¹²¹1222 йил 1-шаъбон/1807 йил 4 октябр.

¹²²Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-икбол. Тошкент «Янги аср авлоди», 2010. Б.259.

бошчилигида зўрлик билан закот йиғиб олинган. Бу ҳақда Огаҳий шундай деб ёзади: “Ҳамул навоҳининг (Сарахс) атроф ва акнофида мутаваттин ва мутамаккин бўлгон тарокима тавойификим, неча умурдин бери ўз райлари била иш қилибшариат аҳкомидин бар гарон эрдилар. Хусусан закот фарзининг қарзин адо қилмай , балки не янғлиғ адо қилмони билмай, ҳалол ва ҳаромни назар эътиборга илмай , мол жамиятига иштиғол кўргузур эрдилар. Ул жамоани Муҳаммад Раҳимхондин ўзга ҳеч подшоҳ зўри дасти таҳаккум била бошин паст қилмомиш эрди. Лекин ул ҳазрат дағи аларниром қилмоқ учун закотин тамом олмамиш эрди. Чун шахзода (Раҳмонқули тўра) бу аҳволни кўрди, ул тоифаизалолнинг амволларин ҳалол қилмоқ учун Марв марҳаддидин то Ахилғача қайси ерда арбоби мол бўлса ва шайх ва шобдин мол нақтида соҳиби нисоб топилса, закот аҳзи учун омиллар ва ул амал улумиға комиллар юбориб аз чоғда ул элнинг закотин олдилар”.

Огаҳий асарларида солиқ масаласида кейинги даврларга оид қимматли маълумотлар ҳам учрайди. Масалан, 1864йилда Муҳаммад Раҳимхон II (адабий таҳаллуси Феруз) хон сифатида кўтарилади ва олий мансабларга қатор тайинловларни амалга оширади. Жумладан, ўша вақтгача солиқ йиғишга масъул бўлган Худой Назар девонбегини девонбеги ва музаккийлик мансабидан бўшатиб, ўрнига ўзининг яқинларидан бўлган Муҳаммад Мурод маҳрамни тайинлайди. Огаҳий бу воқеани қуйидагича тасвирлайди: “Жамиъ атроф ва акнофадги вилоятлардан келатудгон тужжор ва карвоннинг амвол ва амтаа ва ақшамаси закотин олмоққа музаккий қилиб... Муҳаммад Мурод маҳрамни таъйинлади ¹²³ .” Бундан кўриниб турибдики, девонбеги лавозими хонликдаги энг нуфузли мансаблардан ҳисобланиб хоннинг шахсан ўзи ўзинг ишончли кишиларини ушбу вазифага тайин этган.

Хулоса ўрнида шуни қайд этиш лозимки, Хива хонлигининг сўнгги икки асрлик солиқ тизими тарихини тадқиқ этишда маҳаллий тарихчиларнинг асарлари қимматли манба вазифасини бажаради. Бу турдаги ёзма манбалар орқали солиқ турлари, бу соҳага масъул мансаб эгалари, кўчманчи аҳолидан солиқ ундириш тартиби ва таомили каби масалаларни ёритиш мумкин. Кўлёзма асарлар билан бирга бошқа турдаги бирламчи манбаларни тадқиқот ишига жалб этиш мазкур муаммони ҳар томонлама ўрганиш, манбаларда келган маълумотларни ўзаро солиштириш асосида янги хулосаларга келиш ва умуман олганда хонлик солиқ тизимини тўла очиб бериш учун замин яратади.

¹²³Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик(XVII-XIXва XXаср бошлари). Тошкент, 2002. Б. 118.

XX АСР ИККИНЧИ ЯРМИДА ҚАШҚАДАРЁ ВОҲАСИДА ЎТКАЗИЛГАН АРХЕОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР ТАРИХШУНОСЛИГИ

Саъдуллаев Рустам -
*Марказий Осиё халқлари тарихи ва
этнологияси йўналиши 2-курс магистранти*

Аннотация: Ушбу мақолада Қашқадарё воҳасида XX аср иккинчи ярмида турли археолог ва тарихчилар томонидан ўтказилган археологик тадқиқотлар тарихшунослиги даврий нуқтаи назардан ёритиб берилган.

Калит сўзлар: Ерқўрғон, археология, Фанлар академиясининг тарих ва археология институти, Нахшаб, Жанубий Суғд, Кеш, КАТЭ – Кеш археологик-топографик экспедицияси.

Ўзбекистоннинг қадимий шаҳарлари узоқ вақтлардан бери археологлар, тарихчилар, этнографлар диққатини тортиб келади. Уларнинг бир қисми ҳозирда емирилган шаҳар харобалари – археологик ёдгорликлар (тепа) шаклида сақланиб қолган бўлиб, ушбу харобалар остида кўҳна турар жойлар, ибодатхоналар, саройлар қолдиқлари яширинган. Қадимги Сўғдиёнанинг жанубий ҳудудларида жойлашган Қашқадарё воҳаси қадимий шаҳарсозлик жараёнлари тизимига киради. Бу тизимда Қарши воҳасининг аҳамияти ниҳоятда катта бўлган. Қашқадарё воҳасида ўтроқ манзиллар милоддан олдинги даврларда мавжуд бўлганини, қадимий манбалардан биламиз. Бу воҳада шаҳар ва қишлоқ, қалъа ва саройларнинг шаклланиши, пайдо бўлиши ва ривожланиши узоқ тарихий жараёндир.

Ўтган асрнинг 60-йилларидан бошлаб республика Фанлар академиясининг тарих ва археология институти Қашқадарёнинг ўтмиш обидаларини ўрганишни ва тадқиқ этишни режалаштиради. Археологик тадқиқотлар асосан қуйи Қашқадарёда олиб борилади. Археологик қазув ишларининг дастлабки самаралари ҳақида С. К. Кабановнинг мақола ва ахборотлари эълон қилинади. 1946-1948, 1952-1953, 1964-1967 ва 1970-1972 йилларда воҳада 12 бор қазув мавсумини ўтказган С.К. Кабанов 50-60 йилларда, шунингдек, 70-йиллар бошларида Қашқадарё қадимиятига бағишланган кўпгина мақолалар, рисоалар эълон қилишга муваффақ бўлди.¹²⁴

¹²⁴ Археологические работы 1948 года в Каршинском оазисе; Археологические работы 1947 года в Каршинском оазисе; Нахшеб в III-VIII веках в свете археологических данных; Археологический разведки в верхней части долины Кашкадарьи; К вопросу о древности канала Иски-Ангор; Археологический памятники зоны Чимкурганского водохранилища; Археологические раскопки на Шор-тепе близ Карши; Кешские монеты V-VI

Қашқадарёнинг қуйи қисмида нисбатан қисқа фурсатда ўтказилган қадимшунослик изланишлари катта натижалар беради. С.К. Кабанов 1953 йилда археологик далилларга асосланган ҳолда, III-VIII асрлардаги Нахшаб ҳақида номзодлик диссертациясини ниҳоясига етказди. Нахшаб ва унинг теварак атрофидаги ёдгорликларни мунтазам суратда ўрганиш натижасида 1977 йилда унинг “Нахшаб қадимда ва ўрта асрларда (III-VII асрлар)” номли рисоласи, 1981 йилда эса “III-VI асрларда Жанубий Суғд қишлоқ манзиллари маданияти” деган китоб нашр этилади. Умуман, С.К. Кабанов Қашқадарё археологиясига оид 30 дан зиёд илмий ишлар муаллифидир.

50-йилларда Қашқадарёнинг қадимий меъморчилик обидаларини ўрганиш ишига таниқли олима Г.А. Пугаченкова ҳам иштирок эта бошлайди. Олима 1950 йилда Шахрисабздаги “Дор ус-саодат” меъморчилик мажмуасини таъмирлаш муаммосига бағишланган мақоласини эълон қилади.¹²⁵ Г.А. Пугаченкова воҳанинг қадимий санъати, ҳунармандчилигига бағишланган ишларидан¹²⁶ ташқари, Шахрисабз ҳақида 1976 йилда Москвада нашр этилган “Термиз, Шахрисабз, Хива” номли рисоласини яратади.

60-йиллар бошларида республика жануби ўтмишини тадқиқ этиш ишларига М.Е. Массон, А. Асқаров, З.И. Усмонова сингари таниқли олимлар ҳам бош кўшадиларки, бу, шубҳасиз, жуда катта илмий самаралар беради. Айниқса, 1963-1964 йилларда Тошкент Давлат университетида Кеш археология ва топография экспедициясининг ташкил этилиши унга М.Е. Массоннинг раҳбарлик қилиши Қашқадарёнинг қадимий ёдгорликларини текшириш, уларнинг тарихий аҳамиятини очиб беришни жонлантириб юборади¹²⁷. Қадимшунос олима З.И. Усмонова ТошДУ археология кафедрасида ўтган асрнинг 60-йиллари бошларида мустақил археологик экспедициялар ташкил этиш кун тартибига кўйилганлиги, бунда асосий ўрганиш минтақаси сифатида Қашқадарё воҳаси танланганлиги ҳақида шундай фикр юритади: “Кафедра ҳузурида мустақил археологик экспедиция ташкил қилиш масаласи кўндаланг бўлди. Бунда археологик жиҳатдан кам ўрганилган Қашқадарё вилояти танланди. Чунки бу вилоят қадимий Суғднинг жанубий қисми (Кеш, Насаф) бўлиб, ёзма манбаларда зикр этилган.¹²⁸” КАТЭ – Кеш археологик-топографик экспедицияси 1963-1966 йиллар давомида М.Е.

вв; Нахшебские монеты V-VI вв; Поздние кушаны в Нахшебе; Раскопки сельского поселения III-V вв. н.э близ Карши; Руины здания времени кушан близ Карши ва бошқалар.

¹²⁵ Пугаченкова Г.А. К вопросу о реконструкции ансамбля Дорус-сиадат, Тимуридской усыпальницы в Шахрисабзе. – Материалы по истории и теории архитектуры Узбекистана. – Т.: 1950.

¹²⁶ Керамические печи эпохи Кушан в Южном Узбекистане; Скульптура Халчаяна; Л.И. Ремпель билан ҳамкорликда: История искусств Узбекистана; Очерки искусства Средней Азии; Тимуридский ренессанс. Очерки искусства Средней Азии.

¹²⁷ Равшанов П. Қарши тарихи. -Т.:2006. 17 б.

¹²⁸ Усмонова З.И. Кафедра археологии ТашГУ-50 лет. Древняя и средневековая археология Средней Азии. – Т.: “Фан”. –С. 11.

Массон раҳбарлигида вилоятнинг қадимий обидаларида кўпгина муҳим қазув ишларини амалга оширади¹²⁹. М.Е. Массоннинг “Қашқадарёнинг қуйи вилояти қадим замонлар пойтахт шаҳарлари¹³⁰” деган рисоласи майдонга келади.

60-йиллар бошларидан эътиборан Қашқадарёнинг қадимий обидалари археологиясини ўрганиш кенг қамровли тус ола бошлайди. Қадимшунослар, санъатшунослар жанубий воҳанинг ҳали қўл урилмаган осори атиқаларини кунт ва сабот билан тадқиқ этишга киришадилар. Н.П. Столярова¹³¹, Р.Р. Абдурасулов¹³², Л.И. Ремпел, Л.Л. Букинич¹³³, В.Д. Жуков¹³⁴, У. Исламов¹³⁵, Н.И. Крашенникова¹³⁶, С.Б. Лунина¹³⁷, Л.Ю. Маньковская¹³⁸ каби тадқиқотчилар Қашқадарё воҳасининг кечмиши ва қадим маданияти ҳақида фанга сезиларли янгиликлар олиб кирганлар.

1954 йилда Қарши чўлига Зарафшон дарёсидан сув олиш учун Эски Анҳор каналини, муҳими, Қашқадарёнинг ўрта оқимида Чимқўрғон сув ҳавзасини барпо этиш муқаррар бўлади. Бўлажак сув иншоотлари ҳудудидаги тепаликлар, қадим манзиллар ўринлари тезкор кўздан кечирилади. Бу иш Қашқадарё заминида катта тажриба орттирган С.К. Кабановга топширилади. Чимқўрғон сув ҳавзаси қуриладиган майдон жуда катта эди ва ушбу ҳудудда қадимги даврга оид ёдгорликлар сув остида қолиб кетиши мумкин эди. Шунга кўра, ҳавза ҳудудидаги обидаларни жадал текширишдан ўтказиш мақсадида бу жойда 1955-1957 йиллар мобайнида Ўзбекистон Фанлар академиясининг тарих ва археология институти махсус экспедицияси иш олиб боради¹³⁹.

70-йиллар охирига келиб Нахшаб, Заҳоки Морон қалъаси, Шулликтепа, Субах, Базда, Касби, Қаландартепа сингари қадимий шаҳарлар, қасабалар, юзлаб кўрғонлар очилади ва ўрганилади. 70-йилларда Қашқадарё археологиясига бағишланган илмий ишлар ҳам сон, ҳам сифат жиҳатдан катта илмий-амалий қимматга эга. Бу даврда ўтказилган тадқиқотлар қўлами жуда

¹²⁹ Архив ГлавНПУ. Инв. № А 3025/М 32. Массон М.Е. Краткий отчет о результате полевых работ КАТЭ в 1965 г. – Т., 1965. – С. 12.

¹³⁰ Массон М.Е. Столичные города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен. (Из работ Кешской археолого-топографической экспедиции ТашГУ - 1965-1966 гг.) - Ташкент: Фан, 1973. — 100 с.

¹³¹ Столярова Н.П. К характеристике керамического материала XII-XIII вв. ряда памятников долины Кашкадарьи. – В сб.: Труды ТашГУ, вып. У. 1960.

¹³² Абдурасулов Р.Р., Ремпель Л.И. Неизвестные памятники архитектуры бассейна Кашкадарьи (Из материалов искусствоведческой комплексной экспедиции института искусствоведения АН Уз ССР, 1961г.). В кн.: Искусство зодчих Узбекистана. Т. I. – Т.: 1962.

¹³³ Букинич Л.Л. Руины двух раннесредневековых поселений близ. Г. Карши. – ИМКУ, вып.8. – Т.:1969.

¹³⁴ Жуков В.Д. Археологическая разведка Киндаклитепа. ИМКУ. Вып. 7. – Т.: 1966.

¹³⁵ Исламов У. Неолитическая культура в низовьях Кашкадарьи. ж. ОНУ – Т.: 1965.

¹³⁶ Крашенникова Н.И. Разрез крепостной стены древнего Кеша. ж. ОНУ. – Т.:1968. №8

¹³⁷ Лунина С.Б. Работа на Алтын-тепе. -АО, М., 1969

¹³⁸ Маньковская Л.Ю. Два малоизвестных памятника гражданского зодчества города Карши. ж. Строительство и архитектура Узбекистана. 1968, №5; Неизвестные памятники XVI-XIX вв. в Кашкадарьинской области. ж. Строительство и архитектура Узбекистана. 1969, №11

¹³⁹ Равшанов П. Қарши тарихи. -Т.:2006. 19 б.

кенг бўлиб, у воҳанинг юқори қисмидаги Лангар, Китоб, Яккабоғ, Кеш ҳудудларидаги қадимий ёдгорликларни ўрганишга қаратилган эди.

1973 йилда Ўзбекистон ФА тарих ва археология институти Қашқадарё экспедицияси аъзоларининг Ерқўрғон шаҳрида олиб борган кенг қазилма ишлари шаҳар қурилиши ва археологик ёдгорликларини даврлаштириш, шаҳарда топилган маданий қатламлар санасини аниқлаш имконини берди. 1973-1974 йилларда Ерқўрғоннинг кулоллар маҳалласининг шимолида иккита хона ва унинг жанубий-шарқий қисмида битта хона очиб ўрганилди¹⁴⁰. 1982 йили кулоллар маҳалласида 1973-1974 йиллари олиб борилган қазув ишлари кенгайтирилди. 1974 йили К. Собиров томонидан Ерқўрғоннинг ички муҳофаа деворларида қазув ишлари олиб борилди. Девор кесимида олиб борилган қазув ишлари натижалари шуни кўсатадики, илк девор пойдевори эрамузгача I –минг йилликларни ўрталарига тўғри келган. Деворнинг юқори қисми эрамузнинг I –минг йилликларни ўрталарига тўғри келган. 1975 йилда девор пойдеворида 5 та қазув майдончалари туширилади¹⁴¹. 1975-1977 йилларда Р. Х. Сулейманов томонидан Ерқўрғоннинг меъморий қурилиши, унинг эволюцияси ва моддий-маданиятидаги узвийликни аниқлаш масалаларини ойдинлаштириш учун қазув ишларини олиб боради¹⁴². 1980 йилга қадар бу кўҳна шаҳарчада кўлга киритилган натижалар жуда самарали бўлди. Шу йиллар ичида олтига кўламли қазув ишлари ниҳоясига етказилди. Қарши воҳасида сақланиб қолган Ерқўрғон шаҳар харобасида кейинги чорак аср мобайнида олиб борилган кенг кўламдаги археологик тадқиқот ишларининг натижаси Сўғдиёнада урбанизация жараёнининг пайдо бўлиши, шакллари ва даври ҳамда воҳада урбанизация жараёни вужудга келиши масалаларини ойдинлаштирди.

Кейинги давр тадқиқотлари Қашқадарёда археологик изланишларнинг энг катта илмий фаразлар берган даври десак муболаға бўлмайди. Бу даврда воҳада ишлаб катта тажриба орттирган М.Х. Исомиддинов, Р.Х. Сулаймонов, С.Б. Лунина, Г.Я. Дресвянская ва бошқа археологларнинг изланишлари унумли бўлди. Р.Х. Сулаймонов ва Н.Ю. Нефедовлар қадимий Нахшабдаги ишларни давом эттириб, бу ёдгорлик мажмуасида жойлашган ибодатхонани очишга муваффақ бўлдилар¹⁴³. Ана шу тадқиқотлар натижаси Нахшабни илк милодий йиллардан шаҳар сифатида шаклланганлигини кўрсатиб берди. Узоқ вақтлар давомида Қашқадарё воҳасида фаолият юритиб келган олима С.Б. Лунина 90-йилларда ҳам ўз тадқиқотларини давом эттириб, воҳанинг шарқий қисмидаги

¹⁴⁰ Исомиддинов М., Хасанов М. К вопросу о специализации ремесленного производства Древнего Согда (по материалам Еркургана). ИМКУ. 24 - Т., 1975;

¹⁴¹ Сулейманов Р. Х., Туребеков М. Этапы развития фортификационной системы Еркургана. ИМКУ. Вып. 14. – Т., 1978. с.60

¹⁴² Сулейманов Р. Х., Исхаков М., Туребеков М., Нефедов М. Раскопки на городище Ер-Курган. АО, 1975 г.. М., 1976. с. 537

¹⁴³ Сулейманов Р.Х., Нефедов Н.Ю. Раскопки Святылища храма Еркурган, 1990;

ёдгорликлардан бири Сариктепада иш олиб боради ва бу жойдаги катта бир иморатни ўрганади.¹⁴⁴ С.Б. Лунина Қашқадарё воҳасидан қазиб топилган буюмларнинг аксарияти X-XII асрларга тўғри келган ва уларнинг яратилишида ўтмишдошларимизнинг дунёқарашини, оловга сиғиниш ва аждодлар руҳини таъсири масаласини тадқиқ этади.

Бу даврга келиб археологлар воҳанинг деярли барча ҳудудларида тилмий текширувлар олиб бордилар. Жумладан, Г.Я. Дресвянская ва В.Я. Марчуклар воҳанинг юқори қисми ёдгорликларини ўрганишни бошладилар. Чечактепа сопол идишлари ва уларнинг ранг-баранг шакллари ҳақида изланишлар олиб бордилар¹⁴⁵. Тарихчи И.Ю. Нефедов Нахшаб ҳукмдорлари қасри ҳаробаларидаги ишини яқунлаб, ўзининг қимматли илмий хулосаларини эълон қилади¹⁴⁶. Ундан кейинги йилларда амалга оширилган илмий изланишлар ҳам таҳсинга лойиқ. Таниқли олим М.Х. Исомиддинов А.А. Раимқулов билан ҳамкорликда Ерқурғон – Нахшаб темирчилар маҳалласида қазув ишларини амалга ошириб, бу жойда V-VII асрларда вужудга келган темир буюмлар ҳақида илмий хулосалар берадилар¹⁴⁷. 90-йиллар сўнгги ва XXI аср бошларида ҳам воҳа тарихини ўрганиш, салмоқли илмий ишларни амалга ошириш давом этди. Бу даврда тарихшунослик ривожига кўшилган катта ҳисса Р. Сулаймоновнинг докторлик иши моҳиятини акс эттирувчи “Қадимий Нахшаб”¹⁴⁸ монографияси бўлади. Шу билан бир қаторда бу даврда ҳам Б.Д. Кочнев¹⁴⁹, А.А. Раимқулов¹⁵⁰, Р.Х. Сулаймонов¹⁵¹ ва бошқаларнинг бир қанча мақола, рисолалари эълон қилинди. Ушбу илмий изланишларнинг ҳар бирининг ўзига хос аҳамияти ва илмий салмоғи бор.

¹⁴⁴ Лунина С.Б. Монументальное здание у ворот Сарыктепе, 1990; С.Б.Лунина. Изделия X-XII вв. связатве с культом огня и культом предков, 1991;

¹⁴⁵ Дресвянская Г.Я., Марчук В.Я. Раннесредневековая посуда Чечактепе. – Т., 1990;

¹⁴⁶ Нефедов Н.Ю. Некоторые итоги раскопок дворцового комплекса Еркурғана. – Т., 1990;

¹⁴⁷ Исамиддинов М.Х., Раимқулов А.А. Квартал керамистов на Еркурғане VI-VII вв. н.э. (Р-20). – Т., 1991;

¹⁴⁸ Сулаймонов Р.Х., Древний Нахшаб. – Т.: “Фан”, 2000.

¹⁴⁹ Кочнев Б.Д. О монетах Нахшеба (Несефа) VII-VIII вв. (Третья всероссийская нумизматическая конференция в г. Владимире 17-21 апр. 1995 г.) Тезисы докладов. – М., 1995;

¹⁵⁰ Раимқулов А.А. Культура сельский поселений Нахшеба в эпоху раннего феодализма. ФКД. – Самарканд, 1992;

¹⁵¹ Сулейманов Р.Х. Иригация и древние системы расселения (Каршинский оазис). – М., 1992; Р.Х. Сулейманов. Қадимий Қарши, Марказий Осиё шаҳарсозлиғи ва маданияти тарихи. – Қ.: “Насаф”, 1999;

ARXEOLGIK TADQIQOTLAR HAMDA YOZMA MANBALARDA FARG‘ONA VODIYSINING KO‘HNA SHAHRI QUVA

Turdixo‘jayeva Mahliyo Muqimxo‘ja qizi -
Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnologiyasi
yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada Farg‘ona vodiysida joylashgan Quva shahri tarixining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotining arxeologik jihatdan o‘rganganilishi hamda Quva yodgorligi arxeologik muammolari yechimiga oid turli arxeolog va tarixchilarning qo‘shgan xissasi ilmiy tahlil etiladi. Shuningdek, maqolada Quva arxeologik tadqiqotlar tarixshunosligida alohida o‘ringa ega arxeologik ishlar jamlangan va ular xususida fikrlar bildirilgan. Maqolada yana manbalarda Quva nomining kelishi hamda ularning ma‘nosi haqida ham tahliliy fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Arxeologiya, Quva arxeologiyasi, tarixshunoslik, B.A.Latinin, V.D.Jukov, A.N.Bernshtam, V.A.Bulatova, I.A.Axrorov va Yu.A.Zadneprovkiy, Qubo, Kaykubod, Ishtaxriy, “Ajoyib ul-buldon”, Tabariy.

Farg‘ona viloyatining qadimiy shahri hisoblanmish Quva ming yillik tarixga ega shahar hisoblanadi.

Quvani arxeologik o‘rganishda B.A.Latinin, V.D.Jukov, A.N.Bernshtam, V.A.Bulatova, I.A.Axrorov va Yu.A.Zadneprovkiylarning hizmatlari katta¹⁵². Bundan tashqari turli yo‘nalishlar bilan Quvani o‘rgangan tadqiqotchilar talaygina ularning ishlari ham arxeologik tadqiqotlar bilan birgalikda o‘rganilmoqda¹⁵³.

Quva shahar xarobasida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar Quva (yoki Qubo) shahar xarobasi Farg‘ona vodiysidagi eng katta arxeologik yodgorliklardan biri ekanligi hamda uning ark va shahriston qismi nisbatan yaxshi saqlanib qolganligini ko‘rsatmoqda. Vodiyning janubida joylashgan ushbu yodgorlik qadim vaqtdan buyon ko‘hna savdo yo‘lidagi yirik shahar hisoblanadi. Quva bir necha yillardan buyon turli soha tadqiqotchilar e‘tiborini jalb etib kelmoqda Keyinchalik bu yodgorlik Katta Farg‘ona va Janubiy Farg‘ona kanallari qurilishlari paytida ko‘zdan kechiriladi. Lekin u vaqtlardagi arxeologik ishlar faqat yodgorlik ustidan material yig‘ish bilan cheklanilgan¹⁵⁴.

¹⁵² Матбобоев Б. Қадимги Кува(Кубо)//Ўзбекистон тарихида Қадимги Фарғона Т-2001.Б.44

¹⁵³ Б.Абдулгазиева .Исследование раннесредневекового жилища на городище Кува //Археология и история Центральной Азии .С-2004 Б.10.

¹⁵⁴ Матбобоев.Б. Қадимги Фарғонанинг илк ўрта асрлар даври маданияти. С- 2009.Б.109

Quvada ilk o'рта asrlardagi sopol bo'yumlar arkda, shahristonda va shahriston tashqarisidagi arxeologik qazishmalarda qayd etilgan. Bu materiallar qisman V.A.Bulatovaning "Древняя Кува" nomli monografiyasida, hamda D.P.Varxotovaning Quva sopollariga bag'ishlangan "Керамика VII-VIII вв. с городища Кува" nomli 90-yillarda e'lon qilingan maqolasida to'la bo'lmagan holda e'lon qilingan. Varxotova VII-VIII asr Quva sopollarini "kuygan qatlamdan" deb alohida qayd qiladi, ushbu fikr Matboboyevning¹⁵⁵ qazish tadqiqotlari natijalarida ham e'lon qilingan. Bundan ko'rinadiki, VIII asrga oid kuygan qatlamlarning butun yodgorlikda uchrashi Quvada bir vaqtning o'zida kuchli yong'in bo'lgan.

Yana shuni alohida ta'kidlash kerakki, V.A. Bulatova va D.P. Varxotovalarning tadqiqotlarida VII-VIII asr materiallari shahriston tashqarisidagi alohida tepalikda sof holda topilgan, Matboboyev olib borgan shahristondagi kuzatuvlar paytida esa ilk o'рта asr kulolchilik idishlari ancha qalin qatlamda uchraydi. Ular keyingi o'рта asr qatlamlari ostidan kovlab ochilgan. Muallif ko'p hollarda VII-VIII asrdan keyingi davrga oid materiallar aralashib ketganligini o'rganilayotgan davrdan keyingi qurilishlar yoki o'sha paytdagi siyosiy notinchlik jarayoni natijasidagi vayronagarchiliklar ham sabab bo'lgan bo'lishi mumkinligi bilan izohlaydi. VIII asrning birinchi yarmida yuz bergan kuchli yong'in izlari shundan dalolat berishini ta'kidlaydi.

Matboboyev doktorlik disertatsiyasida ilk o'рта asrlar uy-joylari tarixi vodiy arxeologiyasida yaxshi o'rganilmaganligini hisobga olib qazishmada qazib ochilgan xonalardagi me'moriy qoldiqlari tavsifini keltirib o'tgan. Quva ilk o'рта asrlarda vodiyning janubiy qismida kulolchilik markazi sifatida faoliyat ko'rsatgan. Hatto ibodatxona ham shahristondan tashqarida qurilgan. Bu kamdam kam kuzatiladigan holatdir¹⁵⁶. Quva shahristonida 1996-1998-yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida birinchi bor ilk o'рта asrlarga doir kulolchilik namunalarning topilishi ham ilmiy yangilik bo'ldi.

Ivanov G.P. o'zining "Excavations at Kuva"¹⁵⁷ nomli Londonda 2003-yilda chop etilgan maqolasida Farg'ona vodiysining janubiy qismidagi qadimgi Quva obidasi dastlab XX asr boshlarida arxeologik e'tiborni jalb qilganligi va olimlarga mahalliy Kay Kubod Tepa nomi bilan ma'lum bo'lganligi, ushbu shahar haqiqatan ham X asr arab manbalarida juda oz tafsilotlar bilan bo'lsada eslatib o'tilgan Quba shahri ekanligini yozadi. Quvaning o'n joyida salkam 2500 kv. m. ga teng maydonda madaniy qatlamlar ochib o'rganilganligi va uning yangiliklarini muallif batafsil yoritib o'tadi.

¹⁵⁵ Matboboyev B. Qadimgi Farqonaning ilk urta asrlar davri madaniyati. Samarqand- 2009. B.116

¹⁵⁶ Matboboyev B. Qadimgi Farqonaning ilk urta asrlar davri madaniyati. Samarqand- 2009. B.119

¹⁵⁷ Ivanov G.P. Excavations at Kuva (Ferghana valley/ Uzbekistan) // Iran. XLI, pp. 205-216. London, 2003 P.205.

Quva ibodatxonalari masalalari ham yuqoridagi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan va yana T.K.Mkrtychevning ushbu muammoga bag'ishlangan 1997-yilda nashr etilgan "Кувинский храм: проблемы интерпретации"¹⁵⁸ nomli tezisini ham alohida ta'kidlashimiz mumkin. Bundan tashqari Tigran Konstantinovichning¹⁵⁹ doktorlik ilmiy ishida buda ibodatxonalari va ularning joylashuvi xususida ham fikrlar beriladi.

Smirnova O.I.ning Quva tangalariga bag'ishlangan "Древне тюркских монетах из Кувы"¹⁶⁰ nomli Moskvada e'lon qilingan maqolasi ham numizmatik ma'lumotlari bilan Quva arxeologiyasi muammolarini yechishda o'ringa ega.

G.P.Ivanov hamda N.Abulaxatovlar birgalikda yozgan "Раскопки городища Кува"¹⁶¹ nomli maqolasida Quvadagi qazishma ishlar hamda ularning natijalari haqida fikrlar keltirilgan. Hozirgi Quva shahri markazida mahalliy aholi "Shahriston" deb ataydigan va bir necha gektar maydonni egallagan tepaliklar yastanib yotadi. Olamga tanilgan mazkur shahar Yoshi ko'pchilikni o'ylantiradi. Odatda shaharlarda eng qadimgi hududi ko'proq ark qismida uchraydi. Arxeologlar arklarda nisbatan qadimgi qatlamlarni aniqlaganlar. Quva arkida ham shunday. Ark qurilgan vaqt yaqingacha miloddan avvalgi II-I asrlar deb hisoblanardi, lekin keyingi izlanishlar shahar yoshi bundan qadimiyroq ekanini ko'rsatmoqda.

Jumladan, shahriston janubiy devoir ostidan miloddan avvalgi V-IV asrlarga taalluqli arxeologik ashyoviy dalillar topilgan. Ular bir necha spool idish va jezdan yasalgan ikkita kamon o'qidir. Ular yasalishi shakliga ko'ra, Yevrosiyo sarhadlarida miloddan avvalgi VI-IV asrlarga oid. Shunga ko'ra, Quva topilmalari ham shu vaqt bilan belgilaniladi. Demak, Quva shahristoni janubiy-sharqiy burchagi va janubiy mudofaa devoir ostidan topilgan ashyolar kamida 2500 yil bilan bilan belgilaniladi. Agar fanda shaharlardagi ark joylashgan maydon eng ko'hna qism hisoblanishi inobatda olinsa, shahar yoshi bundan kam bo'lmasligini dalil aytish mumkin.¹⁶² Ushbu ma'lumotlardan bu shaharga 2500 yil muqaddam asos solingan bo'lsa kerak deyishimiz mumkin. Quva o'ziga xos yirik iqtisodiy ,savdo-sotiq shahri bo'lganligi ham barchamizga birdek ma'lum. Shu bilan birga Quva

¹⁵⁸ Мкртычев Т.К. Кувинский храм: проблемы интерпретации // Верования и культы домусульманской Средней Азии. Тезисы конференции. –М., 1997. С. 39-41.

¹⁵⁹ Мкртычев Т.К Буддийское искусство Средней Азии, I-X вв.М-2002.

¹⁶⁰ Смирнова О.И Древне тюркских монетах из Кувы //Письменные памятники и проблемы истории культуры народов Востока ,часть I .М-1977 .С.51-53.

¹⁶¹ Иванов.Г.П.Абулахатов.Н. Раскопки городища Кува // Археологические исследования в Узбекистане-2002год Вып-3.Т-2003.С.50.

¹⁶² А.Анорбойев, У.Исломов, В.Матбобойев "O'zbekiston tarixida qadimgi Farg'ona" Т-"Fan" 2001. В. 60.

madaniy markazlardan biridir. Bu karvon yo'llari tutashgan chorrahadagi shahar edi. Bundan tashqari Quboda dunyodagi yirik dinlar –otashparastlik, budda va musulmonlik kabilar ildiz otgan edi. Quvani dunyoga tanilishida unda topilayotgan yozuv namunalari ham katta ahamiyatga ega. Bugungi kungacha bu yerda bir necha turk runik va arab yozuvi namunalari aniqlangan. Ular ba'zilar idish sirtiga tirnab, boshqalar qora bo'yoq bilan yozganlar. Ulardan Quva tarixini mukammal o'rganishda foydalanishimiz mumkin. Quvaning yana bir salohiyati bu qadimdan hunarmandchilik markazi bo'lishi hamdir. Quvada ilk o'rta asrlardagi sopol bo'yumlar arkda, shahristonda va shahriston tashqarisidagi arxeologik qazishmalarda qayd etilgan. Bu materiallar qisman V.A.Bulatova monografiyasida, hamda D.P.Varxotovaning Quva sopollariga bag'ishlangan maqolasida to'la bo'lmagan holda e'lon etilgan. Quva sopol idishlari kulolchilik charxida yoki qo'lda yasalgan. Bu yerdagi ilk o'rta asr kulolchilik buyumlaridan kosa, ko'za, xurma, xum, qozonlar uchraydi. Bularning barchasi Quva shahrining o'ziga xos tarixiy madaniyatidan dalolat beradi. Quva o'sha vaqtlarda eng katta shahar edi va u janubiy Farg'onaning markazi vazifasini bajargan. Demak, Quva Farg'ona vodiysidagi eng ko'xna shaharlardan biridir deyishimiz mumkin. Bu shahar o'rta asrlarda asl hunarmandlar, ilm-fan, madaniyat arboblari to'plangan ziyolilar shahri ham edi. O'z bag'rida ming yillik tarix sahifalarini saqlab turgan Quva bugungi kunda el nazari tushgan ko'rkam shahardir.

Ushbu tarixiy hudud nomining kelib chiqish tarixiga to'xtalsak, muvofiq bo'ladi. Quva atamasini bir gurux tadqiqotchilar “kuchli”, “keng shahar” deb qarasa, boshqalari o'zbek urug'laridan biri “quba”, arabchadagi “qubba” yoki Alon Quva afsonasi bilan bog'lashadi. Ularning har birida ma'lum haqiqat bor. Turkiy xalqlardan biri sag'aylarda Quba xudosi bo'lgan. Unga ma'lum vaqtlarda samoviy otlarni qurbonlik qilganlar. Bu etnografik ma'lumotlarning Quva uchun, kam bo'lsada, tegishli tomoni mavjud. Sabab, birinchidan nomiga o'xshashlik bor, ikkinchidan yuqorida aytilganidek sag'aylarda Quba xudosisiga otlarni qurbonlik qilishgan. Tarixiy ma'lumotlarda qadimgi Davan-Davon(Farg'ona) uchqur otlari hozirgi Marhamat, Aravon, Asaka atroflarida yetishtirilgani haqida habarlar uchraydi. Quva ham ularga qo'shni hududda joylashgan. Qolaversa, joy nomlari Asaka, Axtachi otlar bilan bog'liq. Ya'ni, Asaka otliq degani, Axtachi-bu sinchi(ot tabibi) yoki otboqar ma'nolarini beradi. Yana otning asosiy ozig'I bo'lmish beda ham Asaka, Aravon, Marhamat, Quvada serhosil

bo'lgan. Asrimizning hatto 20-30-yillarida vodiya otlarning yarmi mana shu tumanlarda yetishtirilgan.¹⁶³

Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqib, biz Quva nomi ana shu "Quba" ilohi bilan bog'liq bo'lishi mumkin, deb hisoblaymiz. Quva shahri haqida ko'plab manbalarda ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, Ishoqxon To'ra Ibrat o'zining "Tarixi Farg'ona" manbasida bir qancha manbalardan lavhalar keltirib o'tadi. Mirxondning "Ravzat us-safo" asarida No'shiravon otasi Qubod podshox vaqti vafodiga yaqin Turkiston mamlakatining No'shiravon o'g'liga ta'yin qilib, farg'onani aksar joylarini ul obod qilgan ekan. Quboni Qubod o'zi bino qilgan ekon. Farg'ona poytaxti ul vaqtda kubo ekon. Toxir Muhammad Sabzavoriyning "Tarixi taboqot ut-toxiriy" da masturdurki: "Hijriy 1035-yil Farg'onada kuchli zilzila sodir bo'lgan. U vaqtda Farg'onaning poytaxti Axxi edi. Natijada u yerlar vayronaga aylanib, bir necha ming kishilar imoratlar ostida qolib ketganlar. Dastlabki kun yer silkinishi 70 martagacha yetgan va olti oygacha davom etgan. Bu vaqtda Farg'onaning shaharlaridan ko'hnalari Qubo va Axxi bo'lib, har bir podshoxlar duxuli ilan bir-bir poytaxt bo'lib, avvalo poytaxt Qubo ekon.¹⁶⁴ "Tarixi shoxi Jarir" da yozubdur: "Islomdan qadim Qubod podshox zamonida markazi hukumat kubo shahri erur. Yana "Ajoyib ul-buldon" da masturdurki, Farg'onani ikkinchi daf'ada Eron podshoxlaridan No'shiravon 531-milodiyda qilgon binosi debdur. Bu qavlga dalil bo'lurki, Farg'onada bo'lmish Qubo shahrining avvali binosi No'shiravon otasi Qubod bino qilgan deb avvalda yozilib o'tdi. Kubodni o'z ismiga Qubod qo'yib, holo dolni tarhim qilib, Qubo yozarlar, og'izda Qubo derlar. Quvoni hech ma'nisi yo'q.¹⁶⁵

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Quva nomi Kay Qubod nomi bilan ham bog'lanadi. Tarixchi A.Muhammadjonovning fikricha, shahar nomi "Qaviybod", "Qavobod", "Qaybod" shakllarida talaffuz etilgan va qaviylarning qarorgohi, tojdor hukmdorning kayoniy taxti o'rnatilgan qasr va mamlakatning bosh shahri-poytaxt ma'nosini anglatgan. Keyinchalik o'zgarib Quva shaklini olgan. Aslida Quva(Qubo) nomi birinchi marta VIII asrning birinchi yarmidagi yozma manbada siyosiy voqealarning tafsiloti bayoni munosabati bilan tilga olinadi. Xulosa qilib aytganda, Quva arxeologik tadqiqotlarda bir necha yo'nalishda o'rganilib kelinmoqda. Manbalardagi uning nomi masalasida ham bir qancha fikrlar mavjud. Ammo tarixshunoslik jihatidan uning o'rganilishida hali bir qancha yo'nalishlar mavjud. Davriy nashrlarda ilmiy maqolalar qamrovi kam.

¹⁶³ A.Anorboyev, U.Islomov, B.Matboboyev "O'zbekiston tarixida qadimgi Farg'ona" T-"Fan" 2001. 46-bet.

¹⁶⁴ Ishoqxon To'ra Ibrat "Tarixi Farg'ona" T-"Ma'naviyat" 2005. 3-5-betlar.

¹⁶⁵ Ishoqxon To'ra Ibrat "Tarixi Farg'ona" T-"Ma'naviyat" 2005. 4-5-betlar.

MUHAMMAD SHAYBONIYXON VA SHOH ISMOIL I SAFAVIY O'RTASIDAGI ALOQALAR TARIXI

Jo'rayev Baxromxo'ja Akbarali o'g'li -
Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnologiyasi
yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Balxash ko'li va Sirdaryoning yuqori oqimlaridan to Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo'lgan ulkan hudud XI asrdan boshlab Dashti Qipchoq deb atala boshladi. XIII asrda mazkur hudud mo'g'ullar tomonidan bosib olinadi va u erda Oltin O'rda davlati barpo etiladi. XIV asrning boshlaridanoq bu yerda mavjud bo'lgan Jo'ji ulusi ikki qismga bo'linib, uning sharqiy qismida Oq O'rda davlati tashkil topdi.

XIV asrning 60-yillaridan boshlab Oltin O'rda taxti uchun Ichar, Shaybon va Tarqoq Temur avlodlari o'rtasida kurash olib borildi. 1360-1380-yillar davomida Oltin O'rda taxtiga 25 ta xon kelib ketdi.

XIV asrning 70-yillarida Oltin O'rdada ichki kurashlar yanada avj olib ketdi. Bu kurashda Shayboniylardan Tulubekxonim, Ilbon, Alixo'ja, Arabshoh, Koxonbeklar katta o'rin tutdilar. Oltin O'rda taxti uchun kurashlar kuchayib, tushkunlikka yuz tutgan bir vaqtda Oq O'rdada davlatchilik kuchayib bordi. Bu holatni biz O'rusxon va To'xtamishlar hukmronlik qilgan davrda ko'rishimiz mumkin. 1380-yilda Oq O'rdaning birlashtirilishi To'xtamishxonning Amir Temur tomonidan qo'llab-quvvatlanishi ta'sirida amalga oshirilgan edi. Oltin O'rda Amir Temur tomonidan To'xtamishga qarshi kurashlar davomida ancha zaiflashgan bo'lsa-da, Shodibek davrida(1401-1407) yana kuchaya boshladi. Shu yillarda Oltin O'rdada Bulg'or, Hojitarxon, Qrim ustidan yana o'z hukmronligini o'rnatdi. 1406-yilda Temuriylar o'rtasidagi taxt uchun kurashdan foydalangan Yedigey Xorazmni bosib oldi.

XV asrning I choragida Oltin O'rdada siyosiy kurashlar yana kuchayib ketdi. 1400-1417-yillar davomida Oltin O'rda taxtiga o'tirgan 8 ta xon birin-ketin taxtdan tushirildi.(Shodibek, Po'latxon, Temurxon, Jaloliddin Sulton va boshqalar) .

Bir necha 10 yillar davomida taxt uchun To'xtamishxon, Quyirchoq, Barakxon, Ulug'michommal kabilar kurash olib bordilar. 1424-1425-yillardan boshlab esa bu kurashlarda Muhammadxon, Kuchuk Muhammad, To'xtamishxonning o'g'illari Davlatberdi va Kepakxonlar asosiy o'rin egalladilar. Dashti Qipchoqda uzoq vaqt davom etgan ana shu kurashlarda boshqa qabilalar bilan bir qatorda Sahyboniy avlodlari ham faol ishtirok etdilar va ma'lum bir mavqeiga ega bo'ldilar. O'zaro kurashlardan qiynalgan xalq uchun tinchlik nihoyatda zarur edi.

1427-yilda Alash bahodir yordamida xon etib ko'tarilgan Abulxayrxon katta harbiy kuch to'pladi va 1428-yilda o'z ulusiga qaytib, qiyot, mang'it, qo'ng'iroq, darmo, qushek, otarchi, nayman, taboyin, jot, qorliq, nishon, kurlavot, echki, tang'ut va boshqa qabilalar ustidan o'z hukmronligini o'rnatdi.

1428-1429-yillarda Abulxayrxon Janubi-g'arbiy Sibirdagi To'ra shahrini qo'lga kiritdi va bu shahar 1446-yilgacha xonning poytaxti bo'lib qoldi. Abulxayrxonning bu muvaffaqiyati tezda butun Dashti Qipchoqqa yoyildi va uning ta'sir doirasi kengayib bordi. 1451 yilda u Temuriylar poytaxti Samarqandni ham qamal qildi.

Abulxayrxon vafotidan so'ng uning nabirasi Muhammad Shayboniyxon (1451-1510)¹ hokimiyat uchun kurashni davom ettirdi.

Muhammadxon Shayboniy Abulxayrxonning o'g'li Budoq sultoning farzandi edi. Otasidan yetim qolgach Shayboniyxon va ukasi Mahmud Sulton bilan birga Abulxayrxonning tarbiyasida bo'ladi. Keyinchalik Temuriylardan bo'lgan Turkiston hokimi Muhammad Mirzo tarxon homiyligida bir qancha vaqt Turkistonda istiqomat qilishdi. Keyinchalik Shayboniyxon ukasi bilan birga Buxoroga bordilar va Temuriy Sulton Ahmad Mirzo panohida o'sha yerda ilm o'rgandilar. XV asrning 90-yillarida Shayboniy Dashti Qipchoqqa qaytib bordi va siyosiy kurashlarga qo'shilib ketdi. U bir necha yil davomida kurash olib bordi va Toshkentdagi hukmdori yordamida Dashti Qipchoqda mustahkam o'rinish oldi. Keyinchalik, Sig'noq, Yassini ham qo'lga kiritdi. Sulton Ahmad Mirzo vafotidan so'ng, Samarqandga yurish qildi, ammo qo'lga kirita olmadi. Oxir-oqibat 1500-yilda hiyla yo'li bilan Samarqand taxtini egallab oldi. Lekin Samarqand aholisi ham unga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. Samarqand taxtini Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo egalladi. Biroq yosh bo'lgan Bobur Mirzo 1501-yilda Saripul jangida Shayboniydan yuengiladi. Endi Muhammad Shayboniyxon uchun Movarounnahrda qolgan shaharlar darvozasi ochiq edi.

Shayboniyxon 1507 yilda Xurosonni ham bosib oladi va Ismoil I Safaviy bilan siyosiy munosabatga kirishadi.

Shoh Ismoil I Safaviy: Ismoil Safaviy Safaviylar sulolasi vakili bo'lib, uning siyosiy faoliyati XVI asrning dastlabki 10 yilligidan boshlanadi.

Haydarning vafotidan so'ng (1488), hali go'dak bo'lgan Ismoil Ardabilidan G'ilonga ketishga majbur bo'ldi. 1500-yilda Ismoil Qaramanlu, Xinslu, Qipchoq, Shamlu va Afshor qabilalarini o'ziga bo'ysundirdi. U yana Ardabilni Talish va Mug'anga jo'nab ketishi kerak edi, so'ngra Qorabog 'va Kavkazga kirib bordi, uning atrofida gilar soni doimiy ravishda ko'payib bordi. Erzinjonda unga Ustajala, Zulqodir, Afshar, Qajar va Varsay qabilalaridan iborat Siffi otliqlari qo'shildi. U 1501-yilda Oq-Qo'yunlilar yetakchilari Alvandni Sharurda, 1503-yilda Hamadon yaqinida Murodni mag'lub etdi. U 1501-yil iyul oyida Tabrizda Ozarbayjonning

Shohi tojiga sazovor bo'ldi va shialikni davlat dini deb e'lon qildi va Usmoniylarga dushman bo'lib qoldi.¹⁶⁶

Sharqiy onado'li turkmanlari orasida avval Qora Qo'yunlilarga, keyin esa Oq Qo'yunlilar hukmronligiga putur yetkazishni maqsad qilib qo'ygan Safaviylar 1501-yilda Oq Qo'yunlilardan Ozarbayjonni tortib oladilar. Xurosonda Temuriylar hukmronligining zaiflashib borishidan foydalangan Shoh Ismoil sekin asta o'z hokimiyatini mustahkamlashga va uni kengaytirib borishga muvaffaq bo'ldi. Keyingi o'n yillik mobaynida esa butun Eron hududini o'z hokimiyatiga bo'ysundirib, markazlashgan Safaviylar davlatini barpo etdi.

Harbiy jihatdan Ismoilshoh va uning vorislari o'zlarining qo'shnilari – g'arbda Usmoniylar va shimoli-sharqda Shayboniylarning borgan sari kuchayib borishidan xavfsiragan holda ularga qarshi harbiy harakatlarni amalga oshirdilar. Ular Amudaryodagi chegaralarini zo'r-bazo'r ushlab turishardi, Hirot, Mashhad va Saraxs kabi chegaradagi shaharlar bot-bot qo'ldan qo'lga o'tib turardi.

Safaviylarning yanada xavfliroq dushmani XVI asrga келиб, qudratli bo'lib olgan Usmoniylilar edi. Sulton Salim I Yovuz hijriy 920-yil, milodiy 1514-yildagi Chaldironidagi g'alabasi harbiy taktika nuqtai nazaridan ham, harbiy ustunligini namoyish qilish nuqtai nazaridan ham Usmoniylarning juda zo'r zafari bo'lgan edi. (Safaviylar ham negadir Misr Mamluklari kabi to'plardan va o'q otar qurollardan otuvchi yengil qurollardan foydalanishdan tiyinib keldilar). Shundan keyin ko'p o'tmay Kurdiston, Diyorbakr va Bag'dod Usmoniylar qo'lga o'tdi. Ozarbayjonning o'zi ham Usmoniylarning tez-tez hujumlari ostida qola boshladi. Shu sababli ham poytaxt shaharlar tez-tez o'zgartirildi.¹⁶⁷

Safaviylar Eronda o'z siyosiy hokimiyatini mustahkamlash bilan band bo'gan bir davrda Movarounnahr va Xurosonda ham o'ziga xos siyosiy jarayonlar yuz bermoqda edi. Bu davrda mazkur mintaqada Temuriylar hukmronligining inqirozi va Shayboniylar hukmronligining o'rnatilishi bilan bog'liq siyosiy jarayonlar sodir bo'lmoqda edi. Temuriylar, Oqqo'yunlilar sulolalarining inqirozi natijasida Movarounnahr va Xurosonda Shayboniylar, Eronda esa Safaviylar hukmronligi o'rnatilgan edi. Mazkur ikki yangi sulola manfaatlari mintaqalar kesimida to'qnashishi tabiiy hol edi va shunday ham bo'ldi.

Shayboniylar va Safaviylar o'rtasidagi siyosiy munosabatlar Shayboniylarning Xurosonni egallab olganidan so'ng yuzaga keldi desak xato bo'lmaydi. Shuningdek, ba'zi tarixchilar ikki hukmdorning o'rtasidagi ziddiyatlarning asosi ularning turli mazhablarga e'tiqod qilganliklarini ta'kidlaydilar. Biroq, ular o'rtasidagi ziddiyatli

¹⁶⁶ History: Richard Trapper. Black sheep, white sheep and red-heads. A historical sketch of the Shahsavan of Azerbaijan. – Iran. Journal of the British Institute of Persian Studies. London. The British Academy, 1966-T.IV-P-63.

¹⁶⁷ K.E.Bosfort – “Musulmon sulolalari”(yilnomalar shajaralar bo'yicha ma'lumotnoma”) Toshkent. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi “Fan” nashriyoti 2007-yil 127-128-betlar.(electron kitob)

munosabatlarning asosida siyosiy va iqtisodiy omillar ko'proq rol o'ynaygan desak xato bo'lmaydi.

Shayboniyxon va Shoh Ismoil I Safaviy o'rtasidagi munosabatlarda hokimiyatga da'vogarlik masalalari borasida bir qancha yozishmalar bo'lgan. Xususan, mazkur yozishmalarda Shayboniyxon Ismoilni asl taxt egasi emasligini ta'kidlab o'tgan.

O'rganilayotgan davrda Ikki sulola vakillari ham Xuroson uchun kurashmoqda edilar. Shayboniyxon 1507-yildagi Xurosonga qilgan harbiy yurishdan so'ng u erni egallab oldi. Xusayn Boyqaroning farzandi bo'lgan Badi uz-Zamon Mirzo Safaviylar tarafga chekinishga majbur boladi. Xususan, Badi uz-Zamon Mirzo Xurosondan qochib Jurjon viloyatining Domg'om qal'asiga joylashib oladi. Jurjon tomonga Shayboniyxon kelayotganini eshitgan Mirzo o'z o'g'li Muhammad Zamon Mirzoni shu qal'ada qoldirib, Ozarbayjon tarafga, ya'ni Safaviylar tomonga qochadi. Bundan xabar topgan Shayboniyxon zudlik bilan Jurjon viloyati tomon yuradi va Domg'om qal'asiga chopar yuborib quyidagi so'zlarni bitadi. "Domg'om qal'asidan tashqari chiqsalar hamda urush va isyonni tark etsalar, jon va tangalariga hech nuqson yetkazmayman, aksincha, ul ikki sohib soadat shahzodani cheksiz lutflarimga sazovor qilaman" degan va'dalarni beradi.

Jurjon mamlakati va unga qarashli muzofotlar Muhammad Shayboniyga nasib etgach, uning yurt oluvchi bayrog'i ko'tarilib, Bastom va Domg'om viloyatidan to Turkistonning chekka shahar va tumanlarigacha shu xonning tasarrufi ostiga kirdi.¹⁶⁸ Muhammad Shayboniyxon Damg'omni egallagach, endi Dashti Qipchoqqa ham yurish qilishni rejalashtirdi. Bu paytda Dashti Qipchoqning bazi hududlarida Qosim Sulton hukmdor edi. Tarixchi Xondamirning bergan ma'lumotiga ko'ra, Dashti Qipchoq yurishi 1510-yil bahor fasliga to'g'ri keladi. Lekin bu yurishda Shayboniyning omadi yurishmaydi. Dushmandan yengilib ortga qaytishda majbur bo'ladi.¹⁶⁹ Endi Shayboniyxon uchun faqat oldinga ya'ni Xuroson tarafga yo'l qoladi. Chunki o'zi tug'ilib o'sgan Dashti Qipchoqda unga joy yo'q edi. Lekin Xuroson hududiga Ismoil Safaviy ham da'vo qilayotgan edi. Bu esa Shaybonini y3 qo'shini bilan Xuroson hududiga o'tishini tezlashtirdi. Shuningdek, xonning Dashti Qipchoqdagi mag'lubiyati natijasida o'z sulolasi vakillari ichidan ham uning amirni bajarishda sustkashlik qilishga urinuvchilar, mustaqil siyosat yuritishga intiluvchilar ham chiqa boshladi. Zero, Shayboniy o'z qavmdoshlari kuchiga tayanmagan xolda Shoh Ismoyil tajavvuzini bartaraf etishga va shu orqali o'z sarxandalariga ularsiz ham g'alaba qozona olishini ko'rsatishni maqsad qilib qo'yadi. Shoh Ismoilning Xurosan hududiga yaqinlashib kelayotganini eshitgan

¹⁶⁸ G'iyosiddin Humomiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar: Fors tilidan tarjima, muqaddima mualliflari: Jalil Hazratqulov, Ismoil Bekjonov. Izohlar mualliflari: Ashraf Ahmedov, Ismoil Bekjonov. Ma'sul muharrir: T.f.n Ashraf Ahmedov. Maxsus muharrir: f.f.n Vahob Rahmonov Toshkent "O'zbekiston" 2013. B.– 1169.

¹⁶⁹ O'sha asar. –B. 1170.

Muhammad Shayboniyxon hijriy 916-yilda (milodiy 1510-yil 18-noyabrda) Hirot shahriga katta tezlik bilan yetib keladi.¹⁷⁰ Xon bir necha kunni Jahonoro Bog'ida o'tkazadi. Shundan so'ng Marv qal'asi tomon yuradi. Chunki u Shoh Ismoil bilan shu yerda uchrashishni rejalashtirgan edi. Ikki hukmdor o'rtasidagi elchilik almashinuvida Shayx Muhiddin Ahmad va qozi Ziyovuddin Nurolloh kabi vakillar ishtirok etganlar.¹⁷¹ Shuni ham ta'kidlash joizki, Shoh Ismoil Safaviy hiyla ishlatib, Xurosondagi ayrim qal'a hukmdorlarini o'z tarafiga og'dirib ola boshlaydi. Ba'zi amirlar esa Shoh Ismoilga harbiy jihatdan kuchi yetmaskigiga ko'zi yetib, chekinishga majbur bo'ladilar. Bular orasida Domg'on qal'asi qo'mondoni Shayboniyxonni kuyovi Ahmad Sulton ham bor edi. Shoh Ismoilning kelayotganini eshitib, y xam Hirotga qarab qochdi. Qal'a esa o'z holicha qoldiriladi. Astrabod hokimi Xoja Ahmad Qo'ng'iro't ham shaharni tashlab, Zardahok dovoni orqali o'tib, Yozir va Durun tomon ketid va u yerdan Xorazmga qarab ot soladi. Jurjonning Sayyid Rofe va Bobo Nazar kabi arboblari ham Shoh Ismoil Safaviy kelayotganidan xabar topib, unga peshvoz chiqadilar va taslim bo'ladilar.

Tarixchi Xondamir o'zining "Habib us-siyar" asarida mazkur davrdagi voqealarni suyidagicha tasvirlaydi: "Bu paytda Ismoil Safaviy Mahshad sari yuzlanib, u yerdagi Imom Rizo hazratlarini maqbarasini ziyat qilish bilan band edi.... Bu ziyoratni tamomlagach sekingina qo'shini bilan Saraxs sari yuzlandi". Shoh Ismoilning askarlarini kelayotganidan xabar topgan Shayboniyxon JanvoIfiy Mirzo va Qanbariylar boshliq askarlarini oldinga yubordi va Tohirobod qishlog'i yonida, ular o'rtasida to'qnashuv yuz berdi. To'qnashuvda SHoh Ismoil zafar quchadi. Shayboniyxon esa Marv qal'asi ichiga tomon harakat qilib, qal'ada joylashib mudofaa taktikasini qo'llashga kirishadi. Bu paytda kuz fasli oxirlab, qish yaqinlashayotgan edi. Qish faslida urush olib borish Ismoil uchun qiyinroq edi. Shu sababli Shoh Ismoil Shaybonixon bilan bo'lib o'tadigan hal qiluvchi jangga tayyorgarlik ko'rib, Marv shahriga yetib keladi va u ytrni qamal qiladi. Ikki ortada kichik-kichik to'qnashuvlar bo'lib o'tadi.

Qaladorlik qilayotgan Shayboniyxonni yordam kuchlari yetib kelmasdan avval u yerdan chiqarish maqsadida bo'lgan Soh Ismoil xila yo'liga o'tadi. U xon huzuriga o'z elchisini yuboradi. Xondamirning ma'lumotiga ko'ra, Shoh Ismoil Safaviy Marv ichida bo'lgan Shayboniyxonga quyidagi maktubni yetkazadi: "Bir ko'ch masofaga orqaga chekinamiz, tokim bu chekinishimizni Muhammadxon Shayboniy nusrat oyatli mavkabning qochganiga yo'ysin va ketimizdan quvlashga jazm qilib, jur'at qadami bilan Marvdan chiqsin. O'shanda fathu zafar jilovini hasadchi g'anim va yog'iy dushman tomonga buramiz va qilichu nayza zarbi bilan qilmishiga yarasha jazosini topdiramiz".

¹⁷⁰ O'sha asar, o'sha bet.

¹⁷¹ O'sha asar. -B. 1194.

Shu bilan birga Shoh Ismoil tomonidan maktublarda avvaliga Shayboniyxon Ajam Iroqqa va Ozarbaydjonga yuzlanishi haqida ma'lum qilinganligi, biroq, buni uddasidan chiqolmagani, u esa (Shoh Ismoyil) Mashhadni ziyorat etajagi haqida yozganini eslatib, bu shaharni ziyorat etishga muvaffaq bo'lgani, endilikda Shayboniyxon bilan muloqot qilish uchun Marv tashqarisiga kelganligini, lekin bu yerda ham xon bilan muloqot qilish nasib etmaganligini va u o'z yurtiga qaytib ketayotganligini kinoyali tarzda bayon etadi.¹⁷²

Shoh Ismoilning bundan ko'zlagan asosiy maqsadi Shayboniyxonni Marv qal'asidan tashqariga chiqarish edi. Shuningdek, Shoh Ismoil Safaviy Shayboniyxonni tezroq qal'adan chiqarish maqsadida yana bir tadbirni amalga oshiradi. Safaviy qo'shinlari saflarini buzib, yolg'ondan chekinaётгандай ko'ringan holda orqaga keta boshlaydi. Buni ko'rgan Muhammad Shayboniyxon esa, yuqoridagi maktub mazmuniga ko'ra Shoh Ismoyil o'z yurtiga ketmoqda degan hayol bilan bunday vaziytdan foydalanib qolishga, shu bilan birga o'z qondoshlaridan ba'zilarining ko'magisiz ham dushmanni mag'lub etishga qodir ekanligini ko'rsatib qo'yish tuyg'usi g'olib bo'lib, g'anim ustiga qo'qqisidan hujum qilish payiga tushadi. Biroq, Shoh Ismoyilning hiylasi qurboniga aylanishi hayoliga ham kelmaydi. O'z askarlari bilan qal'adan chiqib dushmani quvmoqchi bo'lgan xon dushman qurshoviga tushib qoladi. Bu voqea ro'y beradi. Shoh Ismoilning rejasiga ko'ra, Amirbek Shayboniyklar qo'shinini ko'rgach, o'z askarlari bilan to'xtamay qochishi kerak edi. Shunday ham bo'ldi. Qal'adan chiqqan Shayboniyxon, Amirbek askarilarining ketidan quvadi. Bu paytda rejaga ko'ra Amirbek Shayboniyxonni Mahmudiy qishlog'i sari olib keladi. Mazkur qishloqda Shoh Ismoil Safaviyning shaxsan o'zi qo'shini bilan turar edi. Ayni mana shu yerda ikki raqib o'rtasida xal qiluvchi jang bo'lib o'tdi. Jang Shoh Ismoyilning g'alabasi bilan tugadi. Jang maydonidan qochib chiqqan Shayboniyxon ham, o'qlarning yomg'iri ostida qolgan uning qo'shini ham yo'q qilindi, tirik qolganlari ham dushman qo'li bilan o'ldirildi. Urushdan so'ng Shayboniyxonning ham jasadini bog'ning ichidan topib chiqildi. Hatto jasadning ustida ham bir necha jasadlar bor edi.¹⁷³

Birgina oddiy hiyla qurboni bo'lgan Muhammad Shayboniyxon va u tuzgan davlat tahlikali vaziyatda qoldi.

¹⁷² O'sha asar. –B. 1200.

¹⁷³ O'sha asar. –B. 1204.

XIVA XONLIGINING RAQOBAT MAYDONIGA AYLANISHI

Shaymanov Umidjon Komil o'g'li -

“Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari” mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: **PhD Madraimov A.A.**

Davlatlarning shakllanish va rivojlanish jarayoni xalqaro munosabatlarning paydo bo'lishi va evolyutsiyasiga bog'liq ravishda takomillashib bordi. Xalqaro elchilik munosabatlari o'z taraqqiyotida bir necha bosqichlarni bosib o'tgani ma'lum. Qadim asoslarga ega bo'lgan turkiy davlatchiligimiz tarixida ham elchilik munosabatlari o'ziga xos rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan. Xususan, xorijiy elchilarni qabul qilish marosimi asrlar davomida takomillashib borgan. Elchilarni qabul qilishda o'sha tarixiy sharoitda mavjud siyosiy vaziyat, ikki tamonlama munosabatlarning holati va o'zaro manfaatdorlik masalalari ham hisobga olingan.

Elchilik munosabatlari turli mamlakatlar o'rtasidagi siyosiy muloqatda katta o'rin tutganligiga ham e'tibor qaratish lozim. Elchilik missiyalarining vazifalariga to'xtalganda muhim bir jihatga qisqacha to'xtalib o'tish lozim. Chunki xalqaro diplomatik aloqalarning shakllanishi va kuchayib borishi elchilik missiyasi a'zolari oldiga katta vazifalar qo'ya boshladi. Elchilar va elchilik missiyasi a'zolari - nozik psixolog va kuzatuvchi, geograf, etnograf, tarixchi-publitsist va mohir qalamkash-ijodkor hislatlariga ega bo'lishi talab etilgan. Elchilik missiyalari faoliyatida yana bir muhim jihat borki, bu elchilarning faoliyatini jasuslik ma'lumotlarini yig'ishga yo'naltirilishidir. Elchilardan ular borgan mamlakatda nafaqat saroy hayoti, hukmdor doiralar va ularning rejalari to'g'risida, balki o'sha mamlakatning xalqi, siyosiy tuzumi, iqtisodiy va harbiy qudrati, shaharlari, xo'jalik turlari, aloqa-kommunikatsiya tizimi va qimmatli ma'lumotlarni yig'ish talab etila boshlangan.

Asrlar davomida bir butun bo'lib kelgan mamlakatning bir iqtisodiy va ma'naviy-madaniy makonda yashab kelgan aholining uch xonlikka bo'linib ketishi, xonliklar o'rtasida tinimsiz davom etgan qarama-qarshiliklar, urushlar mamlakatni umumbashariy taraqqiyot jarayonidan uzilib, rivojlanishda orqada qolishga mahkum etdi. Xiva xonligi nega qudratli davlatlar zulm tig'i qaratilgan nuqtaga qanday omillar sabab bo'ldi? Tashqi omillardagi o'zaro manfaatdorlikmi yo boshqa sabab bor edimi?

Biz tadqiqotimizda ko'rib chiqilayotgan davrda, ya'ni XVI asr o'rtalaridan boshlab Buxoro va Xiva xonliklarining Moskva knyazligi bilan elchilik aloqalari shakllana boshlangach, O'rta Osiyoga tashrif buyurgan rus

elchilik missiyalari a'zolariga yuqorida aytilgan barcha vazifalar topshirilganligiga shubha yo'q. Bu rus diplomatiyasi tarixi bilan shug'ullangan tadqiqotchilar asarlarida ham ko'rsatib o'tilgan¹⁷⁴. XVI asr o'rtalarida Buxoro, Balx va Urganchdan Moskvaga yuborilgan elchilik missiyalari¹⁷⁵, xususan, Ivan IV Grozniy tomonidan Xiva va Buxoroga jo'natilgan Antoni Jenkinson boshchiligidagi rus elchilari¹⁷⁶ faoliyatida ham ko'rish mumkin. Ayniqsa, XVII asrdan boshlab, rus elchilari faoliyatida bu jihatga katta e'tibor berilib, rus hukmron doiralarida o'zbek xonliklari, xususan Xiva xonligi haqida ma'lumotlari ko'payib bordi. Masalan, 1858-yilda Xiva va Buxoroga jo'natilgan Ignatev boshchiligidagi rus elchilik missiyasi oldiga Orol dengizi va Amudaryo suv yo'lidan rus kemalari foydalanishi uchun imkoniyat yaratish masalasini hal qilish yuklatilgan bo'lib¹⁷⁷, bu bilan Pyotr I davrida amalga oshmay qolgan vazifani bajarish ko'zda tutilgan edi.

O'zbek xonliklariga jo'natilayotgan elchilar Moskvadan jo'nash oldidan "ishonch yorlig'i", ya'ni elchining shaxsini va elchilik vazifasini bajarishga vakil qilinganligini tasdiqlovchi hujjatni hamda elchining va elchilik missiyasining vazifasi batafsil bayon etilgan "Yo'riqnoma" olar edilar. Bu yo'riqnomada, shuningdek, elchiga chet mamlakatda turli vaziyatlarda: yo'lda, muzokaralar paytida, qabul paytida, bazmlarda va boshqa vaqtda o'zini tutish, o'z podshosining obro'yini to'kmaslik haqida ko'rsatma berilgan¹⁷⁸.

XVIII asrdan boshlab Rossiyadan O'rta Osiyoga kelgan har bir kishiga, u elchilik missiyasi a'zosi bo'lmasa ham, hukumat idoralaridan maxsus ko'rsatmalar va yo'riqnomalar olar, ularga kommunikatsiya yo'llari, shaharlar va boshqa jihatlariga e'tibor qaratish kerakligi ta'kidlangan¹⁷⁹. 1740-yilda Xivaga kelgan Orenburg dragun polkining poruchigi Dmitriy Gladishevning yozishicha, "Xonning o'tovida Orol beklari va uning amaldorlari o'tirgan edi. Xon eng hurmatli joyda o'tovning to'rida, uning ikki tomonida qirgqa yaqin Xiva zadogonlari o'tirardilar"¹⁸⁰.

Xiva xonlarining bu davrda davlat tizimida islohotlar o'tkazish, o'z hududlarini harbiy yo'llar bilan qo'shnilar yerlari hisobidan kengaytirishga

¹⁷⁴ Лошков В. О древней русской дипломатии. –М. 1957.

¹⁷⁵ Юлдашев М.К. К истории торговых и посольских связей Средней Азии с Россией в XVI-XVII вв.-Ташкент, Фан, 1964. –С.21.

¹⁷⁶ Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию. 1558-1560 гг. // В кн: Английские путешественники в Московском государстве в XVI в. / Перевод с английского Ю.В. Готье. – Л.: Полиграфкнига, 1937. –С. 167- 192.

¹⁷⁷ Игнатъев Поездка в Хиву и Бухару. – СПб, 1860.

¹⁷⁸ Мухаммаджонов А.Р., Неъматов Т.Н. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. – Т.: 1957. –Б.200-203.

¹⁷⁹ Юлдошев М.Ю. К истории торговых и посольских связей. – Т.: Фан, 1964. –С.24.

¹⁸⁰ Соловьев М.М. Ученая экспедиция в Бухару в 1841-1842 гг. при участие натуралиста А. Лемана. – М.–Л.: 1939. –С.16-18.

urinishi va asir olinganlar hisobidan ham mamlakat aholisi etnik tarkibini oshirish yo'li orqali iqtisodni ko'tarish kabi rejalarni amalga oshirayotgani hamda Rossiya va Angliya mamlakatlarining O'rta Osiyo davlatlari va Eronning shimoliy-sharqiy hududlarini siyosiy raqobat maydoniga aylantirishni jadal sur'atlar bilan boshlab yuborgani mintaqada, jumladan, Xiva xonligida diplomatik aloqalarning kuchayishi, yevropalik mutaxassis-harbiylarning siyosiy maqsadlarda kelishining faollashuviga olib keldi.

Xiva xonligi qo'shni Eronning Xurosondagi Saraxs, Mazduron, Daragaz, Mashhad, Nishopur va Mozondorondagi Astrobod kabi shahar va tumanlari doimiy ravishda xivaliklar bosqin-chopqiniga uchrab, aholining asir olib ketilishi va eronliklar tomonidan ham shu kabi javob hujumlari uyushtirib turilishi hamda Kavkazdagi rus-eron urushlarida yengilgan qojorlar davlatining shimoliy-sharqiy hududiga ham ruslar ko'z tika boshlagani, ayniqsa, ruslarning mintaqadagi Angliyaga qarshilik siyosati orqasida O'rta Osiyo yerlariga hujum uyushtirishni ko'zlayotgani Eronni Xiva davlati bilan mustahkam siyosiy munosabatlarni o'rnatib, yaxshi qo'shnichilikni yo'lga qo'yish va birgalikda har ikkala davlat uchun o'ta yomon oqibatga ega g'arbdan bo'ladigan mustamlakachilik bosqinlari oldini olish choralari izlash, eronlik qullarni ozod qilish va qul savdosiga barham berishga erishish kabi masalalarni yechish maqsadida diplomatik aloqalarni amalga oshirishga majbur qildi. Chunki, qojorlar davlati dastlab siyosiy Xiva bilan ana shunday choralarni izlash o'rniga, xivaliklar hujumlari borasida yordam so'rab Rossiya va Angliyaga murojaat qiladilar. Xuddi shuni kutib turgan har ikkala davlat darhol bunday yordamga turli usullar bilan hozir ekanini bildiradilar.

Masalan, 1839-yilda rus davlatining Erondagi elchilari Eron rasmiy Nota bilan javob qaytarib, xivaliklar bunday hamlalarni Kaspiybo'yidagi rus harbiy istehkomi 1833-yilda qurilgan Novo-Aleksandrovsk qal'asiga ham uyushtirayotgani, shu sababli ham Xiva xonligiga tanbeh berish maqsadida Rossiya imperiyasining urush harakatlarini boshlashga tayyor ekanini bildiradi. Unda aytilishicha, ruslar Kaspiy dengizdan va quruqlikdan yurish boshlab, tez fursat ichida Xiva davlatiga barham berilishi ko'zda tutilgan. Qojor davlati elchichilarining yordam so'rab qilgan murojaati oqibatda ittifoqchining o'zlariga dushman bo'lib chiqqanidan xavfsirab, darhol bunday hamkorlikdan bosh tortishadi va masalani ikkala musulmon davlati o'zlari hal qilishini rasman e'lon qilishadi va shu maqsadda 1832-yili Xivaga yuborilgan eronlik elchi

Yalangto'shxon, 1837-yili Nodir Mirzo bu masalani muvaffaqiyat bilan hal qilib qaytganini aytish mumkin¹⁸¹.

Ammo bunday qulay imkoniyat buyuk davlatlar uchun oddiy bahona shaklida talqin etildi. Bundan tashqari XIX asrning birinchi yarmida O'zbek xonliklari o'rtasidagi uzoq muddatli o'zaro nizolar ularni zaiflashuviga, buyuk davlatlar o'rtasida raqobat maydoniga aylanishiga olib keldi. Xususan bu imkoniyatdan shimoldan Rossiya imperiyasi, janubdan esa Buyuk Britaniya imperiyasi foydalanib qolmoqchi bo'ldi. XIX asming birinchi yarmida Buyuk Britaniya va Rossiya davlatlan o'rtasida Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari hududlari uchun raqobatchilik kuchayib, keskinlashib ketdi. Raqobatchilikning kuchayishiga quyidagilar sabab bo'ldi:

a) Buyuk Britaniya va Rossiyaning Markaziy Osiyo hisobiga yangi mustamlakalarga ega bo'lish yo'lidagi urinishlari;

b) o'z mollarini sotish va undan mo'may daromad olish uchun Markaziy Osiyo bozorlarini egallash istagi;

d) Markaziy Osiyoning boy xomashyo manbalariga ega bo'lishga intilishlari

Bu munosabat avvalo Xiva xonligi va Buxoro amirligiga qiziqish bilan boshlandi. Rossiya imperatori Pyotr I Xiva xonligi hududiga bir necha marta elchi yubordi, xususan 1715-yilda Ivan Buxgols rahbarligida, 1716-1717-yillarda Aleksandr Bekovich Cherkasskiy rahbarligidagi ekspeditsiya mag'lubiyatga uchratildi¹⁸².

Buyuk Britaniya esa bu vaqtda Hindiston va Afg'oniston orqali O'zbek xonliklari bilan diplomatik aloqa qilayotgan bo'lsa-da Rossiyaning Turkistonni bosib olishidan xavotirda edi. Angliya hukumati barcha choralar bilan Rossiyaning rejalarini barbod qilishga harakat qildi. Angliya hukmron doiralari Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarini Rossiyaga qarshi ittifoqqa birlashtirish uchun urindi. Shu munosabat bilan 1841-1842- yillarda Xiva xonligiga Angliya hukumati mayori Konolli, Jeyms Ebbot, Charlz Stoddart va Richard Shekspir missiyalari yuborildi. Bu esa Rossiya hukmron doiralarning xonliklarga e'lon qilinmagan urush boshlash uchun bahona bo'ldi¹⁸³.

¹⁸¹ Мухаммад Алихон Ғофур. Хоразм сафари кундалиги (Мухаммадшоҳ Қожор ва Оллохқулихон ўртасидаги дипломатик алоқалар тарихидан. 1842 йил) / Форс тилидан И. Бекжонов таржимаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2009. –Б.13–52.

¹⁸² Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova O'zbekiston tarixi Darslik O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2006 –B.218-220.

¹⁸³ Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova O'zbekiston tarixi Darslik O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2006 –B.218-220.

Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, Xonliklarning asrlar davomida o'zgarmay kelayotgan davlat idora usuli taraqqiyotga g'ov bo'lib qolgan edi. O'zbek xonliklarining jahon taraqqiyotidan orqada qolishining oqibati yomon bo'ldi. Iqtisodiy qoloqlik va harbiy nochorlik, ijtimoiy-siyosiy beqarorlik Markaziy Osiyoni o'z tasarrufiga kiritib olishga intilayotgan davlatlarga qo'l keldi. Haqiqatan ham shunday bo'ldi-ki, xonliklardagi o'zaro nizo va urushlar, parokandalik, oxir-oqibat, ularning Rossiya imperiyasi tomonidan istilo etilishi uchun qulay imkoniyat yaratdi.

IDENTIKLIK VA MILLIY XARAKTER

Shosaidov Anvar Soatovich -
“Etnografiya, etnologiya va antropologiya”
mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Milliy o'ziga xoslik bu davlat yoki millat jamoasiga mansublik hissi. U madaniyat, til, etnik kelib chiqish, din yoki ushbu jamoaning o'ziga xos an'analari bilan bog'liq bo'lgan jihatlar to'plamiga asoslangan.

Etnik identiklik-bu psixologik kategoriya bo'lib, shaxsning o'ziga xosligi ma'lum bir etnik jamoaga tegishli ekanligini tan olishini anglatadi. Polietnik muhitda rivojlanish natijasida quyidagi etnik identiklik turlari vujudga kelishi mumkin:

- Monoetnik, shaxs o'zini ma'lum bir etnik jamoaga mansubligini aniq anglab yetsa;

- Bietniklik, shaxs bir vaqtning o'zida ikki etnik guruhga mansubligini anglashi tushuniladi, bunday turdagi identiklikning paydo bo'lishining asosiy sababi milliy yoki irqiy mazmundagi aralsh nikohlardir;

- Marginal etnik, shaxs o'zini aniq qaysi etnik guruhga mansubligini anglay olmaydi.

“Men kimman” etnik identiklik shakllanayotganda yuzaga keladi. Ko'p hollarda bunga ozchilik guruhi a'zolari duch kelishadi. Bolaning qaysidir etnik guruhga milliy mansubligi rivojlanishi konsepsiyasini birinchilardan bo'lib J.Piaje (1896-1980) taklif qilgan. Etnik identiklik shakllanishi jarayoni bolaning psixologik rivojlanishi bosqichlari bilan bog'liq bo'lgan bosqichlardan o'tadi. J.Piaje etnik identiklik shakllanishining uchta bosqichini ajratib ko'rsatadi:

1) 6-7 yoshda bola etnik mansubligining ilk tizimiga ega bo'lmagan va parchalangan bilimlarni o'zlashtiradi. Uning uchun bu yoshda mamlakat, etnik guruh ahamiyatsiz, oila bevosita ijtimoiy atrof-muhitdagilar ko'proq ahamiyatga egadir;

2) 8-9 yoshda bola o'z etnik guruhiga mansubligini aniq ifodalaydi, mansublikda ota-onaning millati, yashash joyi, ona tilini asos qiladi. Unda milliy his tuyg'ular shakllanadi;

3) Kichik o'smirlik davrida (10-11 yosh) etnik identiklik to'liq shakllanadi, bola turli xalqlar xususiyatlari sifatida tarixning mukammaligini, an'anaviy kundalik madaniyatining o'ziga xosligini takidlab ko'rsatadi.

Etnik identiklikning o'sish finomeni deganda, shaxsning o'z etnik ildiziga qiziqishining kuchayishi tushuniladi. Mazkur holat turlicha o'zini namayon qiladi. Masalan, eski urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi, milliy liboslarning qayta jonlanishiga urinish, o'z milliy holatini qayta tiklash istagi. Etnik identiklik (milliy mansublik) shaxs bilan jamoa orasidagi o'zaro munosabatlar mahsuli hisoblanadi. Shaxsiy darajadagi etnik identiklikning inqirozi quydagi belgilarda kuzatiladi:

- O'z etnik mansublikni idrok qilish va bog'liqligining yo'qolishi;
- Ma'lum etnik guruhga mansub, millat bilan bog'liq bo'lgan salbiy tuyg'ularning paydo bo'lishi, masalan uyat, xafagarchilik, tahqirlash va h.
- Shaxsning fuqorolik tegishlilikdan qoniqmasligi;
- Shaxsning etnik identikligining sifatida o'ta salbiy yoki aksincha o'ta ijobiy himoya mexanizimining rivojlanishi;
- Boshqa etnik guruhlariga nisbatan tolerantligining pastligi yoki umuman yo'qligi;
- Vatan tuyg'usining, hayot mazmunining yo'qolishi, dipressiyaga olib kelivchi tushkunlik holatlarining paydo bo'lishi.

“Xarakter” so'zi yunonchadan olingan bo'lib “pechat”, “chekanka” degan ma'nolarni anglatadi. O'zbek tilining izohli lug'atida xarakter quydagicha tariflanadi: Xarakter inson xulqi yoki alohida namayon bo'ladigan va unda odat tusiga kirib qolgan eng muhim ruhiy holatlar majmui, fe'l-atvor Psixologik jihatdan xarakter shaxsning faoliyati va muloqotida namoyon bo'ladigan barqaror individual xususiyatlar yig'indisidir. Xarakter insonning atrof-muhitga munosabati tizimida ko'zga tashlanib turadi: boshqa kishilarga munosabat samimiylik yoki nosamimiylik, haqqoniylik yoki soxtalik ishga munosabati mas'uliyatliqlik, mehnatsevarlik yoki dangasalik o'ziga munosabat-kamtarlik yoki hudbinlik; mulkka munosabat-sahiylik yoki ochko'zlik, tejamkorlik yoki isrofgarchilik va h.k. ko'rinadi.

Inson ruhiyati faqat uni o'rab turgan tashqi muhit shroitlariga moslashib va uning xususiyatlarini aks ettirib qolmaydi, balki doimiy taraqqiy etuvchi ijtimoiy hodisalarning o'zgarib turishiga ham moslashib turadi.

Etnopsixologiya fanining tadqiqot obyekti xalq va elatdir. Bu fan xalqlarning psixologik xususiyatlarini, o'zaro o'xshashligi, tofadvutlari ijtimoiy

va oilaviy turmushi, milliy ta'bi va g'ururi, milliy o'z-o'zini anglashi, milliy madaniyati, his-tuyg'ulari shuningdek, millat xarakterini ham o'rganadi.

Milliy xarakter milliy qiyofaning ajralmas bir qismi. Jahonda birorta sof milliy etnik bo'lmaganidek, xarakteri bir xil bo'lgan ikki millat ham yo'q. Milliy xarakterda xalqning "Muloqot xulqi" aks etadi, milliy xarakterni o'rganmay turib, mutloqo muloqot hulqini o'rganib bo'lmaydi. Milliy xarakter daganda ma'lum ijtimoiy guruh (millat) o'rtasida asrlar mobaynida avloddan-avlodga o'tib kelgan o'ziga xosliklar majmui tushuniladi. Milliy xarakterga mazkur milar aholisi sig'inadigan din atrof-muhit va ijtimoiy turmush tarsi jiddiy ta'sir ko'rsatadi va bu ta'sir o'z-o'zidan muloqot xulqida namayon bo'ladi.

Milliy xarakter avvalo oilada shakillanib keyinchalik ibrat namunalari orqali mustahkamlanib, takomillashib boradi. Oila o'zining urf-odatlarini, an'ana va qadriyatlarini bilan o'z a'zolariga ta'sir etib boradi. Bola dunyoga kelib, ilk bor ko'rgan kishilari ota-onasi, yaqinlari bo'ladi. Ularning mehr-muhabbatlarini bola chaqaloqligidan his qila boshlaydi. Bola uchun ota-ona mehribon g'amxo'r siymo hisoblanadi.

Milliy xarakter obyekt sifatida qiyin, ammo lekin o'rganish mumkin bo'lgan ijtimoiy tarixiy xodisadir. U milliy psixologik qiyofaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Milliy xarakter milliy hayotdagi tarixiy kategoriya bo'lib uni o'rganish tushuntirib berish shu millat hayotini, tarixini, tili va madaniyatini yaxshi bilishi zarur.

IDENTIKLIK VA UNING ETNOLOGIYA FANIDAGI AHAMIYATI

Isaqov Rustamjon -

"Etnografiya, etnologiya va antropologiya"
mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: **PhD Askarov M.**

Biz yashab turgan jamiyat shitob bilan rivojlanib bormoqda. Unda yangi fan, yangi atamalar shakllanmoqda shunday tushunchalardan biri identiklikdir. Identiklik atamasining lug'aviy ma'nosi lotincha "idem" -"xuddi o'zi" deganidir. Bu atama fanga XX asrning 40-50-yillarda amerikalik psixoanalitik mutaxassis Erik Homburger Erikson (1902-1994) tomonidan olib kirilgan. Hozirgi kungacha ushbu atamaning aniq ta'rifi mavjud emas. Identiklikning ko'plab ko'rinishlari va ta'rifiga turli xil yondashuvlar mavjud. Antropologik va etnologik atama va tushunchalar lug'atida ushbu atamaning 40 dan ortiq ta'rifi keltirilgan. Tushunchalarning ko'pligi bu sohaga qiziqishni ortib borishi hamda turli soha vakillarining o'z qarashlarini ifodalashi bilan bog'liqdir. Shu o'rinda bir savol tug'iladi "Identiklikning ijtimoiy o'zgarishlarga qanday aloqasi bor,

ular saqlanib qoladimi yoki yo‘q bo‘lib ketadimi?" Ba‘zi olimlarning fikriga ko‘ra, milliy o‘ziga xoslik ma‘lum bir xalqning ruhi, kelib chiqishi, odamlar bilan birgalikda shakllanadi va o‘zgaradi. Ushbu yondashuv ibtidoiy (lotincha primordialis - asl, tug‘ma) deb nomlanadi. Boshqa, konstruktivistik yondashuv o‘ziga xosliklarning “tezligi” va “ko‘pligi”, u yoki bu subyektga kerak bo‘lganda identifikatorlarni yaratish va o‘zgartirish qobiliyatidan kelib chiqadi.

Odamning identikligini aniqlashning eng sodda ta‘rifi - bu ma‘lum bir holatda bu odam o‘zini “o‘z o‘rnida” his qilishi. Bunday holat mutlaqo barqaror va to‘liq bo‘lishi mumkin emas. Dunyo ham, inson ham o‘zgarib bormoqda, demak o‘zini va dunyoni anglash ham o‘zgaradi. Ayniqsa, bu muammo bolalar va yoshlar uchun og‘riqlidir. Hayot ijtimoiy jihatdan o‘zgarib, ular “identifikatsiya inqirozi” ni boshdan kechirmoqdalar, ya‘ni rivojlanishning tanish belgilarini yo‘qotadilar va azob bilan izlaydilar, kattalar davriga o‘tadilar, bu termin muallifi psixolog E.Eriksonning so‘zlariga ko‘ra "bolalik dunyosi g‘oyaviy olam bilan almashtiriladi". Shu munosabat bilan Erik Homburger Erikson (1902-1994) hayoti juda qiziqarlidir. U bolaligidanoq “ko‘p kishilik” holatini boshdan kechirdi. Danyalik otasi Erik hali go‘dakligida Erikning onasini, yahudiy ayolni tashlab ketgan. Bola Germaniyadagi yahudiy oilasida o‘sgan, ikki kishilik ismga ega edi: Erikson - biologik ota va Homburger - o‘gay otasidir. Olimni uyda “Skandinaviya”, nemis maktabida esa “yahudiy” deb atashgan.

Erikson identiklikning quyidagi o‘lchovlarini ajratib ko‘rsatadi:

1) shaxs yoki ijtimoiy guruh tomonidan uning boshqa odamlar (guruhlar) bilan tengligini (tengsizligini) baholash;

2) odam (guruh) tomonidan uning tengligini (tengsizlikni) boshqa odamlar (ahamiyatli boshqalar) qanday qabul qilishini baholash;

3) uning tarjimayi holi yaxlitligini (yirtilmagan), ya‘ni xotirani saqlash tuyg‘usi. Ushbu o‘lchovlar odamning ishonchni o‘rnatish va butun jamiyat bayoni tarkibiga kiradigan o‘z hikoyasini (hayotiy hikoya) yaratish talablarini aks ettiradi.

Odamlar o‘zlarining hikoyalarini yo‘qotganda o‘zlarining shaxsiy xususiyatlarini yo‘qotadilar va shu bilan birga - ularning ismi, aloqalari, do‘stlari, oilasi, vatanini ham yo‘qotadilar. Bu mashhur “Bourne Identity” filmida ham bor, u yerda qahramon o‘z hayotining xotirasini tiklay olmaydi, chunki u maxfiy xizmatlar tomonidan “o‘chirilgan”. Xuddi shunday holat ham butun bir mamlakatda, ba‘zi kuchlar odamlarning tarixiy xotirasini “o‘chirishga” harakat qilganda sodir bo‘ladi. Shunday qilib, odamlarning bir qismi bitta xotirani hurmat qiladi, boshqasi esa butunlay boshqacha bo‘lib, bu fuqarolar urushiga olib keladi, bunday jarayon 2014-yilda Ukrainada sodir bo‘lgan.

Mafkura mafkurachilar va siyosiy strateglar taʼsirida, lekin koʻp jihatdan bu odamlar madaniyatiga bogʻliq. Buni qabul qiluvchi jamoaning oʻziga xosligini “sinab koʻradigan” immigrantlarning tajribasi tasdiqlaydi, bu ularning tugʻma shaxsiyatidan sezilarli farq qiladi, chunki yuboruvchi va qabul qiluvchi mamlakatlarning hududi, tabiati, turmush tarzi, tili, madaniyati, iqtisodiyoti ham boshqacha boʻladi. Odam eskicha shaxsiyati bilan qancha uzoq yashagan boʻlsa, yangisini qabul qilish shunchalik qiyin boʻladi. Immigrantlar psixologik bezovtalikni boshdan kechirmasdan, qabul qiluvchi davlatning fuqarosi boʻlishga qodir emaslar. Koʻpincha, muhojir "ikki kishilik identifikatori" ga ega boʻladi: jamoat sohasida u oʻzini yangi olingan identifikatsiyaga muvofiq olib boradi va uyda – tugʻilganidan kelib chiqqan holda (ona tilida gapiradi, anʼanaviy taomlarni isteʼmol qiladi, urf-odatlariga rioya qiladi) . Muhojirlarga yangi milliy oʻziga xoslikni singdirish dolzarb muammoga aylanmoqda. Ularni yangi jamoalarga qoʻshilish dasturlari ishlab chiqilmoqda. Bu oson ish emas, ayniqsa koʻplab muhojirlar boʻlsa, ayniqsa, ular maʼlum bir joyda ixcham yashaganda bu qiyinlashadi. Parijning chekkasida koʻplab arablar yashaydi va deyarli fransuzcha nutqi yoʻq ularni; sunʼiy yoʻldosh antennalari tufayli arab tilidagi dasturlar olinadi. Goʻyo Jazoirning “parchasi” Parijga olib ketilgandek. Tugʻma identiklik yangi muhitga qarshi turadi. Ikkinchi va uchinchi avlod muhojirlarining baʼzilari mezbon jamoatchilik bilan dushman boʻladi. Bunga Parijda, Londonda, Stokgolmda sobiq muhojirlarning bolalari va nabiralarning gʻalayonlari yorqin misol boʻladi.

Rossiya 90-yillarning boshidan beri milliy oʻziga xoslik muammosining kuchayishiga duch keladi. Masalan, SSSR qulashi bilan baʼzi chechenlar mahalliy ekstremistlar va xalqaro terrorizm tomonidan ishlatilgan rus identifikatsiyasining inqirozini boshdan kechirganlarida, separatizmning “toʻlqinlari” ayanchli iz qoldirdi. Moskvada millatchilar va muhojirlar guruhlari oʻrtasida qarama-qarshilik, etnik asosdagi norozilik namoyishlari, masalan, Manejnaya maydonidagi namoyishlar (2011) va boshqalar.

Yuqorida aytib oʻtilganlar shaxsni shakllantirishda millat va hudud muhimligini tasdiqlaydi. Ammo identifikatorlar konstruktsiyalar sifatida shakllanishi va sunʼiy ravishda vahiyni idrok etishda tasvirlar, ramzlar, afsonalar orqali qurilishi mumkin. Ushbu muammo V. Pelevinning "P avlod" kitobida badiiy talqinni topdi. Mitinglar, filmlar, media-dasturlar, reklama vositalari, kuchli axborot texnologiyalari yordamida milliy rivoyatni (uzoq rivoyatlar) siyosiy va mifologik tuzatish amalga oshiriladi. Shunday qilib, individual hodisalarni massiv sifatida koʻrsatish mumkin, aholining bir qismining noroziligini butun bir xalqning harakati sifatida koʻrsatish mumkin; badiiy voqealar tarix darsliklariga, muzey ekspozitsiyalariga kiritilgan, ular toʻgʻrisidagi maʼlumotlar ommaviy axborot vositalari tomonidan tarqatiladi.

Masalan, “erkinlikni sevuvchi Gruziyani Rossiya bosib olishi” haqidagi afsona maxsus muzeyda mujassamlangan. Davlat shaxsida “dushman qiyofasini” qurish milliy o‘ziga xoslikni mustahkamlashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda identiklik bu har bir insonning ichidagi “meni” bo‘lib, buni butun bir xalq misolida aniq bir maqsad atrofida xalqni ng yakdillikka intilishi va milliy o‘zligini shakllantirish deb tushunsa bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Erikson E.H. Identity, youth and crisis. New York: W.W. Norton, 1968. 336 p.

2. Fogelson R.D. Person, self and identity: Some anthropological retrospects, circumspects and prospects // Psychosocial Theories of the Self: Proceedings of a Conference on New Approaches to the Self, held March 29 – April 1, 1979, by the Center for Psychosocial Studies. Chicago, Illinois, 1982. P. 67–109.

3. Giddens A. Modernity and Self-Identity. Stanford: Stanford University Press, 1991. 256 p.

4. Мельникова Л.В., Поломошнов А.Ф. Российская социокультурная идентичность в исторической перспективе. Персиановский, 2012. 187 с.

“BAYT UL-HIKMA” YIRIK ILMIY MARKAZ SIFATIDAGI FAOLIYATIGA NAZAR

Burxonov Fazliddin No‘monovich -
*Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti 1-kurs magistranti*

Annotatsiya: O‘rta asr Sharq xalqlari fani va madaniyati tarixida Bag‘dodda bunyod etilgan “Bayt ul-hikma” so‘zsiz, yirik ilmiy voqea sanaladi. “Bayt ul-hikma” o‘zbek tilida “Hikmatlar uyi” degan mazmuni anglatadi. Bu iboradagi “hikmatlar” ortida o‘sha davrdagi qator fanlar, jumladan, falsafa, tabobat, falakiyot, riyoziyot, adabiyot, diniy ilmlar tushuniladi. Binobarin, “Bayt ul-hikma” birinchi navbatda ushbu sanab o‘tilgan fanlar qolaversa, boshqa fan yo‘nalishlarida ham ish olib borilgan ilm va tarjimalar dargohi bo‘lganligi xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: “Bayt ul-hikma”, Bag‘dod, Movarounnahr, Ma‘mun, Abbosiylar xalifaligi, Xuroson, Abul Abbos Saffah, Horun ar-Rashid.

“Hikmat” so‘zi musulmon olimlarining fikriga ko‘ra ilohiy ilmlar, hisob, tabobat va falakiyotni qamrab olgan. Fikrimizcha, Ibn al-Qiftiy sanab o‘tgan ilmlar, “Bayt ul-hikma” ta‘sis etilgan yil haqidagi ma‘lumotlar hozirga qadar ma‘lum emas. U Bag‘dodning qaysi nuqtasida joylashgani borasida ham aniq bir xulosaga kelish qiyin. Ammo u xalifa saroyining biror-bir qismida joylashgan bo‘lishi kerak, deb taxmin qilish mumkin.

Mohiyatan avvaliga kutubxona sifatida bunyod bo‘lgan “Bayt ul-hikma” ko‘p vaqt o‘tmay, u yerda jamlangan kitoblarni arab tiliga tarjima qilish markaziga aylandi. Keyinchalik esa, bu markaz tevaragida o‘z davrining eng yirik olim va tarjimonlari to‘planib, ijod qildilar. Ta‘kidlash joizki, ularning o‘zagini Movorounnahr va Xuroson olimlari tashkil etdi. Ayni paytda bu maskanda bir tomondan, yunon, hind, va fors tillaridagi ko‘plab nodir asarlarning jamlangani, ikkinchi tomondan jamlangan kitoblarning eng noyoblar tanlab olinib, arab tiliga o‘girilgani hamda muomalaga kiritilishi, uchinchi tarafdan esa, muhim asarlarni yaratgan taniqli olimlarning “Bayt ul-hikma”da to‘plangani, uni o‘rta asrlarning eng mashhur ilmiy dargohiga aylanishi va ilmiy adabiyotlarda “Bag‘dod ilmiy maktabi” va “Bag‘dod akademiyasi” degan nomlar bilan tanilishiga asos bo‘ldi¹⁸⁴. Ibn al-Qiftiyning bu markaz haqidagi fikrlari ham nihoyatda diqqatga sazovor. U shunday deb yozadi: “Haqiqatan, “Bayt ul-hikma” turli ilmiy yo‘nalishlar markazi bo‘lib, Horun ar-Rashid bu institut haqidagi fikrning ibtidosi edi. Uning o‘gli xalifa al-Ma‘mun bu ishni amalga oshirdi”.

Ta‘rixdan ma‘lumki, 749-yilda Abul Abbos Saffah (749-754) xalifa Marvon II ni taxtdan ag‘dargach, xalifalikni boshqarish Abbosiylar sulolasi qo‘liga o‘tadi. Bag‘dod tez orada sharqda Markaziy Osiyogacha, g‘arbda Ispaniyaga qadar kengaygan yirik davlatning poytaxtiga aylanadi. Arablar, odatda, o‘zlari bosib olgan mamlakatlarning boyliklarini o‘z manfaatlari yo‘lida ishlatish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solar edilar. Shu boisdan bu mamlakatlarning ham moddiy, ham ma‘naviy boyliklari asta-sekin Bag‘dodga oqib kela boshladi. Ayniqsa, al-Mansur, Horun ar-Rashid, al-Ma‘mun kabi Abbosiy xalifalar qadimiy qo‘lyozma asarlar va yirik olimlarni o‘z saroylariga jalb etishga alohida e‘tibor qaratish bilan bir qatorda, bu borada mislsiz jonbozlik ham ko‘rstadilar. Natijada Bag‘dod tez orada butun xalifalikda ilmiy faoliyat yuritish uchun katta imkoniyatlarga ega bo‘lgan qulay shaharga aylandi. Bu esa o‘z navbatida, olimlarning o‘sha yerda ijod qilish ishtiyoqini oshirib yubordi.¹⁸⁵

¹⁸⁴ Абдуҳалимов Б. Байтул-ҳикма ва Марказий Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2010. – Б. 35.

¹⁸⁵ Босворт К.Э. Мусульманские династии / справочник по хронологии и генеалогии. Пер.с англ. П.А.Грязничева. – М.: ГРВЛ, 1971.- С. 324 с.

Saroyda qo'lyozma asarlarni saqlash odati umaviylar suloalasi davrida ham mavjud bo'lsa-da, bu ish Abbosiy xalifalardan al-Mansur davrida doimiy jarayonga aylandi, sifat va miqdor jihatida ham tubdan o'zgardi. Al-Mansur nodir qo'lyozma asarlarni to'plashdan tashqari, o'zga yurtlardagi olimlarni ham o'z saroyiga jalb eta boshladi. Uning saroyida Gundishopur maktabidan taklif etilgan turli sunniy e'tiqodda bo'lgan ko'pgina olimlar, tabiblar, kimyogarlar, geograflar, va muhandislar xizmat qilgan. Ular orasida Bag'dod shahrining qurilishida ishtirok etgan astrologlar – eronlik an-Navbaxt (vaf.777 y.) va basralik yahudiy Menassiyalar (vaf. tax. 815 y.) ham bor edi. Musulmonlar orasida “Mashallah” nomi bilan tanilgan Menassiya, al-Mansur, Horun ar-Rashid, al-Amin va al-Ma'munlar davrida eng mashhur astrologlardan biri edi.¹⁸⁶

Al-Mansur saroyida Gundishopur maktabidan Bag'dodga taklif etilgan qator tabiblar ham faoliyat ko'rsatgan. Ular ichida Baxtyashu oilasiga mansub bir qancha xristian tabiblari bo'lib, ularning eng yirik namoyondasi bo'lmish Jibril ibn Baxtyashu, xalifa al-Mansur uchun tabobatga oid ko'pgina asarlarni yunon tilidan arab tiliga tarjima qiladi. Jibril ibn Baxtyashuning o'zi va bu oilaning o'ndan ortiq boshqa tabiblari Bag'dod shahrida uzoq yillar davomida tabiblik faoliyati bilan mashg'ul bo'lganlar. Xarronlik yirik kimyogar va tarjimon Jobir ibn Xayyon ham xalifa al-Mansur davrida yashagan. Ibrohim al-Fazariy xalifa al-Mansurning topshirig'iga binoan, hindlarning astronomiyaga oid yirik qomusiy asari “Sindhind” Sanskrit tilidan arab tiliga tarjima qiladi. Yuqorida zikr etilgan asarlardan tashqari, al-Mansur uchun falsafa, tabobat, falakiyot, riyoziyot, tarix, adabiyotga ois boshqa kitoblar ham tarjima qilingan. Xalifa al-Mansur mazkur kitoblar, noyob qo'lyozma asarlarni saqlash uchun o'z saroyidan maxsus joy ajratgan. Shu tariqa «Bayt ul-hikma” ning yaratilishiga asos bo'lgan saroy kutubxonasi paydo bo'ldi. Ammo bu kutubxonaning vazifasi kitobxonlarni zaruriy adabiyotlar bilan ta'minlash emas, balki to'plangan nodir qo'lyozma asarlar, turli mamlakatlardan keltirilib, arab tiliga o'girilgan kitoblarni saqlashdan iborat bo'lgan. Al-Mansur davrida bu maskan hali “Bayt ul-hikma” deb nomlanmagan edi. Ma'lumki, al-Mansurning o'g'li Muhammad al-Mahdiy ibn Mansur (775-785) va nabirasi al-Hodiy ibn al-Mahdiy (785–786) hukmronlik qilgan yillarda ilmiy izlanishlar va tarjima faoliyatida katta siljishlar ro'y berdi, deb bo'lmaydi. Shu sababdan ham ular davrida “Bayt ul-hikma” bilan bog'liq bo'lgan sezilarli o'zgarishlar ro'y bermagan, deb o'ylaymiz. Abbosiy
xalifalar ichida eng dong taratgan Horun ar-Rashid (786–809) taxtga

¹⁸⁶ Беляев Е. А. Аббасидов халифат. Советская историческая энциклопедия. - М.: Издательство «Советская энциклопедия», 1961. - Тошкент. 1. - С. 28-32

o'tirganidan so'ng, ijtimoiy va madaniy hayotning barcha jabhalarida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu, albatta, "Bayt ul-hikma" ga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. O'rta asr manbalaridagi ba'zi ma'lumotlar "Bayt ul-hikma" Horun ar-Rashid davrida ta'sis etilgan, degan xulosaga kelishga asos bo'ladi. Jumladan, Ibn an-Nadim o'zining "al-Fixrist" kitobida vazir Sahl al-Fadl ibn Navbaxt va nusxa ko'chiruvchi A'lon ash-Shu'uvbiylar haqida so'z yuritarkan, ularni Horun ar-Rashidning "Bayt ul-hikma" sida faoliyat ko'rsatgan, deb ma'lumot beradi. Bundan, "Bayt ul-hikma" Horun ar-Rashid davrida mavjud edi, degan mantiqiy xulosa paydo bo'ladi. Ehtimol, Horun ar-Rashid o'z saroyida jamlangan katta miqdordagi kitoblar, tarjimonlar va ulamolar uchun alohida joy ajratib, unga "Bayt ul-hikma" nomini bergan bo'lishi mumkin. Shuni ham aytish kerakki, "al-Fixrist" mulallifi bu markazni ba'zan "Bayt al-hikma", ba'zan esa "Xizanat al-hikma" iborasi bilan ataydi. Lekin bu ikkisi ham bir ma'noni anglatgan.¹⁸⁷

Ayni paytda o'rta asrlarning yana bir mashhur mualliflaridan Yoqut al-Hamaviy ham Ibn an-Nadimning fikrini tasdiqlaydi. Umuman, Horun ar-Rashid davrida "Bayt ul-hikma" turli adabiyotlar saqlanadigan maskandan tarjima va tadqiqotlar olib boriladigan markazga aylandi. U yerga kelgan taniqli ulamolar, tadqiqotchilar nafaqat turli mavzulardagi kitoblar imkoniyatiga ham ega edilar. Bu davrda tarjima ishlariga bo'lgan ahamiyat bag'oyat ortib, "Bayt ul-hikma" dagi asarlar soni yanada ko'paydi.

Horun ar-Rashidning kichik o'g'li al-Amin (809–813) davrida "Bayt ul-hikma" ning faoliyati birmuncha susaygan bo'lsa, uning katta o'g'li al-Ma'mun davrida o'z taraqqiyotining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Biz al-Ma'munni – katta, al-Aminni esa kichik o'g'il deb shartli ataymiz, aslida ularning har ikkisi ham ham bir vaqtda, ya'ni 786-yilda ikki onadan dunyoga kelgan. Al-Ma'mun al-Amindan olti oyga katta bo'lishiga qaramay, xalifalik kursisiga avval al-Amin o'tirgan. "Bayt ul-hikma" ning taqdirida al-Ma'munning o'rni bag'oyat yuksak bo'lgani tufayli, biz uning ilmiy va siyosiy faoliyati, shuning barobarida, har ikki aka-uka munosabatlari xususida alohida to'xtalib o'tamiz.

Ma'munning bosh yutug'i shunda ediki, u inson tafakkuri erkinligiga intildi va shuning uchun ham bilimning barcha sohalariga kirib bordi. U o'zini olim sanamas, lekin shaxsan tashkil ettirgan Bilimlar uyi hisoblangan "Bayt ul-hikma" muntazam o'tkaziladigan munozaralarda ishtirok etib turardi. Ma'munga soxta fikr yot edi, u sunniylarga ham, shialarga ham baravar munosabatda bo'lardi. Hatto, zardushtiylar va boshqa g'ayridinlar e'tiqodlariga nisbatan ham aql bilan ish tutardi. Shunday bo'lsa ham, uning o'z ezgu g'oyalari bor edi. U bid'atchilarga toqat qilolmasdi, buni uning Bobakka

¹⁸⁷ Hoji Ismatulloh Abdulloh. "Markaziy Osiyoda Islom madaniyati". – Toshkent: Sharq, 2005. B - 65.

munosabati ko'rsatib turardi. U alloma bo'libgina qolmasdan, vaziyat talab qilganda lashkarboshi sifatida ham maydonga chiqaverardi, Bobak hamda vizantiyaliklarga qarshi kurashda u shunday qildi. Ma'mun asosan o'zining insonparvar dunyoqarashi, butun fan ravnaqini rag'batlantirgan ulkan madaniy yutuqlari bilan tarixda qoldi. Unga o'xshab aql-idrok taraqqiyotini moddiy farovonlikdan ham ustun qo'yadigan podshohlar kam bo'lgan.

Al-Ma'mun "Bayt ul-hikma"ga alohida e'tibor bilan qaradi. Natijada uning davrida (813–833) "Bayt ul-hikma" dagi ilmiy muhit misli ko'rilmagan darajada rivojlanib, u yerda yunon, fors va hind tillaridagi muhi kitoblarni arab tiliga o'girish, sharhlash bilan bir qatorda, mustaqil ilmiy faoliyat ham olib borilib, yangi asarlar yozildi. Al-Ma'mun diniy ilmlar, falsafa, aniq fanlar bilan qiziqqan va o'zi ham ular bilan muntazam shug'ullangan¹⁸⁸. Shuningdek, u tarjimonlar va olimlarga har bir yozgan yohud tarjima qilgan kitoblari uchun katta mukofotlar tayinlangan. Al-Ma'munning bevosita homiyligi ostida Yunoniston, Hindiston, Rum, Eron, va Marvdan "Bayt ul-hikma" ga katta miqdorda turli mavzudagi kitoblar kelib tushgan. Ularning ba'zilar esa harbiy yurishdagi o'lja sifatida Bag'dodga olib kelingan. Al-Ma'munning qo'llab quvvatlashi bilan eng sara asarlar tanlab olinib, arab tiliga tarjima qilingan. Tarjimonlar alohida-alohida guruhlariga bo'linib ishlaganlar, har bir guruhni albatta malakali, mohir tarjimon boshqargan va so'nggi tahrir uchun ushbu shaxs mas'ul bo'lgan. Tarjimalar, odatda, yunon tilidan suryoniy tiliga, so'ngra arab tiliga, ba'zan esa yunon tilidan to'g'ridan-to'g'ri arab tiliga o'girilgan. Aksar hollarda, tarjimalar kitob matnlarining asli bilan taqqoslab amalaga oshirilgan. Har bir tarjimonlar guruhi tarkibida matn ko'chiruvchi va kitoblarni muqovalovchi mutaxassislar bo'lgan. Binobarin, al-Ma'mun davriga kelib, "Bayt ul-hikma" tarkibida yirik kutubxonalar, tarjima va asarlar yozish, ko'chiruvchilar hamda muqovalash uchun ajratilgan maxsus xonalar mavjud ed. Bag'dodning ash-Shammosiya mintaqasi hamda Damashq atrofidagi Qasiyun tog'larida mavjud bo'lgan rasadxonalar ham "Bayt ul-hikma" tarkibiga kirgan. Manbalarda al-Ma'mun tasarrufidagi bu ikki mashhur rasadxonanining "Bayt ul-hikma" tarkibida bo'lganini anglatuvchi to'g'ridan-to'g'ri ma'lumotlar uchramaydi. Zero tarixdan ma'lumki, al-Ma'mun o'z saroyiga to'plagan aksariyat astronomlar, jumladan, Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oni, Ahmad al-Marvaziy, Yahyo ibn Abu Mansur, Xolid al-Marvaruddiy, al-Abbos al-Javhariy va boshqalar mazkur rasadxonalarda kuzatuv ishlarini olib borganlar. Modomiki shunday ekan, fikrimicha, bu ikki rasadxonani ham "Bayt ul-hikma" tarkibiga kiritish mumkin. Ma'munning

¹⁸⁸ Al-Abbosiyun. Amina Baytor. <http://www.arab-ency.com/index.php>. 2011 <<http://www.arab-ency.com/index.php.%202011>>.

xavotirda o'tgan podshohligi qisqa bo'lsa ham, tarix uning buyuk ahamiyatga ega bo'lganligini e'tirof etadi. U dorulfununlarga asos soldi, hamma joydan kitoblar to'pladi, qobiliyatli kishilarni yig'ib, ularning yangi-yangi zafarlarga erishuvlari uchun yo'l ochib berib yoki shu sohadagi ishlariga ko'maklashib turdiki, bu uning samarali saltanatidan ajoyib xotira qoldirdi. Ma'mun fanni ham, hunarmandchilikni ham rag'batlantirib turdi. U Bag'dod va Damashq yaqinida rasadxonalar qurdirdi. Bundan tashqari bunyod etilgan Dor ul-Hikmada olimlar fanning turli sohalarida ish olib bordilar. Ulardan o'nlab kishilar yunon, fors, sanskrit, shom (eski arab) tillaridan tarjima qilish bilan shug'ullanardilar. Adabiyot, falsafa, fiqh va boshqa fanlar sohasida mustaqil ish olib borilardi. Insonparvar mutafakkir Ma'mun «Bizning barcha g'oyalarimiz tafakkur tarzimiz mezoniga aylanur», deb ishonardi. U shu davrgacha tashkil topgan va ko'pgina ilmiy asarlar yaratgan falsafiy maktabni yuksak qadrlar edi. «Muta'ziliylar diniy g'oyalarimizga ham aql yo'naltirilgan bo'lishi kerak, aqlan tekshirib ko'rmasdan va to'liq aniqlamasdan turib, hech bir narsa qabul qilinmasligi lozim», deb hisoblashardi¹⁸⁹. Shuning uchun ham Ma'mun saroydagi ma'naviy muhitni rivojiga hissa qo'shib, shu davrdagi aksi kuchlarga raddiyalar berdi. Al-Ma'mun saroyida xizmat qilgan Ja'far ibn Muhammad al-Anmotiyning xabar berishicha, Marvdan Bag'dodga ko'chib kelgan xalifa o'z saroyiga Bag'doddagi olimlar, mutakallimlarning katta guruhini taklif etadi. Bu yerdagi ilmiy munozaralardan keyin avvaliga yuzga yaqin, keyinroq esa, yana bir qancha faqih va donishmandlarni tanlab oladi. Yana Ja'far al-Anmotiyga ko'ra, ilmiy munozaralarning birida dasturhonga uch yuzdan ortiq noz-ne'matlar tortiladi. Al-Ma'mun har bir taomni izohlar ekan, uning nima maqsadda iste'mol qilinishini sharhlab o'tadi. Xususan, u safro va balgamga qarshi qanday taom tanovul qilinishi, vaznni oshirish va kamaytirish uchun nima yeyish maqsadga muvofiqligi, shuningdek, dasturxonga qo'yilayotgan barcha noz-ne'matlarning inson salomatligida qanday o'rin tutishini aytib beradi. Shunda munozaraga yig'ilgan olimlardan biri xalifaga qarab shunday deydi: «Ey musulmonlarning amiri, agar biz tabobatni muhokama qilsak, sen uni tushunishda Joliyuvnusni, ilmi nujum haqida suhbatlashsak Xurmusni, fiqhda esa Ali ibn Abu Tolibni eslatmoqdasan. Saxovat bobida sen Xotamsan, notiqlikda tanxo hamda saxiylikda Ka'b ibn Momani ortda qoldirasan». Bunga javoban xalifa: «Ey Ja'far, shuni bilginki, inson insondan faqat aqli, zakovati, hatti-harakatlari va boshqa xususiyatlari bilan farqlanadi. Aks xolda bir shaxsning ikkinchi shaxsdan farqi bo'lmay qolgan bo'lur edi»– deydi.¹⁹⁰

¹⁹⁰ Vohidov Sh., Qodirov A. «Sharqning mashhur sulolalari». – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B.134.

Xulosa qilib aytish kerakki, G'arbda Ispaniyadan Sharqda to Xitoy chegaralarigacha bo'lgan mintaqani ichiga olgan buyuk davlat, Xalifalik tarkibidagi xalqlar madaniyati shunchalik ravnaq topishining boisi, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy sabablar bo'lsa, ikkinchi tomondan islom ta'limotining o'zi bo'ldi. Bu ta'limotda din aqidalari va bilim, ilm-fan shunchalik chambarchas bog'langan ediki, bunday holatni hech qachon va hech qaysi diniy ta'limotda uchratmaymiz. Abbosiylarning ilm-fan rivojida turli sohalar - me'morchilik, miniatyura, musiqa, xattotlik va kitobat san'ati, amaliy san'at, ilm-fan hamda adabiyotni qamrab oldi. Bu sohalar VII-XI asrlarda misli ko'rilmagan darajada taraqqiy etdi. Islom insoniyat tarixida eng mustahkam hissa qo'shdi, ilm rivojining o'sha davr uchun oliy bo'lgan cho'qqiga ko'tarilishini ta'minladi. Bu taraqqiyot faqat Sharq xalqlari manfaatlariga xizmat qilmay, umum madaniyat, sivilizatsiya rivojiga xizmat qildi. Abbosiy xalifalari o'z davrining buyuk mutafakkirlarini bir joyga to'plab, ularga homiylik qildilar. Bag'dodda tashkil etilgan "Baytul-hikma" ana shunday olimlar bir yerga jamlangan ilmiy markaz edi. Ta'kidlash joizki, markaziy osiyolik olimlarning Bag'dodda faoliyat olib borishi, insoniyat fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdi. Jumladan, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Bakr ar-Roziy, Ahmad al-Farg'oniy kabi olimlarning ismlari butun dunyoda chuqur ehtirom bilan tilga olinadi. Darhaqiqat, Markaziy Osiyo olimlari antik ilmlarning qayta tiklanishida ishtirok etdilar, o'z asarlari bilan qator tabiiy-ilmiy fanlarni bir tizimga solib, fan sifatida shakllantirdilar va ularni yangi fikrlar, g'oyalar bilan boyitdilar. Umuman, bu davr olimlari hech qachon tor ramkadagi millatparast bo'lmaganlar, ular insoniyatga xizmat qilganlar. Haqiqatdan ham amalda shunday bo'ldi. Arab-musulmon olimlari yaratgan ilm-fan Yevropaga o'z ta'sirini o'tkazdi. Bu ta'limotlar boshqa iqtisodiy, ijtimoiy sharoitda yanada rivoj topdi va umuminsoniy sivilizatsiyaga xizmat qildi.

BUXORO BOZORLARI SO‘NGI O‘RTA ASRLARDA

Abdusamatova Nurxon Sobirjon qizi -

“Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari” mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: **t.f.n., dots. Haydarov I.M.**

Markaziy Osiyoda bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi tarixi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Taniqli davlat arboblari va olimlar, tarixchilar, geograflar, iqtisodchilar ham o‘z davrida Buxoro, Samarqand, Toshkent, Qo‘qon. Xo‘jand shaharlarini o‘rta asrlardagi yirik bozor iqtisodiyoti markazlari, deb ta‘riflaganlar¹⁹¹.

Shu o‘rinda alohida to‘xtaladigan shahar Buxoro shahridir. Buxoro shahri sharqning mashhur qadimiy shaharlaridan biri bo‘lgan. Arxeologik ma‘lumotlarga ko‘ra, Buxoroga miloddan avval VI asrda asos solingan¹⁹². Zarafshon daryosining quyi oqimida joylashgan Buxoro shahri va uning atrofidagi yerlar qadimda nihoyatda hushmanzara - hayvonot va o‘simlik dunyosi betakror, ko‘l va oqar suvlarga boy bo‘lganligini tarixchi Narshaxiyning “Buxoro tarixi¹⁹³” asaridagi ma‘lumotlar ham buni tasdiqlaydi. Buxoro savdo-sotiqning markazi, asosiy xalqaro bozorlar joylashgan makon, jahon bozorlarini ham turli mahsulotlar bilan ta‘minlovchi o‘choq hisoblangan. O‘rta Osiyo shahrlarini bog‘lovchi tranzit markaz shahar bo‘lgan.

XVI asrda Shayboniylar sulolasi hukmronligi davrida, Markaziy Osiyo mintaqasining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida Buxoroning mavqeyi ancha ortdi. Buxoro shahri avval boshda uluslardan biri markazi maqomida, keyin esa butun boshli davlat poytaxti maqomida bo‘lib keldi.

Buxoro shahri poytaxtga aylanganidan keyin Buxoro xonlari davlat rivojini asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan savdo-sotiqning taraqqiyotiga alohida e‘tibor bergan.

Jumladan, mamlakatda bozorlar, karvonsaroylar, savdo yo‘llari, rabot va sardobalar qurilishi ishlariga boshchilik qilgan Abdullaxon II (1557—1598) davrida Buxoroda “Chorsu” bozori qurilgan. Bozor ko‘chalarining bir-biri bilan kesishib o‘tgan joyida gumbazli binolar bo‘lgan. Bu binolarda telpakfurushlar “Toqi Telpakfurushon” deb nomangan. Bu yerda do‘ppi sotuvchilar bo‘lgan

¹⁹¹ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М., 1975. - С.105, 114, 115; Описание Бухарского ханства, составленное Н.Ханыковым. – СПб., 1843. - С.111,161, 165; Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – М.:Восточная литература, РАН, 2003. - С.170, 171 ва б.

¹⁹² Муххамедзханов А. Р. Бухара — город двадцати пяти веков // Общественные науки в Узбекистане. - 1997. - № 9-10-11.

¹⁹³ Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. – Т.: Фан, 1966. [Электрон ресурс] URL: <http://www.e-tarix.uz/milliyat-insholari/311-buxoro> (27.07.2018)

ilgari esa bu joy “Kitobfurushon” deb atalgan, chunki kitoblar sotilgan¹⁹⁴, zargarlar “toqi*-zargaron”, sarrof-sudxo‘rlar “Toqi Sarrofon” gumbazida hind sarroflari (bir davlatning pulini ikkinchi davlat puliga almashtiruvchi kishilar) o‘tirgan va shuning uchun bu joy “Toqi Sarrofon” deb atalgan¹⁹⁵) va boshqalar joylashganlar. 1587-yilda musofirxona barpo ettirgan. Juda ko‘p karvonsaroylar barpo etilgan. Xo‘ja Sa‘dga qarashli Gavkushon karvonsaroyi (1570) va Lisak masjidiga yaqin joydagi saroy (1560) shular jumlasidandir. Bu me‘morchilik obidaları hozirgacha saqlanib qolgan va xorijlik sayyohlarning e‘tiborini tortmoqda¹⁹⁶.

Shahar bu davrda uch qismga ajratilgan: ikki qismi – hukmdorga, bir qismi - savdogarlar va bozorga tegishli bo‘lgan. Savdoga qanchalik e‘tibor berilsa, pul aylanmasi shuncha rivojlanadi. Bu mamlakat xazinasini boyishiga xizmat qiladi, o‘z navbatida aholi daromadini oshiradi. Mamlakat hududidagi mahalliy va chet el oltin hamda kumush pullarining muomala kursini belgilab borganligi tufayli, XIX asrning 80-yillari oxirlariga qadar Buxoro bozorlari Markaziy Osiyodagi barcha savdo markazlari uchun o‘ziga xos birja rolini bajargan¹⁹⁷.

Buxoro bozorlarining ko‘rinishi, hashamati, mahsulotlarning sifati va turining ko‘pligi ham savdogarlarni o‘ziga jalb qilgan. Buning tasdig‘i o‘laroq, Armiy Vamberi asarida ta’kidlashicha, mahalliy mahsulotlarning hammasi juda arzondir va shuning uchun Buxoroning ko‘ylak bozori serhasham kiyim bilan Xitoy Tatariyasiga qadar barcha mahsulotlarni ta’minlaydi¹⁹⁸.

Buxoroda shahrida yarmarkalar ham o‘tkazilib turilgan. H.Vamberining yozishicha, poytaxtdan uncha uzoqda bo‘lmagan Afshona qishlog‘ida har haftada, Varaxshada esa yilida 15 marotabagacha savdo yarmarkalari o‘tkazilgan. Varaxshadagi yarmarka odatda yilning oxirlarida (yani, mart oyining o‘rtalarida) boshlanib, 20 kun davom etgan¹⁹⁹. Bu yarmarkalarda xonliklardan va qo‘shni hududlardan kelgan mahsulotlar ko‘rgazmasi bo‘lgan va sotilgan.

Mahalliy bozorlar ham o‘ziga xos tarzda rivojlangan. Bozorlar shaharlar, balki ularning atrofidagi qishloqlar aholisining talablarini qondirishda ham

¹⁹⁴ Ашуров Я, Гелах Т, Комолов У, Номозовнинг Д. Бухоро қисқача справочник. –Т.: Ўзбекистон ССР давлат нашриёти, 1959. –Б. 50.

* savdo zali, qator savdo rastalari hamda hunarmandlar ustaxonasidan iborat bo‘lib, shahar markazi, chorraha va chorsularida bunyod etilgan. Qator usti yopiq bozorlar.

¹⁹⁵ Ашуров Я, Гелах Т, Комолов У, Номозовнинг Д. Бухоро қисқача справочник. –Т.: Ўзбекистон ССР давлат нашриёти, 1959. –Б. 50.

¹⁹⁶ Shamsiddinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. (XVI-XX asr boshlari). –Т.: Sharq, 2010. -B. 43.

¹⁹⁷ Разоков Д. Бухоро хонлигининг ташқи савдо алоқалари (XIX асрнинг 60-90 йиллари). Дисс. автореф. тарих фанлар номзоди. –Т: 1994. Б. 28.

¹⁹⁸ Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. - М.: 1874. -С. 145.

¹⁹⁹ Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. - М.: 1874. -С. 231.

alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Xonlikdagi barcha shaharlarda, yirik qishloqlarda ixtisoslashgan bozorlarning mavjudligi ichki savdoning davlat iqtisodiyotidagi muhim ahamiyatidan dalolat berib, mamlakatning rivojiga beqiyos hissa qo'shgan. Bundan tashqari, Buxoro qo'shni xonliklar bilan ham yaxshi aloqada bo'lgan.

Buxoro va Qo'qon o'rtasidagi o'zaro savdo aloqalari XIX asrning 70-yillari ikkinchi yarmigacha uzluksiz olib borilgan. XIX asr 60-yillarida Qo'qon xonligidan Buxoroga har yili o'rtacha 1000 tuyada ipak junatilgan hamda uning miqdori 12 ming pud atrofida bo'lgan²⁰⁰.

Qo'qonlik savdogarlarning karvonlari Buxoroga har yili 2 marta: birinchisi yoz oylarida, ikkinchisi kuz oylarida yetib kelgan²⁰¹. Shuningdek, Qo'qon xonligi kalavalariga Buxoro bozorlarida talab katta edi. 1871-yil avgust oyida Qo'qon bozorida birinchi navli Namangan kalavasining pudi 32 tillo (121 rub. 60 kop.) dan sotilgan bo'lsa, Buxoro bozorida 30 Buxoro tillosiga (138 rub.) sotilgan. Shuningdek, Qo'qon shaxrida ishlov berilgan kalavalar ham Buxoro bozorlarida xaridorgir bo'lgan va poytaxt bozorida birinchi navlisining tupi 27 tillo (102 rub. 60 kop.), Buxoro bozorida esa 25 Buxoro tillosiga (115 rub.) sotilgan²⁰².

Qo'qonlik savdogarlar odatda Buxorodagi Barra karvonsaroyida to'xtaganlar va shu yerning uzida savdo bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'lganlar²⁰³.

Qo'qon xonligi bilan Buxoro amirligi o'rtasida quruqlik va tog'lardan o'tadigan karvon yo'llari asosiy savdo yo'llari hisoblangan.

Xususan, Xiva xonligi bilan ham keng ko'lamda savdo ishlari olib borilgan. Xonliklar karvon yo'llari bilan birga Amudaryo suv yo'lidan ham foydalanilgan. Amudaryoda tashkil etilgan qayiqchilik Buxoro amirligi va Xiva xonligi o'rtasidagi savdo aloqalarida muhim ro'l o'ynagan.

Buxoro amirligi bilan Xiva xonligi o'rtasida Asrtaxan orqali olib kelingan rus qozonlari, temirdan yasalgan buyumlar bilan ustuvor savdo sotiq olib borilib rus savdogarlari olib kelgan charm - teri, ipak xom ashyosi (pilla), kunjut va boshqa narsalar sotilgan. Bu mahsulotlar evaziga Buxoro amirligi Xiva xonligini tamaki bilan ta'minlab turgan. Tamakidan keying o'rinda turadigan mahsulotlardan ip-gazlama edi²⁰⁴.

²⁰⁰ Петровский Н. О. О шелководстве и шелкоматании Средней Азии. - Т., 1873. -С . 43.

²⁰¹ Разоков Д. Бухоро хонлигининг ташки савдо алоқалари (XIX асрнинг 60-90 йиллари). Дисс. автореф. тарих фанлар номзоди. -Т.: 1994. -Б.158.

²⁰² Мадрахимов, Зоҳид. Кукон хонлигида савдо муносабатлари тарихи. -Т.: "Yangi nashr", 2014. – Б. 72.

²⁰³ Мадрахимов, Зоҳид. Кукон хонлигида савдо муносабатлари тарихи. - Т.: "Yangi nashr", 2014. – Б. 73.

²⁰⁴ Сафаров. Т.Т. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Ўрта Осиё савдо йўллари. //тарих фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. -Т.: 2009, -Б. 25.

Buxoro shahri xonliklar davrida hududlar o'rtasida, bundan tashqari, chet mamlakatlar bilan, ayniqsa Rossiya bilan aloqalari yaxshi rivojlangan. XVIII asr oxiri –XIX asr boshlaridan boshlab Buxoro amirligining tashqi savdo aloqalarida Rossiyaning savdo shaharlari (asosan Orenburg va Astraxan) muhim o'rin tuta boshladi. Rossiyaga qishloq xo'jalik mahsulotlari - teri, qorako'l teri, jun, paxta, ipak tolalari, turli matolar olib chiqilgan. Rossiyadan esa turli fabrika mahsulotlari, cho'yan, mis, qo'rg'oshin keltirilgan. Buxorolik savdogarlar Afg'oniston (Qobul) va Hindistonga ham borib, savdo-sotiq ishlarini amalga oshirgan. Hindistondan qimmatbaho toshlar, dori-darmonlar, hushbo'y giyohlar, Kashmir matolari keltirilgan. O'z navbatida, hind savdogarlari Buxoro bozorlaridan Rossiyadan keltirilgan mahsulotlar, mahalliy matolar, zarbof to'nlar, qorabayir otlarni xarid qilganlar²⁰⁵.

Ayni paytda, Rossiya ham Buxoro xonligi bilan savdo-sotiq ishlarini rivojlantirishdan manfaatdor edi. Bu manfaatdorlik avvalo Buxoroning Rossiya tovarlarini sotish uchun qulay bozorligida edi. Ikkinchidan esa, Rossiya Buxoro xonligi orqali Osiyoning boshqa mamlakatlari bilan savdo aloqalarini rivojlantirish imkoniga ega bo'lardi. Bunda birinchi navbatda Hindistonga chiqish maqsadi hisobga olingan edi²⁰⁶.

Buxoroda bo'lgan ingliz elchisi Byorns bozorlarni unchlilik hafsala bilan yozmagan, chunki Buxoro bozorlarida ingliz mahsulotlariga qaraganda rus mahsulotlari ko'p edi. Bu esa Byornsga yoqmagan. Shuningdek, buxoroliklar inglizlarga nisbatan ruslarga do'stona munosabatda bo'lganliklarini qayd etadi. "Buxoro bozorida siz Ost-Indiya kompaniyasini barcha mahsulotlarini ko'rishingiz mumkin. Ruslar mahsulotlari uchun esa xaridorlar juda ko'p. Buxoro bilan savdo va do'stlik aloqalarini yaxshilash uchun Kaspiy va Volga daryosi bo'ylab Bokuga olib boradigan kemalarni bepul xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yish kerak"²⁰⁷, degan xulosaga keladi.

Rossiya bilan savdo aloqalari savdo yo'llarini ham rivojlantirgan, bu esa yo'l bo'yidagi karvonlar, sardobalar va bundan tashqari xizmat ko'rsatish tizimini tizimli yo'lga qo'yishga sabab bo'lgan. Aholi ham bu savdodan manfaatdor bo'lganini ko'rishimiz mumkin.

Buxoro o'zi bilan savdo aloqalari olib borgan xalqlarda o'ziga nisbatan shunchalik hurmat va ehtirom uyg'otganki, savdo yo'nalishlari qayd etilgan qariyb barcha manbalarda savdo yo'llari odatda Buxorodan boshlanganligining guvohi bo'lamiz²⁰⁸.

²⁰⁵ Эшов.Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқарув тарихи. – Т.: 2012. Б. 303

²⁰⁶ Erqo'ziyev.A.A. Buxoro xonligi tarixi. - Namangan, 2018. –B. 92.

²⁰⁷ Erqo'ziyev.A.A. Buxoro xonligi tarixi. - Namangan, 2018. – B. 25.

²⁰⁸ Разоков Д. Бухоро хонлигининг ташқи савдо алоқалари (XIX асрнинг 60-90 йиллари). Дисс. автореф. тарих фанлар номзоди. –Т.: 1994. -Б. 35

Buxoro shahrida bojxona tizimi ham rivojlangan bo‘lib yirik bojxonalarda omborxonalar tashkil etilib, ularda muayyan mablag’ evaziga savdogarlar o‘z mollarini saqlashi mumkin edi. Bojxona omborlarida tovarlarni saqlash muddati Buxoro shahrida 3 yilgacha, Kelifda 1 yilgacha, Sherobod va Kerkida 6 oygacha bo‘lgan shu muddatdan keyin savdogarlar boj to‘lovini va tovarlarning saqlanishi uchun to‘lovini amalga oshirishi hamda zudlik bilan tovarlarni olib chiqishlari kerak edi. Agar tovarlar o‘z muddatida olib ketilmasa, u holda tovarlar hukumatga qarashli bo‘lgan do‘konlarda sotib yuborilar, bojxona va boshqa to‘lovlar ushlab qolinib, qolgani tovar egasiga qaytarilgan²⁰⁹.

Chunonchi, Buxoro shahrining o‘zida XIX asr o‘rtalarida, yani Rossiya bosqinidan oldin, 38 karvonsaroy, 9 savdo timi, 16 hammom, 45 bozor bo‘lgani ma’lum²¹⁰.

Xulosa qiladigan bo‘lsak qachonlardir Buyuk Ipak yo‘lida yirik tijorat markazi bo‘lgan Buxoro o‘rta asrning 140 dan ortiq arxitektura yodgorliklarini o‘zida saqlagan “muzey shahardir”. Xonlikning savdo aloqalari rivoji savdo infratuzilmasining taraqqiy etishiga olib kelgan. Ichki, tashqi va tranzit savdoning rivojlanishi natijasida savdo infratuzilmasining muhim komponentlari-bozorlar, karvonsaroylar, bojxonalar va h.k.lar soni ortib borgan. O‘z navbatida ulardagi tashkiliy ishlar tartibga solinib, nazorat ostiga olingan. Buning samarasi o‘laroq, ularda amalga oshirilgan savdo natijasida mamlakatning iqtisodiy hayoti yaxshilanib borgan.

²⁰⁹ Сафаров, Т.Т. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Ўрта Осиё савдо йўллари. //тарих фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. -Т.: 2009, -Б. 114.

²¹⁰ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар. –Т.: Шарқ, 2001. -Б. 301.

Ш БЎЛИМ.

МАНБАШУНОСЛИК ВА ТАСАВВУФ ГЕРМЕНЕВТИКАСИ

СВЕДЕНИЯ О ЗАПАДНО ТЮРКСКОМ КАГАНАТЕ НА ОСНОВЕ РАННЕСРЕДНЕВЕКОВЫХ КИТАЙСКИХ ИСТОЧНИКОВ

Амитов Акмаль Тимурович -
Ташкентский государственный университет востоковедения
Научный руководитель: Бекмурадов С.Т.

Западный тюркский каганат раннесредневековая кочевая империя тюрков (603-704) территория которого начиналась от Азовского моря и Дона, и достигала восточных отрогов Тянь-Шаня, а также территории Северо-Восточной Индии. Главным ядрами в Западном тюркском каганате были кочевые районы такие как: Джунгария населенный племенами *Дулу*²¹¹, и западный Тянь-Шань, населенный племенами *Нушиби*²¹², которые вели ожесточенную междоусобную войну с 630 по 651 года. Государственное управление было в руках династии Ашина.

Первоначально землями Западного Тюркского каганата являлась территория междуречья Или, Чу и Талас, населенная народом *Он ок будун* народ десяти стрел или десяти племен, пять из которых под наименованием *Дулу* жили на территории от реки Или до реки Чу, а пять племен *Нушиби* на землях между реками Чу и Талас.

В 603 году распадается Великий тюркский каганат, вследствие чего от него отделяется его восточная часть и западная. С тех пор независимо друг от друга стали существовать Западный и Восточный тюркские каганаты. В территорию Западного каганата вошли такие территории как: Современный Узбекистан, Центральная Азия, Северный Кавказ, Крым,

²¹¹ Дулу (都陸) [Dou lu] - племена Дулу входили в состав «государства десяти стрел» [*Он ок будун*] в Западном тюркском каганате.

²¹² Нушиби (弩失畢) [Nu shibi] - Первые упоминания о племени *Нушиби* встречаются в китайских источниках с 651 года и исчезло после 766 года. Племена *Нушиби* заняли земли Западного тюркского каганата к западу от реки Или современного Казахстана.

Урал и Поволжье. Столицей государства стал город Суяб²¹³ неподалеку от города Токмак в Киргизии.

Вершины своего могущества каганат достиг во время правления Джегуй-кагана²¹⁴ (610-618) и его младшего брата *Тон-Джабгу*²¹⁵ (618-630). Новые походы в Тохаристан и Афганистан раздвинули границы государства до северо-западной Индии. *Тон-Джабгу* каган провел административную реформу и назначил своих представителей тудунов в области для наблюдения и контроля за сбором дани. Предполагают, что он выпускал свои монеты с согдийской надписью *Тон-Джабгу* каган.

При правлении Джегуй-кагана (610-618 годах) и *Тон-Джабгу* (618-630 годах) границы восстановлены были на Алтае, в бассейне реки Тарим и по Амударье. В союзе с Византийским императором *Тон-Джабгу* каган в 626 году начал войну против Сасанидского Ирана. В 626 году тюркские войска овладели Тифлисом. Однако заключение мирного договора между Византией и Ираном вынудило *Тон-Джабгу* кагана прекратить военные действия. В 630 году *Тон-Джабгу* каган был убит в результате заговора, организованного его дядей *Сибир-ханом*²¹⁶.

В 630 году началась борьба за престол переросшая в затяжную войну. Каганат представлял единую систему преимущественно кочевого и полукочевого хозяйства и оседло-земледельческого типа хозяйствования. Тюркское и Согдийское население в основном занималось торговлей, ремёслами, земледелием и скотоводством. Одной из целей набегов тюрков на соседние племена и народы был захват рабов. На завоёванных землях в основном сохранилось их социальное, экономическое и государственное устройство, но наместники кагана *тудуны*, контролировали сбор податей и посылку дани в Каганскую ставку.

В Западно-тюркском каганате шёл процесс образования классов и сравнительно быстрого формирования раннефеодальных общественных отношений. Военно-политические ресурсы центральной власти Западно-тюркского каганата оказались недостаточны для удержания народов и племён в повиновении. В каганате происходили непрерывные

²¹³ Суяб (碎城) [*Sui ye*] - раннесредневековый город Шелкового пути, расположенный примерно в 50 км к востоку от Бишкека и в 8 км к западу к юго-западу от Токмока, в долине реки Чуй, на территории современного Кыргызстана.

²¹⁴ Джегуй-каган (射匮可汗) [*Sheguikehan*] - Каган Западного тюркского каганата, расширил границы на востоке до Алтая, на западе до реки Тарим и предгорий Памира.

²¹⁵ Тон-Джабгу (统叶护) [*Tongyehu*] - Каган Западного тюркского каганата. При нем каганат достигает своего могущества, также с Тон-Джабгу связана административная реформа, которая уравнивала в правах кочевую и седло-земледельческую знать.

²¹⁶ Сибир-хан (莫贺咄可汗) [*Moheduokehan*] - Каган Западного тюркского каганата, был ставленником племени Дулу, который в последствии сверг правление Тон-Джабгу.

междоусобицы, частые смены правителей, сопровождавшиеся неизбежным усилением центробежных сил. Шестнадцатилетняя межплеменная война и династийная междоусобица (640-657) облегчили вторжение в Семиречье китайских войск династии Тан.

Танские губернаторы пытались управлять западно-тюркскими племенами, опираясь на своих ставленников из Каганского рода. Однако не прекращавшаяся борьба тюрков против танской экспансии и их ставленников привела к возвышению *тюргешей*²¹⁷ и установлению в 704 году их политической гегемонии в Семиречье. В VII веке Восточно-тюркский каганат с многочисленными войсками напал на Западно-тюркский каганат и на непродолжительное время подчинил его себе.

В Цзю Тан Шу об этом мероприятии описывается что²¹⁸ вследствие феодальных междоусобиц в середине VIII века Западно-тюркский каганат как государство распался. Эту войну вели друг с другом два главных племенных союза Западно-тюркского каганата *Дулу* и *Нушиби*. Не смогла прекратить войну и административная реформа *Ышбара Хилаш кагана* в 634-639 годах, разделившего страну на десять «стрел» племенных территорий *Он ок будун*. В 658-659 годах основные земли Западно-тюркского каганата были оккупированы китайскими войсками. В 704 году Западно-тюркский каганат освободился от китайской зависимости, однако нападения агрессивных соседей с севера и внутренние противоречия привели каганат к гибели в 740 году. Западно-тюркский каганат сыграл важную роль в консолидации тюркоязычного населения Евразии и способствовал дальнейшему развитию этнических групп, составивших впоследствии основу современных тюркоязычных народов.

Большую ценность о Западном тюркском каганате представляет Китайская историко-династийная летопись такая как: Цзю Тан Шу 旧唐书 [*Jiu Tang Shu*] («Старая хроника государства Тан»), Синь Тан Шу 新唐书 [*Xin Tang Shu*] («Новая хроника государства Тан») в которых имеются политические сведения о западных тюрках, Ценность китайских летописей ознаменована тем, что содержит достоверные сведения о внутренних отношениях Западного тюркского каганата.

Династия Тан, придя к власти в 618 году, смогла создать сильное государство, которое обеспечивало успешную внутреннюю и внешнюю

²¹⁷ Тюргешский каганат являлось тюркским государством (704-756) территория которого простиралась от Шаша (Ташкента) до Турфана, Бешбалыка, Семиречья.

²¹⁸ Цзю Тан шу (旧唐书) [*Jiu Tang Shu*] - Лю С. Цзю Тан шу (Старая история Тан). - Эршину ши, т. 4. Шанхай 1933.

политику. Развитие внешнеторговых отношений, расширение территории империи все это говорит о могуществе Китая эпохи Тан.

Политика императоров в отношении «варварских» народов складывалась на обмене культурных традиций степных народов. Интенсивный культурный обмен между степными странами и Китаем привел к синтезу культуры Китая, а также большому интересу Китая к обычаям и традициям кочевников. В Китае эпохи Тан велась активная политика в отношении соседних народов. «Золотой век» династии ознаменован расширением территорий государства.

Активно велись войны за подчинение соседних народов, а также установление влияния в Азии. Танская империя была небольшой в первые десятилетия своего существования. Ее территория ограничивалась пространством между реками Хуанхэ и Янцзы. Император Тай-цзун расширил территорию своего государства завоевательными походами на соседние государства. Через сто лет после правления этого императора границы империи вернулись к первоначальному периоду. Изменения границ империи влияли и на численность иноземного (неханьского) населения империи. Положение иноземцев, оказавшегося под властью Тан, было отличным от положения местного населения Китая. Танская власть на завоёванных территориях была номинальной и не влияла на социальную и хозяйственные сферы общественной жизни.

В 658 г. Западно тюркский каганат, переживавший период внутренних неурядиц и упадка, распался под ударами танских наемников. Таким образом, как в Джунгарии, так и в Кашгарии не осталось крупных государственных образований, способных пресечь танскую экспансию. Соппротивление танским поползновениям не прекратилось, но оно было неорганизованным, отдельные вооруженные выступления заканчивались крахом. Следует подчеркнуть, что и танские завоеватели не смогли окончательно преодолеть сопротивление кочевников и населения оазисных государств и упрочить свое влияние. Период с середины VII до середины VIII в. был эпохой наивысшего расцвета внешнеполитического могущества империи Тан, и вполне естественно, что многие кочевые племена, особенно кочевавшие недалеко от границ империи, а также отдельные оазисные государства Кашгарии стали устанавливать связи с империей и признали свою зависимость. Однако характер и степень этой зависимости (конечно, в тех случаях, когда она имела, а не декларировалась танскими властями) должны устанавливаться отдельно для каждого конкретного народа.

На основе проделанного нами исследования стоит акцентировать наше внимание, на историко-династийные китайские летописи, которые

содержат для своего времени весьма ценные свидетельства о Западном тюркском каганате. В дальнейшем, необходимы дополнительные исследования в области изучения китайских источников о Западном тюркском каганате.

ABU RAYHON BERUNIYNING “MINEROLOGIYA” ASARI MANBASHUNOSLIGI

Xo‘janazarov Olimjon Xudoynazar o‘g‘li -
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
2-kurs magistranti

Abu Rayhon Beruniy o‘rta asrlar davrining buyuk olimi sifatida jahon ilmining barcha sohalarida erishilgan natijalari bilan. Uning tafakkur qamrovi va mushohadasining kengligi hayratga loyiq. O‘zidan oldin o‘tgan va zamondosh bo‘lgan olimlar merosiga o‘ta xushyor va talabchan tanqidiy munosabat, dadil g‘oyalar va mutlaq yangi xulosalar Beruniy shaxsini umuman jahon fani taraqqiyotida yuksak o‘ringa qo‘yadi. Bu buyuk olim to‘g‘risida eng tugal ta‘rifni yirik nemis sharqshunosi Karl Eduard Zaxau bergan: “Dunyoda tog‘lar ko‘p, lekin ular orasida shunchalik yuksak bir cho‘qqi borki, bu cho‘qqini insoniyat hech qachon zabt etolmaydi. Bu - Beruniydir”. Abu Rayhon Beruniy 150 dan ortiq asar yaratgan. Bizgacha yetib kelgan asarlari qatorida “Mineralogiya” asarining o‘rni alohida. “Mineralogiya” da 30 dan ortiq qimmatbaho toshlar va minerallarning nomlari, konlari joylashgan makonlari, qaysi mamlakatlardan olib keltirilganligi, ularning kimyoviy va fizik xossalarini aniqlash, eritish va boshqa usullar bilan sinash haqida ilmiy ma‘lumotlarni bayon etgan. Beruniyning mineralogiya sohasidagi eng yirik xizmatlaridan biri shuki, u minerallarni ta‘riflashda zarur omillardan biri sifatida ularning solishtirma og‘irligini tartibli ravishda aniqlab, ma‘dashunoslikni amaliyot sohalariga joriy etishni nazariy jihatdan asoslab bergan. A.M.Belenitskiy Beruniyning “Mineralogiya” asari haqida “ Bu asar bundan ming yil avval yozilgan bo‘lsada, shunchalar mukammalki, unda minerallar va ularning hozirgi eng zamonaviy laboratoriyalardagina aniqlanishi mumkin bo‘lgan xossalari shu darajada aniq berilganki, bunga aql lol qoladi”, - deb yozgan edi. “Mineralogiya”da deyarli hamma qimmatbaho toshlar va turli ma‘danlar, ularning qotishmasi haqida ma‘lumot beriladi. Asarning dastlabki qismi minerallarga, ikkinchi qismi ma‘danlarga bag‘ishlangan. Qimmatbaho toshlar, javohirlar (minerallar), filizdat (metallar) haqida Abu Rayhon Beruniyning nazariy va amaliy qarashlar bu asarning qadr va qiymatini beqiyos darajaga olib chiqadi.

Abu Rayhon Beruniyning “Minerologiya” asarining manbalari qatorida eng dastlabkilaridan Avesta (Abasto) kitobi hisoblanadi. Ovasto (parfiyoncha: apastak – matn; ko’pincha “Zend-Avesto”, ya’ni “tafsir qilingan matn” deb ataladi) – zardushtiylikning muqaddas kitoblari to’plami. Ko’pchilik tadqiqotchilar fikriga ko’ra, A.O’rta Osiyoda, xususan Xorazmda miloddan avvalgi 1-ming yillikning 1-yarmida vujudga kelgan. Avestoda keltirilgan geografik ma’lumotlar ham buni tasdiqlaydi. Masalan, xudo yaratgan o’lkalar sanab o’tilar ekan, boyligi va ko’rkamligi jihatidan qadimgi Xorazm, Gava (Sug’d), Marg’iyona (Marv), Baqtriya (Balx) birinchi bo’lib tilga olinadi, Orol dengizi (Vorukasha yohud Vurukasha) va Amudaryo (Daiti) tavsiflanadi. Avestodagi xalqning dastlabki vatani Sirdaryo, Amudaryo etaklari va Zarafshon vodiysi bo’lgan.

Asar manbalarini ketma-ketlikda keltirishga harakat qilib ko’rdim. Manbalarni sharxlash uchun esa asardan bir parcha keltirish lozim:

Usfur - hindcha kusunb²¹⁹. “Al-mashohir” kitobida yozilganki, ranf²²⁰ - bu sahro baxromaji. Shundan ma’lum bo’ladiki, u o’sha sahro usfurining o’zginasi. Abu Xanifa ad-Dinovariy “O’simliklar kitobi”da yozadi: “Ranf - tog’ daraxtlaridan biridir”. U hilof balxiy²²¹ nomi bilan ma’lum. Sahro baxromaji o’z barglarini tunda shoxlari atrofiga yig’ib oladi, kunduzi esa barglar yana yoziladi. Uning oti forschadan kelib chiqqan. Osilib turadigan quyuq qizil rangli gullarga ega o’simlik ham shu turga mansub.

Beruniy usfur o’simligiga ta’rif berish uchun Xanifa ad-Dinovariyning “O’simliklar kitobi” dan foydalanadi. Abu Hanifa ad-Dinovariy – (vafoti 900 yil) dehqonchilik, o’simlikshunoslik, mantiq, tarix va boshqa ilm sohalariga bag’ishlangan asarlar muallifi. Beruniy uning “O’simliklar haqidagi kitob” i haqida xabar bergan. Bu asarning saqlanib qolgan qismi B.Levin tomonidan nashr qilingan (B.Lewin. Uppsala, 1953)²²². Manbalar qatorida Ptolemeyning “Almagest” astronomiyaga oid asari hisoblanadi²²³. “Majistiy” - Yevropada Ptolemeyning mashhur “Almagest” nomli astronomiyaga oid asarning arabcha nomi hisoblanadi. Beruniy bu so’zni : “yunoncha emas deb izohlagan. Biroq bu so’z yunoncha “o’ta buyuk” ma’nosiga ega o’zakdan yasalgan. Ptolemeyning bu asari aslida “Almagest” deb atalmaydi. Arab tarjimonlari unga shunday nom berishgan”²²⁴ deb aytib o’tgan.

²¹⁹ Кусунб – санскритча kusumbha “кармин” (Lapidaires. – P.27).

²²⁰ Ранф – чўл ёсумани (Caesalpinia elata L., қаранг: Dozy, II. – P.561; киёс қилинг: Abu Hanifa, 37).

²²¹ Абу Мансур бу дарахтни форсча қилиб *бед, шохбед* ёки *сафсаф* деб атайди. Беруний ҳам “Сайдана”да.

²²² Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy. Al-Jamohir Fi-l-ma’rifat al-javohir (Minerologiya). – T.: O‘zbekiston, 2017. B.295.

²²³ Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy. Al-Jamohir Fi-l-ma’rifat al-javohir (Minerologiya). – T.: O‘zbekiston, 2017. B.292.

²²⁴ И.Ю.Крачковский. Избранные сочинения.-М.:1957.IV. – С.76.

Yana bir manba sifatida “Mahzan ul-adviya” (“Dorilar hazinasi”) nomli tibbiyotga oid kitobi hisoblanadi. Asarda yoqutga ta’rif berishda foydalanilgan. Unga ko’ra : “ Yoqut esa arabchalashgan shaklidir. Forslar unga sabaj-asmur degan laqab berganlar. Bu o’latni daf qiluvchi deganidir. Forschada o’lat sabaj deyiladi. “Kimki bir tanga vaznli yoqutni yutsa, u tutqanoq va o’lat kasalidan xalos bo’ladi”, - deb yozilgan ²²⁵. “Minerologiya” da qizil rang quyidagicha tushuntiriladi : “Qip-qizil rang - Rum qaysarlari kiyimlarining rangi. Abul Ishoq al-Forisiy o’z “Ashkol al-aqolim” (“Iqlim shakllari”) kitobida yozgan-ki, Fors ko’rfazi qarshisida baland qirg’oq yonida dengizda Xorik oroli bor. ²²⁶ U yerdagi dur izlov joyida dur kam topiladi. Ammo u nodir durdir hisoblanadi. Durning ana shu joydan olingani isbotlansa, uning narxi unga o’xshashlardan ko’ra balandroq bo’ladi. ²²⁷ Asardagi bu ma’lumot “Kitob al-masolik va-l ma malik” asaridan keltirilgan bo’lib, uning muallifi Abu Ishoq al-Forisiy – Abu Ishoq Ibrohim ibn Muhammad al Forisiy al-Istaxriy. 941 - yilda yozilgan “Kitob al-masolik va-l ma malik” (“Yo’llar va mamlakatlar kitobi”) nomli asar muallifi, geograf olim hisoblanadi. Asarda keltirgan “Ashkol ul-aqolim” (“Iqlimlarning shakllari”) nomli asar Abu Zayd al-Balxiy qalamiga mansub hisoblanadi. Ammo har ikkala nom bir asarga, ya’ni Istaxriyning “Kitob al - masallik va l ma malik” asariga tegishli ekani shubhasiz. ²²⁸ Asarda zumrad haqida ko’plab hikoyalar bor. Shulardan biri Al-Jayxoniyning “Yo’llar kitobi” da xabar qilinganidek, shahidlar sardori Istafonus cherkovida yigirma qarich uzunlikda va eni olti qarich ehson dasturxon bo’lgan. U tilladan yasalgan o’n ikkita yarim qarich kattalikdagi haykalcha ko’rinishidagi oyoqchalarga o’rnatilgan. Har bir haykalchanning ko’zi qizil yoqutdan bo’lgan. Bu cherkovning yog’och eshiklarini hisobga olmaganda, yigirma sakkizta oltin va mingta jez eshiklari bor.

Manba sifatida Al-Jahyoniy - Somoniy Nasr II davrida (914-943) vazir bo’lgan Abu Abdulloh ibn Ahmad al-Jayhoniy tilga olinadi. Bu shaxs ham “Kitob al-masolik va-l-mamolik” nomli kitoblardan birining muallifi bo’lib, bu kitob 920-yilda yozilgan. Ammo bizgacha yetib kelmagan. Unda boshqa manbalardan havolalar, olingan iqtiboslar ko’p uchraydi. ²²⁹ “Minerologiya” asosiy mavzu bo’yicha ilg’or fikrlaridan tashqari badiiy adabiyotga va ilmi adabga, xalq og’zaki ijodiyotiga, turli xalqlarning urf-odatlariga oid materiallarga boyligi bilan Beruniyning boshqa asarlaridan ajralib turadi. Bu

²²⁵ O’sha manba B.277.

²²⁶ Xorik – Fors ko’rfazining shimoliy-g’arbida joylashgan orol. Hozirgacha eng toza va sifatli dur olinadigan joy sifatida mashhur.

²²⁷ Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy. Al-Jamohir Fi-l-ma’rifat al-javohir (Minerologiya). – T.: O’zbekiston,2017.B.156.

²²⁸ O’sha manba B.318.

²²⁹ И.Ю.Крачковский.Избранные сочинения.-М.:1957.IV. – С. 219.

haqida akademik I.Yu.Krachkovskiy shunday deydi: “Beruniy ko’p yillik maxsus izlanishlarini faqat ilmiygina emas, balki badiiy adabiyot, faqat original arab adabiyotigina emas, boshqa tillardan o’tgan adabiyot namunalari bilan boyitdi”²³⁰ Buning isbotini esa unda keltirilgan manbalar ko’rsatib turibdi. Bular qatorida Abu Bakr as-Suliy, Muhammad ibn Yahyo (936 yoki 946 yilda vafot etgan) - Abbosiylar sulolasining mashhur tarixchisi, Abul-Qosim ibn Bobak - Abul-Qosim Abd as-Samad ibn Bobak - Jurjon shahridan chiqqan shoir bor. Manbani davom ettirgan holda Al-Hasan va al-Husan - zargarlar, As-Sallamiy – ehtimol, u Abu al-Xusayin Ali as-Sallamiy an-Nishopuriy bo’lsa kerak (912-913 - yillarda vafot etgan), bizgacha yetib kelmagan “Xuroson tarixi” nomli tarixiy asar muallifi ²³¹, Al-Lahham - u qadar mashhur bo’lmagan shoir, Al-Sanaubariy - Ahmad ibn Muhammad ibn al-Xasan al-Xalabiy - Suriya shoiri, Atoyus al Amidiy - Aetios Amidiy nomi keng tarqalgan, Yevfrot daryosi qirg’og’idagi Edessa shahridan chiqqan tarjimon, Abul xayr ibn Hasan - Ibn al-Hammor ismi bilan mashhur bo’lgan faylasuf tabib, Abu-l-Xasan al-Lixyaniy - arab filologi, IX asrda yashagan. Bularni davom etadi: An-Nabiga az-Zubyaniy– islomgacha yashab o’tgan shoir, Ali ibn al-Jahm - arab shoir Aus ibn Xojar - islomgacha yashab o’tgan shoir, Ibn Bobak - Abd as-Samad ibn Mansur (1019-1020 - yillarda vafot etgan), shoir hisoblanadi, Qays ibn al-Mulauvax - VII asrda yashab ijod etgan yarim afsonaviy shoir bo’lib, Majnun laqabi bilan mashhur bo’lgan filologi bo’lgan.²³² Yuqorida ko’rsatilgan ma’lumotlarga ko’ra “Minerologiya” da olim sakson to’rt shoir nomi va ularning asarlaridan parchalar keltirgan. Ba’zi o’rinlarda Eron, Xorazm, Buxoro, Xuroson shoirlari she’rlaridan ham foydalangan. Ko’pincha Beruniy she’rlarga izoh beradi, ba’zan she’rlarni tanqidiy tahlil ham qiladi. Bu holat Beruniyning adabiyot sohasidagi bilimi qanchalik keng ekanini ko’rsatadi.

Asarning asosiy qimmatini minerallar solishtirma og’irligining aniqlab chiqilishidir. Beruniygacha bunday ish antik davrda ham, keyinchalik ham amalga oshirilmagan edi. Bu ishda olim Arximed qonuniga asoslangan holda ish ko’rgan va bir qancha minerallarning suvga nisbatan vaznini aniqlaydi. Asar mohiyatidan kelib chiqib, aytish mumkinki, Beruniy minerallar og’irligini nihoyat darajada aniq o’lchagan, hattoki hozirgi zamondagi o’ta sezgir texnologiya jalb etilganida ham olim o’lchovining farqi yuzdan birdan ham kamroq. Beruniy o’zi yasagan maxsus asbob yordamida 50 ta moddaning, shu jumladan, 9 ta metall, 18 ta suyuqlik, 3 ta ma’dan va boshqa moddalarning

²³⁰ Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy. Al-Jamohir Fi-l-ma’rifat al-javohir (Minerologiya). – T.: O’zbekiston, 2017. B.179.

²³¹ O’sha joy.

²³² И.Ю.Крачковский.Избранные сочинения.-М.:1957.IV. – С.588-589.

solishtirma og'irliklarini aniqlik bilan o'lchaganligi uni shuhratiga shuhrat qo'shdi. "Mineralogiya" asarida keltirilgan toshlar va minerallarning bir qismi, ya'ni 90 dan ortiq nomlari, toshlarga mexanik ishlov berish usullari, uzunlik va og'irlik o'lchovlari hamda pul birliklari, bugungi kunda qimmatbaho toshlar, minerallar, tog' jinslarini fizik va kimyoviy xossalari qisqacha ta'rif berilgan. Oltin konlarini topib, qazib olish masalasida ham Beruniy bayon etgan fikrlar hozir ham katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Abu Rayhon Beruniyning "Mineralogiya" asari konlarni, ayniqsa O'rta Osiyo yer osti boyliklarini o'rganish uchun muhim manba sifatida o'z qimmatini saqlamoqda. Ushbu asarning o'zbek tilida nashr etilishi buyuk allomaning merosiga chuqur hurmat ramzidir.

Zero, Abu Rayhon Beruniyning asarlari, jumladan, "Mineralogiya" kitobi o'z aktualigini yo'qotmaygina emas, balki mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini oshirishda faol xizmat qilmoqda. Buning yorqin misoli shuki, 2017 yil 28 aprel kuni Respublikamiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev Navoiy shahriga tashrif buyurib, Auminzo-Amantoy oltin konlari negizida Navoiy kon-metallurgiya 5-gidrometallurgiya zavodi qurilishining boshlanishiga bag'ishlangan tantanali marosimda qatnashdi va Auminzo-Amantoy oltin konlari negizida o'zlashtirish ishlarini boshlash uchun ramziy tugmani bosdi. Umumiy qiymati 396 million AQSH dollari bo'lgan ushbu loyiha yiliga 5 million tonna rudani qayta ishlash imkonini beradi. Bu xodisa Respublikamiz metallurgiya va mineralogiya zahiralarning yanada boyishida ming yillar osha Abu Rayhon Beruniy hamon xalqimiz bilan bir safda turib xizmat qilayotganidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1) Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар. 1-жилд, –Т.: Фан, 1968.
- 2) Абу Райҳон Беруни. Избранные произведения. Т. 2, 1963
- 3) Шарипов А. Берунийнинг табиий-илмий ва фалсафий қарашлари. –Т.: Фан, 1972.
- 4) Беруний, Геодезия, Тошкент, 1966
- 5) Беруни. Минералогия, Л.,1963.
- 6) Беруний ва ижтимоий фанлар. Т., "Фан", 1973.
- 7) Беруний туғилган кунининг 1000 йиллигига бағишланган тўпلام. – Т.: "Фан". 1973й.
- 8) "Беруний билан Ибн Синонинг савол-жавоблари". Т.: "Ўзфанакадемнашр". 1950й.
- 9) Булгаков П.Г. Абу Райҳон Беруний. – Т.: 1973й

10) Шарипов А. Малоизвестные страницы переписки между Беруни и Ибн Синой. // Общественные науки в Узбекистане, –№ 5. 1965

11) Булгаков П.Г., Жизнь и трудк Беруни, Тошкент, Изд-во “Фан” УзССР, 1972

12) Крачковский И.Ю. IV, Арабская географическая литература.

XONDAMIRNING TARIXIY-ILMIY MEROSI

Jumayev G‘.I. -

“Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari” mutaxassiligi I-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada XV asr oxiri - XVI asr boshlaroda Markaziy Osiyoning siyosiy - ijtimoiy, iqtisodiy-madaniy hayoti va mintaqada hukmronlik qilish uchun kurashgan uch sulola vakillarining tarixi to‘g‘risida tarixiy ma‘lumotlar beruvchi mashhur tarixchi, geograf, diplomat, shoir olim Xondamirning faoliyati va yozib qoldirgan merosi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: sadr, tarix, muhtasib, ihtisob, parvonachi, mubashshir, hofiz, munshiy, mustavfiy, kalontar.

XV asr oxiri - XVI asr boshlarida Movarounnahr va Xurosonda hukmronlik qilayotgan Temuriylar sulolasi vakillar o‘zaro taxt uchun kurashlar kuchaygan, Temuriylar imperiyasi inqirozga yuz tutayotgan davrda ham bu hududda madaniyat, ilm-fan sohasida yuksalish kuzatildi. Sababi Amir Temur kabi uning avlodlari, amirlari (Shohruh Mirzo, Mirzo Ulug‘bek, Ibrohim Sulton, Boysung‘ur Mirzo, Abulqosim Bobur, Sulton Husayn, Alisher Navoiy, Bobur Mirzolar) ham ilm-fanga va madaniyatga doimo e‘tiborda bo‘ldilar. Buning natijasi o‘laroq bu davrda juda ko‘p olimi-ulamo, fozilu- fuzalo, shoiru-shuaro, ilm-fan va hunar namoyandalari yetishib chiqdi. Ular o‘z ijodi, faoliyati, yaratgan san‘at asarlari, qoldirgan ilmiy merosi bilan dunyoga tanilganlar.

Shunday qomusiy olimlardan biri mashhur tarixchi Xondamir bo‘lib, to‘liq ismi G‘iyosiddin Muhammad ibn Xoja Humomiddin ibn Jaloliddin Muhammad ibn Burhoniddindir. Milodiy 1476-yilda Hirotda dunyoga keladi.

Alisher Navoiy o‘zining "Majolis un-nafois" asarida: "Mavlono Xondamir Mirxondning farzandidur, salohiyatlik yigitdur. Tarix fanida mahorati bor" - deb qayd etgan. Navoiy asarlaridan shu narsa ma‘lumki, Xondamir " Naqiy " taxallusi bilan she‘rlar ham bitgan. Xondamirning otasi Xoja Humomiddin Muhammad ibn Jaloliddin Muhammad ibn Xoja Burhoniddin Muhammad Sheroziydir. Zamonasining ziyolilaridan bo‘lib, Temuriylardan Hisori Shodmon va Badaxshon hukmdori Sulton Mahmud Mirzoning (1453-1494) vaziri bo‘lgan.

Ona tomondan mashhur tarixchi olim " Ravzat us-safo" ("Soflik bog'i") asari muallifi Mirxondning nabirasi bo'lgan. [1].

Hirotda maktablarida tahsil olib, solmona va tarixiy asarlar o'qishga qiziqadi. Tarix, adabiyot, insho va boshqa ijtimoiy fanlar bo'yicha chuqur va keng bilim sohibi bo'lib, o'z davrining ulkan olimi sifatida taniladi.

Albatta, uning yetuk tarixchi olim bo'lib yetishishida bobosi Mirxondning o'rni beqiyos. Shu bilan birga buyuk mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari ham Xondamirning tarix faniga bo'lga ixlos va sadoqatidan xabardor bo'lgach, uni ma'naviy jihatdan qo'llab - quvvatlab turadi. Xondamir o'zi haqida keltirgan ma'lumotlardan ayon bo'ladiki, u yoshlik chog'idayoq Navoiy qo'lga keladi. Dastlab uning kutubxonasi kutubxonachi, keyinroq esa mudir bo'lib ishlagan. Navoiy unga o'zining shaxsiy kutubxonasidan foydalanishga ruxsat berib, tarixiy-ilmiy ishlariga rahnamolik qilib turadi. Ulug' shoir ko'rsatgan homiyligi va murabbiyligi uchun Xondamir unga atab o'zining " Maosir ul- muluk" asarini yaratadi.[2].

Xondamir Alisher Navoiy hazratlari vafotigacha(1501-yil 3-yanvar), ulug' shoirning kutubxonasi mudiri bo'lib ishlagan. So'ng u Xurosondagi siyosiy voqealar girdobiga tushib dastlab Balxda Sulton Husayn Boyqaroning katta o'g'li Badiuzzamon saroyida xizmat qiladi. Ayni shu paytda Badiuzzamon Mirzo Qunduz hokimi Xusravshohni Shayboniyxon (1500-1510) lashkari tomonidan kutilayotgan hujumdan Xurosonni himoya qilishda ishtirok etishga og'dirish orzusida yuborilgan elchilar qatoriga Xondamir ham qo'ahilib, shaxsan o'zi Badiuzzamonning maxsus topshirig'ini bajardi. Shu davrda unga "sadr" unvoni beriladi. Xondamir bir oz fursatdan so'ng yana Badiuzzamon topshirig'i bilan Shayboniyxonga qarshi tuzilgan ittifoqqa Qandahor hokimini birlashtirish maqsadida u yerga jo'natiladi. Ammo Badiuzzamon Mirzoning qizi vafoti tufayli Xondamir safarni to'xtatib Hirotda qaytishga majbur bo'lgan. Badiuzzamon topshirig'i bilan ko'plab diplomatik missiyalarni bajardi. Afsuski, olimning hayoti o'ta tahlikali davrga Temuriylar davlatining inqirozi, Muhammad Shayboniyxon (Movarounnahr), Zahiriddin Muhammad Bobur (Hindiston), Shoh Ismoil Safaviy (Eron) sulolalari tashkil topayotgan paytga to'g'ri keladi. [3].

1506-yili olim Shayboniyxon Hirotni zabt etishi shohidi bo'lgan va Xuroson markazi Hirotni topshirishdagi shartlarni ishlab chiqishda ishtirok etgan. Shunday qaltil va tahlikali davrda yashishiga qaramay Xondamir forsiy-dariy tilida o'n uchta asar yozib katta meros qoldirdi. Hozirgi paytda ulardan faqat sakkiztasi - "Maosir ul-muluk" , "Xulosat ul-axbor" , "Dastur ul-vuzaro" , "Nomayi nomi" , "Ravzat us-safo"ning yettinchi jildi, "Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar" va "Humoyunnoma" bizgacha yetib kelgan. Muarrixning "Maosir ul-muluk" ("Hamasr podshohlarning tarixi") asari Alisher Navoiy iltimosiga

ko'ra va unga minnatdorchilik izhori tariqasida 1498-1499-yillarda yozilgan. Bu asar podshohlar va qadimgi donishmandlarning xayrli ishlar haqida aytilgan hikmatnamo gapilarni o'z ichiga oladi. Jumladan, Qayumarsdan Anushirvongacha, Odam Atodan Buzurgmehrgacha bo'lgan hamda payg'ambarimiz Muhammad s.a.v va imomlar haqida bitilgan naqllardan iborat. So'ngra muallif Ummaviylar, Abbosiylar, Somoniylar, G'aznaviylar va boshqa sulolalarga tegishli hukmdorlar tarixi bilan birga kurd podshohlari va turk xoqonlari tarixini yoritgan. Asarning oxirigi qismida Husayn Bayqaro va Alisher Navoiyga zamondosh hukmdorlar, olimlar va donishmandlar haqida ma'lumotlar beradi.[4].

"Xulosat ul-axbor fi bayon ul-ahvol ul-ahyor" ("Xayrli kishilar ahvolini bayon etish borasida xabarlar xulosasi") muarrixning bu asari ham 1498-1499-yillar orasida yozilgan bo'lib, asar Alisher Navoiyga bag'ishlangan. Unda Husayn Bayqaro va Alisher Navoiy zamonida Hirot va uning atrofida olib borilgan ulkan qurilishlar, qazilgan suv inshootlar, shuningdek, o'sha davr shoirlari, olimlari, matematiklari, astronomlari, musiqashunoslari, shifokorlari, san'atkorlari haqida qiimmatli ma'lumotlar bor.

"Makorim ul-axloq" ("Oliyjanob xulqlar") asarini olim Hazrat Alisher Navoiyga minnatdorchilik ramzi sifatida yozgan. Bu asarda Xondamir Navoiyning yuksak insoniy fazilati, oliyjanob axloqi, asarlari, Navoiy qurdirgan binolar, unga zamondosh shoir, olim va fozil kishilar shuningdek, Xurosonning o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, Navoiy bilan Husayn Bayqaro orasidagi munosabatlar xususida hikoya qiladi. Xondamir bu asarini " Makorim ul-axloq " deb aytganda, bu iborani Payg'ambarimiz ta'rifida aytilganini nazarda tutgan deyish mumkin. Zero, Xondamir Alisher Navoiy siymosida, hayoti, faoliyati, ijodida poklikni his qilgan, e'tiqodini e'zozlagan.[5].

Tarixchining yana bir asari "Dastur ul-vuzaro" ("Vazirlar uchun qo'llanma") bo'lib, Alisher Navoiy hazratlari iltimosiga muvofiq 1500-yili yozilib, Husayn Bayqaro va uning vaziri Amir Kamoliddin Mahmudga bag'ishlangan. Bu asar oradan to'qqiz yil o'tib, ya'ni, 1509-yilda qayta ishlangan va kengaytirilgan. Asarda Sharq mamlakatlarining VII - XVI asrlardagi tarixi, jumladan, Movarounnahr va Xurosonda Temuriylar sulolasi inqiroziga qadar o'tgan vazirlar, Chingizxonning vaziri, keyinroq mo'g'ullarning Xitoydagi noibi, Xorazmlik Mahmud Yalavoch hamda uning o'g'li Chig'atoyxonning Movarounnahrdagi vaziri Mas'udbek to'g'risida ma'lumotlar joy olgan.

Allomaning "Nomayi nomi" ("Atoqli nomalar") asarida 1522-yilda kechgan voqealar bayon qilingan. (asarning "Inshoi G'iyosiddin", "Inshoi G'iyosiy" degan nomlari ham bor). Kitob insho ilmiga (turli maktublar va farmonlarni yozish qoidalari, stilistika) oid bo'lib, Sharq mamlakatlarida o'tgan turli tabaqadagi tarixiy shaxslarga (shohlar, amirlar, sadrlar, qozilar, shayxlar,

shoirlar) doir ma'lumotlar, podshoh va xonlarning yorliq va farmonlaridan namunalar, ularni bitish tartiblari etilgan. Asarning qimmatini shundaki, unda ba'zi bir muhim mansablarning (parvonachi, munshiy, mustavfiy, ihtisob(muhtasib), kalontar, mubashshir, hofiz) kelib chiqishi bunday mansab egalari haq-huquqlari va vazifalari yoritilgan.

Mirxondning "Ravzat us-safo" ("Soflik bog'i") asariga Xondamir tomonidan 1522-yilda yozib tugatilgan 7-jild va geografik ilova qismlar mavjud. Bu yettinchi jild mazmunan Xondamirning "Habib us-siyar" asarining 3-jild ikkinchi va uchinchi qismi mazmuni bilan mosdir.

Xondamirning eng yirik tarixiy asari "Habib us-siyar" 1520-1524-yillar mobaynida yozilgan. Safaviylar davlati vaziri Karimuddin Xoja Habibulloh Sovajiyga bag'ishlanib, asar nomi ham qisman shu vazir ismi bilan bog'langan. Asarda qadim zamonlardan to 1524-yilga qadar Sharq mamlakatlarida, xususan, Eron, Afg'oniston, Iroq va Markaziy Osiyoda sodir bo'lgan voqealar qalamga olingan.

Olimning "Humoyunnoma" asari "Qonuni Humoyun" nomi bilan ham mashhur bo'lib, Hindiston podshohi Humoyun Mirzoga bag'ishlangan. Asar 1535-yili yozib tamomlangan. Asarda Humoyunning Boburiylar davlatida hukmronlik qilgan davrida joriy etgan yangiliklari, aholining uch tabaqaga, hokimiyatning esa to'rtta idora usuliga bo'linishi va Humoyunning me'morchilik faoliyati haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Xondamirning qolgan beshta asarining faqatgina nomlari ma'lum xolos. Bular "Osor ul-muluk val anbiyo" ("Podshoh va payg'ambarlar haqida hikoyalar"), "Axbor ul-axyor" ("Yaxshi insonlar haqida xabarlar"), "Muntaxabi tarixi Vassof" ("Vassof tarixidan qo'llanma"), "Javohir ul-axbor" ("Xabarlar gavharlari"), "G'aroyib ul-asror" ("Qiziqarli sirlar") deb nomlangan asarlardir.[6].

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Xondamir o'z davri taloto'plaridan omon chiqib o'ta nodir asarlar yozib qoldirgan qomusiy olimdir. Muarrix tomonidan yaratilgan bunday ilmiy meros juda katta boylik uni o'rganish hali davom etadi va yangi-yangi tadqiqotlarga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'iyosiddin Xondamir. Makorim ul-axloq. Nashrga tayyorlovchi Mutallibov.S. O'zdavnash.-T:1944.
2. Ахмедов. Б. Хондамир. Тошкент. Фан. 1965.
3. Юсупова.Д. Жизнь и труды Хондемира монографии. -Т:2006
4. Гиёсиддин Хондамир. Хабиб ус-сияр. Буюклик хислати. Нашрга тайёрловчи Бекжонов. Тошкент. Шарк нашр. 2011. 3.бет.

5. Гиёсиддин ибн Хумомиддин Хондамир. Хабиб ус-сияр фи ахбори афроди башар. Нашрга тайёрловчи Хазраткулов .Ж., Бекжонов.И. Тошкент Ўзбекистон нашр. 2013.17-20- бетлар.

6. G'iyosiddin Xondamir. Makorim ul-axloq. Rahimov.K. Toshkent Yoshlar nashr. 2018. 3.b.

7. Boymatov.H. / Xondamir ilmiy merosida tabiiy - ilmiy bilimlarning o'rni va roli / Toshkent. 2018. 7.b.

MIRXONDNING HAYOTI VA UNING TARIXCHI SIFATIDA ILM-FANDA TUTGAN O'RNI

Karimov Sherzod Shavkat o'g'li -

*“Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot
usullari” mutaxassisligi I-kurs talabasi*

Ilmiy rahbar: **t.f.n. Fayziyev X.T.**

Sharq xalqlari tarixini o'rganish, tadqiq etishda Tabariy, Narshaxiy, Bayhaqiy, Juvayniy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy, Ibn Arabshoh, Abdurazzoq Samarqandiy singari olim va mutafakkirlar yaratib qoldirgan durdonalar katta ahamiyat kasb etadi. Ana shunday bebaho tarixiy asarlardan biri «Ravzat us-safo» asaridir.

Asarning ilk muallifi Mir Muhammad ibn Sayyid Burhoniddin Xovandshoh ibn Kamoluddin Mahmud al-Balxiy — Mirxond (1433 – 1498) o'rta asr tarix fanining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biridir. Mirxondning otasi Sayyid Burhoniddin Xovandshoh ham zamonasining bilimdon kishilaridan bo'lib, Temuriylar hukmronligi davrida Buxorodan Balxga kelib qolgan.

Mirxond O'rta asrlar tarix fanining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biridir. Ota-bobolari buxorolik bo'lib, fiqh ilmida zamonasining yetuk olimlari sifatida mashhur bo'lgan. Ulardan Mahmud ibn Ahmad al-Mahbubiy (vafoti — tax. 1300) fiqh ilmida peshqadam olim bo'lganligi uchun «Toj ash-shari'a» («Shariat toji») nomi bilan nom chiqargan va Sharqning mashhur fiqh olimi Sayyid Burxonuddin Marg'inoniyning «Hidoya» asariga «Viqoya ur-rivoyat fi masoil ul-Hidoya» («Hidoya masalalarini himoya qiluvchi rivoyatlar») nomli sharh yozgan.²³³

Ubaydulloh ibn Mas'ud al-Mahbubiy (vafoti — 1346) «Toj ash-shari'a as-soniy» («Ikkinchi shariat toji») nomi bilan tanilgan va «Sharh ul-viqoya», «An-nihoya muxtasar ul-viqoya» nomli mashhur kitoblar yozib qoldirgan.

²³³ Xayrullayev M. M. Ma'naviyat yulduzlari. – T: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr. 1999. 245-b.

Mirxondning otasi Sayyid Burxonuddin Xovandshoh ham o‘z davrining bilimdon kishilaridan bo‘lib, Temuriylar hukmronligi davrida Balxga kelib qolgan va o‘sha yerda vafot etgan.

Mirxond 1433-yili Balxda tug‘ilgan bo‘lsa-da, umrining deyarli ko‘p qismini Hirotda o‘tkazdi. Uning hayoti va ilmiy faoliyati haqida nabirasi Xondamir «Xulosat ul-axbor» kitobida qimmatli ma‘lumotlarni yozib qoldirgan. Uning yozishicha, Hazrat Navoiy Mirxondga juda katta moddiy va ma‘naviy yordam ko‘rsatgan, o‘zining «Ixlosiya» xonaqosidan bir hujra ajratib bergan va undan bir tarixiy asar yozib berishni iltimos qilgan. Mirxond bu asarni qisqa vaqt ichida yozib tamomlagan. 1497-yilning bahorida og‘ir kasallikka chalinib, 1498-yilda olamdan o‘tgan. Asarni uning nabirasi Xondamir davom ettirgan. Xondamir «Xulosat ul-axbor» kitobida bobosi haqida quyidagilarni yozadi: «Padarpanoh janob amir Xovand Muhammad yigitlik chog‘larida turli ilmlarni tahsil etish va nafis fazilatlarini kamoliga yetkazish yo‘lida tirishqoqlik va zo‘r mehnat qildi... Qisqa vaqt ichida bilimdonliqta zamon fozillarining peshqadami bo‘lib oldi. U (ko‘proq) tarix ilmini kasb qildi va jahon ahvolini hamda osor-atiqalarini tahqiq qilishga kirishdi. Olijanob xotirani tez fursat ichida bu fanni egallashdan forig‘ qildi, ammo fe’lu atvori maishat ahli bilan qo‘shilishga yo‘l bermadi, zavqu shavqqa berilmadi... Dars berish va amru ma‘rifatga ishtiyoq uning ravshan xotirida aslo ko‘rinmadi. Ammo (bu hol)... orzu va omonlikning qiblagohi, ya’ni olijanob Sulton (Husayn) hazratlari yaqin do‘sti (Alisher Navoiy)ning huzurlariga borgunicha va uning har turli navozish, marhamat, iltifot hamda muruvvatlarini topmaganlaricha davom etdi».²³⁴

Mirxond yozgan asarning to‘liq nomi «Ravzat us-safo fi siyrat ul-anbiyo val-muluk val-xulafo» («روضة الصفاء في سيرة الانبياء والملوك والخلفاء»), «Payg‘ambarlar, podshohlar va xalifalarning tarjimai holi haqida soflik bog‘i») bo‘lib, undan dunyoning yaratilishidan to 1523-yilga qadar Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida bo‘lib o‘tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar keng bayon etilgan. «Ravzat us-safo» muqaddima, yettita jild, xotima va geografik qo‘shimchadan tashkil topgan. Mazkur asarning jildlari quyidagi davrlarga bo‘lingan: 1) Dunyoning yaratilishidan to Sosoniy Yazdigard III (632—651) davrigacha o‘tgan tarixiy voqealar; 2) Payg‘ambar Muhammad s.a.v. va birinchi to‘rt xalifa davrida bo‘lib o‘tgan voqealar; 3) O‘n ikki imom tarixi; Umaviya va Abbosiya xalifalari; 4) Abbosiylar bilan zamondosh bo‘lgan sulolalar (asosan Eron, Markaziy Osiyo va Hindistonda); 5) Mo‘g‘ullar, Chingizxon, uning avlodlari, Eron va ba’zi qo‘shni mamlakatlarda mo‘g‘ullar hamda ulardan keyin Amir Temur davrigacha mavjud bo‘lgan sulolalar; 6)

²³⁴ Xayrullayev M. M. Ma‘naviyat yulduzlari. – T: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr. 1999. 245-b.

Amir Temur va uning zamonidan to Sulton Abu Sa'id o'limigacha (1469) bo'lib o'tgan voqealar; 7) Sulton Husayn Boyqaro va uning farzandlarining tarixi (1523 yilgacha).

Xondamirning ta'kidlashicha, ushbu asar bizga ma'lum bo'lgan holda Mirxond tomonidan tugatilmagan. Uning yettinchi jildining matni, shubhasiz, Xondamirning qalamiga mansub. Bu fikrni tasdiqlaydigan quyidagi ma'lumotlarga e'tibor berish kifoya: Xondamir «Ma'osir ul-muluk» va «Xulosat ul-axbor»ning xotimasida Mirxondga to'xtalib, Amir Temur tarixiga oid qog'ozga tushirilgan har xil materiallarga ega bo'lmaganligi uchun, o'z asarini tugata olmagan va agar fursat topilsa, (Xondamir) bobosi asarini tugatishga yo'l topgan; asarda bayon etilgan tarix to 1523-yilgacha yetkazilgan, vaholanki, Mirxond 1498-yili vafot etgan; yettinchi jildning matni Xondamirning «Habib us-siyar»ining III jild 3-qismi ikkinchi yarmi bilan deyarli bir xil.²³⁵

«Ravzat us-safo»ning «jo'g'rofik qo'shimchasi» esa Mirxond va Xondamir tomonidan amalga oshirilgan. Unda turli «ajoyibotlar», ba'zi dengizlar, daryolar, muhim shaharlarning qisqacha ta'rifi bayon etilgan. Asar ustida olib borilgan oxirgi tahrir ham Xondamir tomonidan bajarilgan.²³⁶

Asar rangin va jozibali tilda, sodda va ravon uslubda yozilgan bo'lib, ilk sahifalardanoq o'quvchining e'tiborini o'ziga tortib oladi. U juda ko'p ibratli, ta'sirli, qiziqarli voqealarni o'z ichiga oladi. Asar tili va uslubiga ko'ra, o'z davrining bebaho adabiy yodgorligi hisoblanadi.

Mazkur bebaho asarning parchalari fransuz, lotin, shved, nemis va boshqa bir qator tillarga tarjima qilingan. Uzoq vaqt davomida ushbu asar yevropaliklar uchun Sharq tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib hisoblangan.

Asarning nodir qo'lyozmalaridan biri Sankt-Peterburgda, D203 raqami ostida Rossiya Fanlar akademiyasining sharq qo'lyozmalari institutida saqlanmoqda. 1608-yilda ko'chirilgan, 233 varaqdan iborat bu qo'lyozmaning ayrim sahifalariga oltin suvi yugurtirilgan. Mazkur kitobda Tohiriylar davridan to Amir Temurning davlat tepasiga kelishiga qadar bo'lgan voqealar (820 – 1370-yillar) bitilgan.²³⁷

Mirxondning bu asari juda ko'p mamlakatlar tarixini o'rganishda qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi. Kitobning faksimile nusxasi ko'pgina tadqiqotchilar uchun Markaziy Osiyo tarixi, xususan temuriylar davrini o'rganishja muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

²³⁵ Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. – T: «O'zbekiston» NMIU. 2013. 17-b.

²³⁶ Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. – T: «O'zbekiston» NMIU. 2013. 18-b.

²³⁷ Xayrullayev M. M. Ma'naviyat yulduzlari. – T: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr. 1999. 246-b.

Asarning o‘zbekchaga tarjimasi Muhammad Rahimxon Feruz davri (1865 – 1873-yillarda hukmronlik qilgan)da mashhur shoir va tarixchilar Shermuhammad Munis (1778 – 1829) va Muhammad Rizo Ogahiy (1809 – 1894) tomonidan amalga oshiriladi.²³⁸

Asrlar o‘tishi bilan sulolalar o‘zgardi, davru davronlar almashdi. Shu bois XVI asr birinchi choragidan keyingi voqealarni puxta, asosli yoritadigan asarlarga ehtiyoj sezila boshlagandi. Ammo, bu singari katta hajmli asarni munosib tarzda davom ettirishga har qanday tarixchi olim jur‘at eta olmasdi. Biroq, Eronda Qojarlar davrida yashagan mashhur tarixchi, shoir va diplomat Rizoqulixon Hidoyat (1800 – 1871) ana shu ishga qo‘l urdi.

Rizoqulixon yoshligidan Qojarlar sulolasining vakili Fathali Shoh (1797 – 1834)ning saroyida xizmat qilgan. O‘zining rangin she‘rlari bilan shohning nazariga tushgan Rizoquli «amir ush-shuaro» («shoirlarning amiri») unvonini olgan.

U sulolaning keyingi vakili Nasriddin Shoh Qojar zamonida ham (1848 – 1896) saroyda mas‘ul vazifalarda ishlagan. Saroy kutubxonasi rahbari bo‘lgan, keyinchalik Eronda yangi usuldagi maktab ochib, uni boshqargan.

Rizoqulixon Hidoyat Sharqda forsiy tildagi eng mukammal tarixiy asarlardan biri sanalgan «Ravzatus-safo» asarining davomini yozishga kirishdi. Rizoqulixon Mirxondning bayon uslubini saqlagan holda Safaviylar davridan boshlab, Afsharlar, Zandlar va Qojarlar sulolasi davrida Eron, Xuroson va qisman Movarounnahrda yuz bergan voqealarni o‘zining uch jildli asarida yozib qoldirgan. Asar Nasriddin Shohga bag‘ishlab bitilgani uchun uning ismiga monand tarzda «Ravzatus-safoi Nosiriy» deb nomlangan.²³⁹

Rizoqulixon Hidoyat 1851-yilda Nasriddin Qojar (1834 – 1848)ning topshirig‘i bilan Xiva xoni Muhammad Aminxon (1845 – 1855) huzuriga elchi bo‘lib keladi. Mazkur elchilik asnosida Eron – Xorazm munosabatlariga oydinlik kiritish yuzasidan muzokaralar olib borilgan. Xorazmdagi sayohati haqida u «Saforatnomai Xorazm» («Xorazm safari kundaligi») asarini ham yozadi (Mazkur asar 2009 yilda «Yangi asr avlodi» nashriyatida Ismoil Bekchon tarjimasida o‘zbek tilida bosilib chiqqan).²⁴⁰ Mazkur asarida Rizoqulixon Xorazm xaqqlining tarixi, madaniyati, turmush tarzi, urf-odat va an‘analari, xususan, Xiva xonligida XIX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy vaziyat haqida qimmatli ma‘lumotlar beradi.

²³⁸ Xayrullayev M. M. Ma‘naviyat yulduzlari. – T: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr. 1999. 246-b.

²³⁹ Xayrullayev M. M. Ma‘naviyat yulduzlari. – T: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr. 1999. 246-b.

²⁴⁰ Xayrullayev M. M. Ma‘naviyat yulduzlari. – T: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr. 1999. 246-b.

Hidoyat Xiva xonligiga tashrifidan sal avvalroq «Ravzatus-safoyi Nosiriy» asarini yozib tugatgan edi. U mazkur asarning bir nusxasini o‘zi bilan olib kelgan. U Xivada bo‘lgan paytida buyuk o‘zbek shoiri Muhammad Rizo Ogahiy bilan ham uchrashgani, u bilan ijodiy hamkorlik qilgani ma’lum.

Yuqorida aytilganidek, «Ravzatus-safo»ning o‘zbek tiliga tarjimasi Shermuhammad Munis tomonidan boshlangan, bu ishni endilikda Ogahiy davom ettirayotgan edi. Shoir keyinchalik, ushbu yirik tarixiy asarning Rizoqulixon qalamiga mansub qismini ham o‘zbekchaga o‘girgan.

Bugungi kunda Mirxond va Xondamir qalamiga mansub «Ravzatus-safo» asari O‘zbekiston fanlar akademiyasining sharqshunoslik instituti, shu bilan birga Ogahiy tarjimasidagi «Ravzatus-safoi Nosiriy» asari ham Rossiya fanlar akademiyasining Sankt-Peterburgdagi Sharq qo‘lyozmalari institutida saqlanmoqda.

KARASKAN SAYYIDLARI OILAVIY HUJJATLARINING TARIXIY-MANBASHUNOSLIK TAHLILI (O‘ZBEKISTON MILLIY ARXIVI FONDIDAGI HUJJATLAR ASOSIDA)

Mirzayeva M.M. -

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

2-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqola Karaskan sayyidlari oilaviy hujjatlarining tarixiy-manbashunoslik tahliliga bag‘ishlangan. Bunda O‘zbekiston Milliy arxiv fondidagi ushbu xonadon vakillariga tegishli hujjatlar asos qilib olindi. Hujjatlar XVI-XIX asrlarga oid bo‘lib, qonunchilik aktlari tipidadir. Hujjatlarning paleografik va diplomatik xususiyatlari tahlil etilishiga e’tibor qaratilingan. Ushbu xonadon vakillariga oid FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan “Yorliqlar to‘plami” tadqiq etilgan. Lekin Milliy arxiv fondidagi hujjatlar tadqiqotchilar tomonidan tadqiq etilmagan.

Kalit so‘zlar: Karaskan sayyidlari, yorliq, inoyatnoma, Shayboniylar, Ashtarxoniylar, Qo‘qon xonligi.

O‘zbekiston Milliy arxivi fondidagi Karaskan sayyidlari xonadoniga tegishli hujjatlar I-323 jamg‘armaning yorliq, suyurg‘ol, rivoyat kabi turli mazmundagi hujjatlar mavjud bo‘lgan 2-ro‘yxatdan o‘rin olgan. Ularning miqdori 50 dan ortiq bo‘lib, hujjatlar turkiy va forsiy tillarda. Hujjatlar Shayboniylar, Ashtarxoniylar va oMilliy arxiv fondidagi Karaskan sayyidlariga

berilgan hujjatlar ushbu xonadon tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu hujjatlar soni FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan "Yoriqlar to'plami"dagi hujjatlarga nisbatan kam. Lekin Milliy arxiv fondidagi hujjatlar orasida "Yoriqlar to'plami"da ko'chirma nusxasi mavjud bo'lmaganlari ham bor²⁴¹.

Ayrim hujjatlar yomon ahvolda yetib kelgan. 35-yig'ma jilddagi hujjatda esa adresant nomi yozilgan qismi saqlanmagan. 40-yig'ma jilddagi hujjatda adresant va adresat nomlari saqlanmagan. 64-yig'ma jilddagi hujjat matni saqlanmagan, faqat yorliqning invokatsiya va intitulyatsiya qismi saqlangan. 66-yig'ma jilddagi hujjatning chap tarafi yaxshi saqlanmaganligi sababli, ayrim jumlar va hujjat berilgan sanani aniqlay olmadik. 71-yig'ma jilddagi hujjat qog'ozi zararlanganligi bois hujjat matnini to'liq tiklay olmadik. Muhrlar ham to'liq saqlanmagan. Bu jihatlar ishimizda sayyidlar vakillari nomlarini tiklash, hujjat berilgan davrni aniqlash, sayyidlarga berilgan imtiyozlarni tahlil qilishda qiyinchilik keltirib chiqaradi.

XVI-XIX asrlarda O'rta Osiyoda nomi va funksiyasi bir-biriga yaqin bo'lgan bir nechta qonunchilik aktlari muomalada bo'lgan. Ular turlicha nomlangan: manshur, yorliq, farmon, hukm, nishon, parvona, inoyatnoma, ommonoma, muboraknoma. Biz tadqiq etayotgan hujjatlarda yorliq, hukm, nishon, inoyatnoma kabi qonunchilik aktlari nomlari uchradi. Bu nomlar hujjatlarning xonliklar devonxonasida atalishi bo'lib, hujjat matnida har doim ham keltirilmasligi mumkin. Shu jihatdan tadqiqotchilar bu turkum hujjatlarning tuzilishi va tarkibiy qismlarini tahlil qilgan holda ularni shartli ravishda farqlashni taklif etgan. A.L. Troitskaya inoyatnomalar "dar in valo" ("ayni zamonda") jumlasini bilan boshlanishini ta'kidlaydi²⁴². Inoyatnomalarda intitulyatsiya qismi, ya'ni hujjat berivchining ismi ham keltirilganligini kuzatdik. Adresant berilgandan so'ng asosiy matn "dar in valo" jumlasini bilan boshlangan va hujjat matnida ham inoyatnoma ekanligi ta'kidlangan²⁴³. shuningdek, inoyatnomalar soliqlardan ozod etish, ma'lum imtiyozlar berish kabi mazmunda berilgan. Bu turdagi hujjatlar odatda old tomon yuqoridan o'nga tarafga yoki orqa tomon o'ng taraf ostki qismiga oliy hukmdor yoki yuqori darajali amaldor muhrini bosish bilan tasdiqlangan. Karaskan sayyidlariga berilgan yorliqlar ham shu tartibda tasdiqlangan. Shuningdek, yorliq oliy hukmdor nomidan hokim yoki ma'lum bir amaldor tomonidan berilganda amaldor muhri bilan birgalikda oliy hukmdor muhri ham bosilgan. Hujjatlarning orqa tomoniga qozi va amaldorlar muhri bosilgan²⁴⁴. Muhrlar shaklan dumaloq,

²⁴¹ O'zMA, I-323, 2-ro'yaxat. 36, 37, 38, 43, 47, 49, 50, 52, 53, 59, 64, 71, 83-yig'ma jild.

²⁴² Троицкая А.Л. Кадалог архива кокандских ханов XIX века. – Москва, 1968. – С. 6.

²⁴³ O'zMA, I-323, 2-ro'yaxat. 67-yig'ma jild.

²⁴⁴ O'zMA, I-323, 2-ro'yaxat. 24, 35, 36, 57-yig'ma jild.

bodomiylar, ko‘zasimon, oval, sakkiz burchakli va boshqa geometrik shakllarda bo‘lgan. Shayboniy shahzoda va hukmdorlar asosan suls xatli dumaloq muhrlardan, qisman nasta‘liq xatli bodomiy muhrlardan foydalangan. Hujjatlarda Abdulazizxonning bodomsimon, Sulton Muhammad Husayn podshoh va Do‘st Muhammad bahodirxonning²⁴⁵ aylana, Abulxayr sultonning²⁴⁶ olti burchakli muhri, Sulton Isfandiyor bahodirning²⁴⁷ sakkiz burchakli muhrlarini ko‘rishimiz mumkin²⁴⁸. Yuqorida ta‘kidlanganidek yorliqlar orqasida ma‘lum bir amaldorlarning ham muhri bo‘lgan. xususan, Abulxayr bahodirxon tomonidan berilgan yorliqning orqa tarafida Muhammad Halil munshiyning aylana-gullik muhri mavjud. Ashtarxoniylar davrida esa nasta‘liq xatli bodomsimon muhrlar urfga kirgan. Xususan, Imomqulixon (1611-1642), Elmuhammad bahodir sultonning²⁴⁹ bodomsimon muhrlari yorliqlarda bosilgan. XVIII asr oxiri XX asr boshlariga kelib Qo‘qon xonligida hukmdorlarning nast‘aliq xatli bodomsimon va cho‘qqili bodomsimon muhrlari keng tarqaldi. Muhammad Alixon tomonidan 1245/1829 yilda berilgan yorliqda ko‘zasimon muhri bosilgan²⁵⁰. Ba‘zi hujjatlarning yaxshi saqlanmaganligi bois ayrim muhrlarning matnini o‘qib bo‘lmadi. Sayyid Go‘yo Muhammadxo‘jaga berilgan yorliqdagi to‘rtburchak shakldagi muhr, Kamoliddinxo‘ja, sayyid Zohid, sayyid Fazlullohga berilgan yorliqdagi bodomsimon muhr va boshqalarni keltirishimiz mumkin²⁵¹.

Muhrlarning rangi qora va qizil rangda bo‘lib, sayyid Fazlullohga berilgan muhr va 64-yig‘ma jildda saqlanayotgan hujjatdagi muhr qizil rangda. Sayyid Fazlullohga berilgan yorliq muhri o‘lchami kattaligi jihatidan boshqa hujjat muhrlaridan farq qiladi²⁵². Qolgan muhrlar asosan qora rangda bosilgan.

Hujjatlar nasta‘liq xatida bitilgan. Ba‘zi hujjatlarning xati kalligrafik jihatdan chiroyli emas. Lekin sayyid Fazlullohga 1043/1633 yilda berilgan va Muhammad Alixon yorlig‘i chiroyli husnixatda bitilgan²⁵³. Matn qora siyohda bitilgan, lekin Muhammad Alixon tomonidan 1245/1829 yilda berilgan

²⁴⁵ DO‘st Muhammad bahodir - Navro‘z Ahmadxonning O‘g‘li.

²⁴⁶ Abulxayr sulton – KO‘chkunchixon avlodidan bo‘lgan Juvonmardalixonning O‘g‘li. Qarang: Xo‘fiz Taniш al-Buxoriy. Abdullanoma (“Шарафномаи шоҳий”). Биринчи китоб. – Т., 1999. – Б. 193.

²⁴⁷ Sulton Isfandiyor bahodir – Isfandiyor sulton ibn Xisrav sulton ibn Yormuhammad sulton ibn Jonibek sulton ibn XO‘ja Muhammad sulton ibn Abulxayrxon Xisrav sulton ham Isfandiyor sulton. Jonibek sulton Shayboniyxon davrida 1503-1509 yillarda Farg‘ona hokimi bo‘lgan. Xisrav sulton va Jonibek sulton dastlab Kesh hokimi bo‘lishgan. Xusrav sulton 975/1567 yilda Shahrisabzda Navro‘z Ahmadxon tomonidan asirga olinib O‘ldirilgan. (Qarang: Xo‘fiz Taniш al-Buxoriy. Abdullanoma (“Шарафномаи шоҳий”). Биринчи китоб. – Т., 1999. – Б. 407.) 990/1583 yilda esa uning Isfandiyor sultonga Farg‘ona va Andijon darubast yO‘sinini bilan berilgan. Kasallikdan vafot etgan. Qarang: Muxammadёр ibn Arab Qatag‘on. Muxaxxir al bilod. – Т., 2009. – Б. 205.

²⁴⁸ O‘zMA, I-323, 2-ro‘yxat. 25, 35, 37, 38, 65-yig‘ma jildlar.

²⁴⁹ O‘zMA, I-323, 2-ro‘yxat. 52-yig‘ma jild.

²⁵⁰ O‘zMA, I-323, 2-ro‘yxat. 83-yig‘ma jild.

²⁵¹ O‘zMA, I-323, 2-ro‘yxat. 28, 30, 32, 34, 42, 53, 54, 57, 58-yig‘ma jildlar.

²⁵² O‘zMA, I-323, 2-ro‘yxat. 53, 64-yig‘ma jildlar.

²⁵³ O‘zMA, I-323, 2-ro‘yxat. 57, 83-yig‘ma jildlar.

yorliqning unvon qismi jigarrangda yozilgan. Ko‘p hollarda qonunchilik aktlari – farmon va yorliqlar yorqin ranglar bilan ishlangan. Ularning unvon qismi va matn chetiga ishlangan jadvallar qizil, ko‘k yoki tillarang siyohlarda yozilgan²⁵⁴. Ammo biz tadqiq etayotgan hujjatlarda bu holat uchramaydi.

Hujjatlar turkiy va fors tillarda bo‘lib, Shayboniylar davriga oid hujjatlar asosan turkiy tilida bitilgan. Turkiy tillar, xususan, o‘zbek adabiy tili rasmiy uslubining yuzaga kelishi va tarixiy taraqqiyotini o‘rganishda rasmiy hujjatlar muhim ahamiyatga ega. XVI asrdan so‘ng Ashtarxoniylar davrida fors tilining saroy rasmiy uslubida obro‘si ortganligini kuzatamiz. Bu davrda berilgan yorliqlar asosan fors tilida. Imomqulixon, Elmuhammad bahoddir sulton yoriqlarini misol keltirishimiz mumkin²⁵⁵. Qo‘qon xonligi davrida ham fors tili saroy rasmiy tili sifatida alohida mavqega ega edi. Norbo‘tabiy va Muhammad alixon tomonidan berilgan yorliqlar ham fors tilida bitilgan²⁵⁶.

B.A. Qozoqov hujjatlarni tarkibi bir nechta ichki bo‘limlarga ega bo‘lgan protokol, asosiy qism va esxatokolga bo‘lgan. Lekin barcha yorliq tipidagi hujjatlar bu formulyarga tushmaydi. Xususan, bir qancha mutaxassislar qonunchilik aktlarining boshlanish qismlaridagi “so‘zim/so‘zimiz” va “dar in valo” jumalari bilan boshlanishiga qarab katta va kichik farmonlarga bo‘lishgan. Lekin hujjatlarning tuzilishi har doim ularni yuqoridagi shartlar asosida farqlash imkonini bermaydi²⁵⁷. “So‘zim/so‘zimiz” jumlasini bilan boshlanuvchi farmonlarda ham asosiy matnda “dar in valo” jumlasini aks etishini kuzatishimiz mumkin²⁵⁸. “Hukme oliy soder shud ke/hukm soder shud ke” (“oliy hukm sodir bo‘ldiki/hukmsodir bo‘ldiki”) jumalari bilan boshlanuvchi qonunchilik aktlari ham uchradi. Bu jumalar fors tilidagi hujjatlarda aks etgan bo‘lib, davr jihatdan Ashtarxoniylar davriga oiddir²⁵⁹. Ushbu hujjatlarni ham kichik farmonlar turkumiga kiritishimiz mumkin. Biz ushbu tadqiqot ishimizda katta farmonlar turkumiga sayyidlarga oliy hukmdor yoki hukmdorlarning joylardagi noiblari tomonidan berilgan hamda ularda “So‘zim/so‘zimiz” jumlasini bilan birgalikda nishon berganligi haqidagi jumla aks etgan yoki ishora qilingan farmonlarni kiritdik.

Dastlab sayyidlarga berilgan katta farmonlar matnini tahlil etamiz. Invokatsiya qismida Huva, Huval G‘ani, Huval Mulk, Huval Mulk al A‘ziz, Huval Hay al Qayum jumalari aks etgan. Unvon qismi invokatsiyadan keyin intitulyatsiya qismida adresant ismi sharifi unvonidan so‘ng “so‘zim, so‘zimiz”

²⁵⁴ Султонов Ў.А. Мусулмон мамлакатлари дипломатикаси. – Т., 2019. – Б. 46.

²⁵⁵ O‘zMA, I-323, 2-ro‘yxat. 52, 70-yig‘ma jildlar.

²⁵⁶ O‘zMA, I-323, 2-ro‘yxat. 83-yig‘ma jild.

²⁵⁷ Султонов Ў.А. Мусулмон мамлакатлари дипломатикаси. – Т., 2019. – Б. 85.

²⁵⁸ O‘zMA, I-323, 2-ro‘yxat. 47, 50, 67, 71, 72, 83-yig‘ma jild.

²⁵⁹ O‘zMA, I-323, 2-ro‘yxat. 47, 53, 54, 58, 59, -yig‘ma jild.

jumlasi yozilgan. Yorliqlarning bu jumla bilan boshlanish turkiy hujjatchilik an'anasiga xos bo'lib, E'tiborlisi, forsiy tildagi yorliqlar unvonida ham bu jumla aks etgan²⁶⁰. XVI-XIX asrlarga oid yorliqlarda intitulyatsiya qismida nafaqat adresant ism sharifi, balki uning unvoni, laqabi ham keltirilganligini kuzatamiz. Oliy hukmdor va hukmdor xonadoniga mansub hokimlar, shahzodalar tomonidan berilgan yorliqlarda, ularning ismi oldidan *Abu-l-Fath*, *Abu-l-Muzaffar* jumalari kelgan. Masalan, "*Abu-l-Fath sulton Do'st Muhammad bahodir so'zumiz*", "*Abu-l-Muzaffar sulton Muhammad Husayn podshoh so'zumiz*", "*Abu-l-Fath sulton Asfandiyor bahodir so'zumiz*", "*Abu-l-Fath Imomquli Muhammad bahodir sulton so'zmumiz*", "*Abu-l-Muzaffar va-l-Mansur sayyid Muhammad Ali g'ozi bahodirxon so'zumiz*"²⁶¹. Yorliq amaldor yoki hokimlar tomonidan berilgan bo'lsa ularning unvoni ham aks ettirilgan. Shayboniylar davrida Muboriziddin Arslon otaliq, Nizomiddin otaliq va devonbegi, Ashtarxoniylar davrida Nizomiddin Ernazarbiy parvonachi kabi amaldorlar tomonidan Karaskan sayyidlari xonadoniga yorliqlar berilganligi anglashiladi²⁶².

Yorliqlarning keyingi tarkibiy tuzilishini hujjatlar asosida keltiramiz. Dastlab XVI asrga oid hujjatni tahlil qilamiz, yorliq turkiy tilda.

Protokol

Invokatsiya: mazkur hujjatda mavjud emas.

Intitulyatsiya: (1) *Abu-l-Fath sulton Do'st Muhammad bahodir so'zumiz*²⁶³

Inskripsiya: (2) *Ini o'g'il sultonlar bilan (3) shijoat shior beklar bilan (4) kifoyat osor devonlarga bataxis Karaskon kentining arbob va amin (5) lari bilan barcha ulug'-kichik xo'ja sharik raiyatlariga*

Salyutatsiya: mazkur hujjatda mavjud emas.

Asosiy qism

Eksordum: (5) *vozih va loyih (6) bo'lsunkim, podshohona inoyat va iltifoti xisravona bilonihoyatimizni (7) oliy janob sayodat maobi sayyid Obidning borasida arzoni tutub, (8) sarafroz etib,*

Publikatsiya: (8) *mazkur bo'lg'on kentni otalari dasturi bilan (9) suyurg'ol qilduq.*

Narratsiya: mazkur hujjatda mavjud emas.

Dispozitsiya: (9) *emdi bu nishon ko'rgach mushorunilayhning (10) suyurg'olini musallam tutub, sayoday maobga shoh Shamsiddin va Mirzo Alishoh (11) va Dolimshoh va g'eyri ham daxl qilmasunlar hech ... muzohim*

²⁶⁰ O'zMA, I-323, 2-ro'yxat. 30-yig'ma jild.

²⁶¹ O'zMA, I-323, 2-ro'yxat. 25, 37, 38, 65, 70, 83-yig'ma jildlar.

²⁶² O'zMA, I-323, 2-ro'yxat. 30, 47, 69-yig'ma jildlar.

²⁶³ O'zMA, I-323, 2-ro'yxat. 65-yig'ma jild.

(12) va muta'arriz bo'lmasunlar, ziroatlaridin mol va dah du va dah nim (13) va nimni va bot tut va qo'riqboniy va mahsali mol olmasunlar. Havola (14) qilmasunlar, zarar zahmat yetkazmasunlar ... yangi nishon (15) va parvoncha tilamay, ushbu nishonni mo'tabar tutsunlar.

Sanksiya: (16) xilof hukm qilmosunlar.

Korroboratsiya: mazkur hujjatda mavjud emas.

Esxatokol

Datum: mazkur hujjatda mavjud emas²⁶⁴.

Apprekatsiya va subskripsiya ham mazkur hujjatda mavjud emas.

Sigilla: hujjatning old tarafida bir aylana muhr, orqasida ikkita katta va kichik aylana muhrlar mavjud.

Yuqorida ta'kidlanganidek kichik farmonlar matnining tarkibiy tuzilishi bu bu tarkibiy qismlarga to'liq mos kelmaydi. "Hukme oliy soder shud ke" jumlasini bilan boshlanuvchi yorliqlar matni asosida shuni ayta olamizki, bu hujjatlarda intitulyatsiya qismi mavjud bo'lmaydi. Bunday holda hujjatning kim tomonidan berilganligini aniqlashda muhrlarga murojaat qildik. Invokatsiya qismi bu turdagi hujjatlarda har doim ham uchramaydi²⁶⁵. B.A. Qozoqov tomonidan O'rta Osiyo tarixiy hujjatlarini bunday tarkibiy tuzilishga asosan tahlil qilish biz tadqiq etayotgan hujjatlarning mazmunini tahlil etishda ham ahamiyatga ega. Hujjatlarning asosiy qismidagi ma'lumotlar qonunchilik aktlarining qanday mazmunda berilganligi, qaysi masalalar aks ettirilganligini aniqlashda ko'mak beradi.

Karaskan sayyidlariga huquq va imtiyozlar berish, soliq va majburiyatlardan ozod etish, mansabga tayinlash masalari bayon etilgan yorliqlar berilgan.

Keldi Muhammad sulton, Do'st Muhammad sulton, Imomqulixon, Nizomiddin otaliq, Muhammad Mamaybiy, Shukur Muhammad sulton, Ota Muhammad tomonidan berilgan yorliqlar sayyidlarning Karaskan, Adak, Govxona, Qizilrabot yerlariga suyurg'ol huquqini e'tirof etgan holda, turli soliq va majburiyatlardan ozod etish va bu borada hech kim ularga daxl qilmasliklari lozimligi kabi masalalarni qamrab olgan²⁶⁶. Muhammad Alixon tomonidan berilgan yorliqda esa sayyidlar g'alla, xiroj, tanobona kabi soliqlardan ozod etilib, marfu'l qalam ekanliklari ma'lum qilinib, hukmdorning davlat davomiyligi uchun duogo'ylik qilishlari ta'kidlangan²⁶⁷.

²⁶⁴ Yorlirning 16 qatorida "sol" ("yil") jumlasini aks etgan, lekin hujjatning ushbu qatori yaxshi saqlanmaganligi bois yorliq berilgan sanani aniqlay olmadik.

²⁶⁵ O'zMA, I-323, 2-ro'yxat. 46, 58, 59-yig'ma jildlar.

²⁶⁶ O'zMA, I-323, 2-ro'yxat. 24, 37, 41, 45, 65, 69, 70, 72-yig'ma jildlar.

²⁶⁷ O'zMA, I-323, 2-ro'yxat. 83-yig'ma jild.

Sevinch sulton tarafidan sayyid Fozil Aliga berilgan nishonda sayyidzodaga ov qilishda berilgan imtiyoz haqida soʻz ketadi. Eʼtiborlisi, ushbu masalada qolgan sayyidlarga imtiyoz berilganligi hujjatatlarda uchramadi²⁶⁸.

Navroʻz Ahmad (Baroq)xonning oʻgʻli sulton Doʻst Muhammad bahodir tomonidan 982/1574 yilda nishon berilgan boʻlib, unda Faqir shohning sayyid Zohidning singlisiga boʻlgan daʼvosi rad etilganligi, ushbu sayyidning singlisiga daxl qilmasligi taʼkidlangan. Ushbu yorliqdan Faqir shoh sayyid Zohidning singlisiga daʼvo qilganligi haqida sulton Doʻst Muhammadxonga arz qilganligi va bunga javoban ushbu nishon berilganligi anglashiladi. Demak, ushbu xonadon vakillariga nafaqat soliq va majburiyatlardan ozod etish, huquq va imtiyozlar berish balki, ularning xonadoniga taʼalluqli boʻlgan muammoviy masalalarda ham nishon berilgan ekan.

Xulosa qilib aytganda, Karaskan sayyidlari xonadoniga tegishli hujjatlar XVI-XIX asr qonunchilik aktlari tuzilishiga muvofiq tuzilgan. Hujjatlarning hammasi ham yaxshi saqlanmagan. Ushbu xonadonga berilgan XVI asrga oid hujjatlar turkiy tilde boʻlib, mazkur davr Fargʻona va Toshkent mulkida ish yuritish tizimida turkiy tilning maqomi ustun boʻlganligi bu yerda ham oʻz ifodasini topgan. Shayboniylar markaziy hukumat tomonidan berilgan hujjatlar, shuningdek Ashtarxoniylar va Qoʻqon xonligi davriga oid hujjatlar fors tilida bitilgan. Hujjatlarning paleografik va diplomatik xususiyatlari Oʻrta Osiyo xonliklarida mavjud boʻlgan yorliq tipidagi hujjatlarga xos ekanligini kuzatdik.

GʻIYOSIDDIN ALI QUSHCHINING ILMIY MEROSI

Safarov B.S. –

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: **t.f.n. Alimova R.R.**

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ulugʻbek maktabining yorqin davomchilaridan boʻlgan, oʻrta asr fanlarining koʻp sohalarini mukammal bilgan zabardast olim Ali Qushchining hayot yoʻli va ilmiy faoliyati, ilmiy merosi, ilmi riyoziyot va ilmi falakiyot fanlariga, xususan Sharq astronomiyasi, matematika va geometryasi, falsafa va tili, tarix va geografiyasi oid asarlari, ilmiy asarlarga yozgan sharhlari haqida maʼlumot beriladi.

Kalit soʻzlar: Mirzo Ulugʻbek, musulmon qonunchiligi, Nasriddin Tusiy, Tajrid alkalom, Mirim Chalabiy, Qozizoda Rumiy, I.Yu.Krachkovskiy, Leyden (Niderlandiya) kutubxonasi, Aya Sofiya kutubxonasi.

²⁶⁸ OʻzMA, I-323, 2-roʻyxat. 26-yigʻma jild.

Ali Qushchi o'z zamonasining eng yetuk olimlaridan bo'lib, 1402-yilda Samarqandda tug'ilib, 1474-yilda Istanbulda vafot etgan. U o'zidan katta ilmiy me'ros qoldirgan. Lekin ming afsuslar bo'lsinki bu boy xazina hozirga qadar topilgan emas. U asosan ilmi riyoziyot va ilmi falakiyot ilmlarida o'z zamonasining eng yetuk ulamolaridan bo'lgan. Bu ikki fanni mukammal egallashiga qaramay, u boshqa sohalarga taalluqli asarlarni tarjima qilgan. U o'z davrining yetuk olimlari asarlariga sharhlar ham yozgan. Ali Qushchi o'z zamonasi faniga katta ta'sir ko'rsatgan ko'p asarlar muallifidir. Ayniqsa uning astronomiya va matematikaga oid risolalaridan o'sha davrdagi mudarrislar darslik sifatida foydalanishgan. Shuningdek, u boshqa sohalarida ham qalam tebratgan, uning tabobat, fiqh (musulmon qonunichiligi), tarix, falsafa va boshqa fanlarga oid ko'plab asarlari mavjud. Bu asarlar haqida adabiyotlarimizda turli ma'lumotlar bor. A.Nosirovning qalamiga mansub "Ali Qushchi" deb nomlangan asarida uning soni 30 taga yaqinligi²⁶⁹ takidlangan. Bularning ko'pchiligi bizgacha yetib kelgan va uning nusxalari jahondagi turli qo'lyozma fondlarida saqlanmoqda. Ularning ko'pchiligi turli zamonlarda yaratilgan zo'r ilmiy asarlarga yozilgan sharhlardir.²⁷⁰

Yuqoridagi ma'lumotlar Ali Qushchining asarlari ko'p va fanlarning turli sohalariga oidligidan dalolat beradi. Uning orasida sharhlar ham bo'lib, ularning qo'lyozmalari jahondagi fondlarda saqlanmoqda.

M.Ahadovning ma'lumotlariga ko'ra, Ali Qushchi Turkiyada olimlar, faylasuflar, shoirlarni o'z atrofiga to'plab, ilmiy tekshirish ishlarini taraqqiy ettirgan. U Istanbulda matematika, astronomiya, mantiq, adabiyot va boshqa fanlar sohasida asarlar yozadi. Qushchi 21 dan ortiq asarlar yozgan. U umrining oxirigacha o'z shogirdlari bilan hamkorlikda ko'p olimlarning asarlariga sharhlar yozdi. Bu asarlar hozirda Turkiyaning Aya Sofiya madrasasida saqlanib qoldi.²⁷¹ Bu asada Ali Qushchining Turkiyada yozilgan asarlari haqida ma'lumot bermoqda. Lekin shuni diqqat bilan aytish lozimki, bu asarlarning hammasi ham Istanbulda yozilmagan. Chunki Ali Qushchi umrining katta qismini Samarqandda o'tkazdi va Ulug'bek akademiyasida ilm bilan mashg'ul bo'ldi. Uchinchi adabiyotimizda aniqroq va kim tomonidan o'rganilganligi yozib o'tilgan. G.Sobirovning aytishicha, u Ali Qushchining 23 ta asari qo'lyozmasi topishga muvassar bo'lgan²⁷². So'nggi adabiyotimiz har tomonlama haqiqatga yaqin bo'lishi mumkin, negaki Ali Qushchi sermahsul ijod qilgan shaxs bo'lishiga qaramay uning asarlari bizgacha kam yetib kelgan.

²⁶⁹ A.Nosirov. Ali Qushchi. – Toshkent, 1964. – B. 12.

²⁷⁰ A.Nosirov. Ali Qushchi. – Toshkent, 1964. –B. 12.

²⁷¹ M.Ahadova. O'rta Osiyolik mahshur olimlar va ularning matematikaga doir ishlari. – Toshkent, 1983. – B. 200.

²⁷² Г.Собиров. Творческое сотрудничество ученых Средний Азии в Самаркандской научной школе Улугбека. – Душанбе. «Ирфон», 1973. – В. 60.

Agarda Ali Qushi yozgan asarlar haqida so'zlasak uning asarlarini 30 ga yaqin deyishimiz mumkin.

Ali Qushchining ilmiy faoliyatiga chuqurroq nazar tashlansa. uning birinchi kitobi 1417-yilda Kermon shahrida ta'lim olayotgan vaqtida yozilgan. Unda buyuk qomuschi olim, ilmi riyoziyot va ilmi falakiyot fanlari tarixida chuqur iz qoldirgan Nasiriddin Tusiy (1201-1274) qalamiga mansub falsafaga oid bir risolaning tushunilishi qiyin bo'lgan qismlari tushuntirilgan va sharhlab berilgan.²⁷³ Ko'rinib turibdiki, Ali Qushchi yoshlik davrlaridan o'zining qobiliyati va salohiyatini ko'rsata bilgan. Undagi bu qobiliyat keyingi ilmiy ishlarida cho'qqiga chiqishga olib keladi. Shuningdek, Ali Qushchi Samarqandda o'zining oxirgi davrlarini o'tkazayotgan paytda yuqorida aytib o'tilgan Nasiriddin Tusiyning "Tajrid" kitobiga ilgari yozilgan sharhni tamomlab, Abu Saidga taqdim qiladi²⁷⁴. Bu asarning to'liq nomi "Tajrid alkalom" (Nutqni ajratish) deb nomlanib, falsafa fanida juda muhim adabiyot sanaladi. Aynan Eronda Ali Qushchi bu asardan tashqari o'zining sohasiga oid muhim qo'llammani yaratdi. Bu asar "Risolayi ashkol al-qamar" ("Oyning shakllari haqida risola") deb nomlanib, o'sha davr astranomiya fanida juda kerakli adabiyotlardan hisoblangan. Bu asardagi oyning shakllari va oy haqida yuritilgan ko'plab fikrlar o'sha davr olimlari tomonidan aytib o'tilmagan.

1425-yilda Samarqandda u ilmi riyoziyotga doir yana bir risola yozadi. Bu asar XVI-XVIII asrlarda yashagan sharq olimlari o'rtasida keng tarqalgan. Ali Qushchi qo'lyozmalari Ovroq, Osiyoning ko'pgina shahrlarida, jumladan Toshkent kutubxonalarida ham saqlanmoqda. Bu qo'lyozma turlicha nomlanib, ko'p hollarda "Risolayi hisob", ba'zan "Risolayi dar ilmi hisob", "Mizan al-hisob" nomlari bilan tanilgan. Ammo risolalar mazmuni bir xil. Bu kitob O'rta Osiyo, Eron, Hindiston va Turkiyada mashhur bo'lgan "Xulosat ul-kitob" risolasi muallifi Bahovuddin al-Omiliy (1547-1622) ijodiga kuchli ta'sir ko'rsatgan²⁷⁵. Shuningdek, bu asar haqida boshqa Ali Qushchini o'rgangan olimlar ham ma'lumotlar berib o'tgan.

"Hisob risolasi" asarni Ali Qushchi 1425-yilda Samarqandda fors-tojik tilida yozgan. Bu asar uch qismdan iborat bo'lib, hindlar arifmetikasi (o'nlik sanoq sistemasi), astranomlar arifmetikasi (oltmishlik sanoq sistemasi) va geometryadan iborat. Bu asardan O'rta Osiyo madrasalarida o'quv qo'llanma sifatida foidalanilgan. Asarning qo'lyozmalari Toshkent, Dushanbe, Lelingrad, Mashhad, Istanbul, Oksford kutubxonalarida saqlanmoqda²⁷⁶. Ali Qushchi Istanbulga yetib borgandan so'ng uning ilmi to'xtab qolmagan, negaki Sulton

²⁷³ J.Ibodov, G.Matvievskaya. Ulug'bek shogirdi - Ali Qushchi. – Toshkent, 1994. B 20.

²⁷⁴ A.Nosirov. Ali Qushchi. – Toshkent, 1964. –B. 11.

²⁷⁵ J.Ibodov, G.Matvievskaya. Ulug'bek shogirdi - Ali Qushchi. – Toshkent, 1994. B 14.

²⁷⁶ M.Ahadova. O'rta Osiyolik mahshur olimlar va ularning matematikaga doir ishlari.– Toshkent, 1983. – B. 200.

Muhammad Fotihning o'zi ham matematikaga juda qiziqqan va shu fanga oid ko'plab adabiyotlar mutolaa qilgan. Ali Qushchi umrining so'nggi damlarida yozilgan "Muhammadiya" asari "Risolayi hisob"ning qisqartirilgan ko'rinishidir. Bu qo'lyozmalarni dushanbelik olim G.Sobirov 1962-1973-yillarda batafsil o'rganib chiqqan.²⁷⁷ Bu asar haqida boshqa manbalarimizda turlicha ma'lumot bergan. Ayniqsa undagi til va uning O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda.

Ali Qushchining "Risolayi muhammadiya" ("Muhammad Fotih risolasi") nomli asari hindlarning matematikasi va astronomiyasiga bag'ishlangan bo'lib, bu asar ikki qism va olti bobdan iborat. Asar fors tilida yozilgan bo'lib, uni Ali Qushchining o'zi arab tiliga tarjima qilgan. Asar Samarqandda yozilgan bo'lib, Ali Qushchi Istambulga Uzun Hasanning elchisi bo'lib kelganida Sulton Muhammad Fotihga taqdim qilgan. Asarning fors tilidagi qo'lyozmasi O'zR FA Sharqshunoslik institutida (inv. № 3356) saqlanmoqda²⁷⁸. Shuningdek, M.Ahadova ham O'rta Osiyolik olimlar qatorida Ali Qushchini ham o'rgangan olimalarimizdan biri hisoblanib, u ham "Hisob risolasi" haqida o'zining kitobida batafsil to'xtalib o'tgan.

"Kitobul Muhammadiya" asarini birinchi marta Ali Qshchi "Hisob risolasi" nomi bilan fors-tojik tilida yozgan. Asar arifmetika, algebra, geometriya va trigonometriya bo'limlaridan iborat. Qushchi Istambulga kelgach, bu asarni arab tiliga tarjima qilgan va Sulton Muhammad II ga taqdim etgan. Bu asar qo'lyozma shaklida Leyden (Niderlandiya) kutubxonasida va Aya Sofiya kutubxonasida saqlanmoqda. "Kitobul Muhammadiya" asari ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismi arifmetikaga bag'ishlangan. Bu qism besh bobdan iborat bo'lib, birinchi bobida hindlar arifmetikasi, ikkinchi bobda astronomlar arifmetikasi, uchinchi bobida algebra, to'rtinchi bobida esa "ikki xatoga yo'l qo'yish usuli" bilan nomalumlarni aniqlash va beshinchi bobda ba'zi bir arifmetik qoidalar bayon etilgan. Ikkinchi qismda geometry va trigonometriya yoritib berilgan. Hindlar arifmetikasi bayon etilgan birinchi bobi kirish va uch bo'limdan iborat. Ikkinchi bobda Qushchi sonlardan ixtiyoriy natural darajali ildiz chiqarish usullarini va Nyuton binomi formulasini ko'rsatadiki, uning usullari hozirgi vaqtda Ruffini Gorner sxemasi deb nom olgan usulga o'xshashdir²⁷⁹. Bu asarning asosiy qismi matematikaga oid hisoblanib, asosan ildizlar, musbat va manfiy amallar haqida so'z yuritilgan.

Uning keyingi asari "Risolayi fathiya" deb nomlangan, bu asar Ali Qushchi va Ulug'bek akademiyasini tadqiq etgan olimlar tomonidan qisman

²⁷⁷ J.Ibodov, G.Matvievsckaya. Ulug'bek shogirdi - Ali Qushchi. – Toshkent, 1994. – B. 14.

²⁷⁸ A.Nosirov. Ali Qushchi. – Toshkent, 1964. – B 15.

²⁷⁹ M.Ahadova. O'rta Osiyolik mahshur olimlar va ularning matematikaga doir ishlari. – Toshkent, 1983. – B. 201.

o'rganilgan. Asar arab tilida yozilgan bo'lib, unda kosmografiyaga oid masalalarga batafsil to'xtalib o'tilgan. Muhammad Fotihning 1472-yili Uzun Hasan bilan qilgan jangi va uning ustidan qozonilgan g'alabasi ham talqin qilinadi. Mashhur turk olimi Merim Chalabiy (Qozizoda Rumiyning o'g'li Muhammad ibn Muhammad) XVI asrda sharh yozgan²⁸⁰. Aynan Mirim Chalabiy Ali Qushchiga nabira bo'ladi. Bunga bafurcha to'xtaladigan bo'lsak. Ulug'bek akademiyasi an'analarini davom ettiruvchilardan Ali Qushchidan keyingi, otasi bo'yicha Qozizoda Rumiyning onasi bo'yicha Ali Qushchining nabirasi – Muhammad ibn Muso ibn Qozizoda Rumi, taxallusiga ko'ra “Mirim Chalabiy”dir. “Mirim” yoki “Miriam” forsiy bo'lib, “bizning dunyo yoki davr” ma'nosini anglatadi. “Chalabiy” esa turkiy so'z bo'lib, “tarbiyali yoki tarbiya ko'rgan” degan ma'nolarni anglatadi. Demak, Mirim Chalabiy tahallusi “Davrnig tarbiyali kishisi”²⁸¹ degan ma'noni anglatadi.

Mirim Chalabiyning asarlari orasida bobosi Ali Qushchining “Fathiya” nomli risolasiga sharh ham yozgan. Chalabiyning sharhi fors tilida yozilgan. Malumki, Ali Qushchi bu asarni astronomiyadan o'quv qo'llanma sifatida yaratgan va uni Sulton Muhammad II ga bag'ishlagan²⁸². Ali Qushchining boshqa yana bir ilmi riyoziyotga oid asariga ham to'xtalsak. Uning “Risolayi qusur” asari 1426-yilda Samarqandda yozilgan. Uning qo'lyozmasi hozirgi kunda Sankt-Peterburg Sharqshunoslik kutubxonasida saqlanmoqda. Bundan tashqari Ali Qushchi “Geometryadan risola” (“Risola dar handasa”) hamda “Arifmetik qoidalar va geometrik ko'rsatmalar” (“Risala fi qavaid al-xisabiya va-l-dalail al-xandasiya”)²⁸³ kitoblarini ham yozgan. Ularning qo'lyozmalari ham hozirgi kungacha yetib kelgan. Ayniqsa Ali Qushchi o'zining ilmi falakiyotga oid asarlari bilan shuhrat qozongan. U Ulug'bek rahnamoligida yozilgan “Zijji ko'ragoniy”ning mualliflaridan biri edi. Shuningdek, Ali Qushchi bu kitobga sharh ham yozgan. Yana bir muhim asari, ko'p qo'lyozma nusxalari bizgacha yetib kelgan “Risola dar falakiyot” kitobi ommabop hisoblanadi. Ba'zi qo'lyozmalarda bu asar “Risalayi dar ilmi haya”, “Risalayi dar farsiya dar haya” deb nomlangan. Toshkentda bu asarning bir nechta nusxasi bor. 1968-yilda Q.Munirov va A.Rasulev uni o'zbek tiliga tarjima qilganlar. 1970-yilda esa A.Usmonov tomonidan rus tiliga tarjima qilingan. Ali Qushchi yana ilmi falakiyotga doir ikkita muhim kitobga sharh yozgan bo'lib, shulardan biri yirik qomuschi olim Qutbiddin Muhammad ibn Masud ash-Sheroziy (1236-1311) qalamiga mansub “At-tuhfa ash-shahiya fi-l-haya” (“Imi

²⁸⁰ A.Nosirov. Ali Qushchi. Toshkent, 1964. – B. 15.

²⁸¹ Г.Собиров. Творческое сотрудничество ученых Средней Азии в Самаркандской научной школе Улугбека. – Душанбе. «Ирфон», 1973. – B. 73.

²⁸² A.Abdurahmonov. Ulug'bek akademiyasi. – Toshkent, 1994. – B. 23.

²⁸³ J.Ibodov, G.Matvievsckaya. Ulug'bek shogirdi - Ali Qushchi. – Toshkent, 1994. – B. 15.

falakiyotdan shohga tuhfa”). Ikkinchisi esa ustozi Jamshid G’iyosiddin al-Koshiy qalamiga mansub “Sullam as-safi xall ishkal vaqa’a lil-muqaddimin fi-l adab va-l-ajram” (“Samoviy jismlar hajmi va ulargacha bo’lgan masofalarni aniqlashda o’tmishdoshlar muammolarini hal qiluvchi osmon narvoni”) risolasi hisoblanadi. Uning yozilgan mantiqqa doir “Risala mantiq” falsafa muammolari yoritilgan “Risala al-mufradiya”, “Risala taka alak biqullixi” gramatika va adabiyot nazariyasiga oid “Al-ungut va-l-zavahir fi nazmi javahir” asarlari shular jumlasidandir. Taniqli olim va qonunshunos Abu Hanifa risolasiga sharh sifatida yozilgan “Sharqhi risolayi al-fiqh” asari ham uning qalamiga mansub. Istambuldagi Aya Sofiya kutubxonasida uning tibbiyotga oid “Risala al-mujiz fi-t-tib”²⁸⁴ asari saqlanmoqda. Shuningdek, Ali Qushchi tarixga oid bir qator asarlar yozib qoldirgan bo’lib, ularning ichida eng mashhuri “Tarixi xoqoni Chin” (“Xitoy xoqonlari tarixi”) hisoblanadi. Bu asar ko’pincha “Qonunnomayi Chin va Xito” deb atalib, XV asrda Temuriylar imperiyasining qo’shni mamlakatlar (Hindiston, Arabiston, Xitoy) bilan madaniy va iqtisodiy-siyosiy munosabatlarini kengaytirish va mustahkamlash yo’lida olib borgan siyosati²⁸⁵ haqida hikoya qiladi. Shu maqsad bilan 1442-1444-yillarda Xitoyga safari chog’ida yozib qoldirgan. Bu asar fors tilida yozilgan, uning qo’lyozma nusxalari hozirgi kunda jahonning turli kutubxonalrida saqlanmoqda.

Maqola so’ngida Ali Qushchining ilmiy faoliyati to’g’risida quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin. Ali Qushchining ilmiy faoliyatiga nazar tashlasak, o’rta asr fanlarining ko’p sohalarini - Sharq astranomiya, matematika va geometriyasi, falsafa va tili, tarix va geografiyasini mukammal bilgan zabardast olimdir. U ana shu sohalar bo’yicha mukammal asarlar yozibgina qolmay, balki aniq fanlar va uning hayotdagi rolini ilmiy jamoatchilik orasida keng targ’ib qilgan vatanparvar, olim inson bolgan. Akademik I.Yu.Krachkovskiy so’zlari bilan aytganda Qushchi umrining ikkinchi yarmini mana shu maqsad yo’lida sarf qildi.²⁸⁶

Ali Qushchi o’zining har tomonlama ilmiy faoliyati bilan xalqimizning madaniy merosini boyitdi. Shu sababdan yoshlarimiz bu ulug’ va nodir shaxsni chuqurroq va batafsilroq o’rganishi, uning asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish keng jamoatchilikka etkazish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nosirov A. Ali Qushchi. – Toshkent, 1964.

²⁸⁴ J.Ibodov, G.Matvievskaya. Ulug’bek shogirdi - Ali Qushchi. – Toshkent, 1994. – B. 16.

²⁸⁵ A.Nosirov.Ali Qushchi.Toshkent-1964.15-bet.

²⁸⁶ I.Yu.Krachkovskiy.Morskaya geografiya v XV-XVI vv,u arabov I persov,Izbrannie sochineniya,t.IV,M.-L.1957,str.569-570.

2. Ahadova M. O'rta Osiyolik mashhur olimlar va ularning matematikaga doir ishlari. – Toshkent, 1983.
3. Abdurahmonov A. Ulug'bek akademiyasi. – Toshkent, 1983.
4. Ibodov J., Matvievskaya G. Ulug'bek shogirdi – Ali Qushchi. – Toshkent, 1994.
5. Mirzo Ulug'bek. Ilmu Nujum. – Toshkent, 1994.
6. Ali Qushchi. Astronomiyaga oid risola. – Toshkent, 1968.
7. Собиров Г. Творческое сотрудничество ученых Средней Азии в Самаркандской научной школе Улугбека. – Душанбе. «Ирфон», 1973.
8. И.Ю.Крачковский. Морская география в XV-XVI вв. у арабов и персов. Избранные сочинения. Т.I-V, – М.-Л., 1957.

MUHAMMAD HAKIMXONNING “MUNTAXAB AT TAVORIX” ASARI TARIXSHUNOSLIGI YO‘NALISH VA YONDASHUVLAR ASARI HAQIDA

Xakimov Oybek Jumanazar o'g'li -
“Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari” yo‘nalishi I-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhammad Hakimxonning “Muntaxab at-Tavorix” asari tarixshunosligi yo‘nalish va yondashuvlar asari haqida ma’lumotlar tahlil qilingan. “Muntaxab at-tavorix” (“Saylangan tarixlar kitobi”) asari muallifi Muhammad Hakimxon ibn Ma’sumxon to‘ra Qo‘qon tarixnavislik maktabining yirik namoyandasi hisoblanib, muallif haqidagi ma’lumotlar asosan shu yozma yodgorlikning o‘zida keltirilgan, shuningdek, bu tarixiy manba va uning yaratuvchisi borasida Abdulla Qodiriy, Aleksandr Aleksandrovich Semyonov, Aziz Qayumov, Ahror Muxtorov, Bo‘riboy Ahmedov, Enver Xurshut, Shodmon Vohidov kabi olimlar qimmatli fikrlar bildirishgan. Akademik Aziz Qayumov esa ushbu satrlar muallifi bilan bo‘lib o‘tgan suhbatlarda Muhammadhakimxon qalamiga mansub «Muntaxab at-tavorix»ning ko‘p jihatlari bilan Bobur podshohning mashhur memuar asari «Boburnoma»ga o‘xshashligi haqidagi nuqtai nazarni o‘rtaga tashlagan edilar. Eslatib o‘tish joizki, ushbu qo‘lingizdagi o‘zbekchaga tarjima xam ana shu qarashlarga ko‘ra aynan Aziz Qayumovning maslahati va qo‘llovi bilan amalga oshdi. O‘zbekistonda manbashunos olim Enver Xurshut tamonidan «Muntaxab attavorix» maxsus o‘rganilgan. E.Xurshut o‘z tadqiqotlarida asarning nusxalari, uning manbalari, tarixiy va adabiy manba sifatidagi ahamiyati, memuar janridagi ushbu muqaddimani yozishda E.Xurshutning mazkur tadqiqotlaridan xam keng foydalanildi.

Kalit so'zlar: "Muntaxab at-tavorix", tarixiy asar, Hakimxon, Qo'qon davlati, tarixnavislik maktabi.

"Muntaxab at-tavorix" asarini Muhammadhakimxon fors-tojik tilida Kitob va Shahrisabz shahrida 1259/1843 yilning yozlarida yozib tugatgan. Mazkur asar Qo'qon tarixnavislik maktabining g'ayrirasmiy tarixiy asarlari sirasiga kiradi. Uning ilova qismi esa 1844 yilning oxiri yoki 1845 yilda yozilgani borasida ham ishonch bilan fikr bildirishimiz mumkin. Muallif nusxasidan shu 1843 yili yana o'nta nusxa ko'chirilgani xam ma'lum. Muhammadhakimxon asari xonlik hududlarida keng tarqalishidan o'zi xam manfaatdor bo'lgani uchun undan nusxalar ko'chirishga ancha sa'y-xarakat qilgan. Yuqorida ta'kidlanganidek, «Muntaxab at-tavorix»ning o'zbek tilidagi qisqartirilgan tarjimasi xam mavjud. Biroq, mazkur nusxani E. Xurshut P.P.Ivanovga o'xshab asarning o'zbek tilidagi talqini deb qabul qilishni tavsiya qiladi. Izlanishlar natijasidan ma'lum bo'ldiki, o'zbek tilidagi «Muntaxab at-tavorix»ning nusxasi asl fors-tojik tilidagi matnidan ancha yiroqlashib ketgan. Unda ko'plab xatolar, voqea va sanalarning chalkashligi, tarjimon(lar) tomonidan muallif uslubini soddalashtirish yoki matnga o'zgartishlar kiritish hollari ko'zga tashlanadi.

Bugungi kunda «Muntaxab at-tavorix»ning O'zbekiston, Tojikiston va Rossiya qo'lyozma xazinalarida 12 ta nusxasi mavjud. Ulardan №S 470 (Rossiya), №63 (Tojikiston) va №592 (O'zbekiston)dagi nusxalar matnlarning to'laligi va yaxshi saqlanganligi bilan o'z qiymatiga ega qo'lyozmalar hisoblanadi. Asarning

Shahrisabzda Muhammadamin kotib tomonidan ko'chirilgan bir nusxasining faksimilesi ikki jildda 1984-yili Dushanbeda chop etildi. 2006-yili Muhammadhakimxon asarining ikkinchi jildi arab yozuvida Tokioda xam bosilib chiqdi.

Asarning tuzilishi:

I bob. Payg'ambarlar.

II bob. Qadimiy Eron sulolalari.

III bob. Chin va Farang shohlari.

IV bob. Chahoryorlar, umaviylar va abbosiylar xalifalari haqida.

V bob. 1) Safforiylar, 2) Somoniylar sulolasi. 3) Ol Bo'ya hukmronligi. 4) G'aznaviylar. 5) Saljuqiylar. 6) Xorazmshohlar saltanati. 7) Chingiz va chingiziylar xonadoni. 8) Temuriylar. 9) Shayboniylar. 10) Ashtarxoniylar. 11) Mang'itiya saltanati. 12) Mingiya toifasi.

«Muntaxab at-tavorix» nusxalaridan Sankt-Peterburg nusxasida (S 470) yana ilova ham bor. Bu ilova xam Muhammadhakimxon qalamiga mansub bo'lib, unda Sheralixon davri (1842-1845 y.) hamda Xudoyorxonning taxt

ustiga chiqishi bayon etilgani (689-707 betlar). «Muntaxab at-tavorix»ning manbalari juda xam ko'p bo'lgan. Qo'qon tarixchilarining asarlari fors-islomiy tarixnavisligi asosida shakllangan bo'lib, ularda umumjahon va lokal (mahalliy) tarixga bag'ishlab yozilgan asarlar uchraydi. «Muntaxab at-tavorix» asari umumjahon tarixiga bag'ishlangani bois muallif tarixni olam va odam yaratilishidan boshlab, XIX asrning o'rtalarigacha bayon qilgan. Shuning uchun taqdim etilayotgan ma'lumotlarning dastlabki qismi boshqa ko'plab tarixiy va adabiy manbalar asosida bitilgan. Shu sababli ular originallik kasb etmay, asarning qolgan qismi uchta mavzuga, ya'ni

Buxoro mang'itlari tarixi, Qo'qonda hukm surgan minglar sulolasi xamda muallifning chet ellarga sayohati bayoni bo'yicha taqsimlanar ekan, bu ma'lumotlarning barchasi Muhammadhakimxonning o'z qalamiga mansub qimmatli manba hisoblanadi. To'g'ri, muallif aniq qilib ko'rsatgani kabi, Muhammadhakimxon o'z asarining mang'itlar qismini yozishda Muhammadvafo Karminagiy va Olimbek ibn Niyozqulibek qalamlariga mansub «Tuhfat al-xoniy», Muxammadsharif ibn Muhammadnaqiyning «Toj at-tavorix» va boshqa mualliflarning asarlaridan foydalangan. Bunga asarni tadqiq qilgan olim E.Xurshut o'z vaqtida aniqlik kiritgan edi. Shuningdek, Muhammadhakimxon o'sha davr voqealarining bevosita ishtirokchilaridan ham talaygina ma'lumotlarni eshitgan va muallif bu faktlarni «Muntaxab at-tavorix»da maxsus qayd etib o'tadi. Minglar va mang'itlarning hukmronligi, ya'ni Qo'qon xonligi va Buxoro amirligi tarixiga oid ma'lumotlar o'ta muhim va birlamchi manba sifatida biz uchun qimmatlidir. Shuning uchun ham mazkur manba Qo'qon tarixnavislik maktabida (Buxoro tarixnavisligida xam) o'zining originalligi va rasmiy tarixchi tomonidan yozilmagani bilan ajralib turadi. Asar muallifining sayohat va esdaliklari tafsiloti, shubhasiz, yana ham qimmatli manba bo'lishi bilan birga ularning adib Muhammadhakimxon tilidan jonli va ta'sirchan uslubda bayon qilinishi asarga badiiylilik ham bag'ishlagan, ya'ni aytish mumkinki, muallif qismatining mahorat bilan badiiy bo'yoqlarda ifoda etilishi «Muntaxab at-tavorix» ni qahramon-yozuvchining ichki kechinmalariga ham boy bir sarguzasht-roman darajasiga ko'targan. Kitobda, shuningdek, inglizlardan yengilib Buxoroga amir Nasrulloh oldiga kelgan afg'onlar hukmdori Do'stmuhammadxon va uning o'g'illari Akbarxon, Sultonxon hamda akasi Muhammadalixondan so'ng ozgina vaqt xonlik taxtiga o'tirgan, ammo ungacha quvg'inlikda Shahrizabzda hayot kechirgan Sulton Mahmudxon va boshqa ayrim nufuzli ruhoniy, amaldor, shoirlar qismati ular hikoyalari va muallifning shaxsiy kuzatishlari orqasida vujudga kelgan fikrlar asnosida tilga olinadi.

«Muntaxab at-tavorix»da muallif uchun manba vazifasini bajargan maktublar (Do'stmuhammadxonning Hindiston general-gubernatori

V.Maknotening kotibi Lotga maktubi; Sulton Mahmudxonning amir Nasrullohga xati; amir Nasrullohning Qo'qon xoni Muhammadalixonga xati va boshqalar)ning hujjat sifatida havola etilishi esa asarning tarixiy qiymatini yana ham oshirishga xizmat qilgan. Hatto ular afg'on, hind tarixchilarining ma'lumotlarini to'ldirishga ham yaroqlidir. Bundan tashqari asarda muallif sharq shoir va adiblaridan Ibn Sino, Firdavsiy, Umar Xayom, Sa'diy, Pahlavon Maxmud, Nizomiy, Alisher Navoiy, Bedil, Xusrav Dehlaviy, Inoyatulloh Kanbu, Ahmad ibn Yusuf, qo'qonlik shoirlar Fazliy, Akmal Sher Ho'qandiy, Nusrat, Behjat, Amiriy (amir Umarxon), Xorazm xoni Muxammadrahimxon I she'rlaridan namunalar keltiradi. Asarning badiiy bezaklari sifatida fors-tojik, o'zbek, arab xalqlarining maqol va masallaridan unumli foydalanilgan. E.Xurshutning aniqlashicha, muallif, hatto bitta xitoy xalqi maqolini ham keltirgan.

Hakimxon taniqli sayyidlar va xonlar avlodiga mansub oilada 1217/1802-03 yili tavallud topgan. U ona tomonidan Qo'qon hokimi Norbo'tabiyga (1770-1798) nabira va uning vorisi Olimxonga (1798-1810) jiyan edi. U yoshligida Qo'qonning bo'lg'usi hokimi Muhammadalixon (tav.1806 y. hukmronligi 1822-1842) bilan birga tarbiyalanadi. Muhammadhakimxonning bobosi Hakimxonto'ra o'sha davrning taniqli shaxslaridan hisoblanardi. Unga eng obro'li odamlar, hatto davlat boshliqlari ham maslahat va yordam so'rab murojaat etishardi. Hakimxonto'raning aralashuvi bilan bir necha janjallar, ayniqsa O'ratepa bilan Buxoro amirligi o'rtasidagi qonli nizolarning oldi olingan. Hakimxonning otasi Ma'sumxon to'ra Olimxonning singlisi Oftoboyimga uylangan edi. Olimxon uni Isfaraga hokim etib tayinlaganda u bu lavozimdan o'z ixtiyori bilan voz kechgan. Ma'sumxon o'ta yumshoq ko'ngilli bo'lib, uning iltimosi bilan bir necha ming kishi o'lim jazosidan qutulib qolganlar.

Hakimxon yashayotgan oila sayyid va xo'jalar avlodiga mansub bo'lishi tufayli xonlikda alohida hurmat va mavqega ega bo'lgan. Umarxon davrida oila boshlig'i Ma'sumxon to'ra davlat ishlariga ham faol aralashgan.

Lekin bu oilaning tinchligi, orttirgan mavqei uzoqqa bormadi. 1822-yil oxirida Muhammadalixonning hokimiyat tepasiga kelishi bilan hammasi ostin-ustun bo'lib ketdi. Hakimxonlar oilasi ham boshqa ko'plab kishilar kabi yangi hukmdorning g'azabiga uchradi. Bu davrlarda Qo'qon xonligi eng kuchli davlatlardan biriga aylangandi. Uning qo'shnilari ham bu davlat bilan hisoblashmasdan ilojlari yo'q edi. Qo'qon xonligiga asosan 1709-yildan boshlab asos solingan. Bu paytda mazkur xonlik Buxoro amirigidan alohida mustaqil ravishda shakllanib, Norbo'tabiy hukmronligi yillarida Farg'ona vodiysi va Xo'jand (hozir Tojikistondagi So'g'd viloyati) hududlarini o'z ichiga olgan. Olimxon hukmronligi yillarida bu xonlik chegaralari yanada kengayib,

Toshkent va Chimkent shaharlarini ham o'z ichiga oldi. Umarxon xonligi davrida esa Turkiston shahri, Yettisuvdan Ili vodiysigacha Qo'qon xonligi tarkibida edi. Muhammadalixon hukmronligi davrida Qo'qon xonligiga qozoq va qirg'izlar yashaydigan katta hududlar ham bo'ysundirildi. Uning davlat chegaralari janubdan Jizzaxgacha, g'arbdan Turkiston shahri atroflarigacha, shimoldan qirg'izlarning butun hududi bo'ylab, Balxash ko'li va Ili daryosidan to Sharqdagi Qoshg'argacha cho'zilgan edi. Muhammadalining davlat tepasiga kelishi kuchli tazyiq va quvg'inlar bilan ajralib turadi. U ko'pgina kishilar, birinchi navbatda Ma'sumxon va Hakimxonning ham o'z yurtidan bosh olib chiqib ketishiga sababchi bo'ldi. Buning zamirida aslida yangi xonning yakkahokimlikka intilishi, ilgari nufuzga ega bo'lgan xo'jalarni hokimiyatdan chetlatish maqsadi tursa-da, Muhammadhakimxon to'ra mazkur kitobida ko'pincha bunda adovatchi, hasadgo'y amaldorlarning ichi qoraligini sababchi qilib ko'rsatishga mayl bildirib, ularning qutqusi orqasida Ma'sumxon va uning o'g'li, ya'ni o'zi kabi ziyoli kishilarning badarg'a etilganiga urg'u beradi.

Rus olimi V.Nalivkinning ta'riflashicha, «o'z davrining yorqin fikr egasi bo'lgan, o'sha mash'um tuzumda insonparvarligi bilan ajralib turuvchi», yuksak bilim egasi, yuqori tabaqaga mansub bo'lishidan qat'i nazar, o'z umrini quvg'inlik va darbadarlikda o'tkazgan Ma'sumxon hayoti fojiali yakunlanadi.

Xonlikdan Ma'sumxonni chiqarib yuborishga erishgan Muhammadalixon ko'p o'tmay Hakimxon to'raning tadbiriga tushgandi. Biroq, xon el orasida Hakimxon to'ra kabi e'tibor topib ulgurgan xo'jazoda to'rani o'ldirishga botina olmaydi va nihoyat uning yolg'iz o'zini, go'yo hajga ruxsat bergan bo'lib, ammo, uyidan bir tanga ham olishiga yo'l qo'ymagan holda yarim kechasi Qo'qondan, undan o'tib esa xonlik sarhadidan posbonlar hamrohligida chiqarib yuboradi. Hakimxonning mashaqqatli sarguzashtlari boshlanadi. U odam yurmas cho'l-biyobonlardan o'tib, Rusiyaga qarashli Shamay shaxriga yetib keladi. Uning chet el davlat tuzumi va siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti bilan tanishishi ana shu Shamaydan boshlanadi. «O'tkan kunlar» qahramoni Otabekka o'xshab u ham rus davlat tizimidagi ko'p tartib-qoidalarni maqtab tilga oladi. Hakimxonto'ra Sibirning bir necha guberniyalarida bo'ladi. Lekin ziyrak Hakimxon qaysi guberniyaga borsa ham u yerning gubernatori yoki mansabdor shaxslari bilan uchrashmaslikka harakat qiladi.

Uchrashuvga rozi bo'lmasligining sababi ularning Peterburgga borish haqidagi yoqimsiz suhbatini eshitmaslik edi. Biroq, taqdirdan qochib qutilib bo'lmaydi.

Hakimxonning Orenburgda turishi o'sha vaqtlarda Sibir bo'ylab sayohat qilib yurgan Aleksandr I ning bu shaharga tashrifi vaqtiga to'g'ri kelgan bo'lib, podshohning buyrug'iga muvofiq, Hakimxonni uning huzuriga olib boradilar. Rus hukmdori Hakimxonni katta izzat-ikrom bilan qarshi oladi. Mazkur

uchrashuvda podshoh Hakimxondan O'rta Osiyodagi siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy vaziyat haqida ham ma'lumot oladi va bu haqda muallif shunday yozadi: «...Men bilan podshoh o'rtamizdagi suhbat esa juda ham qizib, avjiga minganidan o'sha kechasi boshqa xech kimsani huzuriga taklif qilmadi. Men bilan har to'g'rida so'zlashdi. Ayniqsa, Movarounnahr ahvoli borasida ko'p so'rab-surishtirdi. Saharga yaqingina kaminaga ketish uchun ijozat berdi...»

Shu yerda biroz rus podshohning Hakimxon shaxsiga qiziqishi va muallifning nimadandir cho'chib, suhbatlar mazmunini bir satr orqali bo'lsa xam yoritmagani, hatto, boshqa yo'llar bilan ishora qilmagani ustida fikr yuritsak. Albatta, muallifning o'z siri sifatida buni aytmalikka haq-huquqi bor.

Ammo, bizni qiziqtirgani shuki, Hakimxon to'raning o'quvchini bu mavzudan chalg'itish uchun hadeb o'zini gubernatorlar va rus podshox bilan uchrashishga noloyiq «bir sayyoh» sifatida ko'rsatishi yoki «Movarounnahr ahvoli borasida ko'p so'rab-surishtirgan» Aleksandr I bilan amalga oshgan suhbat mazmunini sira xam eslatmaslik yo'lidan borib, bu xas-po'shlash orqali bizdan nimani yashirmoqda? Birinchidan, Hakimxon to'ra aynan ana shunday uchrashuvlarga o'ta loyiq kishi bo'lib, u ham xon avlodidan ekani, ham ruhoniylar xonadonidan chiqqani bilan davlatga da'vogarlik huquqiga ega shaxs-ku! Shundan kelib chiqib, ayta olamizki, bu kabi shaxslar Hakimxondan ilgari ham, keyin ham (masalan, akasi tazyiqidan qochgan Buxoro shahzodasi Din Nosirning Peterburgga borishi) O'rta Osiyo yerlariga ko'pdan beri ko'z tikkan rus davlatini qiziqtirib kelib, ulardan foydalanishdan hech qachon voz kechishmagan. Chunki, buning O'rta Osiyo davlatlarini o'z ta'siri doirasiga olishda juda ham qo'l kelishi aniq edi. Ko'rganimizdek, Aleksandr I mazkur o'tirishga chingiziy avloddan qozoq aslzodalarini xam taklif etgan. Rus hukmdori garchi ulardan ijirg'ansa-da, mensimay ustlaridan kulsa ham ular bilan uchrashishdan tortinmagan. Hakimxondek o'qimishli va zukko, dono aslzoda bilan uchrashish esa nur ustiga nur bo'lib, bunda u faqat Movarounnahr haqida shunchaki ma'lumot olishnigina ko'zda tutmagan.

Tarixdan bilamizki, Rus podshohi Pavelga suiqasd uyushtirilib, o'ldirilishi oqibatida uning Napoleon Bonapart bilan hamkorlikda Angliya vassali Hindiston ustiga harbiy yurishi rejasi amalga oshmay qoldi. Bu yurish Eron usti orqali uyushtirilishi lozim edi. Ayni paytga kelib esa Aleksandr I ham ana shunday yurish payiga tushib,

Hindistonga O'rta Osiyo va Afg'oniston orqali o'tishni rejalashtirgan, afg'onlar sarzamini esa inglizlar tomonidan ishg'ol qilinib, har ikki davlat O'rta Osiyoga ham ko'z tikayotgan edi. Qolaversa, ikkala Rus-Eron urushidan (1814, 1824) so'ng Qafqozni o'z ta'sir doirasiga olgan Rossiya davlati Eronning shimoli-g'arbiy hududlarida ham nazorat o'rnatishni ko'zlayotgandi. Shuning uchun ruslar O'rta Osiyo davlatlari bilan yaxshi ittifoqchi, yoki bo'lmasa Xiva,

Buxoro yerlarini bosib olishga qasd qilgan edilar. Albatta, bunday holda biror siyosiy fitna uyushtirib, bu singari mojarodan ham foydalanishlari hech gap emasdi. Ana shu maqsadda esa ularga Hakimxon to'raga o'xshash siyosiy siymoning asqotishi turgan gap edi.

Rossiya hukmdori shuning uchun xam Orenburgdagi uchrashuvga qaramay, Qo'qon davlatining norasmiy vakilini Peterburgga taklif etib, o'z rejasini harbiy boshliqlar orqali unga yetkazish, ya'ni o'z davlatidan norozi va alamzada Hakimxondan yangi hukmdor «yasamoqchi» bo'lgan esalar ajabmas. Balki, boshqa kishi bo'lganda bunga ko'nar yoki biroz vaqt bo'lsa-da, shu maqsadda harakat qilishi mumkin edi. Biroq, yuqorida ko'rganimiz kabi vatanparvar va dinparvar Hakimxon garchi Movarounnahrning siyosiy va iqtisodiy ahvoli haqida gapirib bergan bo'lsa-da, asl maqsad va uning oqibatlarini yaxshi anglagach, Peterburgga borish, aniqrog'i, u yerda voqealar girdobiga tushib qolishdan o'zini qutqargancha, hajga borish xaqidagi qasamini yaxshigina ro'kach qilgan ko'yi tezroq Rossiya hududidan chiqib ketishga oshiqadi. Shundan so'ng Rossiya davlati uning ko'ziga yomon ko'rinaveradi, hatto, Astraxanda tutqunlikda turgan cherkas shohzodasini noqonuniy hujjat bilan ta'minlab, asirlikdan qutqaradi va asarining ayrim o'rinlarida rus davlati mansabdorlarini yomonlab tilga oladi. Orenburgda payti Aleksandr I Hakimxonni tomosha qildirish uchun turmaga olib kiradi. Bu yerdagi o'ta og'ir sharoit va mahbuslarga qilinayotgan g'ayriinsoniy munosabat Hakimxonda yomon taassurot qoldiradi. U Rossiyadagi turma tizimini rus podshohi huzuridayoq ochiqdan-ochiq qoralaydi. Shuningdek, bu mamlakatda noqonuniy tug'ish hollari ko'p ekanini «haromzodaxonalar» misolida ko'rsatib, bunday bolalarni davlat o'z himoyasida tarbiyalab voyaga yetkazgach, davlatning buning evaziga ulardan erksiz jamiyat a'zolari vujudga keltirishidan nafratlanadi.

Umuman olganda, asarda bundan tashqari yana ko'plab ob'ektiv bo'lmagan xulosalar, bir-biriga qarama-qarshi fikr-mulohazalar mavjud. Shulardan yana biri bu nasroniylik mazhablari o'rtasidagi janglarga din aybdor, degan noto'g'ri xulosadir. Aslida esa bu janglarga sabab faqatgina inson omilidir. Nasroniylik mazhablari o'rtasidagi ixtiloflar aslida e'tiqod qiluvchilarning adashishlari va noto'g'ri talqin qilishlaridan kelib chiqqan. Bunga dinning kamchiligi, deb qarash mutlaqo xato. Bu xuddi mashina boshqara olmaydigan insonni uni buzuq, deb noto'g'ri fikrga borishiga o'xshaydi.

Yana bir xato fikrlardan biri bu – Islomni xudbin din sifatida baholanganidir. Islomni politeizm bilan solishtirgan holda, politeizmni tolerant din sifatida, Islomni esa bo'ysindiruvchi va ta'qiqlovchi din sifatida baholaydi. Uning fikricha, Islom boshqa hududlarni egallash maqsadida boshqa din vakillarini ham unga e'tiqod qilishga majburlagan. Yozuvchi tomonidan din va madaniyat o'zi g'ayritabiiy deb bilgan narsalarni taqiqlashdangina iborat, deb baholanadi. Madaniyat faqat g'ayritabiiy narsani taqiqlashini ta'kidlaydi. Ammo biologik nuqtai nazardan olib qaralsa, g'ayritabiiy narsaning o'zi yo'q. Mumkin bo'lgan narsalar ta'rifga ko'ra tabiiydir. Haqiqiy g'ayritabiiy va tabiat qonunlariga zid bo'lgan xatti-harakatlar mavjud emas³³². To'g'ri, hukmdorlar tomonidan o'rnatilgan ayrim adolatsiz tartiblar keyinchalik odatga aylanib, madaniyatning bir bo'lagiga aylanib qolgan. Lekin madaniyatni yuqorida ta'kidlaganimizdek, faqat o'zi uchun g'ayritabiiy bo'lgan narsalarni taqiqlash sifatida baholashimiz unga faqat bir yoqlama baho berish bilan cheklanishimizdan boshqa narsa emas.

Asarda keltirilganidek, madaniyatlar keyinchalik o'zaro sintezlashib, o'ziga xos yutuqlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Hattoki, bizda salbiy hissiyot uyg'otuvchi urushlar ham ma'lum ma'noda insoniyat tarixida ko'plab ijobiy oqibatlariga sabab bo'lgan. Masalan, bir hudud madaniyati, yutuqlari qadimda, asosan, boshqa hududlarni zabt etish natijasida boshqa ko'plab hududlarga ham kirib borgan va u yerdagi madaniyatlar bilan o'zaro aloqada yangidan-yangi yutuqlarga sabab bo'lgan. Ellin madaniyati bunga yorqin

³³¹ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Olam va odam, din va ilm". "Hilol" nashr –T.:2019. – B.289.

³³² Yuval Noa Harari "Sapiens: Insoniyatning qisqacha tarixi" – B.123.

misoldir. Bosib olingan hududlarda yagona madaniyat (aslida yagona madaniyatning joriy qilinishi boshqaruvda yengillikka erishish maqsadida joriy qilingan bo'lsa-da) shakllantirilib, qoloq guruhlar ham birlashuv natijasida ko'plab yutuqlarga erishishadi. Arab imperiyasining katta yutug'i shundan iborat ediki, u yaratgan imperial madaniyat ko'pgina arab bo'lmagan xalqlar tomonidan chin yurakdan qabul qilingan edi, ular musulmon madaniyatini qo'llab-quvvatlashda, rivojlantirish va yoyishda davom etishgan – hatto dastlabki imperiya qulaganidan keyin arablar etnik guruh sifatida o'z hukmronligini yo'qotganlarida ham bu holat davom etgan. Xitoyda imperial loyihaning muvaffaqiyati yanada asosli edi. 2000 yildan ko'proq vaqt mobaynida vaxshiy deb atab kelingan bir talay etnik va madaniy guruhlar imperial Xitoy madaniyatiga muvaffaqiyatli qo'shilishdi va Xan xitoyliklariga aylanishdi³³³.

Urush masalasiga to'xtalinar ekan, bu yerda ko'plab urushlarning kelib chiqishi yo'qchilik sababli emas, balki haddan ortiq boylikka, mansabga intilishga borib taqalishini misollar bilan izohlaniladi. Mustahkam kelishuvning yo'qligi mojarolarni paydo qiladi va omborxonada turgan don zaxirasi bu holatda yordam bera olmaydi. Tarixdagi aksar mashhur urushlar va inqiloblar ocharchilik tufayli ro'y bermagan. Fransuz inqilobini oriq dehqonlar emas, balki semiz advokatlar amalga oshirganlar³³⁴.

Asarda yana insonlarning “xonakilashishi”, ya'ni o'troqlashishi haqida so'z borar ekan, bu jarayonning oqibatlarini va talablari haqida alohida to'xtalib o'tiladi. Inson o'troqlashgandan so'ng ko'plab og'ir mehnat qilishga va natijaga erishish uchun ko'p vaqt sarflashga majbur bo'ldi. Lekin odamzodning Homo Sapiens turi hayotiga juda muhim ta'sir o'tkazdi. Bug'doy yetishtirish odamlarga yerdan unumli foydalanib, yanada ko'proq ozuqa yetishtirish imkonini berdi va bu Homo Sapiensning ko'payishiga sabab bo'ldi³³⁵. Lekin ehtiyojlarni qanchalik qondirishga urinilmasin uni to'laligicha qondirishning iloji bo'lmadi, hozir ham shunday. Inson qancha hashamat, boylik sari intilmasin hech qachon to'ydim, demaydi. Ko'plab insonlar boylikni insonning eng zaruriy ehtiyojlaridan biri, deb hisoblashadi. Tarixning eng qat'iy qonunlaridan biri shu: hashamat vaqti kelib ehtiyoj darajasiga ko'tariladi va yangi mushkulotlarni yaratadi. Odamlar ma'lum bir hashamga o'rgangach, u odatiy ko'rinish oladi³³⁶. Bu haqiqat hozirda ham o'zgarmagan. Aslida bu hol insonga o'troqlashish jarayonidan esdalik, desak xato bo'lmaydi. Inson o'troqlashganidan boshlab ma'lum ko'rinishdagi hashamatga erishish uchun mehnat qiladi, vaqti kelib bu hasham ko'zini

³³³ Yuval Noa Harari “Sapiens: Insoniyatning qisqacha tarixi” – B.166.

³³⁴ O'sha asar – B.84.

³³⁵ Yuval Noa Harari “Sapiens: Insoniyatning qisqacha tarixi” – B.69.

³³⁶ O'sha asar – B.72.

charchatadi va yangisiga intilib yashaydi. Bu esa tabiiyki, inson ehtiyojlarini ortishiga olib keladi. Hattoki, tarixda “Buyuk” nomini olgan geografik kashfiyotlardan ko’zlangan maqsadlardan biri ham yaxshiroq o’lja topishdan iborat bo’lgan. Yevropaning iqtisodiy taraqqiyoti tobora ko’proq pul talab qilar edi. Bu taraqqiyotning asosiy yo’nalishi tovar xo’jaligining, savdo-sotiqning o’sishi edi. Buyuk geografik kashfiyotlarga sabab bo’lgan yana bir muhim omil ham shunga bog’liq: Yevropada shakllanib borayotgan kuchli absolyut monarxiyalarga dabdabali saroylar, yollangan armiyani ta’minlash uchun ulkan mablag’lar kerak bo’layotgan edi³³⁷. XVI asrda qirollar va bankirlar dunyo miqyosida geografik ekspeditsiyalarni moliyalashtirish uchun katta mablag’ sarflashdi, ammo bolalar psixologiyasini o’rganish uchun bir tiyin ham ajratilmadi. Buning sababi, qirollar va bankirlar yangi geografik bilimlarning kashf qilinishi ularga yangi yerlarni egallab olish va savdo imperiyalarini barpo etish imkoniyatini beradi deb taxmin qilishdi, ammo bolalar psixologiyasini tushunishda hech qanday foyda ko’rmadilar³³⁸.

Insoniyatni hali-hanuz qiynab kelayotgan masalaga – tenglik masalisiga to’xtaladigan bo’lsak, asarda ko’plab haqqoniy misollar keltirilganini guvohi bo’lamiz. Tenglik masalasi bir qarashda insonlar – turli irq vakillari, jinslar, turli ijtimoiy tabaqalar, ijtimoiy guruhlar o’rtasida adolatni ta’minlash, deb tushunilsa-da, bir tomondan ijtimoiy kelib chiqishi ikki xil shaklda bo’lgan shaxslarni har tomonlama tenglashtirish, aslida, ikki tomondan birining erkinligini cheklash orqali amalga oshiriladi. Ya’ni biz kambag’al va boy insonni har jihatdan tenglashtirishga urinar ekanmiz, boy kishining erkinliklarini cheklagan bo’lamiz. Shu kabi bir qancha misollar orqali adolat, erkinlik va tenglik masalalari nisbiy tushuncha ekanligi va ular inson ongiga bog’liq ekanligi tushuntirib beriladi.

Masalaning yana bir jihati mavjudki, biologiyadan tenglik masalasi mavjud bo’lib, insonning biologik tengligini rad etish bu katta xato, uni tan olmaslik esa xudbinlikdir. Afsuski, tarixda insoniyatni biologik jihatdan teng ekanligini unutgan holda uni ma’lum tabaqaga ajratish, irqchilik kabi ma’lum manfaatni ko’zlab o’ylab topilgan jarayonlar ko’plab xalqlarni yillar davomida azoblab kelgan. Misol uchun, Vavilon podshohi Xammurapi o’z fuqarolarining zodagonlar, avomlar va qullarga bo’linishini qonunlashtirib qo’ygan. Bu tabiiy bo’linish emas, inson genlar majmuida bu bo’linishning hech qanday izlari topilmaydi. Bordiyu vavilonliklar ushbu podshoh “haqiqat”ini yoddan chiqarib qo’ygudek bo’lsa, ularning jamiyati ishlashdan to’xtab qolgan bo’lard³³⁹. Hozirgi

³³⁷ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Olam va odam, din va ilm”. “Hilol” nashr –T.:2019 – B.344.

³³⁸ Yuval Noa Harari “Sapiens: Insoniyatning qisqacha tarixi” – B.219.

³³⁹ Yuval Noa Harari “Sapiens: Insoniyatning qisqacha tarixi” – B.102.

kunda baralla jar solinayotgan gender masalasi ham aslida xuddi shunday. Chalkashib ketmaslik uchun odatda olimlar biologik kategoriya bo'lgan “jins” va madaniy kategoriya bo'lgan “gender”ni bir-biridan ajratishga harakat qiladilar. Jins erkak va ayolga bo'linadi va ushbu bo'linishning xususiyatlari ob'ektiv bo'lib, tarixan shunday bo'lib kelgan. Gender erkaklar va ayollar o'rtasida bo'linadi. “Erkaklik” va “ayollik” deb ataladigan fazilatlar sub'ektivdir va doimiy o'zgarishlarga uchraydi. Masalan, qadimgi Afinadagi ayollardan va zamonaviy Afinadagi ayollardan kutilgan xatti-harakatlar, xohish-istaklar, kiyinish va hattoki tana holatida juda katta tafovut mavjud³⁴⁰. Biologik jihatdan boshqa-boshqa jins vakili bo'lish ularning inson sifatidagi huquqlarini inkor etishga sabab bo'la olmaydi.

Asarda qayd etilgan yana bir ob'ektiv xulosalardan biri bu pulning shakllanish tarixi haqidagi fikrlardir. Dastlabki ayirboshlash usuli ayirboshlanayotgan narsalarning teng qiymatga ega bo'lishini to'liq ta'minlay olmagan va ma'lum qiymatni belgilash odamlarga qiyinchilik tug'dira boshlagan. Nega endi aslida ob'ektiv jihatdan hech bir ehtiyojni qondirmaydigan arziyasiz qog'oz va metall bo'lagi ehtiyojlarni qondiruvchi ayirboshlash mahsulotlaridan afzal ko'rildi? Asarda insonlardagi pul sifatida qabul qilingan qog'oz va metall bo'laklarining afzal ko'rilishiga sabab sifatida ularga nisbatan orttirilgan qat'iy ishonch keltiriladi. Xuddi shu kabi qarash buyuk bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniyda ham mavjud bo'lib, Beruniy pulning kelib chiqishini dastavval mehnat taqsimoti bilan bog'liq, deb bildi. Uning fikricha, insonlar o'rtasida oltin va kumush sifatida pulning muomalada bo'lishi maxsus qimmatga ega emas, chunki ular insonning hech qanday ehtiyojini qondira olmaydi. Faqat ayirboshlash tufayli pullar qimmatga ega bo'ladi. Jamiyatda pul faqat o'lchov sifatida, umumiy ekvivalentning asosiy vazifasi hisoblanadi. Lekin bu ularning tabiati hamda ma'lum tabiiy qonun asosida bo'lmay, balki shartli kelishuv tufayli sodir bo'lgan. Chunki ularning ikkisi ham (oltin va kumush)dastavval o'z mazmuni bilan insonni na to'ydiradi, na chanqog'ini qondiradi, na zo'rlik yoki zulm xavfidan qutqara oladi³⁴¹.

Yana bir xato xulosalardan biri bu inson tafakkuriga ortiqcha baho berishdir. Ya'ni inson vaqti kelib tabobatda shunday yutuqqa erishadiki, hattoki ajalni ham yengish imkoniga ega bo'ladi, degan fikrlar bayon etilgan bo'lib, hozirgi epidemiologik holat bu fikrning xatoligini isbotladi. Tan olish kerakki, inson qadimgi davrda davosi mavjud bo'lmagan ko'plab kasalliklarga hozirga kelib oddiygina chora topishga ulgurgan va tabobat kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Lekin olam doimiy dialektik tarzda rivojlanib borar ekan, undagi har

³⁴⁰ Yuval Noa Harari “Sapiens: Insoniyatning qisqacha tarixi” – B.125

³⁴¹ Al-Beruniy “Mineralogiya”. – B.12.

bir mavjudot doimiy rivojlanib, o'z strukturasi o'zgartirib boradi, shu jumladan, kasallik chaqiruvchi bakteriyalar ham. Tabiat ham xuddi shunday, insonga qanchalik noto'g'ri munosabatda bo'lmasin, u yo'q bo'lib ketmaydi, faqatgina o'z ko'rinishini o'zgartiradi. Bu o'zgarish, albatta, xavf tug'dirishi mumkin. Homo Sapiens qanchalik moslashuvchan tur sifatida baholanmasin, yangi muhitga moslashish davrida ancha yo'qotishlarga yuz tutishga majbur bo'ladi. Bundan tashqari baxtni hisoblash masalasiga ham to'xtalgan bo'lib, umuman o'zi buning iloji bormi, inson baxti nimalar bilan o'lchanadi, degan savollarning javobini ham insonning o'zidan qidirish zarurligi ta'kidlanadi. Ya'ni bu masala insonning ijtimoiy holatiga vaziyatiga, yashash muhiti va davriga bog'liq. Aslida inson baxt, deb o'ylaydigan tushuncha o'ta nisbiy va o'tkinchidir. Inson ma'lum vaqt davomida biror o'zi xohlagan narsaga erishganidan so'ng o'zini baxtli his qiladi, lekin bu vaziyat doimiy va abadiy bo'lmaydi. Qachonki inson o'zini, yashashdan maqsadini anglar ekan u ana o'sha vaziyatda baxtni tuyishi mumkin. Inson oxiri yo'q ehtiyojlari ortidan quvar ekan, u hech qachon bu tizimdan chiqib keta olmaydi. Asarda bunga buddaviylik diniga tegishli bo'lgan qonun-qoidalarni misol qilib keltiriladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Homo Sapiens turiga mansub inson o'zida bor narsalarga qanoat qilmas, ekan hech qachon hayot mohiyatini anglamagan holda baxtga erisha olmay o'lib ketaveradi. Asar mazmuni qisqa bir jumlada ifodalangan bo'lib, inson tarixiga "hayvoniylikdan xudolikka qadar", deya ta'rif beriladi. Asar xulosasidan havola sifatida keltiradigan bo'lsak, "Yetmish ming yil ilgari Homo sapiens Afrikaning bir burchagida o'z yumushlari bilan ovora shunchaki ahamiyatsiz bir jonzot edi. Keyingi mingyilliklar davomida u butun sayyoraning xo'jayini va ekotizimning kushandasiga aylandi. Bugungi kunda u nafaqat abadiy yoshlikka, balki yaratish va vayron qilish kabi ilohiy qobiliyatlarga ega xudoga aylanish arafasida turibdi... O'zi aslida nima xohlayotganini bilmaydigan norozi va qanoatsiz xudodan ham dahshatliroq narsa bormi?"³⁴². Umuman olganda, asar insoniyatning tarix davomidagi tabiatga bo'lgan o'ta xudbin va noto'g'ri munosabatlarining oqibatlarini ochib berishga bag'ishlangan. Asarda asosan insoniyatning yutuqlaridan ko'ra kamchilik va xatoliklariga, ilk davrlardan beri inson tabiatiga xos bo'lgan xudbinlikning oqibatlariga e'tibor qaratilgan. Va biz bu asarni ana shu xatolar to'g'irlanmasa, kelajakda insonlarni ekologik jahannam va ko'plab xavflar kutishidan ogohlantiruvchi asar, deb ayta olamiz.

³⁴² Yuval Noa Harari "Sapiens: Insoniyatning qisqacha tarixi" – B.339.

OGAHIIY TASAVVUFIY SHOIRMI?

Shavkatov Sherali -

“Sharq falsafasi va madaniyati”

mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: **f.f.n., prof. Po‘latova D.A.**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhammad Rizo Mirob Erniyozbek o‘g‘li Ogahiyning she‘riy ijodida islomiy irfon tushunchalarining asosiy o‘rni haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Ogahiy, tasavvuf, irfon, islomiy irfon, Ibrohim Haqqul, so‘fiy, “Ta‘viz ul-oshiqin”, “Mahbub ul-qulub” ishq majoz va ishq haqiqiy.

Fanda shunday muammolar borki, uni hal etmay turib ilmiy tadqiqot ishini bajarib bo‘lmaydi. Uning mavzu va ma‘nosining dolzarbligi ilmiy ishning keyingi nazariy va amaliy masalalariga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta‘sir qiladi. Mana shunday muammolardan biri Muhammad Rizo Ogahiy ijodida tasavvufiy qarashlarning bor yoki yo‘qligi masalasidir.

Muhammad Rizo Ogahiy o‘zbek mumtoz adabiyotida Alisher Navoiydan so‘ng turli xil badiiy janrlarda barakali ijod qilgan xalqimizning ulkan siymolaridan biridir. Ogahiy nafaqat davlat arbobi balki, o‘zbek ilm-fani, tarixi va adabiyotiga ham ulkan hissa qo‘shgan yirik marifatparvar, insonparvarlik kuychisi, shoir, tarjimon va o‘z davrining bilimdoni bo‘lgan tarixchi sifatida ham mashhurdir.

Shoirning “Ta‘viz ul oshiqin” (Oshiqlar tumori) devoni turli xil adabiy janrlarda yaratilgan beqiyos asar edi. Shuningdek, Ogahiy Xiva xonlari tarixiga bag‘ishlangan 5 ta tarixiy asar muallifi va “Qobusnoma”, “Haft paykar”, “Guliston”, “Yusuf va Zulayho”, “Ravzat us-safo” asarining 2-3-jildlari, “Badoe ul-vaqoe”, “Hasht behisht”, “Zafarnoma”, “Bahoriston”, “Solomon va Ibsol” kabi asarlarning tarjimonihamdir. Shu o‘rinda A.Hojiahmedov “...Muhammad Rizo Ogahiy she‘r ilmini mukammal egallagan va uni o‘z asarlariga tadbiiq etib, g‘oyaviy va badiiy jihatdan betakror va bezavol obidalar yaratgan daho ijodkor edi”, - deb yozadi³⁴³.

Ogahiy shahsiyatining dahosi shunda ediki, uning ijodida she‘riy janrlarning jozibadorligidan tashqari ishqiy, ma‘rifiy, axloqiy ma‘nolarning bir butunlikda ifodalanishi edi.

³⁴³ Hojiahmedov A. Ogahiy dahosining olmos qirralari. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999. – 4.b.

Shu sababli ham Muhammad Rizo Ogahiy ijodini tadqiq qilish mutaxassisdan o'ziga xos mahorat bilan birga turli xil yo'nalishlarda bilimga ega bo'lmoqlikni talab etadi. Shuning uchun ham Ogahiy ijodining tasavvufiy qirralarga ega ekanligi asosiy muammolardan biridir. Xo'sh biz Ogahiyning tasavvufiy shoir deya olamizmi?

Bugungi kunga qadar turli ogahiyshunos olimlar o'rtasida bu asosiy bahslardan biridir. Jumladan yirik tasavvufshunos olimlar fikriga ko'ra Ogahiy ijodida ma'no-mazmun bag'oyat yuksak bo'lishiga qaramay, uning ijodini tasavvufiy tomondan tahlil qilish xatodir.

Boshqa tomondan biz hech bir tasavvuf yoki tasavvuf tarixi haqidagi adabiyotlarda ham, Ogahiy ijodini o'rgangan ko'plab olimlar: V.Zohidov, G'.Karimov, S.Dolimov, R.Majidiy, A.Qayumov, J.Sharipov, F.G'anixo'jayev, Q.Munirov, A.Abdug'afforov, A.Hojiahmedov, M.Safarboevlar tatqiqotlarida³⁴⁴ ham Ogahiy ijodiga nisbatan tasavvufiy yondashuvni ko'rmaymiz.

Boshqa bir olimlar guruhi esa uning she'rlari o'zida tasavvufni aks ettirishini ta'kidlashadi. Masalan: filologiya fanlari doktori, adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul "Ogahiy ayni bir she'rda bir necha manolarni aks ettirishda mahorat ko'rsatgan shoir. Shuning uchun tasavvufiy ma'nolar ham uning she'rlarida xuddi javharday, nurday singib ketgandir", - deb aytadi³⁴⁵.

Boshqa bir o'rinda esa Ogahiy kubraviylik ta'limotidan puxta xabardor bo'lganidek, Pahlavon Mahmudning javonmardlik tushunchalaridan ilhomlangani shubhasizligini ta'kidlaydi. Boshqa bir o'rinda esa Ibrohim Haqqul Ogahiy ijodiyotida malomatiylik kayfiyati va haqiqatlari ham inobatga olish zarur deb hisoblaydi.

Bundan tashqari Ogahiy ijod maktabining oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi, ogahiyshunos olim Matyakubova Madina o'zining "Ogahiyning ma'naviy-marifiy olami" nomli maqolasida shunday yozadi: "Shoirning Olloh haqidagi she'rlarini bee'tibor qoldirish, undagi falsafiy-tasavvufiy fikrlarni to'g'ri anglamaslikning o'zi gumrohlik". Shuningdek u shoirning quyidagi baytini keltirib, "bu baytdagi asosiy muammoda so'fiylik tariqati g'oyalaridan birini ifoda etib, ruhiy kamolotga erishishning yo'llaridan birini ko'rsatmoqda", - deb xulosaga keladi:

Kishi topgay murodini kelib har ishni qilsa o'ng,

³⁴⁴ Abdug'affurov A. Muhammad Rizo Ogahiy. – T.: Meros, 1999. – 62 b. Munirov Q. Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlari. –T.: O'zfaqadnashr, 1961. –172 b. Munirov Q. Ogahiy asarlarining tavsifi. 1986. G'anixo'jaev F. Ogahiy she'riyatidan. – T.: Qo'lyozmalar instituti, 1983. –183 b. Hojiahmedov A. Ogahiy dahosining olmos qirralari. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999. - 175 b. Safarboev M. Ogahiy gumanizmi: -T.: O'zbekiston, 1983. –16 b. Safarboev M. Ogahiy – Shoir va mutafakkir. –T.: O'zbekiston, 1980. –22 b.

³⁴⁵ Ibrohim Haqqul. Maoniy bog'ini dono qilur sayr.. O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi 50-son. 2009.

Fanovu faqr yo 'lida balovu dardu g'amdan so'ng.

Xo'sh, biz Ogahiy ijodini tasavvuf bilan bog'lasak va uni mashhur tasavvufshunos shoirlar: Fariruddin Attor, Xoja Muhammad Porso, Xoja Ahror, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy qatoriga qo'shishimiz to'g'rimi?!

Ogahiyni so'fiylik maslagidagi shoir deyishimizga hech bir asos mavjud emas. Buni Ibrohim Haqqulning "Ogahiyni so'fiyu sof siymolar" qatoriga qo'shish g'irt yolg'ondir. Chunki, o'zini haq ishqiga qurbon aylagan so'fiyni haqdan boshqa bir nima qiziqitirmaydi. Har qanday ijtimoiy munosabat va muassasaga u o'zicha yot nazarda qaraydi. Ogahiyda esa, bunday emas. U eng avvalo fikr va ishq shoiri"³⁴⁶, - degan fikrlarining o'zi so'zimiz tasdig'i bo'lib xizmat qiladi.

Biroq Ogahiy ijodidagi "haqiqat ag'li", "nafs", "fano", "faqr", "ofoq", "hirqat", "mayxona (maykada)", "may", "huffoz", "janda", "zilli subhon" kabi ko'plab terminlarni bee'tibor qoldirib bo'lmaydi. Unda Ogahiy ijodini qanday tahlil qilish maqsadga muvofiq?

Alisher Navoiy o'zing "Mahbub ul qulub" asarining 16-faslini "Nazm gulistoning xushnag'ma qushlari zikrida" deb nomlaydi va ushbu faslda shoirlarni bir necha tabaqaga ajratadi.

Birinchi tabaqa sifatini "haqiqat tariqining suxanvarlari" deb, ular nazmining asosini ishq ilohiyni kuylashdan iborat deb ataydi.

Ikkinchi tabaqa vakillarini esa "haqiqat asrog'iga majoz tariqin ahsul qilganlar va ular o'z kalomlarini bu uslubda marbut etibdurlar", - deydi.

Alisher Navoiy shoirlar nomini zikr etar ekan ularni shu ikki tabaqadan biriga mansubligini tasdiqlaydi. Masalan: Fariruddin Attor, Jaloliddin Rumiy kabilarni haqiqiy ishq kuychisi desa, Shayx Muslihiddin Sadiy Sheroziy, Xusrav Dehlaviy kabilarni esa majoziy ishq orqali ilohiy ishqni kuylagan ishq namoyondalari deb biladi. Abdurahmon Jomiy haqida gapirganda esa uni "haqiqat va majoz tariqida komil va ilmi ikkalasi tariqida vofiy va shomil" deb ataydi.³⁴⁷

Agar biz Navoiy qarashlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, Ogahiyni ham bemalol Sadiy Sheroziy va Xusrav Dehlaviy kabi ijodkorlar safiga qo'shishimiz mumkin.

Chunki, Ogahiy ijodining asosini irfoniy qarashlar tashkil etadi. Biz yuqorida sanab o'tgan terminlar ham aynan irfon tariqining natijasidir. Filologiya fanlari doktori, professor Muhammadjon Imomnazarov irfonga quyidagicha ta'rif beradi: "Irfon - borliq haqiqatini anglab yetishning tasavvufiy yo'nalishi, Haqiqat ishq alangasiga tik turib borib, nafsni xudbinlik zangidan

³⁴⁶ O'sha asar.

³⁴⁷ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – T.: Yoshlar nashriyot uyi. 2018

poklash va shu orqali shaxsning Oliy haqiqatga daxldorligini amalda taminlash yo‘li”. Irfoniy tafakkur esa: “ilohiy ilhom, riyoziyot va ilohiy jazba natijasida hosil qilingan laduniy bilimlarni timsol va ishoralar vositasida ifodalash”³⁴⁸.

To‘g‘ri, ushbu tariflar asosan tasavvufiy tomondan kelib chiqib berilgan, biroq islomiy irfon ham borki, uning asosi sof islomiy ilmlar, Qur‘oni karim oyatlari, hadisi shariflardagi hadislar natijasida insonda ilohiy haqiqatga nisbatan ishq muhabbatning uyg‘onishidir.

Tasavvuf irfonsiz mavjud bo‘la olmaydi, ammo irfon tasavvufsiz ham mavjuddir. Buni qanday tushunish kerak? Masalan: Tasavvufda har qanday murshid pirga ergashmog‘i lozim. Biroq irfonda pirning bo‘lishi unchalik ham muhim emas. Unda tarkidunyochilik, zuhd kabilar ko‘rinmasligi mumkin. Asosiy maqsad Haqiqatga erishmoqlikdir. Adabiyot tarixida irfondan foydalanish azaldan mavjud bo‘lgan va hozirgi kunda ham mavjuddir. Masalan XIX asrda yashab ijod etgan ko‘plab shoi-u shoirlar ijodida ham irfoniy qarashlar yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan Nodira ijodidan bir misra keltirsak:

*Doda keldim, ey salotin sarvari, dodim eshit,
Sen shoh-u men benavo, lutf ayla, faryodim eshit.*

Bu g‘azalda yorga ishora qilish bilan birga yor timsolida Xudo ham nazarda tutiladi. Masalan ushbu baytdagi “Salotin sarvari”, (podshohlar podshohi), yoki mashuqni “shoh” ozini “benavo” deya atashi unga faryod qilishi kabi timsollar negizida Xudoga ishora etish yotgan desak xato bo‘lmaydi.

Xuddi shunday Ogahiy ijodi ham bunday holatlardan yiroq emas. Masalan, uning quyidagi g‘azalini olaylik:

*Ishqing g‘amiki, ro‘ziki azaldur bidoyati.
Shomi abaddin o‘tkusi aning nihoyati.
Huffozi charx qilgusi takror har sahar,
Ermas quyosh kitobi jamoling bir oyati.*³⁴⁹

Yani yuqorida keltirilgan to‘rt misraning boshlanishidanoq o‘quvchi ushbu g‘azalning tub mazmuni ishqiy haqiqiy haqida ekanligini tezda anglab oladi. Undagi, “ro‘zi azal” (azal kuni, yaratilish ibtidosi) “Bidoyat” (boshlanish ibtido) “Xuffozi charx qilg‘usi qorilar” (hofizlarning takror-takror aytishi) kabi so‘zlar buning yaqqol dalilidir.

Yoki:

*Har tun nujum dema sochilgan sirishk erur,
Yig‘latdi, baski, charxni ohim siroyati...*

³⁴⁸ Muhammadjon Imomnazarov. Milliy ma‘naviyat bosqichlari. – T.: Nizomiy Nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti. 2010. – 80.b.

³⁴⁹ Ogahiy. Jamoling jilvasi. Tuzuvchi: Ergash Ochilov, – T.: O‘zbekiston nashriyot matbaa uyi. 2013. – 145.b.

*Bir kimsa dahr zulmidan emin emas magar
Har kimga yetsa jomi sabuhiy himoyati.*³⁵⁰

Keyingi keltirilgan ushbu misralarda ham turli xil ishoralar bilan Alloh vasfiga yetishish yo‘lidagi ishqqa nisbat beriladi. Misralardagi “yulduzlar o‘rnidagi ko‘z yoshlar ekanligi”, uning bu hasrati butun falakni ham yig‘latgani va og‘riqni bisish uchun jomi sabuhiydan ichmaguncha hech bir kimsa bu dahr zulmidan ozod emasligining tag zamirida ham o‘ziga xos irfoniy qarash mavjud.

Alisher Navoiy “Mahbub ul qulub” asarining “Hamida af‘ol va zamima xisol xosiyati” qismining o‘ninchi bobida ishq zikri haqida fikr yuritir ekan ishqni uch qismga bo‘ladi:

1-qism avom ishq;

2-qism Xavoss ishq;

3-qismi Siddiqlar ishq.

Birinci qism oddiy ikki insonning bir-biriga bo‘lgan ishq bo‘lsa, uchinchi qism siddiqlar ya‘ni tasavvufda so‘zlari va ishlari, bilimu ahvoli, ravishu niyatlari, tabiati va axloqi to‘g‘ri bo‘lgan kishilarning Allohga bo‘lgan ishqidir.

Navoiy ikkinchi qism - Xavoss ishqini tasvirlar ekan shunday deydi: “Xavoss ishqidurkim, Xavoss ul ishqqa mansubdurlar. Ul pok ko‘zni pok nazar bilan pok yuzga solmoqdur va pok ko‘ngul ul pok yuz oshubidin qo‘zg‘almoq va bu pok mazhar vositasi bila oshiqi pokboz mahbubi haqiqiy jamolidan bahra olmoq”³⁵¹.

Jaloliddin Rumiy esa bu haqida shunday deydi: “Ishq xoh majoziy bo‘lsin, xoh haqiqiy oxir oqibatda haqiqatga yetkazur”³⁵².

Imom Rabboniy “Maktubotlar”³⁵³ asarida majoz haqida gapirar ekan shunday jummalarni uchratamiz:

ظل مجاز. اذ ده كه حقيقت به است پلى مجاز الحقيقى، ف نظرة الامجاز
است حقيقت.

Manosi: majoz bir ko‘priki haqiqatga yetkazadi. Majoz haqiqatning soyasidir. Shubhasiz ushbu Xavoss ishqini majoz va haqiqat o‘rtasidagi "sirot" ko‘prigi deb atasak bo‘ladi. Ogahiy kuylagan ishq ham zohiran majoziy bo‘lsada, botinan haqiqiyga qaratilgan edi. Bu esa Ogahiy she‘riyatida tasavvuf emas balki islomiy irfonning namoyon bo‘lishidir.

³⁵⁰ O‘sha asar. -145.b.

³⁵¹ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – T.: Yoshlar nashriyot uyi. 2018

³⁵² Mavlono. Masnaviy, turkcha tarjima I-jild, - Istanbul: 1990. - 9.b.

³⁵³ امام ربانى. مکتوبات. پاکستان

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki ushbu masala bir yoki ikkita maqola bilan hal bo‘ladigan muammo emas, uni tadqiq etish esa hozirgi Ogahiyshunos olimlarning asosiy vazifasidan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ogahiy. Jamoling jilvasi. Tuzuvchi: Ergash Ochilov, – T.: O‘zbekiston nashriyot matbaa uyi. 2013. – 145.b.
2. Ogahiy Ta’viz ul-oshiqin. O‘zSSR Fanlar akademiyasi nashriyoti,- T., 1960. -B. 648. Nashrga tayyorlovchi: Sh. Sharafiddinov, muharrir: Rahmat Majidiy.
3. Ibrohim Haqqul. Maoniy bog‘ini dono qilur sayr... O‘zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi 50-son. 2009.
4. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – T.: Yoshlar nashriyot uyi. 2018
5. Muhammadjonn Imomnazarov. Milliy ma’naviyat bosqichlari. – T.: Nizomiy Nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti. 2010.

“MIRZO BEDILNING INSON VA UNING MOHIYATI HAQIDAGI QARASHLARI”

Dilmurodov E.I. -

“Sharq falsafasi va madaniyati” yo‘nalishi

1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: **f.f.n. Axmedova S.**

Agar muammoga teran ko‘z bilan qaraydigan bo‘lsak, barkamol avlod, komil inson tarbiyasida milliy o‘zlikni anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida yoshlarni tarbiyalashning ahamiyatga g‘oyat muhim ekanligini tushunish mumki. Demak, masalaning mohiyati tarihiy ildizlarimiz, milliy o‘zligimiz va qadriyatlarimiz asosida yosh avlodni kamol toptirishdan iboratdir.

Sharq falsafasida inson masalasi doimo ustuvor ahamiyat kasb etib kelgan. Ayniqsa, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Rumi, Aziziddin Nasafiy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning asarlarida ushbu muammo keng va har tomonlama yoritilgan. Inson masalasi Bedil asarlarida ham muhim o‘rin tutgan. Zero Mirzo Bedil dunyoqarashi markazida inson muammosi, insonning shakllanishi, uning kamoloti muammolari turadi.

Mirzo Bedil insoning yashashda maqsadi, qadr-qimmatini, o‘z-o‘ziga va o‘zgalarga munosabatini o‘rganib chiqib, ularni chuqur tahlil qiladi. Mutafakkirning falsafiy, ijtimoiy idealida e’tabor jalb etadigan bir jihat borki, bu mutafakkirning mutasavvif orifligi yaqinlogi, uning faylasuf duyoqarashiga

doimiy taʼsiridir. Shuni eʼtiborga olgan holda taʼkidlash joizki Mirzo Bedil inson va uning mohiyati masalasida ham tasavvuf taʼlimotidan unumli foydalangan. Biz Bedil falsafasini koʻproq Fariddin Attor qarashlari bilan qiyoslar ekanmiz, bu hol inson masalasida ham koʻzga tashlanadi. Fariddin Attorning “Javhar uz-zot” asarida avvalo butun ruhiy va moddiy olamlar yagonaligi, yaʼni vahdat olami va mutlaq Holiqiyat qudrati taʼriflanadi. Soʻngra shu vahdat olami ichra insonning oʻrni, inson hilqatining mohiyati tushuntirilib, oʻzni va Holiqni tanish yoʻllari, iztirob azobi, yaʼni ruhning poklanib, oʻz-oʻzini anglashi; vujud, dunyo, nafs bilan kurashi, tajrudi tafrid bosqichini bosib, Haqqa qoʻshilishi – tavhid asrori batafsil tushuntiriladi³⁵⁴. Demak, Attor falsafasida insonning tajalliysi Javhari Zot orqali bunyodligi taʼkidlanadi/ Javhari zot bu Attor asarlarida mutlaq vahdat – Allohdir.

Mirzo Bedil oʻzining “Irfon” asarida insoning paydo boʻlishi masalasini vahdat ul – vujud nazariyasi asosida asoslab berar ekan, bunda avval jonsiz jismlar keyin nabotot (oʻsimliklar) olami va undan hayvonot olamining vujudga kelganligi, ularning takammul etishdan insonlarning paydo boʻlishi qayd etilgan. “Toʻrt unsur dan yaratilgan” inson evolyutsiyasini, birinci, jimod (molekula), ikkinchi naboto (oʻsimlik), uchinchi hayvonot (irodasiz va tilsiz jonivor) va toʻrtinchi inson (irodali va tilli jonzor)³⁵⁵ tashkil etadi.

Bedil inson koinot mavjudotlari ichida eng yuksak maqomda yaratilganini taʼkidlar ekan, kishilarni irqi, jamiyatdagi mavqeidan qatʼiy nazar, shu sharafli nomga munosib koʻrishni istaydi. Toʻgʻri, u diniy-irfoniy qarashdan turib aytilgan bir fikrida insonning “asl gavhar” – ilohiy dargohdagi asl mavqeyidan tezgina ajralib, quyi, yaʼni “tuproqqa aylanuvhi” moddiy hayotga koʻchishining asongina roʻy berganini eslatib oʻtadi:

*Bedil, gavhar aslimizdan aylandik tuproqqa oson,
Buncha yengil ish chiqdi oʻzlikdan ayrilmoq, chunon.*

Bilamizki, aslida gavhar hech qachon tuproqqa aylanmaydi va shuning uchun ham u qimmatbaho gavhar toshidir. Ammo, Bedil ahloqda insonning gavhardek yakto, nodir boʻlishini istaydi. Inson, Bedil nazarida, moʻjizakor, ayni chogʻda fitnalar manbaidir. Shuning uchun u odamdagi bu ikki hil tabiatni hisobga olish kerakligiga eʼtiborni qaratdi. Bedil insonning ulugʻvorligini, aqliy layoqatini, koʻp narsa;arni bajarishga qodir bir qutlugʻ zot ekanligini, nutqi, ongi, aql-idroki bilan oʻzga mahluqotlardan farq etishini koʻrsatish bilan birga, nomukammal, mol-mulkka chanqoq, oʻjar insondan yaramas ishlar sodir

³⁵⁴Фаридиддин Агтор. Илохийнома. – Т.: Ёзувчи. 1994. -73 б

³⁵⁵Аббос Мехрин Шуштарий. Торихи забон ва адабийоти Ирон. – Техрон, 1973.; Бедил ва ўзбек маънавияти. – Техрон-Тошкент. 2005. – 56 б.

bo`lishini ham ta`kidlab o`tadi, ya`ni shoir insondagi oliyjanob ahloqiy ruhiy hislatlar bilan birga salbiy illatlar ham mavjudligini yoritishga harakat qilgan.

Bedil o`zining “Irfon”, “Chor unsur” asarlarida inson borlig`ini tushuntirishda “bahri mutal” (komillik dengizi) tushunchasini kiritadi. “Mutlaq bahr” deb Bedil ilohiy kuchga asoslangan mutlaq borliqni aytadi. Odamzod ana shu mutlaq borliqdan kuch va iroda bilan vujudga kelgan:

*Bahri mutlaq issiq mavj urdi shunday,
Bo`ldik o`zimizdan a`loga muhtoj*³⁵⁶.

Darhaqiqat, Mirzo Bedil nazarida inson eng ulug` va qutlug` zot. Mutafakkir insonning ulug`ligi va buyukligi uning muhim va pinhon mohiyatida deb biladi. Fitratning “Bedil” asarida Bedil tomonidan tahlil etilgan insonning mohiyati haqida uch muhim jihat ko`zga tashlanadi. Ularning birinchisi sifatida, insonda eng ulug`, eng yuqori o`rinli kuch borligi ta`kidlanadi. Inson o`ziga ishonsa, o`z vijdoniga ergashsa, har ishni qilar, haqiqatga, tilakka erishar. Bunda mutafakkir insonning o`z kuch qudratini anglashga chaqiradi va insoning qudratli zot ekanligiga ishora qiladi.

Bedilga ko`ra, inson shunday ulug` kuch ekanini bilmagani uchun ojizlikka tan beradi. Ojiz qolgach, butub balolar uning boshiga yog`ilishi, hatolarning manbaiga aylanishi qayd etiladi. Insonning o`z kuchidan habarsizligi, hatolar manbaiga aylanib qolishining sababi sifatida Bedil taqlid tushunchasiga e`tborni qaratadi. Inson mohiyatini tahlil qilishdagi ikkinchi muhim jihat Bedil talqiniga ko`ra, taqliddir.

Bedil insonda eng ulug`, eng yuqori aql, tafakkur, qalb kuchi borligini ko`rsatadi. Bedilning anglashicha, taqlidchilikni insonlarning tabiatida birlashtirgan sabablardan yana bir dinni noto`g`ri tushunishdir. Shuning uchun mutafakkir inson mohiyatini tahlil etishda uning uchinchi muhim jihati sifatida dinning mohiyatini tushunmaslik, diniy qarashning noto`g`ri talqinida deb bilgan³⁵⁷. Bedil hudo kalomlarini quruq targ`ib qilishlardan va rasmiy shaklda ishlatishlarga qarshi turdi. Uningcha, dinning asl mohiyatini tushuntirish kerak, ya`ni insonlarni do`zah bilan qo`rqitish va jannat bilan aldash orqali hudojo`y qilishga urinish bora-bora hudo so`zlarini aqlga sig`mas afsonaga, ermak rivoyatga aylantirib, odamlar shu afsonalar og`ushida afsunlanib, asl mohiyatini anlay olmaydigan bo`lib qoldilar.

Baytning falsafiy – ijtimoiy ma`nosi aslida quyidagicha: to tirik ekanmiz, atrofimizdagi tabiat va biz hayot kechirayotgan jamiyat har hil hodisa-voqealarni yuzaga chiqarib turarkan, shularga alahsib, ularni aqlga sig`dira olmay boshimiz karakligicha turaveramiz. Bilamizki, afsona, hatto u haqiqatdan

³⁵⁶ Мирзо Абдулқодир Бедил. Рубойилари. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1974. – 42 б.

³⁵⁷ Фитрат. Бедил. – 48б.

yaqindagina hayotda ro`y bergan favqulodda voqeni aks ettirsa-da, aql bovar qilmas hodisadir. Baytning ikkinchi ma`nosi bu yolg`onchi dunyoda hech bir narsaga tayanib, ishonib bo`lmaydi, chunki hayot ham, go`zallik ham, eyim-ichim ham-barchasi bu dunyoda vaqytincha. Asl makonimizga ketgunimizcha ular bizni aldab turish uchun yaratilgan. Bedilning bu hikmatidan esa juda ko`p tarbiyaviy ahamiyatga ega tushunchalar paydo bo`ladi. Masalan, inson shu sababli doimo sergak bo`lib, bu vaqtinchalik dunyoga hirs qo`ymasligi va nafsni ardoqlash tufayli yomon ishlarga qo`l urmasligi lozim.

Mirzo Bedil buyuk shoir, mutafakkir va Hindistonning forsiy zabon faylasufi hisoblanib o`z davrining yetuk ijodkori sifatida halq orasida obro` qozongan. Bedilning borliq haqidagi qarashlarida qarama-qarshilik mavjud ekanligi, u o`z asarlarida olamning markazida buyuk yaratuvchi turganligini ta`kidlasada bu fikriga qarama-qarshi sifatida olamni azaldan mavjud bo`lganligiga ham ishora qilib ketadi.

Hindlarning diniy aqidalariga ko`ra, unashtirilgan qizni bo`lajak kuyovi vafot etsa yoki halokatga uchrasa, uning jasadini bilan birga qizning ham kuydirar edilar. Bedil ushbu dostonni oddiy hikoyago`y sifatida emas, balki satti qilinadigan kishilarning taqdir-qismatiga achinuvchi kishi hamda bu odatning ashaddiy dushmani, taqlidchilikka qarshi kurashuvchi bir mutafakkir sifatida keltiradi. Insoning mohiyati masalasiga yondashishda mutafakkir o`sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy sharoit, tarixiy zaruriyatdan kelib chiqadi. Chunki XVII asrning ikkinchi yarmi – XVIII asrning birinchi yarmida Hindistondagi taxt ushun kurash va nizolar, adolatsizliklar, insoning qadrsizlanishi va kamsitilishini ko`rgan Bedil o`zining ta`sirchan fikrlari bilan insonlar bir-birlariga mehr-oqibatli bo`lishga, qadr-qimmatini e`zozlashga, himmatli, saxovatli bo`lisga undaydi.

Mutafakkir insonlarga bo`lgan munosabatda ularni bo`lishda mazxab, millat, din kabilarga qarab ajratishni qoralaydi. Hammani insonlarni sevishga chaqiradi.

Hozirgi kunda butun dunyoda insonni asrab qolish masalasi dolzarb masala bo`lib turibdi. Ushbu muammo yechimining eng maqbul yo`llaridan biri, Bedil aytganidek, insonlar qalbida mehr-muhabbat uyg`otish, insonlarni sevish tuyg`usini shakllantirishdir. Qurol-yarog`, urush-janjallar diniy tajanglik bilan nafaqat o`zgalar umriga, balki har bir inson o`z umriga ham zavol bo`lmoqda. Bedil ilgari surgan ta`limotda insoniylik darajalari ruhning taraqqiyot darajalari bilan belgilanar ekan, demak, ruhiy-ma`naviy yuksaklik zulmu shafqatsizlik, nodonlik, past tabiatlilik ustidan g`alaba qilishi muqarrar.

NEOVEDANTIZM FALSAFIY OQIMIDA ONTOLOGIK MASALALARNING QO'YILISHI

Umarov Botir Ibodulla o'g'li -
“Sharq falsafasi va madaniyati”
yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: XIX asr oxirlarida vujudga kelgan Neovedantizm oqimi Hindistonda yoyilgan falsafiy tizim sifatida ham, muhim diniy pozitsiya sifatida ham yaxshigina tasirga ega bo'ldi. Ushbu maqolada aynan ushbu diniy-falsafiy oqimning ontologik jihatlari yetarlicha yoritib berilgan. Maqolada asosiy e'tibor hinduizm dinida asosiy Xudo bo'lgan Brahmanqa qaratilib, borliqni qanday yaratgani, uni qanday boshqarishi, insonlar bilan qanday bog'lanishi va borliq qay tartibda yaratilganigiga urg'u berilgan.

Kalit so'zlar: Neovedantizm, Brahman, olamning yaratilishi, Advaita-vedanta falsafasi, hinduizm, Xudoning namoyon bo'lishi, Svami Viviananda, nisbiylik, borliqning yaratilish tsikli, prana va akasha.

Hindiston o'lkasida vujudga kelgan barcha hind falsafiy ta'limotlari ontologiya, ya'ni borliqni o'rganish bilan chambarchas bog'liq, chunki voqelikning mohiyati to'g'risidagi aniqlik uchta aloqador maqsadlar asosida vujudga kelgan. Bular: bilim, to'g'ri xulq-atvor va butun insoniyat mavjudligining davomiy azoblaridan xalos bo'lishi. Hindiston nomi bilan bog'liq bo'lgan barcha dinlar, maktablar, falsafiy ta'limotlarning (Hinduizm³⁵⁸, Jaynizm³⁵⁹, Sikhizm³⁶⁰) borliq haqidagi qarashlarining asosida biz Xudo Brahman timsolini ko'rishimiz mumkin. Jumladan Neovedantizm falsafiy ta'limotining borliq haqidagi qarashlarining asosida ham Xudo Brahman timsoli turadi.

Neo-Vedanta falsafasi ontologiyasi ham xuddi Advaita falsafasi kabi dualizm haqidagi taxminlarga asoslanadi. Advaita falsafasining asosiy tamoyili shundaki, masalalarning barcha shakllari keng tarqalgan energiya bilan o'zaro bog'liqdir (Saravanamuthu, 2006).³⁶¹

Neovedanta falsafasida Brahman yoki Xudo (Ishvara) - bu yakuniy haqiqat va hamma narsaning asosiy sababi hisoblanadi. Brahman - bu uning

³⁵⁸ Jan Gonda (1962), Some Notes on the Study of Ancient-Indian Religious Terminology, *History of Religions*, Vol. 1, No. 2 (Winter, 1962), pages 269–271

³⁵⁹ James Bissett, *Cultural and Religious Heritage of India*, Volume 2: Jainism (Editors: Sharma and Sharma), Mittal, ISBN 81-70999553, page 81

³⁶⁰ S. S. Kohli (1993), *The Sikh and Sikhism*, Atlantic, ISBN 81-71563368, page 39

³⁶¹ Advaita (Non-dualism) as Metatheory: A Constellation of Ontology, Epistemology, and Praxis. *Article* · July 2010

ichki kuchlarining namoyon bo'lishi bo'lgan abadiy farq qiluvchi Birinchi materiya (□□□□□□□ - prakriti) va Ruhlar (□□□□□ - purusha) ning asosi va tayanchi hisoblanadi. Brahman va ruhlar bir-birlari bilan bir butun sifatida bog'liq bo'lib, ular faqat sof ongda namoyon bo'ladi. Birlamchi materiya va ruhlarning dualizmi - bu bir-biridan farq qilish nazariyasini aks ettiruvchi (□□□□ □□□□□ - bheda-abheda) Oliy Voqelikning yuqori dualizmining ajralmas qismi. Birinchi materiya abadiy Brahmanga borib taqaladi va undan rivojlanayotgan jismoniy va psixo-aqliy olamlar Braxman singari abadiy va haqiqiydir.

Braxman - bu olamning uzoq moddiy sababi hisoblanib, bu birinchi materiya ruhlar bilan birlashganda paydo bo'lgan. U shuningdek, koinotni harakatga keltiruvchi kuchdir. Yaratilgan jismoniy olam Braxmanning faol va ixtiyoriy faoliyati natijasidir. Har bir dunyo siklining boshida dastlabki materiyaning (prakriti) tashkil etuvchi uchta gunalar o'z-o'zidan muvozanatsiz emas, balki Xudoning irodasi bilan harakatlanadi.³⁶² Koinotni yaratish jarayonida Braxman o'zining ijodiy kuchi Maya bilan birlashadi. Bu advaita vedanta singari xayoliylik va johillikni emas, balki abadiy haqiqatni anglatadi. Mayaning advayistik nazariyasi faqat o'ziga xos sub'ektiv idealizmdir. Mayyalarning ijodiy kuchi - bu birlamchi materiyaning hosilasi bo'lib, u o'ziga xoslik farqi Brahman bilan bog'liqligidan iborat.³⁶³

Neovedantizm falsafiy oqimining yirik namoyondasi Shri Ramakrishna Brahman haqida shunday fikr bildirgan: “ Mutlaq Brahman – ya’ni Xudo, shaxssiz, o'zgarmas va ko'chmas atributlarsizdir. Braxman aql va nutqdan, kontsentratsiya va meditatsiyadan, bilimdan, biluvchidan, hatto haqiqiy va haqiqiy bo'lmagan, yaxshilik va yovuzlik, fazilat va tartib, baxt va baxtsizlik tushunchalaridan ham ustundir. Braxman - Mutlaqdir - bu mutlaq barqarorlik, mutlaq poklik, mutlaq bilimdir.³⁶⁴ Neovedantada Xudo absolyut bitta, ammo u ko'rish va fikrlash tarziga qarab turli yo'llar bilan namoyon bo'ladi. Agar u eng oliy mavjudot sifatida harakatsiz, yaratmaydigan, saqlamaydigan, vayron qiluvchi emas deb o'ylansa, u shaxssiz xudo Braxman yoki Purusha kabi ko'rinadi.³⁶⁵

Agar uni faol, konstruktiv, saqlovchi, vayron qiluvchi deb hisoblansa, u shaxsiy xudo Shakti yoki Mayya yoki Prakrit kabi namoyon bo'ladi. “ Ammo mohiyatan, ular o'rtasida farq yo'q. Shaxssiz va shaxsli narsalar bir xil. Sut va uning oqligi, Olmos va uning yorqinligi, Ilon va uning emaklab yurishi. Siz

³⁶² Vivekananda, S. (1991). *Bhakti yoga: The yoga of love and devotion*. Calcutta, India: Advaita Ashrama.

³⁶³ <https://creativeabs.com/ru/absolyut-v-vostochnoj-filosofii/neovedanta.html>

³⁶⁴ Radhakrishnan, S. (1999). *Indian philosophy* (Volumes 1 & 2). New Delhi, India: Oxford University Press.

³⁶⁵ Костюченко В.С. Классическая веданта и неоведантизм. М.: Мысль, 1983.— 272 с

boshqasini o'ylamaysiz. Ilohiy ona va Braxman bitta. Xudo bitta, ammo u turli dinlarda turli xil ismlar bilan tanilgan, Haqiqat bitta, ammo donishmandlar uni turli nomlar bilan ataydilar”, deb takidlaydi Shri Ramakrishna.³⁶⁶ Shaxsiy Xudo - bu Ilohiy Ona, u Brahman bilan birlashganda Mutlaq Brahman bitta ekanligini anglaydilar.³⁶⁷ U odamlar bilan aloqa qiladi, shaxssiz, erkakka va ayolga aylanadi. U barcha mujassamlanishlarning boshidir. Cheksiz va cheklangan o'rtasidagi ilohiy vositachi hisoblanadi.

Xudoni anglash va ko'rish hindlar nazdida hayotining eng yuqori maqsadi, chunki faqat shu narsa insonga eng yuqori quvonch va xotirjamlikni keltirishi mumkin. Mutlaq Brahmani fikr yuritish orqali bilish mumkin emas. Kitob bilimlari va intellektual mulohazalar Ilohiyni ochib berolmaydi. O'zini mutlaqo rad etish va Ilohiy Onaning irodasiga sadoqat - bu Xudoni ko'rish uchun eng samarali usuldir. Uning xizmatkori bo'lish, ibodat bilan Unga chin dildan va chuqur murojaat qilish kerak. Aqlning pokligi bunda muhimdir, poklik - bu Xudoni anglashning asosiy shartidir.³⁶⁸

Xudoni ko'rish usuli. Neovedantizm falsafasidan ham Xudo hamma odamlarda o'z-o'zidan mavjud kabi yashaydi, ya'ni har bir insonda Brahman namoyon bo'ladi, shu sababdan ham barcha odamlarga hurmat bilan qarash kerak. Mutlaqni voqelik deb bilgan inson, olamning barcha jonli va jonsiz narsalarida Ilohiy mohiyatni his qila boshlaydi. “Men hamma narsada Xudoni ko'raman. Odamlar va boshqa mavjudotlar menga bo'sh shakl bo'lib tuyulmoqdalar: ular qo'llarini, oyoqlarini, boshlarini harakatga keltiradilar va ularning ichida Xudoning o'zi bor” degan qarash hind falsafiy tafakkurida ustun bo'lgan.³⁶⁹

Svami Vivikananda ham Mutlaq Xudo haqida o'z qarashlariga ega bo'lib, unga butun olamning umumiy yig'indisi Xudodir deya ta'rif bergan. *Butun olam ramzdir va Xudo bu ramzning orqasida yashiringan mohiyatdir. Braxman mohiyat yoki absolyut sifatida juda chuqur mavhumlikdir, uni sevish va ulug'lash mumkin emas. Shaxsga aylangan Xudo barchasidan muhim. Xudo cheksiz insondir, har bir insonning eng yuqori idealidir. "Mavjud bo'lgan yagona narsa shuki, deb davom etadi u, - donolar Uni turli xil nomlar bilan chaqirishadi". Ba'zilar uni Alloh, boshqalari Rabbim, kimdir Braxman, kimdir*

³⁶⁶ The Bhagavadgita; and Indian Philosophy, Vol. 2, by S. Ramakrishna, ISBN 019563821-4, pp. 430-444.

³⁶⁷ *Ткачѐва А. А. Неоиндуизм и неоиндуистский мистицизм // Древо индуизма / Отв. ред. И. П. Глушкова. — М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 1999. — С. 470—486. — 559 с. — (Культура народов Востока). — 2500 экз. — ISBN 5-02-018032-7.*

³⁶⁸ Mukhopadhyaya, Rajeshwar. ‘Cyclic Cosmology and Vedanta’, in *Prabuddha Bharata*. Kolkata: Advaita Ashrama, June 2014.

³⁶⁹ N. V. Isaeva. *Shankara and Indian Philosophy*. — New York: SUNY Press, 1993. — P. 36. — 285 p. — (SUNY series in religious studies). — ISBN 1438407629.

*Kali, kimdir Rama, Xari, Iso, Budda, kosmik qudrat deb ham atashadi va materialistlar buni kuch sifatida qabul qilishadi.*³⁷⁰

Svami Vivikananda o'z davrining yetuk fikiz olimlarida biri bo'lib, tsiklik kosmologiyaning ilmiy nazariyasiga hamohang bo'lgan kosmologiyaning ajralmas modelini ishlab chiqdi.³⁷¹ Svaming proektsiyasi ontologiyaning ajralmas modelini ishlab chiqishda kosmologiya, psixologiya va hind ma'naviyatga murojaat qilganligi ayondir. U Advaita Vedantaning haqiqiy asosini har qanday o'zgarishlarsiz, o'z nazariyasini vedantik donolik asosida ishlab chiqdi. U ikki tomonlama bo'lmagan voqelikning Mutlaq mohiyatini bir vaqtning o'zida uning nisbiy namoyon bo'lishini asoslab bergan. Advaita Vedanta falsafasi Braxmani vaqtdan xoli bo'lgan Mutlaq deb tasavvur qiladi. Bu Mutlaq mavjudot (Sat), Sof ong (Sit) va cheksiz baxt (Ānanda). Bu kosmik vaqt va sabablardan tashqarida bo'lgan shartsiz Haqiqatdir. Bu o'z-o'zidan mavjud va o'z-o'zini namoyon qiladi. Svami Vivekananda buni quyidagicha izohlaydi: *Mutlaqda na vaqt, na makon va na sabab mavjud; Hammasi bitta. O'z-o'zidan mavjud bo'lgan narsa hech qanday sababga ega bo'lishi mumkin emas. Erkin narsa hech qanday sababga ega bo'lishi mumkin emas; aks holda u ozod bo'lmaydi, balki bog'langan bo'lar edi. Nisbiylikka ega bo'lgan narsa erkin bo'lishi mumkin emas.*³⁷²

Ikkita bo'lmagan Mutlaq(Absolyut), nisbiylik dunyosi sifatida Mayaga murojaat qilgan holda namoyon bo'ladi. Ushbu Maya, kosmik kuch tabiatiga ko'ra, makon, vaqt va sababning pastki qatlami; va shunga o'xshash tarzda, illuziya emas, balki haqiqatning bayoni sifatida ko'rinadi. Mutlaq o'z-o'zini ochib beradi va makon, vaqt va sababdan tashqarida, dunyo nisbiy bo'lgan makon, vaqt mahsulidir. Maya tamoyili Advaita Vedanta falsafasidagi ko'p takrorlangan tushunchadir. Maya Haqiqatning Mutlaq tabiatini yashiradi va uning nisbiy tomonlarini aks ettiradi. Aniq mavjudlik - bu mavjudlikning nisbiy darajasiga tegishli bo'lgan Maya harakatidir.³⁷³

Vedanta bo'yicha nisbiy mavjudlik asosan uchta darajaga bo'linadi. Bular:

- Jismoniy daraja
- Aqliy daraja
- Ma'naviy daraja³⁷⁴

Jismoniy olamning aniq evolyutsiyasi to'g'risida Svamiji *prana va akasha* tsikl boshidagi ibtido sifatida ko'rgan. Yangi tsikl boshlanganda, Maya kosmik

³⁷⁰ *The Complete Works of Swami Vivekananda*, Vol. II. Calcutta: Advaita Ashrama, 1989.


³⁷¹ Rajeshwar Mukhopadhyaya, 'Cyclic Cosmology and Vedanta', in *Prabuddha Bharata*. Kolkata: Advaita Ashrama, June 2014.

³⁷² Swami Vivekananda. *The Complete Works of Swami Vivekananda*, Vol. II. Calcutta: Advaita Ashrama, 1989, p. 132.

³⁷³ Vivekananda, S. (1992a). *The complete works of Swami Vivekananda* (Volumes 1 and 2). Calcutta, India: Advaita Ashrama.

³⁷⁴ "Why is Neo-Vedanta Universal?". *Research J. Humanities and Social Sciences*. 8(2): April- June, 2017, 183-188.

sehrida, potentsial koinotda paydo bo'lgan birinchi element bu - *akasha*. Ushbu *akasha prāṇa* deb nomlangan universal kosmik energiya bilan o'zaro bog'liq. Tsikl boshida prana akasha ichida potentsial shaklida qoladi. *Pranada* farqlash boshlanganida, u faollashadi va *akashada* tebranish hosil qila boshlaydi. Tebranish tezlashishi bilan, akāsha uzluksiz tarzda puflay boshlaydi va *vāyu(havo)*, *tejas(olov)*, *apas(suv)* va *prithvi(Yer)* elementlari ketma-ket chiqariladi.



(*Borliqning yaratilish tsikli*)

Ushbu asosiy elementlar birlashib, dunyo tizimlarini keltirib chiqaradi. Vaqt o'tishi bilan *prana* tortishish, elektromagnetizm, quyuq energiya, yorug'lik energiyasi, issiqlik energiyasi, kuchli va kuchsiz kuchlar kabi tabiatda mavjud bo'lgan barcha energiya va kuch maydonlari sifatida namoyon bo'ladi. Koinot ma'lum vaqtgacha kengayib, so'ngra qisqarishga uchraydi. Va nihoyat, butun dunyo tizimi yana *akashaga* qaytadi va energiyaning turli shakllari *pranaga* qo'shiladi. Tsikl oxirida kosmik energiya sifatida *prana* to'xtaydi va potentsialga aylanadi. Svamiji fikriga ko'ra: Kuchlar barcha materiyaga singib ketgan; ularning barchasi Akashada birikadi va undan chiqadi, bu esa *Akashada* asosiy masaladir.³⁷⁶

Svami Vivekananda o'zining kosmologiya haqidagi ma'ruzasida kosmik evolyutsiyaning to'xtovsiz tabiatini qo'llab-quvvatlaydi. Koinot mutlaqo yaratilmagan va yo'q bo'lmaydi. U davriy kengayish va qisqarish fazalari orqali manifestdan noaniq holatga ketma-ket o'zgarishga uchraydi. Svamiji shunday yozadi: *Yaratilishning boshi ham, oxiri ham bo'lmaydi; bu abadiy davom etaveradi.*³⁷⁷

Neovedantiz falsafiy oqimi asosiy etiborini jamiyatga qaratib, uni isloh qilishga harakat qilishi bilan bir qatorda, hinduizm dinidagi ontologik

³⁷⁵ <https://beyondenigma.com/what-is-prana/>

³⁷⁶ *Ibid.*, Vol. III. Calcutta: Advaita Ashrama, 1989, p. 400.

³⁷⁷ *Ibid.*, Vol. II. Calcutta: Advaita Ashrama, 1989, p. 436.

qarashlarni ham yetarlicha dalillar yordamida izohlab berganligi ma'lumdir. Borliq haqidagi qarashlar Neovedantizm da insonni ma'naviy dunyoqarashining boyishiga sababchi bo'ldi. Inson o'zida Ilohiy tamoyilni kashf qilishi unga Xudoni boshqasida ko'rishga va cheklangan o'zlikdan voz kechishga, Xudo va mavjud bo'lgan barcha bilan birlikni his qilishga yordam berdi deyish mumkin. Inson eng oliy qadriyat, hamma odamlar teng va har kim hurmat qilishga haqlidir tamoyili ushbu oqimning ontologik qarashlarida asosiy mezon bo'lib qoldi, ya'ni borliqni tushuntirish orqali inson qadr-qimmati ulug'landi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Advaita (Non-dualism) as Metatheory: A Constellation of Ontology, Epistemology, and Praxis. Article · July 2010
2. Костюченко В.С. Классическая веданта и неоведантизм. М.: Мысль, 1983.— 272 с
3. Vivekananda, S. (1991). Bhakti yoga: The yoga of love and devotion. Calcutta, India: Advaita Ashrama.
4. “Why is Neo-Vedanta Universal”. Research J. Humanities and Social Sciences. 8(2): April- June, 2017, 183-188.
5. Radhakrishnan, S. (1999). Indian philosophy (Volumes 1 & 2). New Delhi, India: Oxford University Press.
6. Ткачёва А. А. Неиндуизм и неиндусский мистицизм // Древо индуизма / Отв. ред. И. П. Глушкова. — М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 1999. — (Культура народов Востока).
7. Mukhopadhyaya, Rajeshwar. ‘Cyclic Cosmology and Vedanta’, in Prabuddha Bharata. Kolkata: Advaita Ashrama, June 2014
8. The Complete Works of Swami Vivekananda, Vol. II. Calcutta: Advaita Ashrama, 1989.
9. Rajeshwar Mukhopadhyaya, ‘Cyclic Cosmology and Vedanta’, in Prabuddha Bharata. Kolkata: Advaita Ashrama, June 2014.
10. N. V. Isaeva. Shankara and Indian Philosophy. — New York: SUNY Press, 1993. — (SUNY series in religious studies). — ISBN 1438407629.
11. The Bhagavadgita; and Indian Philosophy, Vol. 2, by S. Ramakrishna, ISBN 019563821-4
12. <https://creativeabs.com/ru/absolyut-v-vostochnoj-filosofii/neovedanta.html>

HINDUIZM FALSAFASINING SHAKLLANISHINING IJTIMOIIY-MADANIY SHAROITLARI VA G‘OYAVIY ILDIZLARI

Abdusalimov Abror -

“Sharq falsafasi va madaniyati” yo‘nalishi
4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **f.f.d. Izzetova E.M.**

Hindiston dunyoning eng qadimiy silivizasiya markazlaridan biridir. Hindiston azaldan jahon xalqlarini o‘zining qadimiy madaniyati, boy falsafiy merosi, go‘zal tabiati va bitmas tabiiy boyliklari bilan qiziqtirib kelgan. Bu borada qadimda turli mamlakat sayohatchilarining Hindistonni o‘rganish maqsadida u yerga qilgan safarlari va safar tassurotlari asosida yaratib qoldirgan ustaliklari yaqqol misol bo‘la oladi. Ulardan ayniqsa gretsiyalik Megasthen, xitoylik sayohatchi Syuan Shun, O‘rta Osiyolik Abu Rayhon Beruniy hamda Rossiyalik Afanasiy Nikitin va ular yaratgan “Hindiston” nomli qomusiy asarlar hanuzgacha barcha xalqlar uchun Hindiston va hind xalqi haqida to‘liq ma‘lumot beruvchi eng qimmatli va boy asarlar sifatida xizmat qilib kelmoqda. Hindistonning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uning ko‘ptilli va ko‘p dinli mamlakat ekanligidir. Shu bilan bir qatorda hind jamiyatida katta ahamiyat kasb etuvchi diniy kastachilik tizimi va patriarxal qoldiqlari saqlanib qolgan.

Britaniyaning sobiq mustamlakasi hisoblanmish bugungi Hindistonning tez orada jahon miqyosida lider davlatlardan biriga aylanishi olamshumul voqea bo‘ldi. Afsonaviy va sirli hamda ma‘naviy boyliklarga ega bo‘lgan Hindiston o‘rnida Janubiy Osiyoda nafaqat ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy, balki konfessional jihatdan ham bir-biridan farq qiluvchi etti mustaqil davlat (Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Nepal, Shri Lanka, Butan va Maldiv Respublikasi)ning tashkil topishi geosiyosiy jihatdan mamlakatning o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. Asosan qadim va ilk O‘rta asrlarda dunyoga kela boshlagan hind falsafasining asoslari to‘rt ming yil mobaynida epik va mumtoz adabiy an‘analari bilan o‘zaro aloqada va sintezda shakllandi. Qadimiy va O‘rta asr Hindistonining ilm-fan sohasidagi (shular qatori falsafa, matematika, medisina, astronomiya, tilshunoslik sohalarida) va ayniqsa adabiyot va san‘at sohalaridagi erishgan yutuqlari ming yillar davomida unga yaqin va uzoq bo‘lgan qo‘shni mamlakatlar xalqlari tafakkurining shakllanishida ma‘naviy ozuqa sifatida xizmat qilib keldi.

Ko‘p asrlar davomida taraqqiy etib kelgan qadimgi hind madaniyati bir qator qo‘shni xalqlar madaniyatining rivojlanishiga ancha kuchli ta‘sir ko‘rsatgan. Ko‘pgina diniy to‘plamlar saqlanib kelganligi sababli qadimgi hind xalqlarining dini to‘g‘risida, ayniqsa, yaxshi ma‘lumotlarga egamiz.

Hindistonning eng qadimgi dini totemizmdan, tabiatni ilohiylashtirish, otabobolar ruhiga topinishdan boshlanadi. Vedalarda tabiatga topinish yaqqol aks etganini ko'ramiz. Chunki Vedalar tuzilgan vaqtda hindlar quyoshga (Suriya) sig'inganlar, Varuna nomi bilan osmonni ilohiylashtirganlar, muqaddas olovga (Agni), shuningdek, momaqaldiroq xudosiga (Indra) topinganlar³⁷⁸.

Olam mavjudligining uch asosiy jarayoni – yaralish, saqlanish va nobud bo'lish jarayonlarini hindlar uch ma'bud nomi bilan ataganlar, yani Braxma – yaratuvchi, Vishnu – saqlovchi va Shiva – nobud etuvchi, tugatuvchi. Mana shu uch jarayon uzluksiz bo'lib, borliq mana shu qonun asosida mavjud deb hisoblaydilar. Bu hind xalqining vedalardan keyingi davr diniy – falsafiy qarashlaridan biridir. Keyinchalik mana shu qarashlar asosida turli diniy yo'lanishlar shakllangan, yani braxma g'oyasi asosida *braxmanizm*, Vishnu g'oyasiga asoslangan *vishnuizm* va Shiva g'oyasi bilan bog'liq *shivaizm* diniy oqimlari shakllangan. Hinduizm esa, mana shu uch diniy oqim qarashlari majmuasidan tashkil topadi... Hinduizm atamasi o'rta asrlarda shakllangan tushuncha. Uning shakllanishi musulmonlarning kirib kelishi va islom dinnining tarqalishi bilan bog'liq. Xalq orasida musulmonlar ko'payib borgani sari ular mahalliy xalqni o'zlaridan ajratish maqsadida ularning hindular deb nomlay boshlaganlar. Natijada “hindu dharam”, yani “hindular dini” degan atama paydo bo'ldi. Shunga ko'ra, o'rta asrlargacha bo'lgan manbalarda “hindu dharam” degan atama uchramaydi. Hindiston hududlarida bunyodga kelgan hinduizm va buddizm, ular asosida shakllangan turli diniy-falsafiy tizimlar nafaqat Sharqning, balki dunyoning ko'pgina xalqlarining ijtimoiy tafakkuriga o'z ta'sirini o'tkazgan. Ilmiy tafakkurning tezlik bilan rivojlanishi qadimiy hind adabiyoti, san'ati va falsafasining yuqori darajaga etishishiga sabab bo'lgan. Qadimiy hind stivilizastiyasining yutuqlari bugungi Hindiston xayotiga tabiiy holda singib ketgan. Boshqa mamlakatlarga nisbatan Hindistonga ko'proq xos bo'lgan an'anaviylik uning madaniyatining rivojlanishiga va umuman uning doimiy ravishda ilgarilashga bo'lgan harakatiga hech qachon to'siq bo'lmagan.

Qadimgi hind falsafasi shakllanishining dastlabki shart-sharoiti quyidagilar hisoblanadi:

1. **iqtisodiy sharoit** – misdan temirga o'tish, tovar-pul munosabatlarining taraqqiy etishi;

2. **ijtimoiy-siyosiy sharoit** – urug'-qabila munosabatlarining zaiflashuvi, davlatning paydo bo'lishi va rivojlanishi;

3. **dunyoqarashlik sharoiti** – diniy-mifologik dunyoqarash taraqqiyotining yuqori bosqichi³⁷⁹.

³⁷⁸ Антонова К.А, Бонгард-Левин Г.М., Котовский Г.Г. История Индии. – М.Наука, 1979, С. 42-44.

³⁷⁹ Аникеева Е.Н. Теизм (ишвара-вада) в классической индийской философии и его предпосылки: соотношение

Yaxlit olganda, hind falsafasi tarixini 3 davrga ajratish qabul qilingan³⁸⁰:

1. **vedalar davri**, bu davrda falsafiy qarashlar diniy va mifologik qarashlardan hali alohida mavjud bo'lmagan (Veda, Brahmanlik, Hinduizm);

2. **klassik davr**, milodning V-asridan X-asrga qadar davom etgan davr; aynan shu davrda asosiy ortodoksal va noortodoksal falsafiy maktablar shakllangan (Buddizm, Olti falsafiy maktablar);

3. **postklassik davr** (X-asrdan hozirgi kungacha bo'lgan davr).

Asosiy falsafiy maktablarga quyidagilar mansub: **ortodoksal** (Vedalar nufuzini tan oluvchi): sankhya, nyaya, yoga, vaysheshika, mimansa, vedanta; **noortodoksal**: jayнизм, buddizm, Charvoqa-Lokayata maktabi.

Vedalarning asosiy shaklini vedik adabiyot tashkil etadi. Veda so'zining sanskrit tilidagi lug'aviy ma'nosi «bilim» deganidir. Dindor kishi uchun Veda bu oliy, muqaddas bilim, bashoratdir. Aynan «Veda»larda qadimgi hindularning tarix, iqtisod, din, falsafa, axloq-odob kabi masalalarga taalluqli dastlabki fikrlari uchraydi.

Veda adabiyoti deyarli ikki ming yil davomida yaratilganligi haqida guvohlik beruvchi manbalar mavjud. Shak-shubhasiz bu yozma manbaning uslubi va mazmuni bir xil bo'lmagan. Chunki uning yaratuvchisi bir kishi yoki bir necha kishi emas xalq bo'lgan.

Ilk Veda adabiyoti oriyalar yaratgan og'zaki qo'shiqlar, ilohiy taronalar bo'lgan. Bu og'zaki ijod avloddan avlodga, og'izdan og'izga o'tib yurgani uchun ularni «shruti» («eshitilgan») yoki «smriti» («esda kolgan») deb atalib kelingan. Bu qadimgi og'zaki ijod an'anasiga ko'ra «mantra» deb atalib, o'z navbatida vedik adabiyotning katta bir qismini tashkil etardi. Keyinroq yaratilgan boshqa bir qismi nasriy (proza) bo'lib ular «Braxmanlar» deb atalgan³⁸¹.

O'rnatilgan an'analarga muvofiq, barcha vedalar adabiyoti (aynan u biz uchun qadimgi hind bilimlarining asosiy manbasi hisoblanadi: «veda» so'zining o'zi sanskrit tilidan tarjima qilganda «xabardor bo'lish», «bilish») 4 guruhga bo'linadi:

1. Samhitlar (bu to'rt to'plamdan iborat: Rigveda, Samaveda, Yadjurveda va Atxarvaveda).

2. Brahmanlar («oliy mohiyatni sharhlash» va ibodatga oid marosimlar to'plamidan iborat).

личного и безличного. – М.:Наука, 2003, С. 140.

³⁸⁰ Антонова К.А., Бонгард-Левин Г.М., Котовский Г.Г. История Индии. – М.Наука, 1979, С. 89.

³⁸¹ Аникеева Е.Н. Теизм (ишвара-вада) в классической индийской философии и его предпосылки: соотношение личного и безличного. – М.:Наука, 2003. - С. 145.

3. Aranyaklar (so'zma-so'z: «o'rmonga oid», haqiqat haqida falsafiy tafakkur yuritadigan tarki dunyo qilganlar, qariyalar, darveshlar uchun o'rmon matnlaridan iborat).

4. Upanishadlar (so'zma-so'z: «ustoz o'rindig'i, ustoz qarshisida»; keyinchalik pirovardida – «sir tutilgan bilim». Hammasi bo'lib ikki yuzdan ortiq upanishadlar ma'lum³⁸².

Eramizdan avvalgi II minginchi yilning oxirlariga kelib, temir qurollarning tarqalishi natijasida Gang vohasida yashovchi xalqlar dehqonchilik bilan shug'ullana boshlashgan. Ular o'rmonlarni kesib, botqoqlik erlarni qurita boshlashdi. Ko'chmanchi chorvadorlar uchun ovchilikka nisbatan o'troqlashgan dehqonchilik ustun turar edi. Gang vohasida yashovchilarning iqtisodiy hayotlarining asosini dehqonchilik tashkil etardi.

Eramizdan avvalgi II minginchi yilning oxiri va I minginchi yillarning boshida jamiyatda tashkil topayotgan mafkuraviy hayotda buyuk o'zgarishlar yuz bera boshladi. Keyinchalik hind jamiyatida o'z ijtimoiy vazifalariga binoan teng huquqli kishilar to'rt guruhga yoki varnalarga bo'lina boshlandi, ya'ni Braxmanlar (davlat rahbarlari va donishmandlar), Kshatriylar (harbiylar). Vayshyalar (noz-ne'matlarni yaratuvchi kishilar) va Shudralar (jamiyatdagi eng og'ir va iflos ishlarni bajaruvchilar). Bu tabaqalar bir-birlaridan ijtimoiy mavqelari, haq-huquqlari va bajaradigan ishlari bilan farqlanadilar.

Hindistonda bu davrda Braxmanizm etakchi dinga aylangan edi. Dunyoda birdan bir reallik (mavjudlik) bu Braxma, ya'ni Braxma xudosidir. U birdan bir real dunyoviy ruh, shaxssiz, sifatsiz ilohiy substansiya, hayot manbai, barcha borliqning asosidir. Braxmanizm dinida «Karma» haqida ta'limot yaratildi. Bu ta'limotga asosan jon bir tanadan ikkinchi tanaga o'tib yurishi ta'kidlangan. Karma qonuniga binoan inson foniy dunyoda qilgan xatti harakatlari uchun narigi dunyoda javob beradi.

Braxmanizm dini bo'yicha ayollarning ijtimoiy tengsizligi tabiiy hol bo'lib, cho'rilarning holatidan deyarli farq qilmasdi. Davlat tepasidagi kishilar ilohiyat darajasiga ko'tarilgan bo'lib, jamiyatning har bir a'zosi uni insoniy qiyofadagi xudolarga o'xshatib, ikkilanmay ularga itoat qilishlari kerak edi. Braxmanizmda Braxma xudosi - olamni yaratuvchi bo'lib unga qurbonlik keltirishni buyurgan. Braxmanlar o'zlarini odamlar orasida eng yaxshilari deb, inson qiyofasidagi xudolar deb bilib, jamiyat fuqarolari esa ularga bo'ysunishlari shart deganlar. Braxmanizm dini keyinchalik Hindiston bo'ylab yoyildi. Ilk O'rta asrlarga kelib Hindistonda yangi din - hinduizm shakllanib, u butun Hindiston bo'ylab yoyildi.

³⁸² Бонгард-Левин Г.М. Древнеиндийская цивилизация: философия, наука, религия. – М.:Наука, 1980. - С. 97.

Aranyaklar bu «O'rmon kitoblari» (matnlari) bo'lib, tarkidunyochilik qilib, o'rmonlarda kun kechiruvchilarning axloq odobiga taalluqli qoidalar to'plami. Ular haqiqat va uning tabiati haqida falsafiy mushohadalar qilib qalandarona kapalarda yashab o'z umrining tugashini kutuvchilardir. «O'rmon kitoblari» tarki dunyo qiluvchi qalandarlarga taalluqlidir.

To'rt to'planning har biri Braxmanlarga ega. Aranyaklar va Upanishdalar bevosita samxita(to'plam)larga yoki Braxmanlarga taalluqlidir. O'z Aranyaklariga va Upanishadlariga nafaqat u yoki bu samxitalar ega bo'lib qolmasdan, u yoki bu Braxmanga ham taalluqlidir. Qanchalik Braxmanlarning manbaini Samhitalar tashkil etgan ekan, ularga taalluqli bo'lgan Aranyaklar yoki Upanishadlar ham Samhitalarga taalluqlidir.

Rigveda ibodat ilmi haqidagi qo'shiqlar to'plami bo'lib «Rig» sanskrit tilida «ibodat» degan ma'noni anglatadi. Bu taronalar turli marosimlarda qo'shiq qilib kuylangan. Yajurveda - qurbonlik keltirish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, u o'z navbatida Samaveda - qo'shiqlarni musiqaga solish ilmini o'rgatuvchi veda hisoblanadi³⁸³.

Atxarvaveda - duolar va afsunlar o'qish uslubi bo'lib, dastlab vedalar diniy, falsafiy g'oyalarning kelib chiqish tarixi (evolyusiyasi) o'rganiladigan manba hisoblangan. Atxarvavedada kishilar sog'lig'ini yaxshilash, ruhiy va jismoniy kasalliklardan forig' qilish duolari to'plangan. Bular eng yuqori kasta sanalmish Brahmanlar tomonidan jamiyatning ziyoli kismi uchun yozilgan kitob bo'lib, ular asosan Samhitalarni sharhlab beradi. Ularda turli marosimlarga bag'ishlangan bilimlar mavjuddir. Braxmanlar sharhlardan iborat adabiyotlar uchun falsafiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Lekin shunga qaramay Brahmanlar Samhitalar bilan Upanishadlarni bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi³⁸⁴.

An'anaga ko'ra Vedik matnlar guruhini «Upanishad»lar yakunlaydi. «Upanishad» so'zining lug'aviy ma'nosi «foydali nasihat» bo'lib, asar asosan suhbat tarzida, ya'ni ustozning shogird savollariga bergan javoblari tarzida yaratilgan. Aynan ustozning shu javoblari Upanishad, ya'ni «foydali maslahatlar» deb nomlangan.

Upanishadlar aslini olganda vedalar ilmini va ularda ko'tarilgan muammolarni uzoq vaqt davomida fikrdan o'tkazib ular asosida qilingan ma'lum bir xulosalardir. Shuning uchun ularni adolatli ravishda vedalarning yakuni deb atashgan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha 108ta Upanishadlar mavjud bo'lgan. Ilk Upanishadlardan biri «Brixadaranya» eramizdan avvalgi

³⁸³ Бонгард-Левин Г.М. Древнеиндийская цивилизация: философия, наука, религия. – М.:Наука, 1980 - С. 102.

³⁸⁴ Аникеева Е.Н. Теизм (ишвара-вада) в классической индийской философии и его предпосылки: соотношение личного и безличного. – М.:Наука, 2003 - С. 145.

VIII-VII asrlarda yuzaga kelgan. O'sha davrda va ke-yingi bir necha asrlar davomida Upanishadlarning asosiy konsepsiyasi shakllanib kelgan.

Ammo ular orasida falsafiy tasavvurlar shakllanish munosabatiga ko'ra «Upanishadlar» alohida o'rinda turadi — bu to'plamda karma va ruh ko'chib yurishi haqidagi ta'limot asoslari bayon qilinadi. Upanishadlarning mualliflari o'rmondagi tarki dunyo qilganlar huzuriga borishib, u yerlarda biroz muddat istiqomat qilishgan shogirdlar bo'lishgan. Upanishadlar o'zida yagona ta'limotni aks ettirmaydi; to'g'rirog'i, ular yetarli darajada turli xil bo'lgan g'oya va tasavvurlarning tizimga solinmagan bayonidir³⁸⁵.

V.Ruben o'zining «Upanishadlar falsafasi» nomli asarida 109 ta donishmandning ismini keltiradi. Shu jumladan ular ichida Shandilya, Yajnavalkiya va Uddalakalar alohida o'rin tutadi. Ularning fikricha xudolar va g'ayri tabiiy kuchlar olamning yaratilishida ishtirok etmaydilar, tabiatning o'zi yaratuvchanlik kuchi sifatida namoyon bo'ladi. Upanishadlarning ustozlari ijtimoiy o'zgarishlarning tarafdorlari bo'lmagan, lekin ulardagi islohotchilik ruhi davrning ijtimoiy havosiga ta'sirini o'tkazgan.

Shunday qilib, Vedik adabiyotlar falsafa tarixiga oid qiziqarli ma'lumotlar beradi. Garchand Rigvedada asosan diniy matnlar o'rin olgan bo'lsa ham unda qadimgi hindularning borliqning sir sinoatlarini bilishga intiluvchi fikrlari bayon etilgan. Masalan, Rigvedada «Indra xudosi yo'q - deb ba'zilar aytsa, boshkalari esa, Uni kim ko'rgan? Kimni madx etishimiz kerak?» degan fikrlar mavjud. Upanishadlar asosan falsafiy masalalar bayon etilgan asardir. Upanishadlardagi falsafiy masalalarning zaminida shunday fundamental muammolar yotadiki, ya'ni bizni o'rab turgan olamda insonning o'rni va ahamiyati, tashqi olamning va insonning tabiati, xarakteri, ruhiy kechinmalari, olamni bilish imkoniyati, axloqiy normalari haqida fikrlar yuritiladi.

Upanishadlarda dunyo bu Atmanning va Braxmaning ko'rinishidir deb ta'rif beriladi. Upanishadlarning keyingi davrdagi ayrim izdoshlarining o'rgatishlaricha dunyoning tuzilishi sarob, u - mayya (illyuziya), uning mavjudligi xayoliy va norealdir. Ilm Upanishadlarda yuqori qadrlanadi, diniy marosimlar doirasida, masalan, qurbonlik haqidagi bilim. Upanishadlar zohidlik, sadaqa olish, haqgo'ylik, kuch ishlatmaslik, to'g'rilik kabi sifatlarga da'vat etadi. Upanishadlarning dunyoqarashi umuman ilohiydir, lekin shuning bilan birga unda naturfalsafiy qarashlar ham mavjud.

³⁸⁵Zimmer Heinrich. Philosophies of India. — New York, New York: [Princeton University Press](http://www.princeton.edu/~princpress/), 1951. Bollingen Series XXVI; Edited by Joseph Cambell.P.19.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Антонова К.А, Бонгард-Левин Г.М., Котовский Г.Г. История Индии. – М.: Наука, 1979, С 42-44; 89.
2. Аникеева Е.Н. Теизм (ишвара-вада) в классической индийской философии и его предпосылки: соотношение личного и безличного. – М.:Наука, 2003, С 140; 145.
3. Бонгард-Левин Г.М. Древнеиндийская цивилизация: философия, наука, религия. – М.:Наука, 1980, С 97; 102.
4. Zimmer Heinrich. Philosophies of India. — New York, New York: [Princeton University Press](#), 1951. Bollingen Series XXVI; Edited by Joseph Cambell. P 19.

AUROBINDO GHOSHNING FALSAFIY ANTROPOLOGIYASIDA INSON MUAMMOSI

Ibodova Farida -

*“Sharq falsafasi va madaniyati” yo‘nalishi
4-kurs talabasi*

Annotatsiya: Aurobindo Ghosh inson ongi evolutsiyasini o‘z fikrlari va qarashlari bilan yanada yoritib berdi. U “ong-kuch” yoki “ong energiya” tushunchalarini izohladi va ongning tuzulishini o‘rganib chiqadi. U insonning “Evolutsion o‘tmishi” va “ruhiy ong osti”, “jismoniy ong osti” hamda “hayotiy ong osti” kabi dolzarb tushunchalarni evolutsion konsepsiya asosida o‘rganib chiqadi.

Kalit so‘zlar: Aurobindo Ghosh, Savitri, Oliy kuch, Energiya, Ong, Makrokosm, (nescience)-Johillik, Evolutsiya, Tashqi ong, Ichki ong.

Aurobindo Ghosh (घोश अरुबीन्दो) (1872-1950) hayoti XIX asr oxiri va XX asrning birinchi yarmiga to‘g‘ri keldi. Bu safar ko‘p jihatdan insoniyat uchun burilish nuqtasi bo‘ldi. Bu nafaqat ulkan ijtimoiy-siyosiy g‘alayonlar, jahon urushlari, ilm-fan va texnologiyaning misli ko‘rilmagan rivojlanishi, balki madaniy va falsafiy yuksalish, diniy ong sohasidagi o‘zgarishlar bilan ham ajralib turardi. Aurobindo Ghosh XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Hindistonda boshlangan milliy ozodlik harakatining ko‘zga ko‘ringan yirik arboblardan biri bo‘lgan. Aurobindo Ghosh Kalkuttada tug‘ilgan. Uning otasi Krishna Dhan Ghosh Angliyada o‘z ta‘limotini oshirib qaytgan. Ghosh Angliyada o‘qib

yurgan kezlari Geraklit va Platonlarning ham qadimgi hind falsafiy tizimi Vedanta bilan yaqindan tanishib chiqadi. 90-yillardan boshlab u Hindistonning itimoiy hayotida faol ishtirok eta boshlaydi. U mustaqillikka erishish yo'lida hatto "olov va qon bilan" harakat qilish kerak degan. Svaraj- स्वराज (o'z-o'zini boshqarish) va Svadeshi- स्वदेशी (ingliz tovarlarini boykot qilish)shiorlarini targ'ib qilgan³⁸⁶.

Deyarli barcha Aurobindo haqida yozuvchilar uning g'oyalarining mashhurligini sabablaridan biri sifatida uning iste'dodining ko'p tomonli karakterini belgilashadi. Yangi davrning ayrim hind mutaffakirlari shoirlar bo'lishgan (Tagor), boshqalari – siyosiy arboblari (Gandi), ayrimlari – diniy rahnomalar (Ramakrishna), boshqalari –“akademik” faylasuflar (K. Bxattacharya). Shri Aurobindo bu sifatlarning hammasiga ega bo'lgan³⁸⁷. U Hind milliy kongressining keskin so'l (ekstremist) qanotining yetakchisi bo'lib, asrimizning boshlarida siyosiy arenada muvaffaqiyatli chiqqan. Tadqiqot jarayonida, Aurobindo Goshning falsafiy va pedagogik qarashlari Angliyaning Hindistondagi mustamlakasi davrida, milliy ozodlik harakati tug'ilishi va ko'tarilishi davrida shakllangan. Olim bu voqealarning faol ishtirokchisi, haqiqatga, insonparvarlikka befarq bo'lmagan holda xizmat qilgan. Uning dunyoqarashining shakllanishiga G'arb madaniyati va falsafasi ta'sir ko'rsatdi.

Aurobindo Ghosh ong evolyutsiyasi haqida quyidagi fikrlarni ilgari suradi: Inson "Oliy mavjudot" ongi bilan bog'liq bo'lib, uning namoyon bo'lishi jismoniy, hayotiy va aqliy mavjudotlardan tashkil topadi. Ong mavjudotning eng yuqori shakli degan tezisga asoslanib, inson o'z mohiyatiga ko'ra ruh shaklida namoyon bo'ladi, uning cheksiz borligi cheksiz ongda aks etishi va bu o'zini cheksiz shakllarda ochib berishga yordam beradi. Ong to'g'ridan-to'g'ri harakat qilish, his qilish yoki fikrlash usuli emas. Aurobindoning fikriga ko'ra, ong, avvalo, har qanday mavjudotning ko'rinadigan va ko'rinmaydigan mavjudotning ko'plab darajalari yoki mavjudotlari bilan energetik aloqaga kirishish qobiliyatidir. Ong qancha ko'p rivojlansa, uning faoliyat doirasi u bilan muloqot qilish mumkin bo'lgan darajalar soni shunchalik kengroq bo'ladi. Bundan Aurobindo ongni kengaytirish kontseptsiyasini evolyutsion talqin etadi³⁸⁸.

Barcha evolyutsion taraqqiyot, Aurobindoning so'zlariga ko'ra, onging kuch bo'lish qobiliyatiga bog'liq. Ongli bo'lish kuch yoki quvvatga ega bo'lishdir.

³⁸⁶ Сингх К. “Пророк индийского национализма”, Лондон, 1963, С. 7

³⁸⁷ O'sha joyda

³⁸⁸ Шустова Алла Михайловна. Философско-религиозная антропология Ауробиндо Гхоша. М.;- 2000

С. 43.

Aurobindo Ghoshning “Savitri” (सवित्री) asaridagi quyida jumlani misol qilib keltiramiz:

"Insondagi oliy kuch nafaqat natijalarida, balki harakatlarida ham aniq va konkretidir. Men Kuch yoki Energiya hissi haqida gapirganimda, men ularning nafaqat noaniq hissiyotlarini nazarda tutaman, balki aniq hissiyot ko'rinishida balki uni boshqarish, harakatlarini kuzatish massasi va intensivligidan xabardor bo'lish qobiliyatini yuzaga keltirishiga asos bo'ladi".

Aurobindo rivojlantiradigan ong-kuch yoki ong-energiya tushunchasini ong energiyasining mohiyatini muhokama qilish bilan tushuntirib beradi. Agar ong ruh mavjudligining aksi sifatida ma'naviy xususiyatga ega bo'lsa, unda ong energiyasi ham ma'naviy xususiyatga ega bo'lishi kerak. Shunda ongni kengaytirish ma'naviy energiyaga tobora ko'proq egalik qilishga qodir bo'ladi. Shu bilan birga ruhiy mavjudot bo'lsa, u shunchalik ongli va uning evolyutsion bosqichi (evolyutsion va ontologik holat), shuningdek, ma'naviy energiyalarga egalik qilish (boshqarish) qobiliyati ham shuncha baland bo'ladi³⁸⁹. Aurobindo ongning tuzilishini ham o'rganadi. U inson ongini ikki zonaga ajratadi: tashqi va ichki. Ongning tashqi zonasi faol ongni uyg'otmoqda, biz odatda biladigan ong zonasi. Tashqi ong bizning oddiy fikrlarimiz, his-tuyg'ularimiz va harakatlarimizda aks etadigan yuzaki jismoniy, hayotiy va aqliy namoyonlarga ega. Ammo ongning sirtqi ko'rinishlari ortida, Aurobindoning so'zlariga ko'ra, odamda ancha chuqur va kuchli ichki ong mavjud. U odamni aql, hayot va materiyaning (Makrokosm) dunyo darajalari bilan bog'laydi. Tashqi ong inson tanasi, uning sezgi va shaxsiy ongi bilan cheklanadi. Ichki ong, Aurobindoning so'zlariga ko'ra, barcha kuchlar yoki kuchlarning konfiguratsiyasini anglashi tufayli ob'ekt orqasida turgan narsani, uning mohiyatini "ko'ra oladi"³⁹⁰. Aurobindoda ongning turli sohalarga bo'linishi insonning evolyutsion yo'lda rivojlanish darajalariga to'g'ri keladi. U ichki ongni uch sohaga ajratadi. Birinchi soha ong ostidir. U hushyorlik hushidan pastda ong miqyosida joylashgan. Ong osti - bu insoniyat rivojlanishining barcha o'tmish tajribalarining izlarini o'zida saqlab qolgan, ifodalanmagan, farqlanmagan, tushunarsiz onmdir. U Aurobindo ga ko'ra insonning "evolyutsion o'tmishini" anglatadi: u nafaqat tirik materiyaning, balki jonsiz materiyaning ham evolyutsion ko'tarilish yo'lida hukmronlik qilgan barcha kuchlarni qamrab oladi. Zamonaviy psixologiya faoliyat yuritadigan "ongsizlik" tushunchasi, Aurobindoning so'zlariga ko'ra, juda keng dunyoning ko'pgina darajalari va kuchlariga ega bo'lgan faqat tashqi chegara hududidir.

³⁸⁹ Шустова Алла Михайловна. Философско-религиозная антропология Ауробиндо Гхоша. М.;- 2000
С. 46.

³⁹⁰ O'sha joyda

Uning fikriga ko'ra, aqliy, hayotiy va jismoniy mavjudotlar o'zlarining ong ostiga ega, ya'ni "ruhiy ong osti", "hayotiy ong osti" va "jismoniy ong osti" mavjud. Insonning jismoniy ong osti, Aurobindo inson paydo bo'lishidan oldin evolyutsion ravishda o'tgan materiya holatlarini tushunadigan "Ongsiz" (Ongsiz) materialiga kiradi. Aurobindo buni "johillik" (Nescience) deb atashni afzal ko'radi. Ong osti ongida noaniq bilim hosil bo'ladi. "Bu insonning uyg'onish ongi va izchil fikrlash, iroda va tuyg'ulari yoki uyushgan reaksiyasi bo'lmagan, ammo baribir hamma narsalar to'g'risida noaniq taassurotlarni qabul qiladigan va ularni o'zida to'playdigan qism, va u erdan barcha ogohlantirishlar, hamma narsa yetuk bo'lmagan takrorlanadigan yoki g'alati shakllarga o'zgargan doimiy odat harakatlarining turlari tushida ko'tarilishi yoki bedor tabiatga o'tishi mumkin. "Ongsiz ravishda materiya va hayotda birinchi bo'lib paydo bo'lgan ibtidoiy va qo'pol aqliy shakllar va kuchlar paydo bo'lish bosqichida hayotga xos bo'lgan tajovuzkor impulslar, uning barcha qo'rquv va azoblanish reflekslari va nihoyat, bizning jismoniy hayotimizni ongsiz ravishda boshqaradigan kasallik, parchalanish va o'lim kuchlari. Agar biz Aurobindo tomonidan ilgari surilgan ongning tuzilishini ongning evolyutsiyasi bilan o'zaro bog'laydigan bo'lsak, u holda ong osti uzoq o'tmishga, odatdagi bedorlik ongiga hozirgi kunga to'g'ri keladi va o'ta ong uzoq kelajak bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu individual ong darajasi yoki mikro-kosmos darajasi. Subliminal ong allaqachon mavjudotning makrokosmik darajasi. Ongning energetik kontseptsiyasiga ko'ra, ong darajalariga boshqa o'xshashlikni keltirishi mumkin, ularni yorug'lik spektri ko'lami bilan taqqoslash mumkin. Infraqizil zona ong ostiga, ultrabinafsha zona o'ta ongga mos keladi³⁹¹.

Aurobindoning ong muammosiga bo'lgan qarashlarining qiymati u tomonidan ilgari surilgan ongni kengaytirish kontseptsiyasida yotadi, ya'ni ong va evolyutsiya o'rtasidagi bog'liqlik, shuningdek ongning energiya tushunchasi (ong) shuningdek, ma'naviy tabiatning energiyasi sifatida qaraladi).

³⁹¹ Ауробиндо Шри. Идеал человеческого единства. М., 1998. С. 133

³⁹¹ Шустова Алла Михайловна. Философско-религиозная антропология Ауробиндо Гхоша. М.;- 2000 С. 54

S.RADXAKRISHNAN FALSAFA VA DINNING JAMIYATDAGI ROLI VA O'RNI TO'G'RISIDA

Tojiyev Nasrullo -
“Sharq falsafasi va madaniyati”
yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Radhakrishnan o‘z dunyoqarashining asosini tashkil qilgan va falsafiy-nazariy bilimlarini majmuini qurgan falsafiy tizimini tasniflaydi hamda hind falsafasining jamiyatda tutgan o‘rni va diniga bo‘lgan munosabatlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: universal din, universai falsafa, universal axloq, abadiy din.

Sarvapali Radhakrishnan zamonaviy hind falsafasi bo‘yicha mehnat qildi va o‘nlab asarlar yaratdi. Uning Hindiston falsafasi bo‘yicha qilgan ijodi, ayniqsa, bir qancha falsafaga doir asari hind xalqining milliy-madaniy hayotini o‘rganishda asosiy manbalardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Radhakrishnan quyidagi fundamental falsafiy, ijtimoiy-siyosiy ruhdagi asarlarning muallifidir: “Rabindranat Tagor falsafasi” (1918 y.), “Hozirgi zamon falsafasida dinning hukmronligi” (1920 y.), “Hayotga Hinduistik ruhda qarash” (1926 y.), ikki tomlik “Hindiston falsafasi” (1925–1927 y.). Bu asar rus tiliga 1956 yili tarjima qilingan. “Sharq va G‘arb dinda” (1918), “Ozodlik va madaniyat” (1936 y.), “Din va jamiyat” (1947 y.), “Iymonning tiklanishi”(1955 y.) va shuningdek, bir necha yirik falsafiy asarlarni hindiy tiliga ham tarjima qilgan. Jumladan, “Upanishadlar” (1955 y.), “Bxagavadgita” (1948 y.), “Vedanta sutra” (1965 y.) kabi asarlar.

Bulardan tashqari Sarvapali Radhakrishnan bir qancha diniy va falsafiy ta‘limotlar ishlab chiqdi. Bular “universal din“, “universai falsafa”, “universal axloq” va “abadiy din” kabilardir.

Radhakrishnan Maxatma Gandiy singari universal din xaqida fikr yuritadi. Har bir inson qanday ijtimoiy siyosiy qarashlaridan qat‘iy nazar teng xuquqlidir. Faylasuf fikricha, «Universal din»ning elementlari mavjud barcha dinlarda bordir.

Faylasuf «Universal din» haqidagi fikrini davom ettirib: «Bizda ilmiy, axloqiy, ruhiy va universal bo‘la oladigan dinni rivojlantirish uchun imkoniyat bor. Men aminmanki, har bir din ham shu yo‘nalishni o‘rganishga qobildir»³⁹².

Uning ta‘kidlashicha, “universal din” dunyodagi barcha insonlarni birlashtira oladi. Faylasuf ilgari surgan falsafiy ta‘limot uning universal diniga

³⁹²Радхакришнан С. Индийская философия. – М.: “Наука”. 1983 – С 138

xizmat qilishi muqarrar. Radhakrishnan ta'kidlashicha, universal din bilan birgalikda universal falsafa ham mavjud bo'lishi kerak. Bu xaqda faylasuf shunday yozadi: «Mening asosiy vazifam, barcha mamlakat va madaniyatlarda bitta abadiy va universal falsafaning mavjudligini isbotlashdir. Bu Upanishadlarga ham, Buddaga ham, Platonga ham tegishli tomondir. Bu barcha asrlar va qit'alarga tegishli ruxdir»³⁹³.

Radhakrishnan o'z dunyoqarashining asosini tashkil qilgan va falsafiy-nazariy bilimlarini majmuini qurgan falsafiy tizimini shunday tasniflagan: “Abadiy din... irratsional yoki ilmdan tashqari emas, u haqiqatdan yuz o'girishni xohlamaydi. Uni qabul qilish ko'pgina umidsiz, qiyin muammolarni hal etdi va irodali insonlarga tinchlik va yaxshilik olib keladi. Bu men turli yo'llar bilan erishgan shaxsiy falsafadir. Bu falsafa menga eng qiyin sinovlarda, bemorlik yoki davo topganimda, g'alaba qozonganimda yoki mag'lub bo'lganimda yordam berdi”³⁹⁴.

Tizimning nomidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, uning asosini din tashkil etadi. Biroq, ma'lum bir aniq din emas, balki mavhum, universal, abadiy dindir. U maxsus izohni oldi.

Bundan tashqari Radhakrishnan Hindistonda har qanday diniy oqim o'z tirgagi sifatida falsafiy mazmuniga ega, falsafa va din doimiy o'zaro ta'sir jarayoniga ega: “Aynan falsafiy haqiqat va kundalik hayot o'rtasidagi chambarchas bog'liqlik dinni doimo tirik va navqiron qilib ko'rsatadi. Diniy muammolar falsafiy fikrlar rivojlanshini rag'batlantirib turdi”³⁹⁵.

O'z tizimini tashkil etayotib, Radhakrishnan bejiz dinni birinchi o'ringa qo'ymagan. Din har bir inson faoliyatini va xatto jamiyatni ham belgilab beruvchi omildir. Uning fikricha, dinga bo'lgan ehtiyojni qondirib bo'lmaydi. Chunki insoniyat evolyutsiyasini rag'batlantirib, hayotning asosiy mohiyatini anglatadi: “Din bu mavjudlik shakli... turmush tarzi”. Aynan diniy hayot, u hal etilishi kerak bo'lgan muammo emas. Ammo amalgam oshirilishi lozim bo'lgan haqiqat.

Radhakrishnanning fikricha, “universal din” “universal falsafa” bilan uyg'unlashib ketadi. “Mening umumiy pozitsiyam dunyoni keng izohlashga yordam beradi. Bu fikr davom ettirilishini va lozim faktlar, hamda hayotiy ruhning qo'llanilishiga sabab bo'ladi... Falsafa muqaddas bitiklar his-tuyg'u va aqldan yuqori baholansa, aqidaparastlikka aylanadi”³⁹⁶. Radhakrishnan fikricha, bunday yondashuv, uni sxolostika mavqeiga tushurib qo'yadi.

³⁹³ Литман А.Д. Современная Индийская философия. – М.: “Наука” 1985. – С 157.

³⁹⁴ Литман А.Д Сарвапали Радхакришнан – М.: “Наука”. 1983. – С 65.

³⁹⁵ Литман А.Д Сарвапали Радхакришнан – М.: Наука. 1983. – С 70.

³⁹⁶ Литман А.Д Сарвапали Радхакришнан – М.: “Наука”. 1983. – С 84.

Haqiqiy falsafa haqqoniylikka, uning tajribaviy va mantiqiylikiga asoslanadi. Bunday dunyoqarash “universal falsafa”ning haqqoniyligi haqidagi Radhakrishnan fikrlari yakka dunyoqarash doktrinasini shakllantirish uchun asos bo’ldi. “Men diniy aqidaparastlik tizimini emas, balki falsafani taqdim etishga harakat qilmoqdaman. Bu falsafa butun borliqni izohlaydi. Bir vaqtning o’zida aqliy va ma’naviy bo’lib, e’tiqod bilan emas, balki, aql mantiqi tomonidan qo’llab-quvvatlanadi.”³⁹⁷

“Universal falsafa” tizimi tub savollarga, masalalarga javob topish uchun o’z mohiyatini namoyon ettiradi. Radhakrishnan umum falsafiy tamoyillarga qanday yuzlansa, xudda shunday milliy, diniy, falsafiy an’analarga mana shu “universal falsafa” doirasida yondashgan. Radhakrishnan “ilk mavjudlik” g’oyasiga suyanishini ta’kidlardi: “Dunyoning asl mavjudligi, u vujudga keladigan borlig’ini anglatadi. Borliq bu har qanday mavjudlikning asosidir...”. Biroq borliq tushunchasi ostida faylasuf insonga qat’iy nazar mavjud bo’lgan, yoki uning ongini anglatuvchi obektiv reallikni emas, balki ilohiy ruhni, xatto bevosita Vedanta tamoyiliga asoslanib “ilk borliq” sifatida ko’rinuvchi Braxmanni anglardi. Vedanta tamoyillarga asoslanib Radhakrishnan Braxman (brhman)ning hech kimga va hech narsaga tobe emasligini, biroq shunga qaramay, barcha obyektlar ichida obyekt emasligini ham va shu sababli u boshqalar singari mavjud emasligini anglardi. Bini o’rab turgan haqiqat obyektlari borliqqa tobedirlar. Ammo uning o’zi hech kimga tobe emas va xattoki biz ko’rib turgan dunyoning hech qanday buyum va hodisasi bilan bir qatorga qo’yib bo’lmaydi. “Agar borliq bo’lmaganida, hech narsa bo’lmas edi... Borliq barcha narsa asosidir, lekin uning o’zining asosi yo’q. U fikr obyekti emas va u ishlab chiqarish mahsuli ham emas. U barcha mavjud narsalarga nisbatan mutloq qarama-qarshidir. U tub mohiyatiga ko’ra, barchasidan bo’lak”.³⁹⁸

Radhakrishnanning fikricha, dunyo ruhga nisbatan ikkilamchi nazar bilan qaraydi. Ularning o’zaro aloqasi barcha narsada namoyon bo’ladi. Hinduviylik va Vedanta an’analariga to’la suyangan holda, faylasuf “oliy”, “mutloq”, “dunyo ruhi”, “universal borliq” va boshqa tushunchalarni qo’lladi. Go’yo o’z holatining cheklanganligi sababli mavjud diniy ta’limotlarning aqidaparastligi va fanatizmidan qochib, u ruh va o’rab turgan dunyoning o’zaro munosabatlarini tafsiflash uchun aynan hinduviylikka yuzlandi. U shunday yozadi, “Hinduviylik fikriga ko’ra, butun borliqni vujudga keltirgan Xudo, barcha narsadan ozod, mutloq emas, balki o’zi yaratgan cheklangan

³⁹⁷ Atreya, J.P. (ed.) Dr. S. Radhakrishnan: Sovenir Volume. – D.: “India” 2001 – P 548.

³⁹⁸ Литман А.Д Сарвапали Радхакришнан – М.: “Наука”, 1983 – С 85.

mavjudotlarining hayotida ishtirok etuvchi faol borliqdir...Yuqori borliqning dunyoga bo'lgan munosabati qaydlarda belgilangan. Dunyoviy ruh yaratadi, uni qo'llab-quvvatlaydi va oxir oqibat butun dunyoni barbot etadi. Bu uch jihat Braxman (brhman), Vishnu (ivxnu) va Shiva (ixva) nomlari bilan bog'liq. Ular Xudoning dunyoga nisbatan yaratuvchanligining uch tomonini namoyon etadi...Inson haqiqatni anglamasdan baxtli bo'la olmaydi”.

Baxtga idealistik tomondan qaralganda, Radxkrishnan anglash jarayonining o'ziga ham idealistik tushuncha beradi. Baxt deganda Radhkrishnan uning diniy idealistic mohiyatidagi yuksak axloqiy, ma'naviy yetuklikka erishishni anglar edi. Shundan kelib chiqib u, anglash haqida dinga bo'lgan ehtiyojning ko'rinishi, degan fikrga keladi: “Dinga nisbatan ehtiyoj o'likka intilish va noodatiy hayotni izlashdir. Buning barchisini inson anglash yo'lida ildam qadam tashlashi lozimligiga guvohlik beradi”. Bundan tashqari, anglash zarurati haqidagi fikrlar faylasuf tomonidan nafaqat individum ehtiyojlari va xususiyatlaridan kelib chiqibgina qolmay, balki insoniyatga xos bo'lgan “abadiy din”ga intilish va unga yetishish, hamda uning asosida yagona oilaga birlashishi va oqibatda “ilohiy mavjudlik” bilan bir butunlikni tashkil etish orqali erishiladi. “Qachonki insoniyat haqiqatga yetishsa, – deydi Radhkrishnan, – umumiy qardoshlikka, barcha barpo etilganlarning buyuk manbasiga birlashishga erishiladi”.

Radhkrishnan “universal falsafa”ning umumiy tavsifiga keladi:“ “Sofiya” yoki donolik shunchaki anglash emas...Bu haqiqiy anglash maqsadli harakatning mohiyatiga aylanidigan hayot yo'lidir”.³⁹⁹ Shundan kelib chiqadiki, falsafaning vazifasi borliq haqidagi yozuvda insonga haqiqiy, “maqsadli” harakatlarni ta'minlab beradigan bu borliqning ilohiyliги faktini anglash bilan bog'liq, insonning ilohiy qobiliyatlarini va uning ruhiy ozodlikka yetaklovchisidir.

Radhkrishnan asossiz aqidaparast va fanatik, deb qaragan barcha mavjud diniy e'tiqodlarga boshqa e'tiqodlarni – “abadiy din”i ro'para qildi. Demak “abadiy din” o'z mohiyatiga ko'ra, idealistik, mavhum, insonparvar tizim.Uning ijodkorining falsafa hayot bilan bog'liq bo'lishi lozimligi, inson faoloyatini boshqarishi lozim, deb hisoblagan bo'lsa ham, subyektiv maqsadlaridan qat'iy nazar, bu tizim bunday funksiyalarni bajarishdan chetda qoldi.

Radhkrishnanning bu falsafiy ta'limoti, u intilgan idealizmga haqiqatdan ham yaqinlashdi. Biroq shu ma'nodaki, uidealistik falsafaga xos bo'lgan, tub ko'rinishgagina ega bo'ldi. Bu ta'limot keng doiradagi izdoshlariga ega bo'lmadi.Hamda zamonaviy Hindistonning alohida dunyoqarashi oqimi asosiga

³⁹⁹ Литман А.Д Сарвапали Радхакришнан – М.: “Наука” 1983, – с 84.

aylanmadi. Shunga qaramay, Radhakrishnaning bu tizimi hind falsafasi tarixida sezilarli iz qoldirdi. U har qanday idealistik tizmdan ko'ra, insonparvarlik jo'shqinligi va ijtimoiy intiluvchanlikni namoyon etadi. Diniy mistik metafizika emas, balki aynan mana shu ideal tamoyillar Radhakrishnanga jiddiy chuqur ma'noli va o'ziga xos faylasuf nomini berdi. Aynan shular, ziyolilar doirasining qo'llab-quvvatlashini va hind jamiyatining keng qatlamlarida katta mavqega ega bo'ldi. Radhakrishnan fikricha, "universal din" va "universal axloq" bir-biriga mos: biri, ikkinchisini e'tirof etadi. Har ikkisi ham uzoq tarixiy davr jarayonida mustahkamlanadi. Zamonaviy jamiyat inson ongiga diniy-axloqiy meyorlarni singdirishga yo'l qo'ymaydigan sinfiy, milliy, diniy to'siqlar bilan bo'lingan. Shu bois, dunyoda qanday bo'lmasin hozirgi sharoitlarga moslashgan "vaqtinchalik axloq" hukmronlik qilmoqda.⁴⁰⁰

Agar, "universal axloq" ularning tub asoslari mavjud dinlarda kelib chiqqan "din ruhi" bilan uzviy bog'liq ekan, muhabbat qonuni ham, u yoki bu ko'rinishda o'zini ularda namoyon etadi. Agar, fanatizmni yenga olsak, buni sezishimiz qiyin bo'lmaydi. Radhakrishnaning ta'kidlashicha, muhabbat ham ongli, maqsadli ko'rinishga ega bo'lishi kerak va barcha dinlarning asosiy qonunlariga, demakki, "ruh dini"ga ham bo'ysunmog'i lozim, "Qachon biz har bir individumda "universal ruh"ning haqiqatini ko'rsak, biz mavjudlikning eng o'jizini ham, o'zimizni sevgandek sevib qolamiz. Bu oltin qoidaga har bir din ko'mak beradi".⁴⁰¹

Faylasuf va insonparvar bo'lgan Radhakrishnan "universal axloq" va "abadiy din" tamoyillariga ham, burjua jamiyatining ijtimoiy qarshiliklari to'siq bo'lishini anglar edi. "Insonparvarlik – deb yozadi u, – inson o'z tabiatiga ko'ra mehribonligini va yovuzlik, insonni o'rab turgan muhit va sharoitda ildiz otishini nazarda tutadi. Agar muhitni o'zgartirsa, insonning mehri ko'rinadi va rivojlanishga yuz tutiladi". Radhakrishnan tomonidan "universal axloq" tushunchasi, "din ruh"i kabi – "abadiy din" tizimidagi falsafiy-nazariy talqin qilinishi bo'rttirishdir. U shundan kelib chiqadiki, insonning tabiiy ehtiyojini tashkil etuvchi din dunyoqarash nazariyasi bilan mustahkamlanishi zarur: "Bizga amaliy falsafa, biz yashiyotgan dunyo haqidagi yakuniy tushuncha kerak. Bunga faqatgina sabotli falsafiy fikrlash orqaligina erishish mumkin. E'tiqodga aql bilan yondashmoq lozim".⁴⁰²

Shunday qilib, "abadiy din" tizimining diniy-axloqiy ko'rinishidan faylasuf bevosita uning falsafiy jihatiga o'tib, uni falsafiy tizim sifatid tavsifladi".

⁴⁰⁰Radhakrishnan S. Religion and its place in human life // Radhakrishnan S. Occasional speeches and writings. – K.: "India" 1965 – P. 197.

⁴⁰¹Литман А.Д Сарвапали Радхакришнан – М.: "Наука" 1983 – С 82.

⁴⁰²Литман А.Д Сарвапали Радхакришнан – М.: "Наука" 1983 – С 83

Radhakrishnan fikricha, kelajak mustaqil Hindiston uchun mamlakat taraqqiyotining tarixiy bosqichlarga javob beradigan yangi falsafa zarur bo'ladi.

Bu yangi falsafa zamon bilan hamnafas bo'lmog'i lozim, hozirgi zamon talabiga javob beradigan bo'lishi kerak. Hozirgi zamon falsafasi o'tmish ruhiga emas, hozirgi zamon ruhiga mos kelmog'i lozim. Shuning uchun ham hozirgi zamon falsafasi o'tmishdagi biron bir falsafiy ta'limotlarga o'xshamasligi kerak. U hayot bilan hamnafas bo'lmog'i lozim. Harakatning dasturul amali bo'lmog'i lozim hamda original ta'limot bo'lmog'i kerak: U o'zining shakli va mazmuni bilan original bo'lmog'i lozim. Radhakrishnan fikricha, bu original falsafa tabiiy ilmiy ilmlar bilan bog'liq bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Литмана А.Д. "Философская мысль независимой Индии" /1966 г./.
2. Литман А.Д. Сарвепалли Радхакришнан. - "Народы Азии и Африки", 1983, № 4, с. 74-82. Гуманистическая система "вечной религии" С.Радхакришнана" в монографии.
3. Х.Кабира "Политическая философия Радхакришнана", Е.К.Маллика "Радхакришнан и философия государства и общества", А
4. Р.Вадия "Социальная философия Радхакришнана" и книгу С.К.Рея "Политическая мысль президента Радхакришнана".
5. Аникеев Н.П. Современная Индийская философия. М.: Наука 1985. – 219 с.
6. Аникеев Н.П. Сарвапали Радхакришнан М.: Наука. 1983. – 237 с.
7. Аникеев Н.П. Философские и социальные взгляды Сарвапали Радхакришнана. М.: Наука 1984. – 198 с.
8. Бурмистров С.Л. Очерки индийской философии XIX – XX веков. – Москва. 1993. – 156 с.
9. Дж.Неру. Открытие Индии. М., 1955. – 345 с.
10. Радхакришнан С. Индийская философия. М., 1956-1957. Репринт: СПб., 1994. – 245с.
11. Gopal, Sarvepalli. *Radhakrishnan: A Biography*. Delhi: Oxford University Press, 1989. – 308 p.
12. Harris, Ishwar C. *Radhakrishnan: The Profile of a Universalist*. Columbia: South Asia Books, 1982. – 212 p.
13. Morelan W.N. The agrains system of moslim Indian. – Cambridje, 1929. – 145 p.
14. Rahman A. Trimurti. Science Technology and Society. A collection of Essays. New Delhi – Ahmedabad – Bombay., 1989 – 307 p.

ISLOM DININING HIND DINIY-FALSAFIY TAFAKKURIGA TA'SIRI

Abdufattoyeva Shahrizoda -
Sharq falsafasi va madaniyati
yo'nalishi 3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: **Sulaymonov J.**

Islom dinining hind diniy-falsafiy tafakkuriga ta'siri sezilarli darajada. U hind tafakkurida yangi bir burilish yasadi. Islomning mukammalligi va ilohiyligi hind diniy-falsafiy tafakkurini isloh qilishga va yangi bir tafakkurning shakllanishiga turtki bo'ldi. Islomning hind tafakkuriga ta'sirini uch asosiy tushunchada ko'ramiz: Vedanta, Sikkizm va Bhakti. Vedantaga to'xtaladigan bo'sak, Vedanta (sanskritcha – Vedalarning oxiri) Vedalarning sharhi sifatida shakllangan diniy-falsafiy oqim. Vedanta maktabi vakillari uchun bu oqim asoschisi Badarayana yaratgan “Vedanta-Sutra” Vedalardan keyingi darajadagi muqaddas kitob sanaladi. Unda hinduizm an'alariga asoslangan va Vedalar, Upanishadlar va Aranyaklar tafakkuri qorishmasidan paydo bo'lgan yaxlit ta'limot ilgari surilgan. Islomning Vedantaga ta'sirini nimada? Islom Vedantaning shakllanishiga turtki bo'ldi deya olmaymiz, chunki Islom kirib kelganda Hind tafakkurida Vedanta shakllanib ulgurgandi. Ammo Vedantaga qaysidir ma'noda ruh bag'ishlagan aynan Islom dini sanaladi. Islomning Vedantaga ta'siri birinchi navbatda uning rivojlanishi uchun zamin yaratganligida. Islom kirib kelguniga qadar mavjud bo'lgan Vedanta tafakkuri bilan Islom ta'sirida shakllangan Vedanta tafakkurida anchagina o'zgarishlar mavjud. Milodiy VI asrda shakllangan Vedanta oradan asrlar o'tibgina Hind tafakkurida ahamiyatli o'ringa ega bo'ldi. XII asrga kelibgina tom ma'noda Hind tafakkuri ustunlariga aylandi. Vedantaning bu darajada rivojlanishida Islom dinining ta'siri qay darajada? Buni quyida ko'rib chiqamiz.

VII-VIII asrlarga kelib Sharqiy Hindistonda islom dinining ta'siri ortib bordi. Har qanday munosabatning ortida manfaat yotganidek, islom dinining Hindistonga kirib kelishi ortida ham dastlab moddiy manfaat turgan. Islom dinining Hindistonga yoyilishida arab dengizi orqali savdo qiluvchi arab va hind savdogarlari vositachilik qilgan. Dastlab islom dinini Hindiston sharqiy sohili (Malaban), jumladan, Kalkutta dengiz-portida yashovchi savdogarlar qabul qilgan. Islom dinini qabul qiluvchilar, asosan, oddiy av'om edi. Islom dinining aholi tomonidan qo'llab quvvatlanishiga sabab Islom mafkurasida Allohning oldida barchaning teng ekanligi edi. Bilamizki, bu davrda Hindistonda aholining asosiy qismi hinduizmga e'tiqod qilardi. Hind aqidalariga tayangan hinduizm tafakkuri, uning mohiyati, marosimlari, kastachilik tizimi qonun-qoidalari anchayin murakkab edi. Bu davrda amalda bo'lgan deyarli barcha hind diniy-

falsafiy ta'limotlari asosida hinduizm an'analarini va Vedalar falsafasi yotardi. Hind tafakkurida inson hayotining mohiyati – sansaradan chiqib ketish va Nirvanaga erishishdir. Va bu mohiyat deyarli barcha hind diniy-falsafiy ta'limotlarini birlashtirib turadi. Sansaradan chiqish va abadiy rohat-farog'atga erishish yo'llari jnana va diyaana. Jnana – bilim. Inson bilim orqali Nirvanaga erishishi, o'zlikni anglashi mumkin. Bilimga erishishning birdan bir yo'li esa Vedalarni o'rganish. Vedalarni o'rganish esa har kimga ham nasib etavermagan. Hinduizmga ko'ra, faqat braxmanlarga Vedalarni o'rganishga haqli bo'lgan. Kshatriy, vayshiy, shudra va chandallar Vedalarni o'rganishi mumkin bo'lmagan. Xatto ularni behosdan eshitganlari yoki tiliga olganlari uchun ham ayovsiz jazolanganlar. Hind tafakkuriga ko'ra, muqaddas hisoblangan Vedalarni quyi kastalar o'rganishi go'yo Vedalarning muqaddasligiga putur yetkazilishi mumkin. Kasta tabaqalarining quyi qatlami bunday holatda Nirvanaga erishishni orzu ham qila olmasdi. Hind tafakkurida Nirvanaga erishishning yana bir yo'li bu – diyana. Diyana bu meditatsiya, ya'ni ruh va tananing hotirjamligi va birligiga erishish. Bu ham quyi tabaqa vakillari uchun juda murakkab bo'lgan. Islom dinining vayshiy va shudralar tomonidan qo'llab-quvvatlanganligiga sabab ham ana shunda. Chunki Islom dini barcha uchun Nirvanaga erishishga yo'l ochdi. Islom dinida Allohning yagonaligi, uning oldida barchaning tengligi, kastachilik va jamiyatning quyi tabaqalarini kamsituvchi aqidalarning yo'qligi uning yutug'i bo'ldi va Hindistonda keng tarqalishiga zamin yaratdi.

Islom dinining Hind sohillarida ildiz ota boshlagani hind an'ana va aqidalarida sobit turuvchi ziyoli braxmanlarni tashvishga sola boshladi. Ular an'ana va aqidalari murakkab bo'lgan Hinduizm o'zidan ko'ra soddaroq, ilohiy va mukammal bo'lgan Islom dini tafakkuri oldida o'z o'zlarini angladilar. Bunday vaziyatda, bir tomondan Islom dini, va ikkinchi tomondan tahdid solayotgan Nasroniylik diniga qarshi tura olish uchun Hinduizm islohot talab qilardi. Shu tariqa Islom tafakkuri Hind tafakkurining isloh qilinishi uchun tabiiy sharoit yaratdi va buni ijtimoiy-diniy talabga aylantirib qo'ydi. Bunday vaziyatda, Hind an'analarini va e'tiqoni saqlab qolish tarafdori bo'lgan konservativ kuchlar aholini hind e'tiqodiga sodiq qolishi uchun yo'l qidira boshlashdi. O'z navbatida hinduizm ham Hindistonda katta ta'sirga ega edi. Biroq ziyolilar tushundiki, keng omma uchun birdek imkoniyat eshigini ochgan Islomni to'g'ridan-to'g'ri inkor qilib bo'lmadi. Shu sababli Adi Shankara boshchiligida hind tafakkurini davr talabiga mos ravishda isloh qilish boshlab berildi. Adi Shankara Advaita Vedanta ta'limotini yaratdi va bu ta'limot islom tafakkuriga muholifat shaklida shakllandi. Shankara ta'limotining maqsadi xalqni Vedalarga qaytarish. Uning Advaita Vedanta ta'limoti deyarli, to'liq holatda hind tafakkuriga, Vedalarga tayanadi. Biroq uning ta'limotida Islom dini ta'sirini ham ko'rishimiz mumkin. U

Islomdagi tavhidni o'z ta'limotida aks ettirdi. Bilamizki, Hinduizm tafakkuri ko'p Xudolikka asoslangan bo'lib, hindlar bu davrda ham 3333ta Xudoga sig'inishardi. Sharkara Hinduizmning bu aqidasi inkor etmadi. Aksincha barcha Xudolarni e'tirof etgan holda ularni yagona Xudoga birlashtirdi. Uning ta'limotiga ko'ra, Shiva, Vishnu, Krishna...barcha Xudolar mavjud, biroq ular Oliy Xudoning yerdagi ko'rinishi holos. Xudo yagona, u ham bo'lsa Braxman. Endi Braxman o'zi yagona bo'lgan ko'p yuzli Xudoga aylandi. Bu orqali Hinduizm tafakkuri monoteizmga yaqinlashdi. Islomning Hind tafakkuri, xususan, Vedantaga ta'siri ham aynan shunda. Shankaraning bu g'oyasi Hind tafakkurida yangi bir yo'nalishni kashf qildi va keyinchalik boshqa ta'limotlarga asos bo'ldi.

Vedanta maktabini davom ettirgan shaxslar Romanuja va Madhvalardir. Romanuja Vshishta-advaita vedanta ta'limotiga asos soldi. U Shankaradan farqli ravishda, kastaning barcha tabaqalari uchun teng imkoniyat yaratdi. Endi Nirvaga erishish uchun Vedalarni o'rganish shart emas. Kastadan qat'iy nazar barcha Oliy haqiqatga erishishi mumkin. Uning ta'limoti "Faqat Vedalarga e'tiqod qil, Braxmanga sodiq bo'l" shiori ostida yangrad. Kasta tabaqalarining Xudo oldida tenglashtirilishi Hind tafakkurida Islomdagi tenglik g'oyasini o'zlashtirish orqali shakllandi.

Islom dini ta'sirida shakllangan yana bir ta'limot bu Sikkizmdir. Sikkizm – (sikk – o'quvchi demakdir) XV asr oxiri XVI asr boshlarida Shimoliy-G'arbiy Hindiston (Panjob)da kshatriy tabaqasiga mansub bo'lgan Nanak g'oyalari asosida vujudga keldi⁴⁰³. Sikkizm Hinduizmdagi ko'p Xudolik, qayta tug'ilish, kastachilik g'oyalari, feodal jabr-zulmlarga qarshi tarzda shakllandi. Ta'limot asoschisi "Musulmonlarga o'rin yo'q, Hindlarga ham o'rin yo'q!" shiori ostida chiqqan bo'lsada, uning ta'limoti Islom tafakkuri va Vedanta g'oyalaridan oziqlangan holda shakllandi. Sikkharning botiniy g'oyalarida, diniy-ontologik g'oyalarida Islom tafakkurining ustunligini ko'rsak, zohiriy g'oyalari, diniy rasm-rusmlari, an'analari, ibodatlarida esa Vedanta tafakkuri ustunligini ko'ramiz. Sikkizm ta'limotiga ko'ra, moddiy olamdagi barcha hodisalar: olam, inson, tabiat, o'simliklar, hayvonlar... barcha narsa yagona Xudo – Oliy haqiqatning ijodidir. Sikkhlar ham Islom musulmonlari singari g'oyibdan bo'lgan yagona Xudoga e'tiqod qilishadi. Sikkizmga e'tiqod qiluvchilarning muqaddas kitobi – "Adi Grandxa" (bosh kitob). Adi Grandhada Guru nasihatlari, tasavvuf g'oyalari, jumladan, Bhakti kuychisi Kabir va Islom mutasavvuf shoiri Shayx Fariduddin Attorning she'rlari joy olgan⁴⁰⁴. Bu yerda shoir Kabir misolida Islomdagi Allohga muhabbat, sadoqat, tasavvuf g'oyalarini, Fariduddin Attor

⁴⁰³ Источник. Индуизм. Джайнизм. Сикхизм. 1996. -С. 28

⁴⁰⁴ Источник. Индуизм. Джайнизм. Сикхизм, 1996. -С. 533

misolida esa Islomdagi tavhidning Sikhizm g'oyalariida naqadar ahamiyatli ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Islom dinining Hind tafakkuriga keyingi ta'sirini Bhakti g'oyasida ko'ramiz. Islom kirib kelmasidan oldingi davrda ham Bhakti g'oyasi mavjud bo'lgan. Biroq uning alohida ta'limot sifatida shakllanib, Hind tafakkurining ajralmas qismiga aylanishiga ham aynan Islom tafakkuri sabab bo'ldi. Bhakti azaldan Hind tafakkurida Xudoni sevish, unga sadoqat tushunchasi ostida mavjud bo'lgan. Eng qadimgi Upanishadlardan biri Shvetashvatarada Upanishadda ilk bor "Bhakti" atamasi Xudoga sadoqat, ruhiy ustozga hurmat ma'nosida ishlatilgan⁴⁰⁵. Bhagavad Gitada esa "ruhni ozod etish yo'li" sifatida taqdim etilgan⁴⁰⁶. Umuman olganda, Islom kirib kelguniga qadar "Bhakti" Hind tafakkurida faqatgina tushuncha sifatida ahamiyatga ega bo'lgan. Islom orqali kirib kelgan tasavvuf va uning oqimlari ta'sirida Bhakti o'rta asrlarga kelib, yangi bir pog'onaga ko'tarildi. XVI asrda edilikda Bhakti faqat sadoqat tushunchasini anglatibgina qolmay, butun bir ta'limot nomiga aylandi. Shoir Kabir Jaloliddin Rumiyning "Mavlaviya" tariqatidan ilhomlangan holda Bhakti ta'limotini yaratdi. Bhakti ta'limoti bosh g'oyasi – Oliy Xudoga "hissiy bag'ishlanish"⁴⁰⁷, ya'ni Islomdagi tasavvuf g'oyalari singari Xudoga bo'lgan muhabbat va sadoqatni kuchaytirish, Allohga o'zini bag'ishlashdir va bu orqali Xudo vasliga va u bilan birlashishga erishish.

Kabir fikricha, Xudo bizni sevgani kabi biz ham uni sevishimiz, uning sevgisini o'ziga qaytarishimiz kerak. Allohning uyi Ka'bada emas, balki qalbda. Qalb Xudoda bo'lishi kerak, qo'l esa mehnatda. Xudo bilan birlashish uchun o'lim oldidan uni zikr qilish kerak. O'lim oldidan zikr qilish uchun esa butun hayot davomida Xudoni sevish, bu o'tkinchi dunyo lazzatlariga emas, Xudoga mehr qo'yish, doimo u haqda eslab turish, o'z hatti-harakatlarini unga bag'ishlash, u haqida chin dildan sevgi va sadoqat bilan o'ylash kerak. Ko'rib turganimizdek, Kabir g'oyalari Rumi va Naqshbandiy tariqati g'oyalari bilan deyarli bir xil. Chunki Kabir ta'limoti Islom tasavvufi ostida shakllandi. Kabirning Bhakti ta'limotining ahamiyatli jihati shundaki, u Islom tasavvufidan oziqlangan holda Bhaktini Hind tasavvufi darajasiga ko'tardi. Uning yutug'i esa o'zida ham Vedanta tafakkuri, ham Islom tasavvufini birlashtira olganligida.

Bhakti Hind tafakkurida deyarli huquqsiz bo'lgan ayollar, shudra va chandallar uchun ruhiy najot yo'lini yaratdi. Hind-Islom tafakkuri ostida

⁴⁰⁵ Karen Pechelis (2011), Bhakti Traditions (Jessika Frazier, Gavin Flood), Bloomsbury), ISBN 978-0826499660, -P. 107-121

⁴⁰⁶ Jon Lochtefeld (2014), The Illustrated Encyclopedia of Hinduism, Rosen Publishing (Nyu-York), ISBN 978-0823922871, -P. 98-100

⁴⁰⁷ Xans G. Kippenberg; Yme B. Kuiper; Endi F. Sanders (1990). Din va tafakkurda shaxs tushunchalari. Valter de Gruyter. SBN 978-3-11-087437-2. -P. 295

shakllangan Sikhizm ham aynan Bhakti bilan ruhlendi. Bhakti shu darajada kuchaydiki, natijada Sikhizmning asosiy tamoyiliga aylandi. Bhakti rivojlanishi natijasida keyinchalik ikki oqimga ajralib ketdi: Nirguna Bhakti va Saguna Bhakti. Saguna Bhakti – bevosita Vedanta tafakkurida shakllangan, shaxsiy Xudoga, ya'ni Oliy Braxmanning yerdagi ko'rinishlariga sig'inuvchi bhaktalar oqimi. Nirguna Bhakti – shaxssiz Oliy haqiqat (Braxman)ga sig'inuvchilar oqimi. Ular fikricha, Xudo mutloq va mahvum. Uning jinsi ham, ko'rinishi ham ma'lum emas. Uning Yerda ko'rinishi mavjud bo'lishi mumkin emas, u yagona. Nirguna Bhakti g'oyalarda ham aynan Islom tafakkuri ta'siri natijasini ko'rishimiz mumkin. Islom tasavvufi ta'siri faqat Bhakti bilan cheklanib qolmadi. Keyinchalik Hind tasavvufining asosiy oqimiga aylangan Chishtiya tariqati uchun zamin yaratdi.

Xulosa qilib aytganda, Islom dining Hindistonga kirib kelishi Hind tafakkurida yangi bir g'oyalarning, ta'limotlarning shakllanishiga zamin yaratdi. Hind tafakkurini isloh qilinishini, qaysidir ma'noda, zaruriyatga aylantirib qo'ydi. Aholining asosiy qismi e'tiqod qiluvchi, biroq quyi tabaqa vakillari uchun an'ana va aqidalari kamsituvchi bo'lgan Hinduizmning kastachilik an'alarini isloh qilinishi, Hind tafakkurini monoteizmga yaqinlashishi uchun turtki bo'ldi. Islomdagi tenglik g'oyasi quyi tabaqa vakillari uchun Oliy Haqiqatga erishish yo'lini ochgan Vedantani rivojlanishi uchun yo'lchi chiroq vazifasini bajardi. Islomdagi tavhid va gumanistik g'oyalar Hind tafakkurida yakka Xudolikka asoslangan, kastachilik an'alaridan butkul holi bo'lgan, gumanistik g'oyalar bilan yo'g'rilgan yangi bir ta'limotning shakllanishiga asosiy omil bo'ldi. Sikhizm shu darajada rivojlandiki, milliy din darajasiga ko'tarildi. Hind tafakkurida Islom tasavvufidan ilhomlangan holda yangi bir tasavvufiy oqim – Bhakti shakllandi va bu Hind falsafasida tasavvuf oqimlarining shakllanishiga zamin yaratdi. Umuman olganda, Islom tafakkuri Hind tafakkuri uchun o'zida mavjud bo'lgan g'oyalarni isloh qilinishi, jonlanishi uchun turtki, ilhom vazifasini bajardi, yana qaysidir o'rinlarda Hind mafkurasi uchun yangiliklar yaratdi. Hind tafakkurida azaldan mavjud bo'lgan ijtimoiy-diniy muammolarga yechim ko'rsatdi. Tushunarsiz va murakkab g'oyalarni soddalashtirib, Haqiqatga yaqinlashtirdi. Hind tafakkurining o'ziga xos jihati shundaki, u har qanday vaziyatda ham o'z an'alariga sodiq qoldi, biroq davr talabidan kelib chiqib, o'ziga Islom aqidalarini moslashtirgan holda qabul qildi va Hind-Islom tafakkuri qorishmasidan yangi bir ijtimoiy-diniy fenomen paydo bo'ldi.

SHARQ VA G'ARB MAMLAKATLARI MADANIYATIDA RAQAMLARNING O'ZIGA XOS O'RNI

Narziyev Azizbek Ilhom o'g'li -
Sharq falsafasi va madaniyati
yo'nalishi 3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: **Ikramova I.**

Raqamlar - sonlar orqali ifodalanadigan shartli belgilardir. Qadimda sonlar soʻzlar orqali ifodalangan. Eng qadimgi raqamlar bobilliklar va misrliklarga mansub boʻlib, Misr iyeroglif raqamlari (miloddan avvalgi 3000 — 2500 yil) sonlarni ifodalash uchun maxsus rasm belgilar, keyinroq iyeratik va demotik yozuvlari paydo boʻldi. Bobil raqamlari (miloddan avvalgi 2000 yil boshi), asosan, 1, 10, 60 va 100 ni bildiruvchi mixxat belgilari boʻlib, boshqa barcha raqamlar shular asosida ifodalangan. Misr iyeratik yozuvidan Yaqin va Oʻrta Sharqdagi barcha yozuvlar hamda Yunon yozuvi, shu bilan birga alifboga asoslangan raqamlar kelib chiqdi. Bosma yunon alifbosi slavyan kirill va harfiy raqamlarga asos soldi. Hozirgi raqamlarning timsollari (nol bilan birgalikda) Hindistonda V asrda yuzaga kelgan. Bungacha Hindistonda kharoshti raqamlari va u bilan deyarli bir vaqtda brahmi raqamlari boʻlgan. Brahmi raqamlaridan hind gvalior raqamlari kelib chiqqan. Gvalior raqamlari esa arab raqamlariga asos boʻlgan¹. Xalqlarning ijtimoiy xoʻjalik hayoti rivojlanishi bilan mukammalroq belgilarga va hisoblash tizimlariga ehtiyoj paydo boʻlgan. Dastlabki sivilizatsiyalar rivojlanib borishi bilan ular raqamlarni yozishning turli usullarini oʻylab topdilar. Ushbu tizimlarning aksariyati, shu jumladan yunon, misr va ibroniy raqamlari, asosan uzunlik belgilarining kengaytmasi edi. Kattaroq qiymatlarni koʻrsatish uchun turli xil belgilar ishlatilgan. Masalan, Qadimgi Misr tizimida oʻralgan arqon yuzni, suv nilufari esa mingni ifodalagan. Har bir belgi kerak boʻlganda takrorlanadi va barchasi birlashtiriladi, shuning uchun Qadimgi Misr tizimida uch yuz sonini uchta oʻralgan arqon sifatida koʻrsatishgan ekan².

Biz yuqorida raqamlarning tarixi bilan tanishdik. Raqamlar vaqt oʻtishi bilan takomillashib boradi hamda bir qancha olim va faylasuflar tomonidan raqamlarning xususiyatlari yoritilib boriladi. Bunday olimlardan biri Pifagor edi. Pifagor falsafasida son barcha narsaning mohiyati, olam esa sonlar va ular orasidagi munosabatlarning garmonik sistemasi, degan gʻoyalar ilgari suriladi.

Pifagor va uning izdoshlari barcha jismlar mayda zarralar – “borliq birliklari” dan tashkil topadi, ular esa turli tartibda, turlicha geometrik shakllarda birlasha oladi deb fikrlashar edi. Pifagor uchun son tushunchasi ham, moddiyot

¹ OʻzME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

² <https://education.casio.co.uk/blog/a-brief-history-of-numbers>

ham Olamning shakli sifatida namoyon bo‘lgan. Aynan shu tasavvurdan Pifagorchilarning o‘sha mashhur e’tirofi: “Hamma narsa - sondan iborat!” degan tushuncha kelib chiqqan³. Shu tamoyilga ko‘ra Pifagor maktabi vakillari, tabiatdagi barcha hodisa va jarayonlarni faqat sonlar vositasida izohlashga urinishgan. Bu orqali esa ular matematikaning o‘ta muhim sohasi - sonlar nazariyasi uchun tamal toshini qo‘ygan edilar. Pifagorchilar boshqa tarixiy tamaddunlarda bo‘lganidek, barcha sonlarni ikki toifaga: toq va juft sonlarga ajratishgan. Pifagorchilar sirli xususiyatlarga ega bo‘lgan aniq raqamlarning xususiyatlariga quyidagicha ta’rif berishgan:

1 raqami birlik va hamma narsaning kelib chiqish ramziy ma’nosiga ega edi, chunki qolgan barcha raqamlar uning nusxalarini yetarli miqdorda qo‘shish orqali 1 dan yaratilishi mumkin. 2 raqami ayol ramzi edi, 3 erkak ramzi. Bu raqamlar qo‘shilib nikoh hosil bo‘ladi deb aytishgan. 4 raqami adolatni ifodalaydi. Eng mukammal raqam 10 edi. Chunki bu raqam ko‘plikdan kelib chiqadigan birlikning ramzi edi. Bundan tashqari, bu raqam koinot bilan bog‘liq edi. Bitta nuqta 1 ga, chiziq 2 ga to‘g‘ri keladi (chunki chiziq ikkita uchga ega), uchburchak 3 ga va bo‘shliq 4 ga teng. Shunday qilib, ularning jamlanmasi 10 raqamini hosil qiladi⁴. Shunday qilib Pifagor raqamlarning ruhi bor deb ishongan. Pifagorchilar ilhom va ijobiy tuyg‘ular ramzi bo‘lgan “yaxshi” sonlar va buning aksi sifatida “yomon” yoki, “noxush” sonlarni ham belgilagan edilar. Lekin har bir mamlakat o‘zining madaniyatidan kelib chiqqan holda raqamlarni turlicha talqin qilib, ularga yaxshi yoki yomon raqamlar maqomini berishgan.

Amaliy foydalanishdan tashqari, raqamlar butun dunyoda madaniy ahamiyatga ham ega. Biz har kuni hayotimizda raqamlarga duch kelamiz. Ertalab uyg‘onib soatni ko‘rgan paytimizda, bekatda avtobus kutayotgan paytimizda, bankka borib raqamlar yorlig‘ini tortgan yoki kunlik rejamizni tuzish uchun taqvimga qaragan paytimizda va boshqa holatlarda biz bevosita raqamlarga duch kelamiz.

Biz kundalik hayotimizni raqamlarsiz tassavvur eta olamizmi? Albatta yo‘q! Shu bilan birga, har bir davlatning raqamlarga o‘z munosabati borligi ham barchaga ayondir. Garchi bir xil raqamlar bo‘lsa ham, qaysidir davlatda ijobiy qaralgan raqam, qaysidir davlatda salbiy qaralishi ham mumkin. Raqamlarda harflarning talaffuziga o‘xshash ma’noga ega holatlari ham, diniy sabablar orqali raqamlarning ma’nosi belgilanadigan holatlar ham mavjud.

Xitoyliklar sakkiz raqamini juda yaxshi ko‘rishadi. Chunki xitoy tilida sakkiz raqamining talaffuzi “pul ishlab topmoq” va “biznesda muvaffaqiyat” degan ma’nolarga ega bo‘lgan iyerogilif talaffuzi bilan o‘xshashdir. Shuning

³ https://www.orbita.uz/index.php?option=com_content&view=article&id=50:pifagor&catid=63:otmishning-buyuk-olimlari&Itemid=92

⁴ <https://www.britannica.com/topic/number-symbolism/Pythagoreanism#:~:text=This%20number%20symbolized%20unity%20arising,also%20symbolized%20all%20possible%20spaces.>

uchun Xitoyda sakkiz soni bor bo‘lgan telefon yoki avtomobil raqamlari qimmat sotiladi. Xitoyliklarning ko‘pchiligi umid bilan kutgan Pekin Olimpiada o‘yinlarining ochilishi marosimi ham 2008-yil sakkizinchi oy sakkizinchi sanada kechki soat sakkizda o‘tkazilgan⁵. Bundan tashqari xitoyliklarda to‘qqiz raqami “九” (ahob) ning talaffuzi “uzoq umr ko‘ring” ma’nosiga ega bo‘lgan xitoy iyerogilifi bilan bir xil bo‘lganligi uchun sevimli raqam hisoblanadi. Shu sababli 2009-yil to‘qqizinchi oy to‘qqizinchi sanada kechki soat to‘qqizdan to‘qqiz daqiqa o‘tganda oila qurish istagida bo‘lgan ko‘pgina kelin va kuyovlar bo‘lgan. Ularning fikricha bu kunda oila qurgan juftlik uzoq yillar bir-birlarini sevib baxtli hayot kechirishadi.

Koreyada ham xuddi butun dunyo davlatlari kabi koreyslarning o‘zlarining sevimli raqamlari mavjud. Ularning yaxshi ko‘radigan raqami – uch raqamidir. Koreys falsafasiga ko‘ra, uch raqami yolg‘izlik ma’nosini beruvchi toq son bir raqami va birgalik ma’nosini beruvchi juft son ikki raqamining birlashuvidan hosil bo‘lgani uchun ular bu raqamni yolg‘izlik va birgalikning qo‘shilmasi deb hisoblashadi. Koreya tarixidan ham ma’lumki, koreys alifbosining yaratilishida ham o‘ziga xos bo‘lgan falsafa mavjud. Ularda 하늘 (.) osmon, 땅 (_) yer, 사람 (|) odam kabi nomlarning uchalasi birlashib bitta bo‘lishi kerak degan g‘oya hosil bo‘lgan⁶. Biz bu yerda ham uch raqamining mukammal ko‘rinishini ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni osmon, yer va odamning qo‘shilishidan koreys unli harflari vujudga kelgan. Shuningdek ularning madaniyatida bola dunyoga kelib, uch hafta o‘tgandan keyin mehmonlar yangi tug‘ilgan chaqaloqning uyiga tashrif buyurishadi va bolaning uch haftalik bo‘lganini birgalikda nishonlashishadi. Bunga sabab Tangun afsonasida ham ayiq sarimsoq va shuvoqni iste’mol qilganidan uch hafta o‘tgach, odam bo‘lib qolgan ekan. Shuningdek koreyaliklar toq sonlarni ham xush ko‘rishadi. Oy taqvimini bo‘yicha uchinchi oy uchinchi kun, beshinchi oy beshinchi kun va yettinchi oy yettinchi kun kabi sanalarni koreyaliklar energiyaga to‘la kunlar deb bilib, shu paytda turli xil tadbirlar o‘tkazishadi. Yuqoridagi holatlardan xulosa qilib, biz koreys raqamlarining ma’nolarini bevosita koreya falsafasi, madaniyati hamda afsonasi bilan bog‘lashimiz mumkin.

G‘arbliklar asosan yetti raqamini yoqtirishadi. Bu raqamni yaxshi ko‘rishlari diniy sabablarga borib taqaladi. Ularning fikricha, yetti raqami Bibliyada keltirilgan bo‘lib omadni ifodalaydi. G‘arb falsafasida Alloh borliqni olti kun davomida yaratib, yettinchi kuni dam olganligi sababli, g‘arbliklar yetti

⁵ <https://www.chinahighlights.com/travelguide/culture/lucky-number-8.htm>

⁶ 연세 한국어 읽기 3. yonsei korean reading book 3. Retrieved 22 october 2010.

raqami yakun va baraka ma'nosini anglatadi, deb hisoblashadi⁷. Shuning uchun, g'arbliklar telefon yoki avtomobil raqamlarida yetti raqami mavjud bo'lsa, omad va baxt olib keladi, deb o'ylashadi. Shuningdek yetti raqami ularning bir qancha o'yinlarida omadli raqamdir. Qadimgi Gretsiya rimliklari to'rt raqamini omadli raqam deb bilishgan. Bunda ham o'ziga xos xususiyat mavjud bo'lib, ularning falsafasiga ko'ra bir raqamidan to'rt raqamigacha bo'lgan sonlarni to'rt raqamiga navbat bilan qo'shilsa, natija o'n hosil bo'ladi deb hisoblashgan. Shu sababdan ular to'rt raqamiga o'n raqamini hosil qiluvchi raqam ma'nosida qarashgan. Bundan tashqari ular dunyoning to'rtta tomonga ya'ni g'arb, sharq, shimol va janub tomonga kengayishi sababli ham to'rt raqami dunyoning eng ajoyib raqami deb o'ylashgan.

G'arbliklarda to'rt raqami qanchalik qadrlangan bo'lsa-da, sharqliklarda bu raqam ular kabi qadrlanib yaxshi ko'rilmaydi. Sababi xitoy iyerogilifida sharqliklarda ishlatiladiga to'rt raqamining talaffuzi o'lim ma'nosiga ega bo'lib, ularda asosan mash'umlik va baxtsizlikning siymosi sifatida ko'riladi⁸. Shuning uchun sharqliklar va barcha koreyaliklar to'rt raqami ishtrok etgan telefon raqamlari, xona raqamlari va boshqa to'rt raqami uchrashi mumkin bo'lgan kombinatsiyalarni yomon ko'rishadi. Bunday holatlarni biz ularning madaniyatidan va ijtimoiy jarayonlaridan ham bilib olishimiz mumkin. Xususan ba'zi sharq mamlakatlarida binoning to'rtinchi qavatini to'rt raqami bilan atamasdan, ingliz tilidan kirib kelgan tushuncha "F" orqali belgilab nomlashadi. Bundan tashqari ba'zi mamlakatlarning maxsus kasalxonalarida to'rtinchi qavat yo'q bo'lgan yoki umuman to'rt raqami yo'q bo'lgan holatlar ko'p uchraydi.

G'arb mamlakatlarida xususan bizning mamlakatda ham o'n uch raqamiga salbiy munosabat bildirishadi. Bizning mamlakatda bunday qaralishi raqamning talaffuzi bilan bog'liq. Ya'ni o'n uch raqamining talaffuzi bir vaqtning o'zida ham rivojlanib ham to'xtab qolishni anglatadi. Bu sababdan bizning mamlakatda va diniy sabab orqali aksar davlatlarda bu raqamni xush ko'rishmaydi. Bu diniy sababni ular Isoni o'n uchinchi sana – juma kunida o'ldirishi bilan belgilashadi. Bu yerda ham o'ziga xos afsona mavjud bo'lib, afsonaga ko'ra Iso o'n ikka nafar shogirdlari bilan yo'lga chiqadi va bir yerda ovqatlanish uchun to'xtashadi. U bilan birga o'n ikki nafar shogird ham kirishadi, aynan Isoga xoyinlik qilgan shogirdi dasturxon atrofidagi o'n uchinchi stolga o'tirgan edi⁹. Shu sababli 13 raqamida ular Isoga xiyonat qilgan insonni ko'rishadi. Shuning uchun ham g'arbliklar bazmlarga o'n uch nafar insonni taklif qilishni yoki o'n uch nafar insonlar bilan birga ovqatlanishni yomon ko'rishadi. Bundan tashqari g'arb mehmonxonalarida o'n uch raqamli xonalar narxining arzon ekanligini, ba'zi mehmonxonalarda hatto o'n uchinchi

⁷ 연세 한국어 읽기 3. yonsei korean reading book 3. Retrieved 22 october 2010.

⁸ https://en.wikipedia.org/wiki/Chinese_numerology

⁹ 연세 한국어 읽기 3. yonsei korean reading book 3. Retrieved 22 october 2010.

qavat va o‘n uchinchi xona yo‘q holatlar ham ko‘p uchrashini ko‘rishimiz mumkin. Agarda o‘n uchinchi sana juma kuniga to‘g‘ri kelib qolsa, bu kunda ishga bormaydigan, samolyotga chiqmaydigan, qaltis ishga qo‘l urmaydigan odamlar ham ko‘p. Biz yuqoridagi misollardan bu diniy sabab ularning madaniyatiga ham ta’sir qilgani deb bevosita aytishimiz mumkin.

Shuningdek, g‘arbning ba’zi mamlakatlarida olti raqamini Shaytonni anglatuvchi raqam deb hisoblab, bu raqamni xush ko‘rishmaydi. Chunki ularning madaniyatida tugatish va to‘liq ma’nosini beruvchi yetti raqamidan bu raqam bitta kichik hisoblanadi. Shu sababli ular mukammallikdan kichik bo‘lgan olti raqamini nomukammallikni anglatuvchi raqam deb o‘ylab, shaytonni anglatuvchi raqam deb bilishadi. Biz bilamziki, shayton nomukammalilik timsoli sanaladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, raqamlar butun dunyo mamlakatlarida ya’ni sharq davlatlari bo‘ladimi yoki g‘arb davlatlari, har ikkalasida ham yo ijobiy yoki salbiy ma’nolarga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Lekin bunda raqamlarning aybi yo‘q. Chunki raqamlarda biror bir yaxshilik yohud yomonlik olib keluvchi xususiyatlar mavjud emas. Bu shunchaki, o‘sha mamlakat xalqlarining madaniyati, afsonalari, diniy qarashlari hamda raqamlarning talaffuzi bilan bog‘liq bo‘lgan xususiyatlardir. Shuning uchun ham raqamlarga juda katta e’tibor berib, bu raqamlar bizga baxtsizlik olib keladi deb o‘ylamaslik lozim. Ularga e’tiqod darajasida emas, balki xalqlar madaniyatining o‘ziga xosligi, an’analarning bir qismi sifatida qarash kerak. Chunki ular oddiy kundalik hayotda ishlatiladigan, ehtiyojlar uchun kerak bo‘ladigan raqamlardir. To‘g‘ri biz ularni ramz sifatida foydalanishimiz ham mumkin, lekin ramz sifatida foydalandi degani ramzlarga xos bo‘lgan xususiyatlar raqamlarda jamlanib, shu xususiyatlarni ular bajaradi degani emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. OED Online. Oxford University Press. Archived from the original on 2018-10-04. Retrieved 2017-05-16.
2. Ore, Oystein. Number Theory and Its History, Courier Dover Publications.
3. www.education.casio.co.
4. www.orbita.uz.
5. www.britannica.com.
6. 연세 한국어 읽기 3. yonsei korean reading book 3. Retrieved 22 october 2010.
7. www.chinahighlights.com.
8. www.wikipedia.org.

TASAVVUF TA’LIMOTIDA ILOHIY ISHQ

Nosirova Ruhsora Muhiddinjon qizi -
“Sharq falsafasi va madaniyati”
yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada ilohiy va amaliy ilm bo‘lgan tasavvuf va unda ilgari surulgan fikrlar o‘rganiladi. Tasavvufning tarixi, keyingi rivoji va bu rivojlanishga hissa qo‘shgan olimlarning bu boradagi fikrlari ochib beriladi. Islom tasavvufidagi fikrlarning Quroni Karim bilan bog‘liqligi bilan birga Muqaddas Injilda ham mavjud bo‘lgan tasavvuf elementlari ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: Tasavvuf, nafs, ruh, sevgi, ishonch, vasl.

Tasavvuf – din va shariat bilan ham, falsafa va hikmat bilan ham bog‘liq holda rivojlanib kelgan o‘ziga xos ta‘limotdir. Tasavvufni haqiqiy ma‘noda insonparvarlik ta‘limoti ham deb atash mumkin. U insonni ruhini kirlashtiruvchi nafsdan xalos bo‘lishga va bu orqali Olamlar Robbisi bo‘lgan Alohga yetishishga chorlaydi. Tasavvuf nafaqat nazariy balki amaliy ta‘limot ham. Uning tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Bu ta‘limot islomda yanada taraqqiy etgani uchun ham bugun “Islom tasavvufi” tushunchasi dunyoga ma‘lum va mashhur hisoblanadi. Biz tasavvufdagi asosiy g‘oyalarni o‘rganib bu g‘oyalar haqidagi Qur‘oni Karim va Muqaddas Injilda keltirilgan oyatlarni ko‘rib chiqamiz.

Tasavvufda odob-axloq va nafs. Tasavvuf insonlar uchun eng kerakli va zarur g‘oya- ezgu axloqni targ‘ib va tashviq etadi. Odob – axloq, vafo va ahd masalalari uning asosiy qoidalaridandir. U insonni o‘z nafsini bilan kurashga boshlaydi va bu kurash ohirida nafsini yenga olgan inson uchun Allohning jamoli vada qilinadi. Nizomiyning “Maxzan ul-asror”, Amir Xusrav Dehlaviyning “Matla ul-anvor”, Shayx Sadiy Sheroziyning “Bo‘ston” va “Guliston”i, Hofiz Sheroziyning g‘azaliyoti, Navoiyning “Hayrat ul-abror” va “Mahbub ul qulub”i kabi asarlar dunyoviy odob-axloq zamirida tasavvufona odob–axloqni targ‘ib qiladi.

Ulug‘ mutasavvuf arbob Muhammad bin Ali bin Husayn bin Ali bin Abutolib tasavvuf haqida shunday degan ekanlar: “Tasavvuf - bu ezgu xususiyatli bir kasb deganidir, har kimki ezgu tabiatli bo‘lsa, u yaxshiroq so‘fiy bo‘lishi mumkin va ezgu tabiatlilikni ikki tomoni bor: biri xalq bilan hamjihat bo‘lish bo‘lsa, ikkinchisi haq bilan bo‘lishdir.”¹⁰

Keyingi mutasavvuf shayx Abulhasan Nuriy tasavvufni “nafsni tark etish va nafs balosidan qutulish” deydi va so‘zining davomida “Tasavvuf

¹⁰ Ali bin Usmon al-Jullobiy “Kashf ul-mahjub”44 b

rasmiyatchilik emas, axloqdir. U ozodlik vositasidir va bu vosita ila bandalar hoyu havas bandidan ozod bo'ladilar"¹¹ deb hisoblaydi. Mashhur sofiy Junayd Bag'dodiyning fikriga ko'ra, "Tassavuf Tarif-tavsiflardan iborat bir habar va har bir bandasining ko'zglasidir. Deydilarki, bu tariflar haq uchun qilinadimi yoki xalq uchun dedi; asli haqiqatni haq uchun, zohiri esa xalqqa oid. Ya'ni haqiqati ulki, bandalar sifatining fano topishini taqozo etadi va bandalar sifatining fanosi haq sifatining baqosidir"¹².

So'fiylikka qadam qo'ygan inson o'zidagi yomon xislatlarni tugatishga, axloqini mukammal qilishga intiladi. Muhammad bin Alining so'zlariga ko'ra, tabiatdan yaxshi axloqli inson yaxshiroq so'fiy bo'ladi. Buni so'fiy Allohning vasliga tomon qadam tashlaganda agar uning axloqi yomon xislatlarda uzoq bo'lsa uning ruhi tezroq poklanadi, u Allohga tezro yaqinlashadi deb tushunish mumkun. Abulhasan Nuriyning fikricha esa tasavvuf-ozodlik vositasidir. Buni islom tasavvufidagi yomon xislatlar, xususan nafsni ruh bilan emas vujud bog'lanishi orqali tushunish mumkun. Ruh-pok, unda dunyoviy hohish istaklar yo'q, lekin u vujudning hohishlariga bo'ysunadi. Qachonki bu mutelik yakun topsagina ruh ozod bo'ladi. Ruhning ozod bo'lish yo'lish esa tasavvufdir. Junayd Bag'dodiy ham Abulhasan Nuriyning fikrlarini davom ettiradi. Bag'dodiyning fikrini quyidagi yo'sinda tushunish mumkun: bandaning xislatlaridan xalos bo'lishi, Allohning sifati ya'ni pok ruhning umrboqiy bo'lishidir. Banda o'zidagi vujud hohishlarini o'ldirsa Allohning sifati bo'lmish ruh Allohga yaqinlashadi.

Nafsi komila – Payg'ambarlar nafsii oddiy kishilar nafs tarbiyasi bilan bu darajaga yetishi qiyin, ammo komil nafs egasi bo'lishga intilish ma'naviy yuksalish belgisidir. Nafsni yengishni, sodda qilib, inson barcha yomonliklardan forig' bo'lishi, deb tushunish kerak. Jumladan, Alisher Navoiyning "Lisson ut-tayr" asarida shunday baytlar bor ki ularda nafs borasidagi fikrlar yaqqol namoyon etilgan:

*Chun riyozot raf etib ruhoniyyot,
Salib bo'lg'ach kimsadin.
Qolmagan ruhoniyyotdin o'zga hech,
Sen tahallufdin bu ma'ni ichra kech.
Bordur inson oncha sharaf,
Kim yonom axloqin etsa bartaraf.
Bo'lmasa fir'avnligining payravi,
Qolmas ondin jus sifoti mas avi.*

Muqaddas Injilda nafs haqida quyidagi oyat keladi: "Dunyo yoki dunyodagi narsalarni sevmang. Kimki dunyoni sevsa unda Xudoning sevgisi unda emas. Chunki bu dunyodagi barcha narsalar - tana istaklari ko'zlar va mol-

¹¹ O'sha kitob .42-47 b.

¹² Farididdin Attor "Tazkirot ul-avliyo"

mulk bilan faxrlanish – bu Xudodan emas, balki dunyodan. Va dunyo o'z hohish-istaklari bilan birga o'tib ketadi, lekin kim Xudoning irodasini bajo keltirsa, u abadiy yashaydi”¹³.

Qur'oni Karimda esa nafs haqida quyidagi oyat keladi: “Agar senga javob bera olmasalar, bas, bilginki, ular faqat havoii nafslariga ergashmoqdalar, xolos. Allohdan bo'lgan hidoyatsiz, o'z havoii nafsiga ergashgandan ko'ra ham gumrohroq kimsa bormi? Albatta, Alloh zolim qavmlarni hidoyat qilmas” (“Qasos” surasi, 50-oyat).

Qur'oni Karimda va boshqa muqaddas kitoblarda ham insonlarni nafslarini cheklashga undov bor. Tasavvufdagi nafs haqidagi qarashlar esa o'zgacha. Tasavvufga ko'ra, nafs ikki qutbdan iborat bo'lib, uning pastdagi va yuqoridagi uchi birday qoralanadi. Nafs alomatlarini boylik orttirish, harislik va xasislik ko'rsatish, mansabga intilish, mol-dunyo to'plash bo'lib, bularning barchasi birday rad qilinadi. Asosiysi tasavvufda nafsni cheklashga undovchi kuch, bunga ishtiyoq beradigon omil ohiratda emas. Unga bu dunyoda erishish mumkin, uning vasli so'fiyning murodi, u bu yo'lda faqat qalbi bilan yolg'iz, unda tashqaridan cheklovlar yo'q.

Tasavvufdagi yana bir asosiy masala insonning ulug'lanishi, uning qadr-qimmatini yuqori qo'yilishidir. Bu islom tasavvufida Alloh bilan bog'langan ruhiyat misolida ko'rinadi. Bu haqida G'azzoliyning “Kimyo saodati”, “Ithyou ulumid-din”, Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy va ma'naviy”sida so'z boradi. Jumladan, Abulhomid G'azzoliy “Kimyo saodati” asarida shunday deydi: “Agarchi haq taollo odam vujudini past va bee'tibor qilibdur, ammo ruh shahbozi – burguti hazrati Parvardigor dargohidan kelgandur. Agarchi, ruh gavhari – bu tira tuproqni (tuproqdan bo'lgan tanani) makon qilmoq birla chohorpoy va darranda va shayton sifatleri birla aloyish topib (aralashib va ifloslanib) vobasta bo'libdur, vaqtiki riyozat-mashaqqatlar bo'tasig'a tushib, bu oloyi shig'am kudurattidin pok bo'lsa, hazrati Haq subhanahu va taollo rahmati va hamsoyalig'iga shoyusta bo'lg'uvsidurki, asfalasofilindin to a'loi illiyig'acha hamma balandlar aning' sayrgohidur”¹⁴.

Inson maxluqotlarning eng ulug'i. Bunga sabab Imom G'azzoliy fikricha, ruhda ham ilohiylikning borligi, belgisi esa uni Allohning huzuridan kelganidanidir. Inson ruhi riyozat chekib, nafsni jilovlab o'z tanasiga podshoh bo'lganida Allohga yaqinlashadi. Nafsni tiyish nafaqat Qur'on Karimda, bu orqali Alloh vasliga erishish g'oyasi nafaqat G'azzoliyning tasavvuf nazariyasida, balki muqaddas Injilda ham mavjuddir. Xususan, “Agar kimdir uning so'ziga bo'ysunsa, Xudoga bo'lgan sevgi haqiqatda to'liq amalga oshiriladi. Biz uning ichida ekanligimizni bilamiz”¹⁵.

¹³ 1 Yuhanno 2:15-17

¹⁴ Abu Homid G'azzoliy. Toshkent. 2005.

¹⁵ 1 Yuhanno 2:5

“Aziz do’stlar bir birimizni sevishni hali ham davom ettiramiz, chunki sevgi Xudodan keladi. Sevadigon kishi Xudoning farzandi va Xudoni biladi. Lekin kim sevmasa, u Xudoni bilmaydi, chunki Xudo sevgidir. Xudo biz u orqali abadiy hayotga ega bo’lishimiz uchun bizga yagona O’g’lini dunyoga yuborib bizni sevganini ko’rsatdi. Bu haqiqiy sevgidir, biz Xudoni sevishimiz emas, balki U bizni sevgani va gunohlarimizni olish uchun o’z o’g’lini qurbonlik sifatida yuborganligi bejiz emas. Aziz do’star chunki Xudo bizni shu qadar sevdi va biz ham bir-birimizni sevishimiz kerak. Hech kim Xudoni ko’rmagan. Agar bir-birimizni sevsak Xudo bizda yashaydi va uning sevgisi bizda to’liq ifodalangan bo’ladi. Xudo bizga ya’ni o’z bandalariga O’zining ruhini O’zida va u bizda yashayotganligimizda dalil sifatida berdi. Bundan tashqari biz o’z ko’zimiz bilan ko’rdik va hozir Otasining o’z o’g’lini dunyoning xalokori bo’lishiga yuborganiga guvohlik beramiz. Iso Xudoning o’g’li ekanligini tan olganlarning hammasi Xudoda yashaydi va ular Xudoda yashaydilar”¹⁶.

“Yoki sizning tanangiz ichingizda Muqaddas Ruhning ma’badi ekanligini bilasizmi, sizda Xudo bor. Siz o’zingiz emassiz”¹⁷.

Qur’oni karimda esa insonning ulug’lanishini quyidagi oyat bilan ko’rish mumkin: “Esla Vaqtiki Robbing farishtalarga “Albatta men yer yuzida halifa qilmoqchiman”, dedi. Unda fasat qiladigan qon to’kadigan kimsani qilmoqchimisan? Holbuki, biz senga tasbeh, hamd aytib va seni ulug’lab turibmiz” dedilar. (U Zot) “Men siz bilmaganni bilaman” dedi (Baqara surasi, 30-oyat). Alloh taolo yer yuzidagi barcha narsaning nomini insonlargagina o’rgatishi insonning qanchalik ulug’langanini belgisidir. Hattoki, Allohning rahmati bilan yaratilgan inson ruhi pok holda farishtalarning ruhidan ham afzalroq degan xulosa chiqadi.

Tasavvufda esa Hofiz Sheroziyning quyidagi baytlariga murojat qilamiz:

*Bihishti and agar xohi biyo bo mob a mayxona,
Ki az poyi xumat aksar ba havzi kavsar andozem.*

Ya’ni: a’lo va muborak Jannat dargohini agar istasang, biz bilan mayxonaga bor va seni xumdagi mayga botirib kavsar suviga sho’ng’itamiz. Bu Jannat shariatdagi buyurgan Jannat emas. Bu bandalarga bu dunyodagi yaxshi amallari uchun va’da qilingan Jannat emas. Bu qalbdagi Jannat, bu haqiqiy ma’nodagi sof Jannat. Unda Alloh bor. Sen bu Jannatga kirishni istasang mayxonaga borishing kerak. Mayxona bu-xonaqoh. Xonaqohda Alloh ishqida mast bo’lishlik bu har qanday Jannatdan a’loroq. Mayxona kirish bilan inson uchun Alloh tomon ruhiy yo’l boshlanadi. Uning yagona maqsadi Allohni bilish, uning muhabbatiga noil bo’lish, unga fano topish va keyin baqo holatiga tushuib ilohiy sifatlar kasb etish bo’ladi. Inson va Allohni bog’laydigon narsa

¹⁶ Yuhanno 4:7-16

¹⁷ 1 Korinffliklarga 6:19

ruhdir. Shu sabab inson Allohni kashf etish uchun o'zining ruhoniyotiga nazar tashlashi kerak. Shunda uning ruhi uyg'onib, kamol topib o'z aslini bilishga, tanishga qodir bo'ladi. Inson ruhining asil ko'zgusi esa Allohdir.

Xulosa o'rnida shu aytish joizki, islom tasavvufi musulmon olami tafakkurida katta o'zgarish qila oldi. U Allohni sevish uning marhamatiga erishish uchun shariat yo'lidan o'zgacha yo'l taklif etdi. Bu yo'l insonni ma'naviy kamolotga boshlaydigan, Allohni hech bir sababsiz sevishga undaydigan yo'ldir. U Allohga erishish uchun insonlarga shariy farzlarni qo'ymadi, u majburlamaydi yoki azob–uqubatlar va'dasi bilan qo'rquvga solmaydi. U shunchaki Allohni sevishni o'rgatadi va bunga kuch beradi. U ishontiradi. Tasavvufda murakkablik yo'q, savollar yo'q, hammasi oddiy. Inson jismini egallay olsa, uni boshqarishni uddalasagina bas. U bu dunyoda ham Jannatini topadi, Robbisiga yetishadi. Yuqorida keltirib o'tganlarimiz tasavvuf g'oyalarining ma'lum jabhalari Muqaddas kitoblarning deyarli barchasida aks etgan bo'lsada insonlarga buni oddiy, oson eng asosiysi qalb hohishi bilan bajarishni o'rgatgan, Haq vasliga erishishga ishtiyoq bergan, ishonch bergan ta'limot bo'la oldi tasavvuf.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. Toshkent, 2009.
2. Ahmad Abdullayev. Tasavvuf va uning namoyondalari. Termiz, 2007.
3. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. Ikkinchi kitob. "Tavhid asrori". 1999.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Muhammad Yusuf. "Tafsiri Hilol". Hilol-Nashr. Toshkent, 2020.
5. E. Yusupov. Falsafa. Toshkent, 2005.
6. Injil. Yuhanno.


JANUBIY KOREYA DAVLAT BAYROG‘IDAGI RAMZLARNING FALSAFIY TAHLILI

Murodilloyev Nodir Baxodir o‘g‘li -
Sharq falsafasi va madaniyati
yo‘nalishi 3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: **Sulaymonov J.**

Koreya Respublikasining davlat bayrog‘i haqida so‘z borar ekan, avvalo, uning yaratilish tarixini o‘rganish darkor. Koreyada milliy bayroq 1876-yilgacha mavjud bo‘lmagan, ungacha faqat o‘ziga xos qirollik ramzlari bor edi, xolos. 1876-yilgi Yaponiya-Koreya davlatlari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan muzokaralar chog‘ida Yaponiya delegatsiyasi o‘zining milliy bayrog‘ini namoyish qiladi, ammo Choson davlatining milliy ramzi yo‘q edi. O‘sha paytda, amaldorlarning ba‘zilari qirolning ramzlaridan alohida milliy davlat bayrog‘i yaratishni taklif qilishgan, ammo Choson hukumati bu masalani ahamiyatsiz va keraksiz deb hisoblagan.

Uzoq davom etgan muhokamalardan so‘ng 1882-yil 22-avgustda Park Yong Hyo Choson hukumatiga Tegikki – milliy bayroq modelini taqdim etdi. Choson hukumati 1883-yil 27-yanvarda Tegikking davlat bayrog‘i sifatida ishlatilishini rasman e‘lon qildi va hatto, bu bayroq yapon mustamlakachiligi davrida surgun qilingan Koreya hukumati tomonidan foydalanilgan. Yaponiyadan mustaqillikka erishganidan so‘ng esa Koreya Respublikasi Tegikkini 1948-yil 15-avgustda o‘zining milliy bayrog‘i sifatida qabul qildi¹⁸.

Koreya Respublikasining bayrog‘i uch qismdan iborat: oq to‘rtburchak fon, markazida qizil va ko‘k tegik hamda to‘rtta burchakda qora trigrammalar.



Bayroqning maydoni oq tusda bo‘lib, koreys madaniyatidagi an‘anaviy rang hisoblanadi. Oq rang XIX asr koreyslarning kundalik kiyimlarida keng tarqalgan bo‘lib, hozirga qadar zamonaviy hanbok kabi an‘anaviy koreys liboslarida ko‘p uchraydi. Bu rang tinchlik va poklikni anglatadi¹⁹. Bayroq markazidagi aylana olamdagi muvozanatni aks ettiradi. Qizil yarmi

ijobiy fazoviy kuchlarni, ko‘k yarmi esa qarama-qarshi salbiy fazoviy kuchlarni bildiradi.

¹⁸ 태극기 [Taegukgi] (in Korean). Academy of Korean Studies. Retrieved 5 November 2013.

¹⁹ "National Administration : National Symbols of the Republic of Korea : The National Flag - Taegeukgi". Moiss.go.kr. Retrieved 9 January 2018.

Trigrammalar birgalikda asosiy tamoyillar sifatida harakat va uygʻunlikni ifodalaydi. Har bir trigram (hangil: 卦 [kwe]; hanja: 卦) toʻrtta klassik elementlardan birini ifodalaydi²⁰. Quyidagi jadvalda esa ularning har biri qanday maʼnolarni anglatishini koʻrishimiz mumkin:

	Trigrammalar			
	☰	☲	☱	☷
Koreyscha nomi	kon (건 / 乾)	ri (리 / 離)	kam (감 / 坎)	Kön (곤 / 坤)
Samoviy jism	osmon (천 / 天)	quyosh (일 / 日)	oy (월 / 月)	yer (지 / 地)
Fasl	bahor (춘 / 春)	kuz (추 / 秋)	qish (동 / 冬)	yoʻz (하 / 夏)
Ufq tomonlari	sharq (동 / 東)	janub (남 / 南)	shimol (북 / 北)	gʻarb (서 / 西)
Fazilat	insoniylik (인 / 仁)	haqparvarlik (의 / 義)	donishmandlik (지 / 智)	xushmuomala-lik (례 / 禮)
Oila	ota (부 / 父)	qiz (녀 / 女)	oʻgʻil (자 / 子)	ona (모 / 母)
Tabiiy unsur	havo (천 / 天)	olov (화 / 火)	suv (수 / 水)	tuproq (토 / 土)
Maʼnosi	adolat (정의 / 正義)	orzular ushali-shi (결실 / 結)	donolik (지혜 / 智慧)	chidamlilik (생명력 / 生命力)

²⁰ "The World Factbook". *Central Intelligence Agency*. Retrieved 4 November 2013.

Trigrammalardagi uzuq chiziqlar *in* (qorong‘i va sovuqlik), uzilmagan chiziqlar esa *yan* (yorug‘lik va issiqlik) kabi ramziy ma’noga ega. Jadvaldan ma’lumki, trigrammalar tabiiy borliqning 4 asosini ifodalaydi. Ularning joylashuvida ham muvozanat mavjud bo‘lib, *havo tuproqning, olov esa suvning* qarama-qarshi tomonidan joy olgan. Darhaqiqat, bu qarash nafaqat Koreya, balki sharq va g‘arb falsafasida ham keng tarqalgan. Klassik elementlar – suv, yer, olov, havo va (keyinchalik) efir qadimdan materiyaning mohiyati va murakkabligini tushuntirishning asosiy vositasi sanalgan²¹.



Biroq, efini kamdan-kam hollarda uchratish mumkin.

Yunoniston, Qadimgi Misr, Fors, Bobil, Yaponiya, Tibet va Hindistondagi qadimiy madaniyatlarning barchasida materiyaning asosi sifatida beriladigan elementlar ro‘yxati deyarli o‘xshash, ba’zan mahalliy tillarda “havo” – “shamol” shaklida, beshinchi element esa “bo‘shliq” deb ham atalgan. Xitoyning Vu Xing tizimida Yog‘och (木 mù), Olov (火 huǒ), Yer (土 tǔ), Metall (金 jīn) va Suv (水 shuǐ) ro‘yxati berilgan, ammo ular materiya turlari deb emas, balki energiya sifatida ko‘proq tavsiflanadi. Koreya falsafasiga ham aynan Xitoydagi mana shu qarashlar bevosita ta’sir qilgan deya olamiz. Sababi *Bagua, Pakua* yoki *Palgva* deb ataluvchi daosistik kosmologiyada haqiqatning asosiy tamoyillarini ifodalash uchun ishlatiladigan sakkizta belgi mavjud bo‘lib, ular o‘zaro bog‘liq bo‘lgan sakkizta tushunchalar qatori sifatida qaraladi. Ularning har biri uchta satrdan iborat bo‘lib, satrlar “uzuq” yoki “uzilmagan” ko‘rinishda, mos ravishda *in* yoki *yanni* ifodalaydi, 0 yoki 1 ikkilik raqamlarni hosil qiladi 000-111 (0 dan 7 gacha). Uch tomonlama tuzilishi tufayli ular ko‘pincha ingliz tilida “Sakkizta Trigramma” (“*Eight Trigrams*”) deb nomlanadi. Trigrammalar Taiji yoki Tegik falsafasi, Tsitsikuan va Vu Xing yoki “beshta element” bilan bog‘liq²².



Trigrammalar astronomiya, astrologiya, geografiya, geomantika, anatomiya, oila, jang san’ati va boshqa sohalarda ahamiyatga ega²³.

Tegik (hangil: 태극) so‘zi Xitoy mifologiyasi va naturfalsafasi (“*Tay szi*” – *Buyuk chegara*) bilan aloqador bo‘lib, “oliy” degan ma’noni anglatadi²⁴. Ushbu ramz 1880-yillarda tegikki (hangul: 태극기, “bayroq” ma’nosini

²¹ Ball, P. (2004). *The Elements: A Very Short Introduction*. Very Short Introductions. OUP Oxford. p. 33. ISBN 9780191578250.

²² Chen, Xin (tr. Alex Golstein). *The Illustrated Canon of Chen Family Taijiquan*, INBI Matrix Pty Ltd, 2007. page 11. (accessed on Scribd.com, December 14, 2009.)

²³ ZONG, Xiao-Fan and Liscum, Gary. *Chinese Medical Palmistry: Your Health in Your Hand*, Blue Poppy Press, 1999.

²⁴ Rogers, William Elford (1994). *Interpreting Interpretation: Textual Hermeneutics as an Ascetic Discipline*. University Park, Pa: Pennsylvania State University Press. p. 303. ISBN 9780271010618. Retrieved 2 March 2016.

beruvchi *ki* (기) ning qo‘shilishidan hosil bo‘lgan) so‘zi bilan mashhur bo‘lgan milliy bayroqni loyihalash uchun tanlangan²⁵. Tegik Koreys urf-odatlarini bilan bog‘liq bo‘lib, koinotdagi muvozanatni ifodalaydi: qizil ezgulik va yorug‘likni, ko‘k yarmi esa qarama-qarshi salbiy yovuzlik va zulmatni anglatadi. U koreys shamanizmi, konfutsiychilik, daoizm va buddizmga qo‘llaniladi²⁶.

Zamonaviy Koreya madaniyatida bayroqning ahamiyatini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, “The Times Literary Supplement” dan Kolin Marshal va koreys olimi Brayan Reynolds Mayers kabi tadqiqotchilarning ta’kidlashlaricha, Koreya Respublikasi bayrog‘i boshqa mamlakatlarda bo‘lganidan farqli ravishda, bir elatga mansub bo‘lgan (koreys) xalqning ulkan millatparvarlik g‘oyasini ifodalaydi²⁷. Mayersning ta’kidlashicha: “Odatiy [Koreyalik] kishi [Koreya Respublikasi] bayrog‘ini ko‘rganda, butun dunyo bo‘ylab [etnik] koreyslar bilan birodarlikni his qiladi”²⁸.

Mamlakat fuqarolarining katta qismi Koreya Respublikasi bayrog‘ini faqatgina davlat ramzi emas, balki “koreys millati” timsoli deb bilishadi. Binobarin, Koreyada boshqa mamlakatlardagi kabi fuqarolarning milliy bayroqlarini siyosiy norozilik paytida tahqirlash holati nisbatan kamdan kam uchraydi. Hatto davlatga qarshi bo‘lgan ba’zi Koreyalik fuqarolar ham o‘zlarining milliy bayrog‘iga hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo‘lishadi: “Shuning uchun boshqa davlatlarning madaniyatlaridagi kabi davlat bayrog‘ini parodiya qilish yoki qasddan xo‘rlashning birorta ko‘rinishi uchramaydi”²⁹.

Xulosa qilib aytganda, Koreya Respublikasi davlat bayrog‘i xuddi koreys madaniyatining o‘zidek Xitoy falsafasidan oziqlanib shakllangan. Shu bilan birga u o‘zida sharq xalqlariga xos bo‘lgan ramziylik va chuqur falsafiy ma’nolarni aks ettiradi. Bayroqqa faqatgina davlat ramzidek emas, balki butun dunyo bo‘ylab tarqalgan koreys millatining timsoli deb qarash va yuksak ehtirom ko‘rsatish esa shubhasiz, ushbu xalqning o‘ziga xos madaniyatidan dalolat beradi. Bir so‘z bilan, Tegikki bugun koreys millatining bir bo‘lagi desak, adashmagan bo‘lamiz.

²⁵ Korean overseas information service (2003). Handbook of Korea(11. ed.). Seoul: Korean Overseas Information Service. p. 568. ISBN 9788973750054. Retrieved 3 March 2016.

²⁶ Korean overseas information service (2003). Handbook of Korea(11. ed.). Seoul: Korean Overseas Information Service. p. 568. ISBN 9788973750054. Retrieved 3 March 2016.

²⁷ O‘Carroll, Chad (2014). "BR Myers - Current Issues". YouTube. Retrieved 11 September 2017. [T]he South Korean flag continues to function, at least in South Korea, not as a symbol of the state but as a symbol of the race.

²⁸ "North Korea's Unification Drive— B.R. Myers". Sthele Press. 20 December 2017. Retrieved 9 January 2018.

²⁹ Myers, Brian Reynolds (2011). "North Korea's state-loyalty advantage". Free Online Library. Archived from the original on 20 May 2018. Retrieved 29 May 2018

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 태극기 [Taegukgi] (in Korean). Academy of Korean Studies. Retrieved 5 November 2013.
2. "National Administration : National Symbols of the Republic of Korea : The National Flag - Taegukgi". Mois.go.kr. Retrieved 9 January 2018.
3. "The World Factbook". *Central Intelligence Agency*. Retrieved 4 November 2013.
4. Ball, P. (2004). *The Elements: A Very Short Introduction*. Very Short Introductions. OUP Oxford. p. 33. ISBN 9780191578250.
5. Chen, Xin (tr. Alex Golstein). *The Illustrated Canon of Chen Family Taijiquan*, INBI Matrix Pty Ltd, 2007. page 11. (accessed on Scribd.com, December 14, 2009.)
6. Rogers, William Elford (1994). *Interpreting Interpretation: Textual Hermeneutics as an Ascetic Discipline*. University Park, Pa: Pennsylvania State University Press. p. 303. ISBN 9780271010618. Retrieved 2 March 2016.
7. Korean overseas information service (2003). *Handbook of Korea*(11. ed.). Seoul: Korean Overseas Information Service. p. 568. ISBN 9788973750054. Retrieved 3 March 2016.

ABDULLA QODIRIY ASARLARIDA QADRIYAT TUSHUNCHASI

Shermatova Zarnigor Ibrohim qizi -

Sharq falsafasi va madaniyati

yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **Ikromova I.**

Tobora rivojlanish faoliyati bilan mutanosib yashashda va potensial hayotimiz elementlarini yaratishda falsafaning o‘rni beqiyos. Falsafani tushunish bu olamni obyektiv va subyektiv jihatlaridan anglab yetish, shu yutuqqa uyg‘un ravishda maqsadlar qo‘yish, harakat jarayonimizni yuqori saviya bilan izchilligini ta‘minlash va har qanday mavjudlikni qadrlashdan iborat.

XIX asr nemis qadriyatshunosi G.I.Rikkert shunday bayon qiladi: “Odamzot olam va odam hamda hayotning qadrini anglab, ular omonat bir narsa ekanini tushuna boshlagan davrlardan falsafiy fikrlashga kirishgan. Binobarin, birinchi faylasuf, kim bo‘lganidan qat‘iy nazar, hayotni qadrlaydigan kishi bo‘lgani shubhasiz”^[4; 7]

G.I.Rikkertning ikkita fundamental asari ("Tabiat va madaniyat fanlari" va "Tarix falsafasi")da aynan qadriyat tushunchasiga to‘xtalib, tarixiy taraqqiyot jarayoni umuminsoniy ijtimoiy qadriyatlarni amalga oshirishdan

iborat, g'oyasini ilgari suradi. Uningcha, "Qadriyatlar bilan bog'liq bo'lmaydigan narsalar hech qanday ma'noga ega emas".^[6; 1]

Rikkert anglatmoqchi bo'lgan hukmning mohiyatidagi qadriyat bu – voqelikdagi muayyan hodisalarning qiymatini belgilash uchun xizmat qiluvchi, umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniluvchi falsafiy kategoriya bo'lib, u mazkur hodisaning subyekt tomonidan aks ettirilishi natijasida paydo bo'ladi. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar: erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, moddiy va ma'naviy boyliklar, an'ana, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi.^[5; 12]

Falsafa tarixida insoniyat tarixining ilk davrlaridayoq odamlar narsalarning muayyan qiymatga ega ekanligini, insonning u yoki bu ehtiyojlarini qondira olishini, biron sohada foydali bo'lishi mumkinligini kashf etganlar. Shu bilan narsalarning qadriyaviy xususiyati ochilgan va qadriyat anglangan joyda esa falsafa o'sa boshlagan.

XIX-XX asrlar boshlarida insonparvarlik kabi qadriyatlar ilm-fanning markaziy qismiga aylandi. Sharq va g'arbda birdek bu qadriyatlar san'at, din, axloq, qonun, siyosat ziddiyatlaridan parchalanib ketgan insoniyatni birlashtiruvchi falsafa deb sanaldi.

XX asr boshida milliy mustaqillikni orzu qilgan ziyolilarimizning butun harakati, avvalo, millatimiz yaratgan qadriyatlar ruhini targ'ib qilishga, yangi avlodni milliy qadriyatlarga sadoqatli inson qilib tarbiyalashga qaratilgan edi. Ularning peshqadamlaridan biri sifatida Abdulla Qodiriyning ko'rsatish mumkin.

Abdulla Qodiriy o'zbekning o'tmishi har tomonlama haqorat qilinib turgan sobiq tuzum sharoitida milliy qadriyatlarimiz ustidan hukm surgan noto'g'ri siyosatning mutlaqo asossiz ekanini isbotlagan.^[1; 8] Bu jasoratni ba'zi bir nashr etilgan maqolalardan parchalar orqali dalillash mumkin:

"...o'tunga muhtoj bo'lib qolgan rus o'rtoqlarga jannat kabi bog'larimizni buzdirib bo'lsa ham daraxtlarimizni kesmoqqa rizolik berdik, bir mehnatkashning 10 tup daraxti bo'lsa ham kesib oldilar. Biz churq etmadik. Bizning bu rizoligimiz qo'rqqanligimizdan emas, balki rus o'rtoqlarning o'tunga juda muhtojliklaridan edi. Bu kun o'zimiz ham o'tunga muhtoj bo'ldik... Bu ish bizim uchun katta xo'rlik, ko'tara olmas xo'rlik..."

A.Qodir «Ishtirokiyun», 1919 yil, 27 iyul, 142-son, 3-bet.^[2; 75]

Bu maqola parchasidan yurtni sevish, unga jafokashlik ko'rinib turibdi. Qodiriy ona tuprog'ini aziz qilgan insonlarni, qardoshlarini va ularning mehnatini qadrlashga undaydi, unda insonparvarlikni namoyish etadi.

"Durust, biz sharqlilar g'arblilarga qaraganda madaniyatchalik tubandamiz, bizim mazlumiyatimiz madaniyatsizligimiz uchun deyilsa, mumkin. Lekin shundog' bo'lsa ham, istiqlol olib, askarsiz yashamoq butunlay mumkin emas. Natijasi boshqa qurolli millatlarga qul asoratda bo'luvdur".

Ju-boy, «Ishtirokiyun», 1919 yil, 4 noyabr, 211-bet. ^[2; 94]

Bu maqola parchasi orqali Qodiriyning sobiq tuzum sharoitida ham o'z yurtining, o'zbek xalqi o'zligining sha'nini himoya qilish mardligi ortiqroq yuzaga chiqadi.

“Biz jasorat so'rar edik, lekin berish qayerda?! Jasoratimizning qolg'an-qutqanini ham olmoq muddaosida edilar”.

Julqunboy, “Qizil bayroq”, 1922 yil, 1 iyul, 191-son, 2-3-bet. ^[2; 148]

Bu maqola parchasida o'zbek mentaliteti uchun kurashga kirgan Qodiriyning ko'ramiz. U jasoratni talab qilish binobarinda, millat qaddini tik tutishiga da'vat etadi.

“Nega men “Nashriyoti G'ozini Yunus” haqida yozmadim?

-Negakim, bunga xos qasidaning borlig'i uchun.

Nega so'zingni shu yerda to'xtatmoqchi bo'lasan?

-Negakim, bundan ortiqni zamon ko'tarmag'ani uchun”.

Julqunboy, “Ishtirokiyun”, 1920 yil, 8 may, 91-son, 1-bet. ^[2; 106]

Bu maqola parchasining mutolaasida bo'lgan har kimni so'nggi satrlari o'ylashga majbur etadi. “Ko'tarmaydigan zamon”da ham o'z xalqining bo'y-bastini oshkora ta'riflagan, unda amalga oshirilayotgan yangilash siyosatlariga qarshi chiqqan, sobiq tuzum tarafidan ehtimol yo'q qilib yuborilishi kerak bo'lgan an'ana, urf-odat-u qadriyatlarimizga suyanib, ijod etgan va biz avlodlarga ularni to'la-to'kis yetkazib bergan.

“Yozuvchi o'zbek xalqi qadriyatlarini ko'z-ko'z qilmagan holda asarlaridagi qahramonlar hayotini, fe'l-atvorini kitobxonga yetkazar ekan, oddiy turmush tarzidagi tabiiy lavhalarni kashf etishga uringan va tasvir vositasida milliy-ma'naviy meros xazinasidagi go'zal urf-odatlarini ifodalay olgan. Muhimi, Abdulla Qodiriy qadimgi jozibali rasm-rusumlar qatorida salbiy unsurlarni ham adolat yuzasidan ko'rsatgan va tanqid qilgan. Natijada o'zbekona falsafa uning romanlaridan tortib hikoyalariigacha butun fazilatlarini va nuqsonlari bilan ro'yrost o'z ifodasini topgan”- deya yozadi Omonulla Madayev o'z maqolasida. ^[1; 9]

Abdulla Qodiriy qalamiga mansub “O'tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari ham o'zbek xalqi uchun alohida qadriyat darajasiga ko'tarilgan. O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov yozuvchi to'g'risida “Dunyoda Abdulla Qodiriydek baxtiqaro yozuvchi kam bo'ladi. Mustabid sho'ro jallodlari uni qatag'on qildilar, ming bora jabr ko'rsatdilar, oxiri o'ldirib qutuldilar. Dunyoda Abdulla Qodiriydek baxtiyor yozuvchi ham kamdan-kam bo'ladi. Har qanday qatag'onlarga, qamoqqa tiqilish va surgun bo'lish xavfiga qaramay, kitobxonlar “O'tkan kunlar”ni o'qiyverdilar, o'qiyverdilar, o'qiyverdilar!..” deya qayd etadi. ^[3]

Abdulla Qodiriy ijodida milliy qadriyatlarimiz ifodasi haqida fikr yuritar ekanmiz, “O'tkan kunlar” romanida Kumush va Otabekning oilasi misolida

Abdulla Qodiriy sovchilikdan qiz tarafi roziligigacha, qizlar bazmidan mahr belgilanishigacha, vakolat olishdan «Kumushbibining usta qo‘li bilan tikilgan shoxi qiyig‘...»gacha bo‘lgan to‘y lavhalarini ^[1; 16] mukammal tafsilotlari bilan ma‘lumot sifatida taqdim etganligini va o‘zbek qadriyatlari falsafasini qaytadan bunyod etganligini aytib o‘tmasdan iloj yo‘q. Yusufbek hoji millatni birlashishga chorlaydi, yurtni g‘anim bosishiga qarshi sobit turadi, bobolarning xoki egallagan pokiza ona tuprog‘i toptalishidan xalqni ogoh etadi, Otabek esa mana shu yo‘lda shahid ketadi. «Quvlanish» bobida Usta Alim Otabekni «O‘zi kelgan mehmon - atoyi xudo» sifatida qabul qiladi, uning ko‘nglini ovlash uchun mehmondo‘st mezbbon bo‘lib beradi. Shu va boshqa holatlar orqali o‘zbek milliy qadriyati romandagi tasvirlardan balqib chiqqan.

Abdulla Qodiriy butun ijodi davomida yaratgan romanlari, dramatik asari, hikoyalari, felyetonlari, maktublari, ilmiy asarlarida tarixchi, etnograf, faylasuf, tilshunos, folklorshunos, adabiyotshunos olim, eng muhimi, mumtoz, go‘zal so‘z sohibi sifatida ijod qildi. Qisqagina umrini o‘zbek xalqi milliy qadriyatlarini to‘liq ravishda keyingi avlodga - bizga bebaho meros qilib qoldirishga bag‘ishladi. ^[1; 21]

Yuqorida Rikkert “Qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lmaydigan narsalar hech qanday ma‘noga ega emas” deganidek, inson falsafasidan qadriyat o‘rin olmas ekan, u komillikda shakllanmaydi, qadriyati yo‘q millat millat bo‘lolmaydi, avlodlarga millat ruhini namoyish etmoq qadriyatni singdirish, demakdir. Xuddi shunday, Abdulla Qodiriy istiqlol orzusi uchun kurashdi, o‘zbek elining millat sifatida shakllanishiga hissa qo‘shdi va uni fazilat-u qusurlari bilan birgalikda bor bo‘yicha tasvirladi, millatparvarlikdan chekinmadi, erk tushunchasini omma ongiga tutdi, o‘zbek falsafasidan o‘rin olgan o‘zbek aksiologiyasini himoya qildi. Umuman olganda, Abdulla Qodiriy o‘zbek mentalitetini bayroq singari bosh uzra ko‘tardi. Bu ulug‘ xizmatni – ulug‘ jasoratni har bir yangi avlodga tanitib bormoq lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulla Qodiriy. Adibni xotirlab V, Toshkent, 2017 (“Abdulla Qodiriy ijodida milliy qadriyat” Omonulla Madayev). – B.8-9-16-21.
2. Abdulla Qodiriy. Diyori Bakr III, Toshkent, 2017. – B.2-75-94-105-148.
3. <https://kh-davron.uz/>, 16.04.2014, Habibulla Qodiriy. “ «Otam haqida» xotiralar kitobidan”
4. Q.Nazarov. Falsafa asoslari, Toshkent, 2005. – B.7
5. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, Toshkent, 2013. – B.12

MAHABHARATA DOSTONINING YARATILISHI VA UNDAGI IJTIMOIIY- FALSAFIY MASALALAR

Nizomova Odina Shavkat qizi -
Sharq falsafasi va madaniyati
yo'nalishi 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: **Sulaymonov J.**

Ming yillik tarixga ega Hindiston falsafasini o'rganar ekanmiz, avvalo, uning o'chmas tarixiga nazar tashlamog'imiz lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "...Hozirgi paytda jamiyat va sivilizatsiyalar avvalo ijtimoiy qadriyatlar va ta'lim tizimlari bilan raqobatlashmoqda. Shu nuqtai nazardan, qadimgi xalqlarqadryatlari va urf-odatlarini, ularning butun jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasini chuqur o'rganish, teran anglash va keng ommalashtirish alohida ahamiyatga egadir".³⁰

Hindiston tarixini batafsil yoritib beradigan ikkita muhim epik asar mavjud. Ularning biri "Mahabharata" bo'lsa, ikkinchisi Ramayana dostonidir. Qadimgi Hindistonning ikkita asosiy sanskrit dostonlaridan biri bo'lmish "Mahabharata" 74 mingdan ortiq misralar, shuningdek, uzoq nasriy parchalar yoki jami 1,8 million so'zdan iborat. Bu dunyodagi eng uzun epik she'r edi. Asar nomi "Bharata sulolasining buyuk ertagi", deb tarjima qilinishi mumkin. An'anaga ko'ra "Mahabharata" Rishi Vyasaga tegishli. Hindistonning falsafiy va axloqiy ta'limotlarining chuqur donoligini, shu jumladan, eng buyuk eposlari bo'lgan "Mahabharata" va Ramayana dostonlaridagi bilish insonni haqiqiy ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarga aylantira oladi, u ma'naviy-axloqiy tarafdin o'zini yaxshilashga intilishni uyg'otadi, adolat, uyg'unlik, tabiat bilan birlik va boshqa ko'plab madaniy-axloqiy qadriyatlar kabi hayotiy ustuvorliklarni amalga oshiradi, buning natijasida butun taraqqiy etgan, barqaror jamiyat vujudga keladi.

"Mahabharata" dostoni bundan uch ming yillar ilgari yaratilgan adabiyotining ajoyib yodgorligi bo'libgina qolmay, qadimgi Hindiston xalqlari hayoti, urf-odatlarini, xulqlari, estetik va etik qarashlarining o'ziga xos ensiklopediyasidir. "Mahabharata"dagi ba'zi rivoyat va qahramonlar veda adabiyotida ham uchraydi. Syujetlar asosan afsona va rivoyatlardan iborat bo'lib, vaqt o'tishi bilan ular yangilanib, o'zgarib, asarning hajmi kattalashib borgan. Jumladan, "Shakuntala qissasi", "Rama qissasi", "Shiva haqidagi qissa", "Nala qissasi", "Shoh Shiva haqidagi qissa", "Savitriy qissasi" kabi

³⁰ Mirziyoyev.Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. -T.: O'zbekiston, 2017. - B.35

rivoyatlar xalq og‘zaki ijodidan kirib kelgan.³¹ Eposda Hindistondagi qadimgi Hastinapur (bugungi Dehli) davlatining shoqi Bharataning yettinchi avlodida (kavravlar va pandavlar o‘rtasida) taxt uchun bo‘lib o‘tgan buyuk janglar tarixi bayon etiladi. Undagi voqealar miloddan avvalgi 2000 yillikning 2-yarmida bo‘lib o‘tgan, deb taxmin qilinadi. Eposning hind xalqi hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligining sabablaridan yana biri shundaki, hinduizmning muqaddas kitobi bo‘lmish "Bhagavadgita" ("Ilohiy qo‘shiqlar") ham aynan "Mahabharata" voqealari orqali shu kungacha yetib kelgan. Afsonalarga ko‘ra, xudo Vishnu hind xalqini razolat va zulmatdan ozod etish uchun cho‘pon Krishna qiyofasida yer yuziga tushadi va eposda adolat timsoli bo‘lmish pandavlarning tog‘asi sifatida ularning g‘alaba qozonishiga ko‘maklashadi. "Mahabharata" - bu qadimiy hind eposi, unda asosiy voqea oilaning ikki shoxi - Pandavalar va Kauravalar atrofida bo‘lib, Kurukshetra urushida Hastinapura taxti uchun kurashgan. Ushbu rivoyatda o‘lik yoki tirik odamlar haqidagi bir nechta kichik hikoyalar va falsafiy suhbatlar mavjud. Dostonidagi voqealar Hindiston yarim orolida va uning atrofidagi hududlarda o‘ynaydi. Bu birinchi marta Vyasaning talabasi tomonidan hikoyaning asosiy belgilaridan birining nabirasining ilon qurbonligi paytida aytilgan. Bhagavadgitani o‘z ichiga olgan "Mahabharata" qadimgi hind, haqiqatan ham dunyo adabiyotining eng muhim matnlaridan biridir.

"Mahabharata" dostoni bevosita qadimgi hind xalqining ijtimoiy va falsafiy masalalarini ochib beradi. "Mahabharata" dostonining asosiy syujetlari jangnomalarni tashkil etadi. Dostonining asosiy syujeti Kursining avlodlari Pandavllar hamda Kauravlar o‘rtasidagi toju taxt uchun kurashni tashkil etadi. Unda qadimiy qahramonlar ularning jasorati va saxovati, mardligi va zafari haqida yozilgan.³² Aynan shu qahramonlar hayoti asosida biz qadimgi Hindiston falsafiy tafakkurini anglashimiz mumkin. Dostonning asosiy syujetlaridan tashqari yana mayda mayda hikoyalar uni ma‘naviy boyitishga xizmat qilgan. Doston ichida qahramonlar o‘zaro so‘zlarini ma‘nosini chuqurroq anglatish uchun turli she‘rlardan ham parcha keltirishgan:

*Gunohimiz, kirdikorlarimiz
Izsiz bo‘lib yo‘qolib ketmas.
Quyosh, Olov, Yer hamda Osmon
Ko‘kdagi Oy va yelgan Shamol,
Inson qalbi ko‘rar va bilar
Haqiqatni juda ham ravshan.*

Mazkur to‘rtlik orqali u insonning hayotidagi Haqiqat masalasiga to‘xtalib, haqiqatni inson qalbi bilishga his qilishga qodir ekanligini takidlab o‘tadi. Hech qanday gunoh yoki yomon qilmishlar izsiz yo‘qolib ketmasligini

³¹ tiboldi Yo‘ldoshev "Mahabharata yoki Bharata avlodlari jangnomasi" tarjima Toshkent : 1966 B. 4

³² Sotiboldi Yo‘ldoshev "Mahabharata yoki Bharata avlodlari jangnomasi" tarjima Toshkent : 1966 B. 5

aytadi. Asar boshidan Haqiqat masalasi uning inson hayotidagi, jamiyati hayotidagi, uning kelajakdagi o'rnini ochib berishga harakat qilgan. Dostonda Pandavllar g'olib bo'lib taxtga o'tirganga qadar, boshidan ko'p qiyinchiliklarni o'tkazdi. Bu qiyinchiliklar orasida donishmandlar ibratli hikoyalaridan bahramand bo'lishgan. Bu hayotda qaysi ish noto'g'ri, qaysi ish to'g'ri ekanligini falsafiy mushohada qilib borishadi. Ibratli hikoyalar qahramonlarni yanada kuchli bo'lishga, xatolaridan to'g'ri xulosa chiqarishga undaydi. Dostonda oila masalasiga, ya'ni ota va farzand munosabatlari, farzandning ota oldidagi burchi, xotinning eri oldidagi burchi, oilaviy an'analar asosida yoritilgan. Asarda Pandavllar mardlik, jasorat, rostgo'ylik, adolat kabi axloqiy ramzlarga ega bo'lsa, Kauravlar qo'rqqoq, xasadg'oy, fitnachi, ochko'zlik kabi illatlarni ochib bergan.

Bhishma haqida hikoyada esa ota onaga hurmat, farzand tarbiyasi, otani rozi qilish masalalari ochib berilgan. Ganga daryosi ma'budasi Ganganining Shantanu ismli shoh bilan turmush qurib, yettita farzandini Ganga daryosiga otgani, faqat sakkizinchi farzandini adolat posboni sifatida shohga voris qilib bergani haqidagi hikoyadir.³³ Bhishma doston oxirigacha yurtda, shohning vorislari o'rtasida ham adolatni ta'minlashga harakat qilgan. Bhishma otasining roziligini olish uchun, uning oldidagi farzandlik burchini bajarish uchun taxtdan voz kechib, otasini uylantradi. Saroyda shahzodalarni tarbiya qilishda hizmat qiladi. Dostonning asosiy mavzulari inson uning hayotdagi o'rni, bu dunyodan yashashdan insonning asosiy maqsadi, oilaviy munosabatlar, axloqiy masalalar, haqiqat, adolat kabi masalalarni ko'rib chiqishga harakat qilgan. Pandu avlodlari bu Kuruning sog'lom o'g'lining avlodi ya'ni besh aka uka bo'lsa, Kauravlar avlodi Kuruning ko'r farzandining avlodidir. Pandular har tomonlama mukammal yetuk bo'lib voyaga yetadi. Ham axloqiy ham jismoniy jihatdan kuchli bo'lgan Pandular Kauravlarning nafratini kuchaytiradi. Kauravlar faqat taxtni qanday egallash, qanday makr hiyla bn Pandularni yengish haqida o'ylar edi. Asarning asosiy hikoyasi - Kuru urug'i tomonidan boshqarilayotgan qirollik Xastinapura taxtiga bo'lgan sulolaviy kurash. Bu kurashda qatnashadigan oilaning ikkita garov shoxlari - Kauravalar, oilaning katta filiali va Pandavalar, yoshroq filial. Kurash Katta Kuruksetra urushiga olib keladi va Pandavalar g'olib bo'lishadi. "Mahabxarata"ning o'zi Krishnaning o'limi va uning sulolasi tugashi va Pandava aka-ukalarining jannatga ko'tarilishi bilan tugaydi. Bu shuningdek, hind davri Kali (Kali Yuga), insoniyatning to'rtinchi va oxirgi asrining boshlanishini anglatadi, bu erda buyuk qadriyatlar va ezgu g'oyalar qulab tushdi va inson tezlik bilan to'g'ri harakat, axloq va hayotni butunlay yo'q qilishga intilmoqda. "Mahabharata"dagi eng olijanob va hurmat ko'rsatgan ba'zi shaxslar, o'zlarining dharma yoki burchlari ziddiyatlari

³³ Sotiboldi Yo'ldoshev "Mahabharata yoki Bharata avlodlari jangnomasi" tarjima Toshkent : 1966 B.12- 15

tufayli Kauravas tomonida jang qilishadi. Masalan, Bxishma Xastinapura shohidan kim bo'lishidan qat'iy nazar har doim himoya qilishga va'da bergan. Shunday qilib, uning Pandavalari faqat o'limi bilan g'alaba qozonishini bilib, yovuzlik tomon kurashishi kerak edi. Umuman olganda, "Mahabharata" dostoni qahramonlarning turli qahramonlarliklari orqali ezgulik, insonparvarlik, oila g'oyalari targ'ib qilinsa, salbiy qahramonlar orqali insonlardagi yomon illatlar ularni mag'lubiyatga uchratishini bilib olamiz. "Mahabharata" dostoni bugungi kunda ko'pgina mamlakatlarda o'rganiladi, bu manbalar Hindistonning falsafiy va ijtimoiy qarashlari qay tarzda shakllanganligini, hind xalqining bugungi kundagi falsafiy va ijtimoiy qarashlari tub zamirini o'rganishda asosiy manba hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, "Mahabharata" dostonining yaratilishi bevosita shu davrdagi hind tafakkuri namunasi sifatida, hind xalqining ijtimoiy, falsafasiy qarashlarini bayon etadi. "Mahabharata" dostonida asosiy qo'yilgan masala bu "Insonning hayotdan maqsadi, bu dunyoda qanday amallarni qilmaslik, va aksincha, qanday amallarni qilish kerakligi ochib berilgan. "Mahabharata"da tasvirlangan manzaralar, jang epizodlarining, asar personajlarining badiiy ifodasi asrlar mobaynida hind adiblarini ilhomlantirib keldi. Bugungi kunda Hindistonda har bir millatning o'z "Mahabharata"si mavjuddir. Mahabharata dostoni asosini jangnomalar tashkil etadi. Bu jangnomalar, undagi voqealar qadimgi hind xalqining falsafiy hamda ijtimoiy qarashlarini ham yoritib bergan. Bu dostonning yaratilishi voqealari asosi xalq tilidan olingan bo'lsada, undagi voqealar rivoji qadimgi hind xalqining qarashlarini shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Bu doston qadimgi hind xalqining falsafiy hamda ijtimoiy masalalarga munosabati bugungi kundagi ko'rinishini ham bashorat qilishda muhim manbadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sotiboldi Yo'ldoshev "Mahabharata yoki Bharata avlodlari jangnomasi" tarjima Toshkent : 1966
2. D. Po'latova, M.Qodirov, M. Ahmedova "Falsafa tarixi (Sharq falsafasi)" o'quv qo'llanma – T.: 2013;
3. www.ziyouz.com internet sayti.

OGAHIY IJODIDA MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARI

Ergasheva Feruza Abdurashid qizi -
Sharq falsafasi va madaniyati
yo'nalishi 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: **Ikromova I.**

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asrda Xivada qo'ng'irotlar sulolasi hukmronligi davrida faoliyat ko'rsatgan tarixchi va mirob Muhammad Rizo Ogahiyning ijodi va faoliyati haqida so'z yuritiladi. Xiva xonligi tarixiga va Muhammad Rahimxon Soniy hukmdorlik faoliyatiga Ogahiy ijodi va uning faoliyatining qay darajada ahamiyat kasb etganligi, mavjud manba va adabiyotlar ma'lumotlari asosida yetarlicha yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Muhammad Rizo Ogahiy, Muhammad Rahimxon Soniy (Feruz), Xiva xonligi va qo'ng'irotlar sulolasi, V.V.Bartold, "Qasidayi nasihat", Munis, "Ta'viz ul-oshiqin", M.Bayoniy.

Milliy istiqloq sharofati bilan bugungi kunda mamlakatimizning barcha sohalarida xususan ilm-fan, ta'lim, madaniyat sohasidagi islohotlar amalga oshirilib, haqqoniy tariximizni chuqur o'rganish va yosh avlodni vatanparvarlik, xalqparvarlik, yuksak milliy g'urur ruhida tarbiyalash maqsadida keng qamrovli demokratik jarayonlar orqali yangilanayotgan O'zbekiston o'z oldiga Uchinchi Renessans-ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy –madaniy yuksalishni maqsad qilib qo'ydi. O'zbekiston Resapublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning ta'biri bilan aytganda: "Agar biz O'zbekistonni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni ibrat qilib ko'rsatmog'imiz lozim"³⁴.

Bugungi kunga kelib, nafaqat Sharqda, balki G'arb mamlakatlarida ham Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ma'naviy merosini o'rganishga qiziqish ortib bormoqda. Negaki tabiat va jamiyatning o'zaro uyg'unligi, ma'naviy qadriyatlarining ustuvorligi, shaxskamolotiga oid masalalar aynan ularning asarlarida o'zining mufassal bayonini topgan³⁵.

Ushbu muqaddas zaminda tug'ilib, dunyo ilm-fani, moddiy va ma'naviy hayoti taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimiz dahosiga, nafaqat biz o'zbeklar, balki jahondagi barcha mamlakatlar ilm ahli iftihor va minnatdorlik hissi bilan qarab yashaydilar. Xususan, bular orasida Muhammad

³⁴ Sh.Mirziyoyevning o'qituvchi va murabbiylar bayramida so'zlagan nutqi.

³⁵ Dildor Po'latova. Markaziy Osiyolik mutafakkirlar ma'naviy merosida diniy va dunyoviy axloqiy qadriyatlar. T.2020.-B.27.

Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiyning ijodi va faoliyati alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tabiiyki shoir, tarjimon, tarixnavis hamda davlat va jamoat arbobi Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy haqida so'z borar ekan bevosita dastavval uning amakisi Munis yoxud tillodan voz kechgan mirob haqida so'z yuritmoq joizdir...

- Mana bu kitob zo'r ekan-u, ammo forscha bitilgani uchun tushunish qiyin bo'layapti. Agar tarjima qilib bersangiz behisob tillolar berar edim. Axir siz arabcha-yu forsiyni mukammal bilasiz, aqchangiz ko'payib mendek kishining ko'nglini ko'targan bo'lardingiz, - dedi xotin ustiga xotin oluvchi, yaqindagina yoshgina qizni nikohiga olgan Yusuf mehtar.

- Tarjima qilish-ku oson ish menga. Ammo beandisha, aysh-ishrat, buzuqchilikni targ'ib qiluvchi kitobni o'girib bera olmayman Tillolaringiz ham o'zingizga buyursin, uzr, mehtar janoblari, - deya taklifni rad qildi Shermuhammad!

Tillolardan voz kechgan, insof-u hayoli inson mirob Shermuhammad Avazbiy o'g'li edi...³⁶

Munisga Xiva xoni, qolaversa, o'zining tog'asi bo'lmish Eltuzarxon o'zigacha bo'lgan xonlar tarixini yozishni topshirdi. Eltuzarxonning Xorazmdagi boshqa tarixchilar turib mirobga tarixni yozishni topshirishiga sabab, u Munisning o'tmishni xolis va haqqoniy yoritishiga ishongan edi. Zero, Munis saroyda ishlar ekan, boshqa amaldorlardek mulozamat-u laganbardorlik qilavermas, qisqa va to'g'ri gapirib shuhrat topgandi. Ayniqsa, uning aysh-ishratni tag'ib qiluvchi kitobni tarjima qilishdan bosh tortgani haqidagi xabar xonlikda mashhur bo'lib ketdi...³⁷

Munis taxallusi bilan ijod qilgan Shermuhammad Avazbiy o'g'li mavzuyimizning bosh qahramoni bo'lgan Ogahiyga otaliq qilgan bo'lib, bevosita yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinadiki Ogahiy uch yoshidan boshlab voyaga yetguniga qadar shunday insonning tarbiyasida bo'ladi.

Ogahiy 1809-yil Xiva yaqinidagi Qiyot qisglog'ida mirob oilasida dunyoga keladi. Muhammad Rizo Ogahiyning tavallud topgan uyi Ichan qal'adan taxminan besh olti chaqirim uzoq masofadagi Qiyot qishlog'ida (hozirgi Qo'shko'pir yo'lining chap tarafida) bo'lgan vashu yerda boshlang'ich ta'limni olgan. U uch yosh vaqtida otasi vafot etib, shu davrdan boshlab Ogahiyning voyaga yetgunga qadar tarbiyasi amakisi Munisning qarovi ostida va homiyligida o'tadi. Ogahiyning aynan adabiyotimiz sahnasiga qadam qo'yishiga sababchi bo'lgan shaxs ham amakisi Munisdir. Uning ko'magi va yordamida madrasa ta'limini oladi. Madrasada arab, fors va turk tillarini, tarix ilmini puxta o'rganadi. 1829-yilda amakisi Munis vafot etgach, Xiva xoni

³⁶ Umid Bekmuhammedov. O'zbek tarixi, adabiyoti va madaniyati.//Ogahiyning ogohligi.T.2014. -B.26.

³⁷ Umid Bekmuhammedov. O'zbek tarixi, adabiyoti va madaniyati.//Ogahiyning ogohligi.T.2014. -B.27.

bo'mish Olloqulixon Munisning o'rniga Ogahiyning mirob etib tayinlaydi. Suv tanqis bo'lgan Xorazmda miroblik nihoyatda mas'uliyatli vazifa bo'lib, uni ishonchli va halol odam boshqarishi lozim edi. Shu davrdan Muhammad Rizo Ogahiyning davlat va jamoat arbobi sifatidagi faoliyati boshlanadi. U davlat ishlari bilan shug'ullanar ekan, badiiy ijodini hamda ilmiy faoliyatini to'xtatmadi.

Ogahiy Xiva xonligi tarixida uzoq yillar miroblik shajarasini davom ettirgan sulola vakili hisoblanadi. Chunonchi, uning bobosi Jiyanbiy ham 1694-yilda Xorazmning bosh mirobi etib tayinlangan. Oila xonlar sulolasiga qarindoshligi bois nufuzli sanalardi. Jiyanbiy vafot etgach, undan Avazbiy va Erniyozbek ismli ikkita o'g'il qoldi. Ular ham xonlikda miroblik ishlarini davom ettirishadi. Dastlab Erniyozbek (ya'ni Ogahiyning dadasi), so'ng esa Shermuhammad Avazbiy.

Ogahiy garchi shunday mas'uliyatli yuksak lavozimda bo'lsa ham bir zum ijoddan to'xtamadi. Nafaqat ijod bilan balki, xonlarga o'rnak bo'la oladigan nasihatlar ham yozishga ulgurgan davlat arbobidir. Ushbu tarixnavis olim bir paytning o'zida Xiva xonlari saroyida saroy tarixchisi vazifasini ham olib borgan. Umrini xonning xizmatida o'tkazgan va o'sha payti ham ijodga vaqt topgan Ogahiy 1845-yilda ayni qizg'in ijtimoiy-siyosiy mehnat bilan mashg'ul bir paytda otdan yiqilib, oyog'i "shakarlang" (shol) bo'lib qoladi va yosh yigit holiga to'shakka mixlanib qoladi. Shunday dard azobini tortayotgan Ogahiy umr yo'ldoshidan ham ajraladi. 1857-yilda miroblik vazifasidan is'tefo bergan. Lekin bu musibatlar oldida u chekinmadi. Kuchli iroda va hayotni sevishi Ogahiyning ijodga, izlanishga undadi. 1846-yilda "Zubdat ut-tavorix" ("Tarixlar qaymog'i"), 1847-1855-yillarda esa "Jome ul-voqeoti sultoniy" ("Sultonlik voqealarining yig'indisi"), XIX asrlarning 60-yillarida "Gulshani davlat" va "Shohidi iqbol" kabi tarixiy asarlarni yozdi. Tarjimalar bilan ham shug'ullanib Kaykovusning "Qobusnoma", Nizomiy Ganjaviyning "Haft paykar", Sa'diy Jomiyning "Yusuf va Zulayho" va boshqa asarlarni o'zbekchalashtirdi.

Ta'kidlash joizki, mazkur asarlarda xalq hayotidan ko'ra ko'proq ijtimoiy-siyosiy voqealar, xonning qayerga borgani-yu nima deganlari yoritilgan. Buni o'sha zamon davr talabidan va taomilidan kelib chiqib qabul qilmoq lozim. Zero mudom xon yonida yurgan mirobning asarida shu holat uchrashi odatiy hol. Ogahiy umri davomida 8 nafar xon Xivaga hukmronlik qilgan davrlarda yashadi. Tabiiyki 8 xil boshqaruv, 8 xil muhitda yashash, ijod qilish Muhammad Rizo uchun oson emasdi...³⁸

Ogahiy xizmat ko'rsatgan eng oxirgi xon Muhammad Rahimxon Soniydir. Ushbu xonning taxtga o'tirishi toj-taxt uchun kurashlar, xunrezliklar

³⁸ Umid Bekmuhammedov. O'zbek tarixi, adabiyoti va madaniyati.//Ogahiyning ogohligi.T.2014. -B.27.

bilan amalga oshmadi. Bu holni M.Bayoniy o'zining "Shajarayi Xorazmshohiy" asarida ta'kidlashicha, yosh saltanat sohini qutlash, bu voqeaga qasida bitish Muhammad Rizo Ogahiy zimmasiga tushadi. Ogahiyning "Qasidayi nasihat" asari xuddi shu voqeaga ta'rif va tavsiflar berib o'tadi. Xususan, mazkur asar Ogahiyning siyosat va davlatga munosabati, hukmdor fazilatlarini, burch va vazifalari borasidagi mulohazalari bayon etilgan pandnomadir. Ushbu asar quyidagi parcha orqali boshlanadi:

*Bu so'zlarniki men bayon ayladim,
Necha bayt birla ayon ayladim.
Bularga qayu shahki qilsa amal,
Oning mulkiga aslo yetmas xalal.
Shaho, olam ichra bugun shohsen,
Burundin bu so'zlarga ogohsen.*

Odatda, qasidalarda biror bir voqea yoki shaxs ulug'lanadi, har tomonlama vasf qilinib, benuqson, ideal qiyofada tasvirlanadi. Ogahiyning qasidasi esa odatdagi maqtovlardan iborat bo'lib qolmadi. U mazkur asarni yozishda o'z oldiga aniq maqsad qo'ygan edi. Shunga ko'ra adib qasida vositasida ko'pni ko'rgan donishmand, umr mazmunini anglagan faylasuf sifatida yosh xonga nasihatlar qiladi, davlatni boshqarish san'atidan saboq beradi. Shoirning fikricha, shoh shariat ahkomlariga qattiq amal qilmog'i darkor. Aysh ishratdan, fitna va g'iybatdan, yalqovlikdan, zulm-razolatdan, chaqimchilikdan, molparastlikdan uzoq bo'lishi kerak. Xiva xoni Feruz Ogahiyning davlatni boshqarish to'g'risidagi maslahatlariga quloq tutgan, uning hikmatli baytlarini toshlarga yozdirib arzxonalarga qo'ydirgan, ko'p ezgu ishlarni amalga oshirgan. "Qasidayi nasihat" adabiyotimiz tarixidagi siyosiy-didaktik lirikaning yorqin namunasi bo'lib qoldi.

Xiva xoni Feruzga bag'ishlangan yana bir asarlardan biri "Taviz ul-oshiqin" asaridir. Ushbu devon ma'rifatparvar shoh va shoir Feruz- Muhammad Rahimxon II ning taklifi va talabi bilan 1872-yilda tuzilgan. Bugungi kunda ushbu asarning qo'lyozma nusxalari Toshkent, Dushanbe va Sank-Peterburgda saqlanadi.

Shunday qilib, Ogahiyning yuksak insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan g'oyalari xon va shoir Feruzning siyosiy-ma'rifiy tarbiyasiga ta'sir qildi. Bilamizki 1873-yilda Muhammad Rahimxon ruslar bilan Gandimiyon shartnomasini imzolagandan so'ng Rossiya podsholigiga qaram bo'lib qolgan. Feruz ana shunday murakkab sharoitda yarim asrga yaqin Xivani boshqaradi (1864-1910-yillar). Feruz bunday og'ir ahvolda saroyga adabiyot va san'at arboblarni to'playdi. Xususan, Ogahiy, Komil, Tabibiy va boshqalar ta'sirida o'zi ham Feruz (baxtli, g'olib) taxallusi bilan she'rlar yozgan. Feruz kitobat ishlariga kata ahamiyat bergan: devon tuzish, tarix yozish, tarjima ishlarini rivojlantirgan. Feruz darvida Ogahiy va Bayoniylar tomonidan Xorazmning

haqiqiy va asl tarixi yoritilgan. Xususan, Ogahiy amakisi boshlab qoʻygan “Firdavs ul-iqbol” asarini 1839-yilda tugallab Xorazmning 1825-yilgacha boʻlgan tarixini yoritib bergan. 1844-yilda esa xonlik tarixini shu davrgacha boʻlgan voqealarni oʻz ichiga oluvchi “Riyoz ud-davla“ (Saodat bogʻlari) kitobini tamomladi.

Garchi, Ogahiy umrining asosiy qismini shohga, uning saltanatiga xizmat qilishga oʻtkazsada, umrining oxirigacha moddiy muhtoj, gʻamgin, kasalmand ahvolda kun kechirib oʻtkazganva 1874-yilda vafot etadi.

Uning shohga boʻlgan xizmatlarini Paxlavon Mahmudning bir ruboiysi nazdida taʼrif va tavsif etsak ziyoli kishi, orif inson ruhan mustaqil boʻlishi naqadar zarurligini alohida taʼkidlaydi. Bunday odamning hukmdorlar taʼzimida boʻlishini qoralaydi:

*Darvesh ila shoh bo'lsa agar ulfat,
Bu- Shoh baxti erur, darvesh uchun kulfat bu.*

-deb aql ahlining, maʼrifat ahlining, bosh vazifasi hamma bilan baravar munosabatda boʻlib, odamlarni oʻzaro tenglik asosida bir-birlari bilan baravar munosabatda boʻlishga, bu dunyoning manfaatlariga mute boʻlib, bir-birlarining dillariga ozor yetkazmaslikka daʼvat etadi.

Ogahiy umrining oxirlarida yozgan quyidagi baytida ibodatning tasviri, qudrat manбайдan eʼtiqod ilmini baxsh etishni tilab iltijo etadi:

*Ey keldi fununu ilm taslim sango,
Qilmoq mango lozim o'ldi ta'zim sango.
Garchi yo'q edi quvvat oyog'imda vale,
Keldim bosh ila olg'ali ta'lim sango.*

Bu misralardan kelib chiqadigan xulosa- insonning eʼtiqodi mustahkam va shu mustahkam eʼtiqod bilan bogʻliq ravishda ruh quvvati ustuvor boʻlsa, bunday odam bemisli salohiyat sohibi boʻladiki, bu holda bandaning madadiga muhtoj boʻlmaydi.

Ogahiy avvalo Allohu taola oldidagi tazarrusi oʻzining ruhiy holatini quyidagi misralar orqali tasvirlaydi:

*Necha umrlar qilding ahli shohga xizmat,
Tark etib oni emdi faqr ahliga xizmat qil.*

Ogahiyning ijodiga qisqacha tadqiqotimizdan oydinlashadiki shoirning badiiy ijoddan maqsadi odamlarga ularning oʻz-oʻzlarini anglash baxtini uqtirishdan, bu baxtga erishuv tufayli insoniy kamolotga va bu kamolotning mantiqiy natijasi oʻlaroq Haq diydoriga yetishmak yoʻsinlarini targʻib qilishdan iborat.

Ogahiy yana bir misrasi orqali bevosita bugungi kunga xuddi daʼvat etganday boʻldi:

*G'am tunida qolib keturmiz, oh, biz safarsifat,
Qorong'udan forig' etib, yorut, ki subhgohimiz.*

Har bir damning hayotida ham surur va g'am, umid va umidsizlik tuyg'ulari aksar yonma-yon keladi va har bir dam o'z ishonch-u e'tiqodiga munosib ravishda salbiy holatlardan xalos bo'ladi. Ma'rifattalab har bir inson uchun eng qo'rqinchli hol bu- jaholat zulmatiga tutqun bo'lib qolishdir. Shuning uchun ham ushbu baytda lirik qahramon Allohdan yorug'lik iltijo qiladi. Bu so'zlarni muhtaram birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'biri bilan aytganda:

“Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch-MA'RIFATdir”.

Ogahiy 65 yillik umri davomida o'zidan bugungi avlodga judayam ajoyib va alohida qiymatga ega bo'lgan meros qoldirdi. Uning mumtoz adabiyotimizga o'z ijodi orqali kiritgan yangiliklari quyidagilardan iboratdir:

Birinchiidan, shoir o'zi yashab ijod etgan murakkab davrni mahorat bilan badiiy umumlashtirganda, zamon va uning ahliga munosabat bildirganda, baqo berganda, insonparvarlik, xalqparvarlik nuqtayi nazaridan yondashgan;

Ikkinchiidan, Ogahiy janr imkoniyatlariga ijodiy yondashib, ularni takomillashtirgan: o'zigacha bo'lgan 7-8, 10-12 baytli g'azal yozish tartibini 23 baytgacha yetkazgan;

Uchinchiidan, mustazod janrining qo'sh orttirma misrali yangi shaklini kashf etgan;

To'rtinchiidan, Ogahiyning barcha g'azallari “Shashmaqomning” barcha kuylariga tushadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Ogahiy o'zidan keyingi butun bir avlodga tarbiya vositasi bo'la oladigan meros qoldirdi. Xususan,

Birinchiidan, Ogahiyning tarixiy asarlari daliliy manbalarga boyligi va ishonchli bo'lishi bilan ajralib turadi. Xususan Ogahiyning tarixiy asarlariga akademik V.V.Bartold quyidagicha yuqori baho bergan: “Munis va Ogahiy tomonidan yaratilgan adabiy va tarixiy asarlar...voqealarni bayon etish va ularda keltirilgan daliliy manbalarning ko'pligi jihatidan bizgacha yetib kelgan Qo'qon vaBuxoro xonliklari tarixi bo'yicha bo'lgan hamma asarlarni o'zidan ancha orqada qoldiradi”.

Ikkinchiidan, uning tarjima asarlari Xorazm ijodkorlarini arab, fors-tojik adabiyotining noyob durdonalari bilan tanishtiradi.

Uchinchiidan, xalqning ma'naviy saviyasini bir pog'ona balandga ko'tardi, o'zbek adabiyoti xazinasini yangi asarlar bilan boyitdi, xalqlar o'rtasidagi do'stlik va madaniy aloqalarni mustahkamladi.

Bir so'z bilan aytganda, Ogahiy o'z zamonasida e'tirof etilganidek, u ogohlarning ogohi, haqgo'ylarning sarboni, oriflarning shoiridir.

МУНДАРИЖА

Рихсиева Г.Ш. Ўзбек шарқшунослиги – янги марралар сари.....3

І БЎЛИМ. ШАРҚ МАМЛАКАТЛАРИ ТАРИХИ ВА СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАРИ

Абдурахманов Д.М. Роль СМИ и социальные сети в попытке государственного переворота в 2016 года.....	8
Юсупов Х.М. Сирийские курды на пути автономии рожава.....	12
Холбоев О. Хафез аль-Асад – дамасский лев.....	16
Ачилов А.Б. Анализ трансформации власти в Афганистане.....	21
Файзуллаев А.Х. Ўзбекистон ва Афғонистон ҳамкорлик алоқари жаҳон матбуоти нигоҳида.....	28
Абдуллаев Ж. Покистоннинг Афғонистондаги ички сиёсий вазиятга таъсири.....	33
Хайруллаева И.Ф. Ҳинд жамиятидаги хотин-қизлар роли қадимги ҳинд эпос ва динларида.....	37
Абдуваҳобова Д. Этник низоларни юзага келтирувчи омиллар (Покистон гидрогенлиги мисолида).....	42
Самиева М. Ҳинд киноматографиясида Ҳиндистон ва Покистоннинг ўзаро муносабатлари.....	47
Қўчқоров Т.Б. Эрон Ислом Республикасининг ташқи сиёсатида дин омили.....	51
Ўлмасов С.С. Эрон Ислом Республикасининг Марказий Осиёдаги роли ва аҳамияти.....	56
Лухмонов Ш.С. Ислом Ҳамкорлик Ташкилотининг инсон ҳуқуқлари бўйича фаолиятининг изчиллашуви (Қоҳира декларацияси мисолида).....	62
Донабоева Х.Ғ. Ўзбекистон билан Ислом Ҳамкорлик Ташкилоти муносабатларининг истикболлари.....	66
Ўлмасов С.С. Эрон ташқи сиёсатида Россия Федерациясининг ўрни ва роли.....	71
Mukhitdinov A. Trends and prospects for the development of economic cooperation between the countries of Central Asia and Saudi Arabia.....	78

Отажонова Ў.М. “Араб баҳори” инқилобининг Араб мамлакатлари ва Миср Араб Республикасида тутган роли ва унинг оқибатлари.....81

II БЎЛИМ. МАРКАЗИЙ ОСИЁ ХАЛҚЛАРИ ТАРИХИ ВА ЭТНОЛОГИЯСИ

Рўзиқулов Ш.М. Этнографик анъаналарнинг туризм соҳасини ривожланишида тутган ўрни.....84

Усмонов А. Рус дипломат вакиллари асарларида Қўқон хонлиги ички сиёсий тарихининг ёритилиши.....89

Абдухалилова А.Э. Хива хонлиги маҳаллий тарихнавислари асарларида солиқ масалаларининг ёритилиши.....94

Саъдуллаев Р. XX аср иккинчи ярмида Қашқадарё воҳасида ўтказилган археологик тадқиқотлар тарихшунослиги.....99

Турдихўжаева М.М. Археологик тадқиқотларда ҳамда ёзма манбаларда Фарғона водийсининг кўҳна шаҳри Кува.....104

Жўраев Б.А. Муҳаммад Шайбонийхон ва Шоҳ Исмоил I Сафавий ўртасидаги алоқалар тарихи.....109

Шайманов У.К. Хива хонлигининг рақобат майдонига айланиши.....115

Шосаидов А.С. Идентиклик ва миллий характер.....119

Исақов Р. Идентиклик ва унинг этнология фанидаги аҳамияти.....121

Бурхонов Ф.Н. “Байт ул-ҳикма” йирик илмий марказ сифатидаги фаолиятига назар.....124

Абдусаматова Н.С. Бухоро бозорлари сўнги ўрта асрларда.....130

III БЎЛИМ. МАНБАШУНОСЛИК ВА ТАСАВВУФ ГЕРМЕНЕВТИКАСИ

Амитов А.Т. Сведения о Западно тюркском каганате на основе раннесредневековых китайских источников.....136

Хўжаназаров О.Х. Абу Райҳон Берунийнинг «Минерология» асари манбашунослиги.....140

Жумаев Ғ.И. Хондамирнинг тарихий-илмий мероси.....145

Каримов Ш.Ш. Мирхонднинг ҳаёти ва унинг тарихчи сифатида илм-фанда тутган ўрни.....149

Мирзаева М.М. Караскан саййидлари оилавий ҳужжатларининг тарихий-манбашунослик таҳлили.....153

Сафаров Б.С. Гиёсиддин Али Қушчининг илмий мероси.....	159
Хакимов О.Ж. Муҳаммад Ҳакимхоннинг “Мунтахаб ат-Таворих” асари тарихшунослиги йўналиш ва ёндашувлар асари ҳақида.....	165

IV БЎЛИМ. ШАРҚ ФАЛСАФАСИ ВА МАДАНИЯТИ

Валиев С.Ю. Дин ва фалсафада Худо ва борлиқ тушунчаси.....	176
Абдувахобова Г.А. Инсоният ҳақидаги тасаввуримиздаги билимлар (Юал Ноах Ҳарарининг “Сапиенс: инсониятнинг қисқача тарихи” асари асосида).....	188
Шавкатов Ш.Ш. Огаҳий тасаввуфий шоирми?.....	196
Дилмуродов Э.И. Мирзо Бедилнинг инсон ва унинг моҳияти ҳақидаги қарашлари.....	201
Умаров Б. Неоведантизм фалсафий оқидамида онтологик масалаларнинг кўйилиши.....	205
Абдусалимов А. Ҳиндуизм фалсафасининг шаклланишининг ижтимоий-маданий шароитлари ва ғоявий илдизлари.....	211
Ибодова Ф. Ауробиндо Гҳошнинг фалсафий антропологиясида инсон муаммоси.....	217
Тожиев Н. С.Радхакришнан фалсафа ва диннинг жамиятдаги роли ва ўрни тўғрисида.....	221
Абдуфаттоева Ш.Ш. Ислом динининг ҳинд диний-фалсафий тафаккурига таъсири.....	227
Нарзиев А. Шарқ ва Ғарб халқлари фалсафасида рақамларнинг хусусиятлари.....	232
Носирова Р.М. Тасаввуф таълимотида илоҳий ишқ.....	237
Муродиллоев Н.Б. Жанубий Корея давлат байроғидаги рамзларнинг фалсафий таҳлили.....	242
Шерматова З.И. Абдулла Қодирий асарларида қадрият тушунчаси.....	246
Низомова О.Ш. Маҳабхарата достонининг яратилиши ва ундаги ижтимоий-фалсафасий масалалар.....	250
Эргашева Ф. Огаҳий ижодида маърифатпарварлик ғоялари.....	254

Шарқ мамлакатларининг ривожланиш хусусиятлари: тарихи, антропологияси ва фалсафаси. Иқтидорли талабаларнинг илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Т.: ТДШУ, 2021. – 264 б.

Масъул муҳаррирлар:

фалсафа фанлари номзоди, профессор Пўлатова Дилдора Акмаловна
тарих фанлари номзоди Абдуллаев Улуғбек Артыкбаевич
тарих фанлари номзоди Алимова Раҳима Рисқуловна

Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар:

Ёдгоров Шербек Мейлижонович
Одилов Бобур Ахмаджон ўғли
Икрамова Ирода Рихсиваевна

Тақризчилар:

тарих фанлари доктори, профессор Исҳоқов Мирсодиқ Мирсултонович
тарих фанлари доктори, профессор Шодманова Санобар Базарбаевна
тарих фанлари номзоди, доцент Азимов Комил Сарварович

Тўпلامдан жой олган мақола ва тезисларда келтирилган маълумотларга муаллифлар масъулдирлар.

Тўпلام Тошкент давлат шарқшунослик университети Шарқ цивилизацияси ва Тарих факультети Кенгашининг 2021 йил 27 апрель 9-сонли қарорига биноан нашрга тавсия этилган.

